

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

O`zbek tili va adabiyoti kafedrası

Dilrabo QUVVATOVA, Nafosat O`ROQOVA

YANGI O`ZBEK ADABIYOTI

Oliy o`quv yurtlarining filologiya fakultetlari talabalari uchun

O`QUV QO`LLANMA

**“Durdona” nashriyoti
Buxoro – 2022**

UO'K 821.512.133.09(075.8)

83.3(50')

Q 71

Quvvatova, D., O`roqova, N.

Yangi o`zbek adabiyoti [Matn] : o`quv qo`llanma / D. Quvvatova, N. O`roqova
.-Buxoro: "Sadridin Salim Buxoriy" Durдона,2022.-256 b.

BBK 83.3(50')

Ushbu o`quv qo`llanma fan dasturi asosida hozirga qadar yaratilgan zamonaviy ozbek adabiyoti bo`yicha darsliklarga tayangan holda tuzilgan. Unda rejaga muvofiq shoir va adiblarning hayot yo`li, yaratgan asarlari xususida muayyan izshillikda fikr yuritilgan. Shu bilan birga, kitobda bugungi adabiyotshunosligimizning so`nggi yutuqlari aks etgan yangicha tahlillar keltirilgan.

O`quv qo`llanma oliy o`quv yurtlarining filologiya fakultetlari talabalari hamda o`qituvchilarga mo`ljallangan.

Taqrizchilar:

Sh.Hasanov, filologiya fanlari doktori, professor

G`.Murodov, filologiya fanlari doktori, dotsent

**O`zbekiston Respublikasi Oliy va o`rta maxsus ta`lim vazirligining
2021-yil 18-avgustdagi 356-sonli buyrug`i bilan nashrga tavsiya
etilgan. Ro`yxatga olish raqami 356/7-163.**

ISBN 978-9943-7931-4-9

SO`Z BOSHI

«Yangi o`zbek adabiyoti» fani filologiya fakultetlarining o`quv dasturlariga kiritilgan. Ushbu o`quv qo`llanmada «Yangi o`zbek adabiyoti» fanining o`ziga xos xususiyatlari, taraqqiyot tamoyillari yoritilgan. Bunda N. Karimov, S. Mamajonov va boshqa olimlar tomonidan filologiya fakultetlari talabalari uchun yaratilgan «XX asr o`zbek adabiyoti tarixi», S.Sodiqning “Yangi o`zbek adabiyoti tarixi” darsliklaridagi yangicha talqinlar hamda asosan istiqlol davrida yaratilgan ilmiy, badiiy manbalarga tayanib ish ko`rilgan. Shu asosda yangi o`zbek adabiyoti namoyandalari ijodining o`rganilishi, hayot yo`li xususida qimmatli ma`lumotlar o`ziga xos izchillikda yoritilgan, ular yaratgan eng sara asarlar haqida fikr yuritilgan.

Badiiy adabiyot hamma zamonlarda inson ruhiyatini poklashga, ma`naviy olamini boyitishga xizmat qilib kelgan. Bu fanni o`qitishdan maqsad ham aynan shunga qaratilgan. Shuningdek, mutaxassisliklar spetsifikasidan kelib chiqib, talabalarning ilmiy, pedagogik bilimlarini oshirish maqsadida badiiy asarlar tahlil etilgan. Ularga yaqindan ko`mak berish uchun har bir matn so`ngida ilmiy va badiiy adabiyotlar ro`yxati keltirilgan.

Ma`lumki, oliy ta`limning asosiy mazmuni o`qituvchilar tayyorlashga qaratilgan. O`qituvchining nutqi esa ravon, fikrlari tiniq bo`lishi lozim. Shu ma`noda filologiya fakultetlarida o`tiladigan fanlar talabalar nutqidagi noqisliklarni bartaraf etishga, nutqiy malakalarini shakllantirishga, tafakkurini o`stirishga xizmat qiladi. Mazkur o`quv qo`llanmani tayyorlashda ham ana shu tamoyillar asos qilib olindi.

O`quv qo`llanma yuzasidan mutaxassislarning taklif va mulohazalarini kutib qolamiz.

Tuzuvchilardan

MAVZU: KIRISH. YANGI O`ZBEK ADABIYOTI FANI, FANNING MAQSAD VA VAZIFALARI.

Reja:

- 1. Yangi o`zbek adabiyoti fan sifatida.*
- 2. Yangi o`zbek adabiyotining o`ziga xos xususiyatlari.*
- 3. Yangi o`zbek adabiyotining maqsad va vazifalari.*
- 4. Yangi o`zbek adabiyotini davrlashtirish.*

Tayanch tushunchalar: yangi o`zbek adabiyoti, milliy uyg`onish, jadidchilik, jadid adabiyoti, mafkuraviy oqimlar, istiqlol adabiyoti, vaqtli matbuot, yangi o`zbek adabiyoti tamoyillari, davrlashtirish.

O`zbek adabiyoti ming yillar davomida, asosan, Sharq xalqlari adabiyoti an`anasi doirasida, arab, fors, islom dini falsafasi, tasavvuf ta`limoti ta`sirida rivojlandi. XIX asr oxiri XX asr boshlarida u yangi bir ma`naviy olamga, Ovrupo madaniyati, adabiyoti tajribalariga yuz bura boshladi. Bu hodisa sho`ro hokimiyati yillarida uzoq vaqt «Rusiyaga qo`shilishning progressiv ahamiyati» tarzida baholanib kelindi. To`g`ri, «falokatning sharofati» deganlaridek, o`tgan asrning ikkinchi yarmida xalqimiz boshiga tushgan kulfat, tariximizning «eng kir, qora kunlari» - yurtimizning rus istilochilari tomonidan zabt etilishi oqibatida bu yerga Ovrupo tartib-qoidalari, fan va madaniyati, adabiyoti yangiliklari ham kirib kela boshladi. Biroq bu hodisa faqat Rossiya tomonidan bosib olingan Turkiston xalqlari hayotida emas, deyarli barcha sharq mamlakatlarida, g`arb mustamlakachilari qo`li yetmagan yurtlarda ham sodir bo`ldi. Jahonning biror hududida ma`naviy va madaniy hayotda ilm-fanda, adabiy tafakkurda paydo bo`lgan yangiliklarning o`zga hududlarga tarqalishi qonuniy, tabiiy holdir.

O`zbek adabiyoti ming yillar davomida Sharq xalqlari adabiyoti an`analari doirasida, arab, fors, hind adabiyotlari bilan hamkorlikda, Islom falsafasi, tasavvuf ta`limoti ta`sirida rivojlandi. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida yangi ma`naviy olamga, Ovro`po madaniyati, adabiyoti tajribalariga yuz bura boshladi. Bu hodisa sho`ro hokimiyati yillarida uzoq vaqt «Rusiyaga qo`shilishning progressiv ahamiyati»

tarzida baholab kelindi. To`g`ri, «falokatning sharofati» deganlariday, XIX asrning ikkinchi yarmida xalqimiz boshiga tushgan, «tariximizning eng kir va qora kunlari bo`lmish xon zamonlari – yurtimizning rus istilochilari tomonidan bosib olinishi oqibatida bu yerga Ovro`po tartib-qoidalari, fani, madaniyati, adabiyoti yangiliklari kirib kela boshladi. XX asr o`zbek adabiyoti yangi o`zbek adabiyoti, deb ataladi. Chunki, bu davrga kelib odamlarning dunyoni tushunish tarzi, badiiy didi, olamni estetik idrok etish yo`sini o`zgardi. Adabiyotning obrazlar tizimi ham, ifoda tarzi ham, qahramonlar galereyasi ham o`zgardi. Oldinlari badiiy adabiyot inson ruhiyati tebranishlarinigina aks ettirgan bo`lsa, endilikda xalq turmushining ichiga chuqurroq kirib borib, hayotdagi ijtimoiy, siyosiy, ta`naviy muammolarni hal etishga urina boshladi. Avvallari badiiy asarlarga, asosan, hukmdorlar, favqulodda sifatlarga ega kishilar qahramon qilib olingan bo`lsalar, XX asrga kelib, adabiy personajlar, ko`proq, oddiy kishilar orasidan qidiriladigan bo`ldi. Ayni vaqtda, yangi o`zbek adabiyoti ko`p asrlik tarixga ega bo`lgan mumtoz adabiyotimizning qonuniy merosxo`ridir. Shu bilan birga, uning yangi zamondagi davomi bo`lib, o`ziga xos xususiyatlari, shakllanish va rivojlanish yo`llari, taraqqiyot bosqichlari bilan avvalgi adabiyotimizdanfarq qilib, ajralib turadi.

XX asr o`zbek adabiyoti yangi o`zbek adabiyoti, deb ataladi. Chunki, bu davrga kelib odamlarning dunyoni tushunish tarzi, badiiy didi, olamni estetik idrok etish yo`sini o`zgardi. Adabiyotning obrazlar tizimi ham, ifoda tarzi ham, qahramonlar galereyasi ham o`zgardi. Oldinlari badiiy adabiyot inson ruhiyati tebranishlarinigina aks ettirgan bo`lsa, endilikda xalq turmushining ichiga chuqurroq kirib borib, hayotdagi ijtimoiy, siyosiy, ta`naviy muammolarni hal etishga urina boshladi. Avvallari badiiy asarlarga, asosan, hukmdorlar, favqulodda sifatlarga ega kishilar qahramon qilib olingan bo`lsalar, XX asrga kelib, adabiy personajlar, ko`proq, oddiy kishilar orasidan qidiriladigan bo`ldi. Ayni vaqtda, yangi o`zbek adabiyoti ko`p asrlik tarixga ega bo`lgan mumtoz adabiyotimizning qonuniy merosxo`ridir. Shu bilan birga, uning yangi zamondagi davomi bo`lib, o`ziga xos xususiyatlari, shakllanish va rivojlanish yo`llari, taraqqiyot bosqichlari bilan avvalgi adabiyotimizdanfarq qilib, ajralib turadi.

Mustaqillikning ilk yillarida adabiyotimiz tarixining mazkur davri oliy ta`lim uchun o`quv rejalarida «Hozirgi o`zbek adabiyoti»,

«XX asr o`zbek adabiyoti» nomlari bilan yuritilgan, ilmiy muomalada esa bularga qo`shimcha o`laroq «Zamonaviy o`zbek adabiyoti», «Hozirgi zamon o`zbek adabiyoti» kabi atamalar ham qo`llangan edi. Shu bois ham Q.Yo`ldoshev «Yangi o`zbek adabiyoti» atamasi bizda ba`zan «XX asr adabiyoti» istilohining sinonimi, ba`zida «jadid adabiyoti» atamasining muqobili tarzida qo`llaniladi» (171) derkan, terminologiyada mavjud beqarorlikni ma`qullamaydi va bu o`rinda to`la haq. Albatta, bunday beqarorlikning yuzaga kelish sababi tushunarli: avvaliga «O`zbek sovet adabiyoti» zudlik bilan «XX asr o`zbek adabiyoti»ga o`zgartirildi, lekin asr oyoqlab qolgani uchun tezdayoq «Hozirgi o`zbek adabiyoti» deyish ma`qul ko`rildi; tabiiy, atamadagi «hozirgi» so`zining ma`nosi atalayotgan predmet mohiyatga u qadar mos emasdek tuyuladi, «zamonaviy» yoki «hozirgi zamon» sifatlari ham xuddi shunday... nihoyat, «yangi o`zbek adabiyoti» deyish har jihatdan ma`qul ko`rildi.

Negaki, bu atama predmetga, ya`ni XX asr tongidan boshlab g`oyaviy-mazmuniy va poetik xususiyatlariga ko`ra YaNGILANGAN adabiyotimizga har jihatdan mosdir. Yangilanish qanday kechgani, uning omillariyu belgilari haqida ko`p yozildi, shu va maqsadimizga kirmagani bois bunga to`xtalmaymiz. Faqat o`tgan asr boshlaridan adabiyotimiz o`z taraqqiyotining yangi bosqichiga – yangi adabiy davrga kirgani va hozir ham shuning doirasida ekanini ta`kidlaymiz. Modomiki shunday ekan, o`quv rejasida uni «XX-XXI asr o`zbek adabiyoti» deb yuritish to`g`ri emas. Zero, adabiyot o`qitish ilmiy asosga qurilishi, adabiyotshunoslik erishgan yutuqlarga tayanishi lozimdir. N.Karimov «...ma`rifatparvarlik adabiyoti bilan Behbudiylar boshlab bergan jadid adabiyoti mutlaqo boshqa-boshqa hodisalardir» deb hisoblaydi. Olim to`la haq, faqat, bizningcha, bu o`rinda masalani o`zgacharoq tarzda qo`yish to`g`riroq bo`ladi. Ya`ni «ma`rifatchilik adabiyoti» yuqorida qayd etgilgan «o`zbek mumtoz adabiyoti» davriga kiradimi yo «yangi o`zbek adabiyoti» davrigami? Agar uni yangi o`zbek adabiyotiga kiritsak, u holda o`zbek mumtoz adabiyoti XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib o`z davrini yashab bo`lgan chiqadi. Holbuki, o`sha Komil, Avaz, Muqimiy va Furqatlar ijodida mumtoz adabiyotga xos g`oyaviy va poetik xususiyatlar ustivor ekani ravshan. Ya`ni, ularning qator asarlarida ma`rifatparvarlik g`oyalari aks etsa-da, birinchidan, ushbu g`oyalar mumtoz adabiyot poetik tizimi (janr, poetik obrazlar, til va uslub)

doirasida ifodalangan; ikkinchidan, ular qoldirgan ijodiy merosning salmoqli qismini g'oyaviy-badiiy jihatlariga ko'ra mumtoz adabiyot an'anasidagi asarlar tashkil etadi; uchinchidan, ma'rifatparvarlik g'oyalari ifoda etilganining o'zi davr adabiyotiga «yangi» sifatini berish uchun asos bo'lolmaydi, bunday g'oyalar Yusuf Xos Xojib, Ahmad Yugnakiylardan boshlab kuzatiladi, ya'ni mumtoz adabiyotimizda ushbu g'oyalar azaldan ifodalanib kelgan. Zero, ma'rifat g'oyasi adabiyotning fitratidagi ibtidolardan biri, javhardir. Yangi o'zbek adabiyoti xalq va jamiyat hayotining o'ziga xos badiiy tarixi – yilnomasidir. Uning asosiy tasvir obyekti borliq hayot – yangi voqelikdir. Binobarin, bu adabiyotning mavzu va mundarijasi yangidir. U bevosita yangi hayotni aks ettiradi. Bu adabiyot hayotdagi barcha muhim voqealarga faol aralashadi va ular haqida o'z fikrini obrazli qilib aytadi. Ko'p qirrali hayotning hech bir muhim voqea-hodisasi yo'qki, adabiyotimizda o'z ifodasini topmagan bo'lsin. Yangi o'zbek adabiyotining mavzular doirasi va g'oyaviy mazmuni yangi bo'lgani singari uning asosiy qahramonlari ham yangidir. Bu adabiyotning asosiy qahramonlari, ko'p hollarda, ishchilar, dehqonlar, ziyolilardir. Bu qahramonlar orqali adabiyotda xalqimizning oliyjanob fazilatlari, uning yaratuvchilik, bunyodkorlik faoliyati, jamiyatni rivojlantirish yo'lida olib borgan kurashlari ochib beriladi. Bu to'g'ri umumiylashtirilgan ta'lim maktablarining 11-sinfi uchun chop etilgan «Adabiyot» darsligida ham to'g'ri qayd etilgan: «O'zbek adabiyoti minglab yillar mobaynida amal qilib kelgan yo'nalish o'zgargan edi. U ijod osmonidan tirikchilik yeriga tushdi, saroydan kulbalarga kirib keldi. Endi adabiyot azbaroyi san'atning o'zi uchun, so'zning go'zal jilvalanishini ko'rish va ko'rsatish uchun mavjud bo'la olmasdi. Bu adabiyot **yangi** davrning xususiyatlarini o'zida aks ettirgan **yangi adabiyot** edi.

Yangi o'zbek adabiyoti uch xil tuzum: rus chorizmi istibdodi, sho'ro hokimiyati va istiqloq; uch xil mafkura: rus chorizmi, kommunistik mafkura va istiqloq mafkurasi sharoitida shakllandi, rivojlandi va takomil topdi.

Yangi o'zbek adabiyotining o'ziga xos xususiyatlari:

1. O'zbek adabiyotida yevropacha yozish an'anasini maydonga keldi. Bunda dunyo adabiyotida mavjud dramatik va epik tur janrlarida asarlar yozish; birinchi o'zbek dramasi, tragediyasi, komediyasi, romani, qissasi, hikoyasining yaratilganligi nazarda

tutiladi. XX asr o`zbek adabiyotining yangiligini ko`rsatuvchi asosiy belgilarning ikkinchisi shundaki, unda ilgarilari hech bir asrda ko`rilmagan janrlar va shakllar Yevropa madaniyatidan qabul qilib olindi. Xususan, yangi o`zbek adabiyotida 1911 yildayoq Behbudiyning "Padarkush" asari timsolida drama janrining embrional shakli maydonga keldi. Keyinroq esa Hamzaning "Paranji sirlaridan bir lavha" va Fitratning "Abulfayzxon" dramalari singari bu janrning g`oyat mukammallashgan namunalari, Abdulla Qahhor, Maqsud Shayxzoda ijodida bo`lsa komediya hamda tragediya kabi murakkab shakllari yaratildi. O`zbek adabiyotida XX asrda vujudga kelgan roman, povest, hikoya singari janrlar ham uning uchun yangilik hisoblanadi. Ming yillik tarixga ega bo`lgan o`zbek she`riyatida ham XX asrda tub burilish yuz berdi. Unda ko`p asrlar davomida qo`llanib kelgan aruz o`rnini barmoq va erkin vaznlar egalladi.

2. Unda dunyoviy mazmunning yetakchi o`ringa chiqqanligi kuzatiladi. Chinakam o`zbek dunyoviy adabiyoti faqat XX asrda maydonga keldi. Bu adabiyotning dunyoviyliigi, dastavval, shu bilan belgilanadiki, unda olam, inson va uning hayoti faqat ilohiyot bilan bog`liqlikda emas, balki ilm-fan yutuqlari, borliq to`g`risidagi tabiatshunoslik qonuniyatlari asosida talqin qilina boshlandi. Yangi o`zbek adabiyotining shakllanish davrida ilohiyotdan dunyoviylik tomon burilish yana shunda ko`ringan ediki, unda ba`zi eskirgan diniy urf-odatlariga boshqacharoq nazar tashlashga, aniqrog`i, tanqidiyroq nigoh bilan aks ettirishga urinishlar bo`ldi. Fikrimizning dalili sifatida Hamzaning "Zaharli hayot" pesasini eslash kifoya. Unda ota-onaning ma`rifatsizligi oqibatida yosh va go`zal qiz Maryamxon azaliy urf-odatlariga ko`ra qari eshonga nazira qilinadi. Sevgilisi Mahmudxon qancha urinmasin, uni qutqara olmaydi. Oqibatda ikkala yosh halok bo`ladi. Shu voqea yordamida dramaturg ilmsizlik va qizlarni nazira qilishdek eski rasm-rusumlar kishilarni baxtsiz qilayotganligi to`g`risidagi g`oyani ifodalaydi.

3. Yangi adabiyot yangi qahramonlar va g`oyalar bilan boshlanadi. O`zbek adabiyotining novatorlik xususiyatlari Fitrat, Cho`lpon va Abdulla Qodiri asarlarida ko`zga tashlanadi.

Bu haqda N.Karimov yozadi: «Cho`lpon 1933 yili rus yozuvchisi V.Yan bilan qilgan suhbatida Fitratni o`zbek she`r tuzilishining islohotchisi deb aytgan. Va islohotchi deganda, uning arabiy forsiy shakl hamda qoliplardan voz kechib, jonli xalq tili bilan

xalq she`riyati vaznlarida yoza boshlaganligini nazarda tutgan. Uning o`zi Fitrat boshlagan ana shu islohotni muvaffaqiyat bilan davom ettirib va yakunlab, o`zbek she`riyati taraqqiyoti tarixida yangi davrni boshlab bergan».

Maktab adabiyot darsliklarida yangi adabiyotni davrlashtirish masalasi:

1. Ma`rifatchilik adabiyoti;
2. Jadid adabiyoti;
3. Sho`rolar adabiyoti;
4. Mustaqillik davri adabiyoti.

Akademik N.Karimov tasnifi:

1. Milliy uyg`onish davri adabiyoti
2. Ijtimoiy silsilalar davri adabiyoti.
3. Istiqlol davri adabiyoti.

Bunda olim har bir davr mazmuni, mohiyatidan kelib chiqib ish ko`rgan.

Ma`rifatparvarlik adabiyoti biz yuqorida «O`zbek mumtoz adabiyoti» deb nomlagan adabiy davrning oxirgi bosqichi, shunga ko`ra «Yangi o`zbek adabiyoti» davri XX asr tongidan, jadid adabiyoti bilan boshlanadi. Ma`lumki, adabiyot tarixi – uzluksiz jarayon, demakki, har bir yangi bosqichga xos xususiyatlar o`zidan avvalgi bosqichda nish urgan yoki kurtak hoida mavjud bo`ladi. Ya`ni yangi o`zbek adabiyotiga xos ayrim jihatlarning ma`rifatparvarlik adabiyotida yuz ko`rsatgani ham tabiiy va qonuniy holdir. Demak, bir adabiy davrning oxirgi va ikkinchi adabiy davrning ilk bosqichini «Milliy uyg`onish davri o`zbek adabiyoti» nomi ostida birlashtirish ilmiy jihatdan asosli emas. Boz ustiga, davrlashtirish masalasiga bunday yondashuv chalkashliklar keltirib chiqaradiki, buni bakalavriat bosqichi adabiyot dasturlari misolida ko`rish mumkin.

N.Karimov, S.Mamajonov va boshqalar tomonidan yaratilgan «XX asr o`zbek adabiyoti tarixi» darsligida:

1. Asr boshlaridagi o`zbek adabiyoti.
2. 20-yillar o`zbek adabiyoti.
3. 30-50 yillar o`zbek adabiyoti.
4. 60-90 yillar o`zbek adabiyoti.

Bunda olimlar xronologiyaga asoslanganlar.

Asrimizning boshlarida xalqimiz tarixida yangi davr – milliy uyg`onish, o`zlikni anglash harakati boshlandi. Bu harakatning

boshida jadidlar turdilar. Jadidlar o`z nomi bilan yangilik tarafdorlari va targ`ibotchilari sifatida maydonga chiqdilar. O`sha kezlarda «jadid» va «qadim» orasida keskin bahs-munozaralar ketdi. Bu bahs madaniyat, ma`rifat, millat taqdiri uchun hayot-mamot masalasi edi. Taraqqiyparvar siymolar har bir sohada yangilanishga chuqur ehtiyoj sezilar va bu yo`lda faol sa`y-harakat qildilar. Yangi o`zbek adabiyotining asoschilaridan biri Abdulla Qodiriy: «Modomiki, biz yangi davrga oyoq qo`ydik, bas, biz har bir yo`sinda ham shu yangi davrning yangiliklari ketidan ergashamiz, adabiy shakllarni yangilashga, xalqimizni shu zamonning adabiyoti namunalari bilan tanishtirishga «o`zimizda majburiyat his etamiz» desa, yana bir alloma – Cho`lpon mumtoz adabiyotimizning boyligini, milliy-adabiy qadriyatlar ahamiyatini kamsitmagan holda endilikda adabiy tafakkur, adabiyot yangilanishga muhtojligini aytadi va «Ko`ngil boshqa narsa - yangilik qidiradir» deb yozadi. Taraqqiyparvar ziyolilar, yangi o`zbek adabiyoti asoschilari – millatning, vatanning chin o`g`lonlari, millat madaniyati, adabiyotning fidoiylari edilar: ular jahonga Muhammad Xorazmiy, Forobiy, Beruniy, Alisher Navoiy, Bobur Mirzo kabi ulug` siymolarni bergan buyuk Turon yurti keyingi asrlarda jahon madaniy taraqqiyotidan orqada qolganligini teran tushundilar. Natijada ibrat bo`larli hayratomuz hodisa yuz berdi. G`oyat qisqa fursat ichida o`zbek adabiyotida birinchi realistik drama, hikoya, roman, yangicha she`riy shakllar paydo bo`ldi. So`ngra «O`tgan kunlar», «Abulfayzxon», «Paranji sirlari», Cho`lpon she`rlari kabi yozuvchi Abdulla Qahhor so`zlari bilan aytganda, Ovrupo adabiyoti gazi bilan o`lchaganda ham yetuk asarlar yaratildi. Shunday qilib, asrimizning 10-yillarida tug`ila boshlagan yangi adabiyot 20-yillarga kelib qaddini rostlab oldi, yangi adabiyotning muayyan an`analari, estetik printsiplari, binobarin, yangicha adabiy tafakkur qaror topdi. Ko`p qiyinchiliklar va yo`qotishlarga sho`ro hokimiyati yillaridagi ma`muriy buyruqbozlik siyosati, yakka hokim mafkura tazyiqiga qaramay, o`zbek adabiyoti asr boshida tanlab olgan bosh yo`ldan – yangilanish, jahon taraqqiyparvar adabiyoti bilan hamkorlik yo`lidan og`ishmay bordi. Qizil imperiya davrida o`zbek adabiyotining ko`pmillatli sho`ro adabiyoti tarkibida bo`lishi ko`pgina ziddiyatli jihatlariga qaramay, umuman olganda bir qadar ijobiy ahamiyat kasb etdi. Chunonchi, milliy adabiyot qardoshlar tajribasidan, ulardagi yangiliklardan o`z vaqtida bahramand bo`lib turdi. Xullas, XX asr

o`zbek adabiyoti yaxlit holda har jihatdan yangi o`zbek adabiyoti deb atalishga loyiqdir.

Yangi o`zbek adabiyoti mamlakat, xalq hayoti, davrning ijtimoiy-siyosiy voqealari bilan mustahkam aloqadorlikda tug`ildi, shakllandi. Ko`p asrlik tariximizda so`z san`ati hech qachon yurt qayg`usi, xalq turmushi bilan bu qadar yaqin aloqada bo`lgan emas, bu bosqich adabiyotning kuchli tomonlari ham, ojiz jihatlari ham shu xususiyatlar bilan izohlanadi. Xalq hayotida kundalik turmush hodisalariga yaqinlik, bir tomondan asarlarning hayotiyliigi, haqqoniyligini oshirgan, binobarin, realizmning qaror topishini ta`min etishda muhim o`rin tutadi. Bulardan qat`iy nazar eng muhimi XX asr o`zbek adabiyotida realizm uzil-kesil qaror topdi, bunda ham zamonaviy jahon realistik adabiyotining durdonalari bilan tenglasha oladigan hikoya, qissa, roman, dramalar yaratildi. Jadidlarning millatni uyg`otish, ma`rifatli qilish, el-yurt ravnaqi, birligi, istiqloli haqidagi ilg`or g`oyalari o`sha davr adabiyotiga yangicha ruh baxsh etdi. Ayni paytda jadidchilik g`oyalariidan ilhomlanib yozilgan ko`p asarlar jadidcha g`oyalarning oddiy targ`ibotidan iborat bo`lib qoldi. Fitrat, Cho`lpon bisotida inqilobiy o`zgarishlar, sho`rolar siyosati sha`niga aytilgan iliq so`zlar talaygina. Abdulla Qodiriy «Oktabrdan biz... jasorat oldik, so`z erkinligi oldik», «inqilob ong berdi, haq berdi», deya quvondi; ijodini jadidchilikdan boshlagan Hamza sho`rolar davrida inqilob shoiri sifatida tanildi. Umuman, yangi o`zbek adabiyoti birinchi avlodi ijodining mafkuraviy asosini tayin etishda o`ta ehtiyotkorlik, xolislik darkor. Chunonchi, dastlab islom mafkurasi doirasida ish ko`rgan, islom haqida yaxshi tadqiqot yaratgan Fitrat keyinchalik oshkora dahriylik ruhidagi asarlar ham yozdi.

Bir qarashda sinfiylik, partiyaviylik prinsiplari asosida yaratilgandek ko`ringan «Obid ketmon», «Yodgor», «Zaynab va Omon», «Qutlug` qon», «Sarob» kabi asarlarda hayotning haqqoniy manzaralari, millat, el-yurt g`ami, orzu-intilishlari ifodasi ustuvor bo`lgan. Garchi Oybek mafkuraviy masalalarda Qodiriy va Cho`lpon bilan bahs olib borgan, ularning qarashlarini qabul qilmagan bo`lsa-da, bu har ikki ulug` siymoning iste`dodiga, san`atiga, mahoratiga tan beradi. Lirikada Cho`lpon, nasrda Qodiriy an`analarini davom ettiradi. Jadid adabiyotidan boshlangan ozodlik, erkparvarlik g`oyalari «Oygul bilan Baxtiyor», «O`ch», «Nil va Rim», «Mahmud

Torobiy», «Alisher Navoiy», «Muqanna», «Jaloliddin Manguberdi» kabi asarlarda turli ko`rinishlarda davom etdi. Qisqasi, siyosiy-mafkuraviy tazyiqlarga qaramay, adabiyot, san`atning asl qonuniyatlari asosida yaratilgan eng yaxshi asarlar XX asr o`zbek adabiyotining badiiy yutuqlarigina bo`lib qolmay, umumjahon adabiyoti xazinasiga ham muayyan hissa bo`lib qo`shildi. O`tgan asr oxirlarida chiqa boshlagan «Turkiston viloyatining gazetasi» o`zbek qalamkashlari uchun dastlabki tajriba maydoni bo`ldi. XX asr boshlariga kelib «Taraqqiy», «Xurshid», «Shuhrat», «Samarqand», «Sadoyi Turkiston», «Sadoyi Farg`ona», «Hurriyat» gazetalari «Oyina», «Al-isloh» jurnallari qalam ahlining bosh minbariga aylandi. Oktabr to`ntarishidan keyin chiqa boshlagan «Ishtirokiyun», «Qizil O`zbekiston», «Qizil bayroq», «Oktabr», «Yangi Farg`ona», «Yangi Sharq», «Yosh leninchi», «Yer yuzi», «Alanga», «Xudosizlar» kabi gazeta, jurnallar o`sha davr adabiyotining ko`zgusi edi.

XX asr adabiyotining eng yangi namunalari bugungi zamonaviy o`zbek tilining imkoniyatlarini ko`rsatadigan xazinadir. Yangi adabiyotning tug`ilishi va rivojida bo`lgani kabi hayratomuz hodisa zamonaviy milliy tilimizning rivojida ham sodir bo`ldi. 30-yillardayoq jahon adabiyotining go`zal namunalari: «Hamlet», «Otello», «Yevgeniy Onegin», «Shoh Edip», «Ilohiy komediya», «Faust», «Urush va tinchlik», «Usta va Margarita» kabilar o`zbek tiliga o`girildi. Eng muhimi, murakkab asarlarga xos xususiyatlarni o`zbek tilida ifoda etishi mumkinligi isbotlandi.

Yangi o`zbek adabiyoti rivojida axborot vositalari (radio, televidenie), san`at turlari (teatr, kino)ning ta`siri kuchli bo`ldi.

Bir asr davomida o`zbek imlosi bir necha bor o`zgardi. Dastlab necha asrlik arab alifbosi isloh qilindi, 20-yillar oxirlarida (aniqrog`i 1929 yilda) lotin yozuviga o`tildi. 40-yillardan kirill alfaviti joriy qilindi. 90-yillarga kelib lotin yozuviga asoslangan o`zbek alifbosiga o`tila boshlandi. Demak, yangi o`zbek adabiyoti namunalari uch yozuvda bitilgan.

Adabiyotimizning istiqloq davridagi rivoji ham oson borayotgani yo`q. Bozor iqtisodiga o`tish davrida madaniyat, san`at, adabiyot og`ir ahvolga tushdi, nashr ishlari qiyinlashdi. Adabiy nashrlar keskin kamaydi. Shu bilan barobar milliy qadriyatlarimizni anglash kuchaydi, ona tilimiz davlat maqomini oldi, fikrlar plyuralizmi (xilma-xilligi)ga yo`l ochildi.

Umuman olganda, yangi o`zbek adabiyoti murakkab tarixiy jarayonda shakllandi, taraqqiy etdi va takomil topdi. Har bir davr adabiyotning yetuk namunalarini bera oldi. Milliy uyg`onish va o`zlikni anglashdan boshlangan jarayon istiqlolgacha bo`lgan davrda lirik, epik, dramatik, liro-epik turga mansub qator durdona asarlar yaratildiki, ular bosqichma-bosqich ravishda o`rganiladi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. «Yangi o`zbek adabiyoti» istilohini qo`llashning sababi nimada?
2. Fanning o`ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
3. Milliy uyg`onish adabiyoti qaysi davrlarni o`z ichiga oladi?
4. Dastlabki drama kimning qalamiga mansub?
5. XX asr boshlarida nasrda qanday o`zgarishlar vujudga keldi?
6. Birinchi hikoyalar muallifi kim edi?
7. Yangi o`zbek adabiyoti qanday davrlashtiriladi?
8. Har bir davrning muhim xususiyatlari nimalardan iborat?

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Каримов И. Адабиётга эътибор – маънавиятга, келажакка эътибор. – Т.: Ўзбекистон, 2009.
2. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажакимизни мард ва олийжаноб халқимиз билан бирга қурамиз. – Т.: Ўзбекистон, 2017.
3. Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак. – Т.: Ўзбекистон, 2017.
4. Каримов Н., Мамажонов С., Назаров Б., Норматов У., Шарафиддинов О. XX аср ўзбек адабиёти тарихи. Олий ўқув юртлари учун дарслик. –Т.: Ўқитувчи, 1999.
5. Санжар Содик. Янги ўзбек адабиёти тарихи. Дарслик. –Т.: Университет, 2005.
6. Каримов Н. XX аср адабиёти манзаралари. –Т.: Ўзбекистон, 2008.

Internet saytlari:

7. www.alishernavoijy.uz
8. www.ziyo-net.uz
9. www.literature.uz
10. www.kutubxona.uz.

MAVZU: MA`RIFATCHILIK VA JADID ADABIYOTI. O`ZBEK ADABIYOTIDA REALIZM BOSQICHI

Reja:

1. *Asr boshlarida ijtimoiy-siyosiy hayot.*
2. *Jadidchilik harakati va jadid adabiyotining vujudga kelishi.*
3. *Jadid adabiyotining janriy rang-barangligi.*
 - a) *nasr;*
 - b) *she`riyat;*
 - v) *dramaturgiya;*
4. *Milliy matbuotning shakllanishi*
5. *Realizm shakllari.*

Tayanch tushunchalar: jadidchilik, jadid adabiyoti, jadid dramasi, jadid nasri, hikoya, roman, jadid she`riyati, tamoyil, jadid matbuoti, «Padarkush», «Yangi saodat», «Do`xtur Muhammadyor», «Sayha», «Adabiyot yoxud milliy she`rlar».

Ko`p asrlik o`zbek adabiyoti tarixida XX asr adabiyoti alohida o`rinni egallaydi.

Feodal boshboshdoqlik va, ayniqsa, mustamlakachilik davrida o`z marralarini boy bera boshlagan o`zbek adabiyoti XIX asrning oxirlarida Muqimiy va Furqat ijodi tufayli bir oz jonlana boshlagan edi. XX asr boshlarida qo`shni xalqlar, jumladan, rus xalqi hayotida ro`y bergan inqilobiy o`zgarishlar o`zbek yurtiga ham yangi hayot shabadalarini olib keldi. Xalqning ziyoli kishilari XX asr Turkistonga ijtimoiy taraqqiyot, hurlik va mustaqillik g`oyalarini olib kelayotganini butun vujudlari bilan his etdilar. Shu kishilarning fidokorona ishlari va tashabbuslari bilan butun Turkiston bo`ylab milliy uyg`onish harakati boshlandi. Bu ulug` harakat shu davrda tug`ilgan adabiyotning ham g`oyaviy yo`nalishini belgilab berdi.

XIX asrning oxiriga kelib, chor hukumati Turkistonni uzil-kesil qo`lga kiritib olgach, uni o`zining xom-ashyo bazasiga aylantirdi. Eng hosildor yerlar mahalliy aholidan tortib olinib, Russiyadan ko`chirib keltirilgan mujiklarga taqsimlab berildi. Turkistonning arzon paxtasidan Russiyaning sanoat shaharlarida ishlab chiqarilgan gazlama va boshqa tayyor mahsulotlar o`lka bozorlaridan mahalliy mollarni sekin-asta siqib chiqardi. Mustaqillik to`g`risidagi orzu-xayollar xalqning qalbidan butkul chiqib ketishi uchun zulm va

zo`ravonlik qamchisi tinmay «ishlab turdi».

XX asr demokratik ruhdagi inqiloblar bilan boshlandi. Eron va Turkiyadagi inqilobiy voqealar, ayniqsa, 1903 yil rus inqilobi Turkiston xalqlari hayotiga yangi g`oyalarni olib kirdi. Boqchasaroyda Ismoil Gaspirali tomonidan chiqarilgan «Tarjimon» gazetasining Turkistonda tarqalishi ham xuddi shu davrga to`gri keldi. Ovruponing eng taraqqiy etgan mamlakatlari hayoti bilan tanishgan I.Gaspirali o`z gazetasi orqali dunyoviy fanlardan bilim beruvchi maktablar ochish, xalqni ma`rifatli qilish masalalarini targ`ib etayotgandi.

Jadid maktabi tashkil qilganlar ham Munavvar qori ta`kidlaganidek, eski maktab, madrasa, qorixonalarning yetishtirgan kishilari edi.

Demak, XX asrning boshlarida I.Gaspirali ta`sirida Turkistonda dastlabki «Usuli savtiya» maktablari ochildi. Jadidchilik harakatini boshlab bergan yoshlar Buxoro yoki boshqa shahardagi eski maktab, madrasa va qorixonalarda diniy ta`lim olganligi ma`lum.

Turkistonda, xususan, hozirgi O`zbekistonda 1905 yil arafalaridan to Turkiston muxtoriyati tor-mor qilingunga qadar (1918) davom etgan milliy uyg`onish harakatining kelib chiqish manbalari to`g`risida so`z borganda, bu harakatning boshida Furqat, Muqimiy, Avaz O`tar, Komil Xorazmiy kabi shoirlar, Sattorxon, Ibrat kabi ma`rifatparvarlarning turganligini ham unutmaslik lozim. Ular ijodi va faoliyatidagi ilg`or g`oyalar dastlabki o`zbek jadidlarning maydonga kelishida milliy siyosatida ingliz mustamlakachilarining Hindistonda olib borgan ishlaridan o`rnak olib, mahalliy aholining maorif va madaniyat sohasidagi intilishlariga doimo rahna solib turdi. Turkistonga 1916 yil qo`zg`olonidan keyin general-gubernator bo`lib kelgan I.A.Kuropatkin o`z kundaliklarida: «Biz yerli aholini 50 yil mobaynida taraqqiyotdan, maktabdan va rus hayotidan chetda tutib keldik», - deb g`urur bilan yozgan edi. Jadidchilar, birinchi navbatda, «Usuli savtiya» maktablari orqali xalqni savodli qilish, uning ongini oshirish va ma`rifatlashgan, taraqqiylashgan xalq yordami bilan mustamlaka kishanlarini parchalash vazifasini o`z oldilariga qo`ydilar. Jadidchilik harakatiga pisandsizlik bilan qarovchi ayrim tarixchi va adabiyotshunoslar bu qudratli harakat doirasini faqat ma`rifat masalalari bilan cheklab qo`yadilar. Holbuki, Munavvarqori 1927 yildayoq bu fikrga zarba berib, bunday degandi: «Chor hukumatini yo`qotish jadidlarning tilagida bor edi. Siyosiy vazifamiz va maqsadimiz ham shundan iborat bo`lishi yashirin emas. Nainki, biz

jadid maktabi bilan do`konda o`ltirib, nasiya yozadurg`on xodimlar yetkazsak...»

Shunday qilib, jadidchilik, ya`ni milliy uyg`onish harakatining pirovard maqsadi chor hukumatini 1905 yil inqilobiga o`xshash ommaviy harakatlar yordamida ag`darib tashlash va o`lkaning mustaqilligiga erishish edi. Shu maqsadda jadidlar, birinchidan, yangi tipdagi maktablar ochib va bu maktablar uchun darslik hamda qo`llanmalar yaratib xalq ommasini maktab va maorif bilan oshno qildilar. Ikkinchidan, jadidlar xalqni uyg`otishga targ`ibot va tashviqot ishlarining muhimligini his etib, «qora xalqni kosasini oqartirmoq va ko`zini ochmoq» maqsadida matbuot masalalariga g`oyat katta e`tibor berdilar.

«Jadid» termini. Yangi o`zbek adabiyotining xuddi shunday bosqich bilan boshlanishi XIX asr oxiri va XX asrning dastlabki yillarida Turkiya, Qrim, Kavkazorti, Tatariston hamda O`rta Osiyoda avj olgan jadidchilik harakati bilan bog`liq edi. Arab tilida "qadim", ya`ni "eski" so`zining antonimi hisoblangan va "yangi" degan ma`noni anglatgan "jadid" so`zi shu harakatga nom qilib olinganligi hamda mazkur ijtimoiy – siyosiy yo`nalish bilan bog`liq ravishda XX asrdagi o`zbek adabiyoti dunyoga kelganligi ham uning yangi so`z san`ati deb atalishi uchun yana bir dalil bo`lib xizmat qiladi. Yangi o`zbek adabiyoti taraqqiyotining boshlang`ich davri uchun jadidchilik harakatining faqat nomigina emas, balki asosiy mafkurasi, qarashlari, g`oyalari ham zamin bo`lib xizmat qilgan edi.

Jadidchilikning mohiyati. Jadidchilik harakatining eng yirik namoyandalari xususan, Ismoil Gasprinskiy, Behbudiy, Munavvar qori Abdurashidxonov, Abdurauf Fitrat qarashlari orasida inson hayotini yaxshilashniig asosiy yo`li kishilarni bilimli, ma`rifatli qilish bilan bog`liqligi haqidagi g`oyalarning yetakchi o`rin tutganligi sabab bo`lgan edi. Lekin jadidchilikni faqat ma`rifatparvarlik oqimi deb tushunish uning mohiyatini ancha toraytirib qo`yish bo`lur edi. Aslida jadidchilik ta`limoti ma`rifatparvarlik g`oyalari bilan bir qatorda o`z ichiga ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, diniy, milliy va huquqiy qarashlarni ham qamrab olar edi. Xususan, jadidlar inson hayotini yaxshilash uchun uni ma`rifatli qilish bilan bir qatorda kishilarning mustaqilligi, erkinligi, farovonligini ta`minlash to`g`risidagi qarashlarni ham ilgari surar va ularning tantanasi uchun kurashar edilar. Ular jamiyat hayotini yangilashning turli-tuman yo`llarini taklif etganlari holda mavjud turmushni, tartiblarni isloh qilishni samaradorroq usul deb

hisoblaganlar. Shu bilan birga jadidlar xalqqa ozodlik, hurriyat zarurligi masalasi ko`tarilganda, "haq berilmaydi, olinadi", – qabilidagi inqilobiy qarashlarni ham o`rtaga tashlaganlar.

N.Karimov jadidchilikning xususiyatlari haqida yozadi:

1. Jadidlar ma`rifatparvarlik g`oyalarini muvaffaqiyatli ravishda tarqatish maqsadida butun maorif tizimini isloh qilish, yangi usul maktablari ochish zarur, deb hisoblaganlar.

2. Ular ma`rifat g`oyalarini yoyishning yana bir samarador usuli sifatida kitob, gazeta va jurnallar chiqarishdan unumli foydalanganlar.

3. Jadidlar ma`rifatparvarlik ta`limotini xalq orasiga olib kirishning samarador vositalaridan yana biri sifatida milliy teatr tashkil etish uchun kurashganlar.

M.Behbudiy va jadidchilik. M.Behbudiy jadid dramasi boshlab bergan adibdir. Binobarin, «Padarkush» dramasi yozilgach (1911), uni nashr etish oson bo`lmadi. Yerli xalqni ezib, uning taraqqiy etishiga, o`z g`ururini anglash, o`z milliy adabiyoti, tili, madaniyatini rivojlantirishga to`squinlik qilib kelgan chorizm, uning Turkistondagi mustabidlari bu asarni o`z vaqtida kitob holida bosib chiqarishga yo`l qo`ymadilar. Asar matbuotda ilk bor «Turon» ro`znomasida 1912-yilda bosildi. Drama 1913-yilda kitob holida o`zbek tilida nashr etildi. Biroq uning muqovasida rus tilidagi: «Rusiyaning fransuz istibdodidan qutulishi va mashhur Borodino muhorabasi xotiralari yubileyiga bag`ishlayman» degan yozuv bor edi. Chor senzurasidan o`tish uchun muallif shunday qildi. Pyesa tezlikda Turkistonning ko`plab shaharlarida mashhur bo`lib ketdi: Samarqand, Toshkent, Buxoro singari o`nga yaqin shaharda sahnada o`ynaldi.

«Padarkush» dramasi asosini ma`rifatparvarlik g`oyasi tashkil etadi. Xalq o`qish, ma`rifat, ilm egallash bilangina qoloqlikdan chiqishi mumkin; turmushni yaxshilash natijasida jahonning taraqqiy etgan xalqlari darajasiga ko`tarilish mumkin.

Jamiyatdagi barcha badbaxtlik, barcha baxtsizlik zamon talab qilayotgan ilmlarni egallamaslik tufaylidir. Jaholat, madaniyatsizlik va boshqa jamiki illatlarning sababi ham mana shunda – ilmga, ziyoga, ma`rifatga bepisandlik bilan qarashda, demoqchi bo`ladi muallif butun asari davomida.

Boyning o`g`li Toshmurod qanday odam ekanligi dramaning boshidayoq bilinadi. Xonada mehmonlar bo`lishiga qaramay, odobsizlarcha, na salom bor, na alik, hovliqqancha kiradi-yu, tomoshaga borajagini aytib, otasidan pul so`raydi. Otasining: vaqtlitiroq

qayt, yomon joylarga borma, – degan gapiga javoban Toshmurodning «ko`p gapirasiz-da,» deb beandishalik va o`ta beodoblik ko`rsatishi bizda darhol unga salbiy munosabat uyg`otadi. Dramani o`qir ekanmiz, Toshmurodning eski maktabga ham, yangi maktabga ham bormasligini bilib olamiz. Holbuki, u o`n olti yoshlar atrofida, Demak, takasaltang.

Asardagi teran ishlangan, zamonaviy ahamiyati jihatidan hozir ham o`z qimmatini yo`qotmagan timsollardan biri Ziyoli obrazidir. «...Ilm va hunarsiz xalqning boyligi, yeri va asbobi kundan-kun qo`ldan ketganidek, axloq va obro`yi ham qo`ldan chiqar, xatto dini ham zaif bo`lur». Sermiqyos, katta ma`nodagi ilm-hunarimiz, o`zligimiz, mustaqilligimiz qo`ldan chiqishi tufayli salkam yetmish besh yil davomida xalqimiz qay ahvolga tushib qolgan. Behbudiy qahramonining bu fikrlari nechog`liq to`g`ri bo`lganini ko`rsatib turibdi.

Behbudiy shu ziyoli tilidan Turkiston xalqi uchun ikki yo`nalishdagi olimlar zarur, degan fikrni ilgari suradi. Biri diniy yo`nalishdagi ulamolar bo`lib, ular xatib, imom, mudarris, mufti va boshqalardir. Bular xaloyiqning diniy va axloqiy ishlarini boshqaradi. Ular Turkiston va Buxoroda diniy ta`lim olgach, hatto rus tilini ham o`rganib, so`ng Makka, Madina, Misr va Istambulda tahsilni davom ettirishlari kerak. Ikkinchisi esa zamonaviy yo`nalishdagi olimlardir. Ularni Behbudiy «olimi zamoniy» deb ataydi. Bu yo`nalish egalari, muallif fikricha, avvalambor, albatta, musulmoncha xat va savodni chiqarib, diniy jihatdan ham muayyan tahsil olib, «o`z millatimiz tilini biladurg`ondan so`ngra» dunyoviy yo`nalishdagi maktablarga borishi kerak.

Abdulla Avloniyning «Turkiy Guliston yoxud axloq» nomli 1913 yilda yozilgan asari XX asr boshlaridagi o`zbek pedagogikasi tarixida o`ziga xos o`ringa ega. U shakl, qurilish (kompozisiya), mazmun va maqsad jihatidan buyuk fors shoiri SHayx Sa`diy (1203–1292) ning «Bo`ston» hamda «Guliston» nomli jahonga mashhur asarlarining an`analari ruhida yozilgan. Buni asar nomidagi ishoraning o`ziyoq ko`rsatib turibdi.

Abdulla Avloniy «Turkiy Guliston...» asarini o`z davrining maktablari, yoshlari, xususan, yuqori sinf o`quvchilari uchun qo`llanma tarzida yaratdi.

Asarning tub mohiyatini yoshlarni ma`rifatga chorlash, sharqona, ko`p asrlik milliy an`analarimiz ruhidagi tarbiya ishining

yo`l-yo`riqlarini talqin etish, ayni vaqtda, ta`lim-tarbiya sohasida yangi asrning ilg`or talablarini qo`yish, axloq muammolarining shaxs kamoloti va jamiyat ravnaqidagi o`rnini yoritish tashkil etadi. Abdulla Avloniy «Turkiy Guliston...»da yaxshi va yomon xulq, ruh, fikr, axloq, uy va maktab tarbiyalari haqida mulohaza yuritarkan, ularning har biridagi o`ziga xos tomonlarni ochib berishga harakat qiladi. Uning o`qish, o`qitish, tarbiya ishlarida davr talabi asosida islohotni amalga oshirish nihoyatda zarur degan fikri o`z zamoni uchun ham, bugungi kun uchun xam qimmatlidir. «Alhosisil, tarbiya bizlar uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir», deb yozadi Avloniy.

Undagi qator fikr, g`oyalarda XX asr boshlaridagi Turkiston xalqlarining milliy uyg`onish ruhi aks ettirilgan. Xususan, millat kelajagi haqida qayg`urish, vatan istiqboli haqida o`ylash, el va yurtga sodiq, vatanparvar yoshlarni tarbiyalashga birinchi darajali e`tibor berish kerakligi «Turkiy Guliston..»ning g`oyaviy-badiiy mazmunida alohida o`rin tutadi.

«Men xastayamu millatim o`lmish nega bemor?!», deydi Avloniy kitobning boshlanishida va xasta dilni, bemor millatni davolashning asosiy yo`li nimadan iborat?– degan savolga butun asar davomida javob berishga intiladi.

Asardagi barcha naql-hikoyatlar g`oyasidan kelib chiqadigan badiiy mantiq shuki, insonni barkamol etish va millatni ravnaq toptirishning asosiy yo`li – har bir shaxsning yuksak ahloqli va ma`naviy go`zal, ilmi va ma`rifatli bo`lishiga erishishdan hamda butun kuch-quvvat, aql-zakovat, bilimu idrok, aqchayu iqtisod – barchasini vatan ravnaqi va xalq saodatiga yo`naltirishdan iboratdir.

Asarda XX asr boshlaridagi milliy uyg`onish ruhi, ayniqsa, vatanga, millatga sodiq farzandlar tayyorlash zarurligi o`tkir qo`yilgan. «Amerikaliklar bir dona bug`doy ekub, yigirma qadoq bug`doy olurlar. Ovrupolilar o`zimizdan olgan besh tiyinlik paxtamizni keturib, o`zimizga yigirma besh tiyinga soturlar! Ammo biz osiyolilar, xususan, turkistonlilar dumba sotub, chandir chaynaymiz, Qaymoq berib, sut oshiyimiz, non o`rniga kesak tishlaymiz!» degan fikrlar ulug` adib Abdulla Avloniy asr boshidayoq bu masala xususida nechog`lik chuqur va teran mushohada yuritganini ko`rsatib turibdi.

Realizm termini haqida. «Realizm» atamasi ijodiy metod nomi sifatida 1857 yildan qo`llana boshlangan. Xuddi o`sha yili

J.Shanflyori va L.E.Dyuranti degan frantsuz yozuvchilari maxsus nazariy bayonnoma e`lon qilib, jahonda birinchi marta realistik metodning o`zlari aniqlagan voqelikni aks ettirish printsiplarini imkon boricha haqqoniy ta`riflab berishga intilgan edilar. O`zbek adabiyotshunosligida esa «Realizm» atamasi birinchi marta Abdurahmon Sa`diyning 1924-yilda bosilib chiqqan «Amaliy va nazariy adabiyot darslari» kitobida qo`llanganligi kuzatiladi. Haqqoniylik yoki haqiqat ma`nolarini anglatuvchi real yoxud realizm so`zi XX asrda jahonning aksariyat mamlakatlarida gurkirab rivojlanish yo`liga kirgan metod mohiyatini ifodalashga juda mos kelar edi. XX asr mobaynida realistik metod an`analarini novatorona davom ettirish yo`li bilan dunyodagi deyarli istalgan mamlakatda yoki tilda buyuk badiiy kashfiyotlar qilinishi mumkinligi isbotlandi.

Realizmda hayot har tomonlama, ya`ni universal tarzda qamrab olingani holda, bu metodning eng buyuk kashfiyotlarida, ko`pincha, voqelikdagi musbat ibtido, ya`ni go`zallik va ezgulik ideallari tasdiqlanishi kuzatiladi. Realizmga xos bu hayotsevarlik fazilatini L.N.Tolstoy juda yaxshi izohlagan ekan. Uning yozishicha, realist san`atkorning oliy maqsadi shunday asarlar yaratishdan iboratki, ko`p yillar o`tgandan keyin ham ularni o`qigan kitobxon «Ham yig`laydi ham kuladi, ham hayotga muhabbat tuyadi».

Realizmning eng go`zal asarlarida o`y-tuyg`ular oqimi bilan voqealar rivoji o`zaro aloqadorlikda, mutanosiblikda jonlantiriladi.

Dastlabki realistik asarlar. Asos e`tibori bilan haqiqiy realizm yo`lidan borganligi sababli yangi o`zbek adabiyoti o`tgan asrning 20-yillarida jiddiy badiiy kashfiyotlar bilan boyidi. Ular jumlasiga Cho`lponning «Uyg`onish» (1922), «Buloqlar» (1924), «Tong sirlari» (1926), «Soz» (1930) nomli she`riy to`plamlari, Abdulla Qodiriyning «O`tgan kunlar» romani (1925), Fitratning «Abulfayzxon» (1924), Hamzaning «Paranji sirlaridan bir lavha» (1928) singari dramalari kiradi.

Albatta, bular bilan bir qatorda yangi zamonni quruq madh etuvchi, nochor asarlar ham yaratilgan edi. Quruq shiorlardan, xitoblardan iborat ritorik she`rlar o`sha davrda juda ko`p bo`lganligini qayd qilgan holda, ularning eng mashhur namunalari sifatida Hamzaning «Yasha, Sho`ro!», «Hoy ishchilar!» singari qo`shiqlarini esga olish kifoya qilsa kerak:

Yasha sho`ro, yasha sho`ro, sen yashaydurgan zamon,
Ishchi o`g`li mehnatingdan balqisin ro`yi jahon...

Hoy ishchilar, ezilgan mehnatchilar,
Bitsin zolim boylar, yasha xizmatchilar.

Oddiy madhiyabozlik bilan bir qatorda bunday sheʼrlarda ochiqdan-ochiq yovuzlikka, odam oʻldirishga, dushmani qirishga chaqirilgani oʻzini dunyodagi eng insonparvar va gumanistik adabiyot deb eʼlon qilgan sovet soʻz sanʼati tabiatiga mutloqo mos kelmasligini oʻsha davrlarda hech kim payqamagan edi. Aksincha, u davrlarda Hamzaning xuddi shunday nogumanistik sheʼrlari koʻklarga koʻtarilib, bayroq qilingan edi. Oʻshanday sheʼrlarning namunalari sifatida Hamzaning «Hoy, hoy otamiz» va «Berma erkingni qoʻldan» singari sheʼrlaridan quyidagi ikki parchani xotirlash yetarli boʻladi:

Hoy, hoy otamiz,
Toshni kesar boltamiz.
Bizga kimlar qarshi tursa,
Sharta-sharta otamiz!

Papoq kiygan qahramon,
Gavdali qoplon,
Temir panjang bilan toʻk
Dushmaningdan qon!

S.Sodiqning yozishicha, oʻzbek adabiyoti tarixining hech bir davrida sheʼriyat bu qadar yovuzlashib, inson qonini toʻkishga chaqirganini topib boʻlmasa kerak. Xuddi shunday sheʼrlarni eslar ekanmiz, keyinchalik sobiq ittifoq xalqlari adabiyotida «Inson qoni suv emas», – degan qanotli ibora bekorga yuzaga kelmaganligiga iqrор boʻlamiz. Shunday boʻlsa-da, ular adabiyotimiz taraqqiyotining bundan keyingi bosqichida yozilgan oʻta nomukammal mashqlarga nisbatan birmuncha kam edi. Mazkur bosqich tajribasi realizmning hayotbaxsh prinsplari asosida yozilgan asarlarga adabiyot tarixining va xalqning chinakam mulki, boyligi boʻlib qolishini yana bir karra tasdiqladi.

Sotsialistik realizm metodi atamasi va nazariyasi esa 1932-yildan keyin rasmiylashgan. Sotsialistik realizmning ilk bosqichida eng goʻzal gullaridan mahrum etilgan yangi oʻzbek adabiyotining kuni barmoq bilan sanarli darajada kamayib ketgan chinakam yozuvchilar bilan bir qatorda oʻrtamiyona adiblar-u isteʼdodsiz qalamkashlarga qoladi. Natijada sotsialistik realizmning asosiy vazifasini, yaʼni badiiy adabiyotni hukmron siyosatning xizmatkoriga aylantirishdek burchini bajarishi uchun nihoyatda qulay sharoit vujudga keladi. Oʻsha sharoitni kuzatilgan maqsadlarga yanada muvofiqlashtirish uchun

o`rtamiyonachilik va iste`dodsizlik yuqoridan, ya`ni hukmron doiralar tomonidan rag`batlantirilib hamda qo`llab-quvvatlab turiladi.

Konfliktsizlik "nazariya" sining mohiyati hayotdagi dahshatli illatlarni chetlab o`tib, undagi qarama-qarshiliklarni osongina ijobiy qutb foydasiga hal qilishdan, "a`lo"ning "yaxshi" ustidan g`alabasini madh etishdan va pirovardda voqelikni imkon boricha yaltiratib, go`zallashtirib aks ettirishdan iborat bo`lgan. Ba`zi adabiyotshunoslarning kuzatishlaridan ma`lum bo`lishicha sobiq sho`ro adabiyotida konfliktsizlik «nazariya»sining ta`siri urushdan ilgariyoq sezila boshlagan. Agar tanqidchi M. Qo`shjonov isbotlaganidek, Abdulla Qahhorning «Qo`shchinor chiroqlari» romani konfliktsizlik «nazariya»sining bir yodnomasi sifatida saqlanib qolganligini eslasak, yuqoridagi adabiyotshunoslarning qarashi haqiqatdan yiroq emasligi yaqqol ayon bo`ladi, chunki bu asarning «ayrilganni bo`ri yer» deb atalgan bir bobi urushdan avval, aniqrog`i, 1939 yilda «O`zbekiston adabiyoti va san`ati» jurnalida bosilib chiqqan edi.

Urushdan keyingi yillarda bu soxta "nazariya" g`alaba nashidasini surayotgan butun sho`ro mamlakatida kuzatilgani kabi o`zbek adabiyotiga ham katta zarar yetkazdi, ya`ni tikanni gul, qarqunoqni bulbul, yovg`onni palov, kulni olov, jezni tilla, ajiriqni pilla qilib ko`rsatuvchi asarlar to`lib -toshib ketishiga sababchi bo`ldi. Xususan, o`sha davr o`zbek adabiyotida to`g`ridan - to`g`ri konfliktsizlik «nazariya"sining ta`sirida yozilgan asarlar sifatida Abdulla Qahhorning "Shohi so`zana" komediyasini, "Kartina", "Hamqishloqlar" hikoyalarini, Oybekning "Qizlar" dostonini va "Oltin vodiyan shabadalar" romanini, Said Ahmadning "Qadrdon dalalar", O.Yoqubovning "Tengdoshlar" povestlarini, Uyg`unning "Oltin ko`l" musiqali dramasini hamda yana ko`plab asarlarni ko`rsatish mumkin.

«Qizlar» dostoni bevosita konfliktsizlik "nazariya"siga amal qilib yozilganligini anglamoq uchun unda faqat urushdan keyingi xarob qishloq xo`jaligidagina emas, balki hozirgi kunlarda ham qo`l yetmas bo`lib saqlanib kelayotgan voqea tasvirlanganligini eslash kifoya. Dostonda urushning so`nggi yili beshta o`zbek qizi kolxoz raisidan besh gektar yer olib, chigit ekadilar. Ular o`sha paytdagi dabdababozlikka, yuqoridan berilgan ko`rsatmaga amal qilib, har gektar yerdan yuz sentnerdan "oq oltin" topshirish majburiyatini olib, deyarli yil bo`yi mashaqqat-u zahmatga to`liq mehnat qiladilar.

Albatta, dostonni yozayotgan paytda, ya`ni 1947-yilda Oybek dunyoning hech joyida bir gektar yerdan yuz sentnerdan paxta hosili olinmaganligini bilmagan bo`lishi mumkin emas. Demak, shoir konfliktsizlik "nazariya"sining hayotni bo`yab-bezab, yaltiratib aks ettirishdek talabiga bo`ysungani uchungina yo`qni bor qilib, oshirib dostonini qizlarning har gektar yerdan yuz sentnerdan paxta hosili, g`alaba bayramini yorug` yuz bilan kutib olganliklari haqidagi ko`tarinki manzara tasviri bilan yakunlagan. Agar fan-texnika inqilobi nihoyatda avj olgan va hayrotomuz natijalar berayotgan hozirgi paytda ham jahonning hech joyida hech kim bir gektar yerdan yuz sentner paxta hosili topshirolmayotgani eslansa, dostondagi manzara qip-qizil yolg`ondan, uydirmadan o`zga narsa emasligi yaqqol ayon bo`ladi.

Urushdan keyingi adabiyotning sifati nihoyatda pasayib, o`ta nomukammal asarlar qo`ziqorindek bolalab ketishiga 1948-1954-yillarda ijobiy qahramon muammosi atrofida qizib ketgan munozaralar ham sabab bo`lgan edi. Unda qatnashganlarning deyarli barchasi faqat bitta masala, ya`ni «sovet adabiyotining qahramoni qanday bo`lishi kerak?» degan savol ustida bosh qotirar, har xil javoblar taklif qilar edi. Jumladan, takliflar orasida «kichkina nuqsonli qahramon», «samimiy qahramon», «jozibador qahramon», «faol qahramon», «kurashchan qahramon», «murakkab qahramon», «intelektual qahramon» obrazlarini adabiyotda yetakchi o`ringa chiqarishga da`vatlar yangragan edi. Ma`qul tuyulgan takliflar darhol xizmatga tayyor yozuvchilar tomonidan qabul qilinib, unga muvofiq keladigan «asar»lar yozilar edi. Biroq taklif kiritganlarning ham, uni amaliyotga tadbiiq etganlarning ham hech biri bunday qilish samarasizligi, ya`ni chinakam badiiy obrazlar tayyor qoliplar asosida yaratilmasligini, o`ylab chiqarilgan ko`rsatmalarga bo`ysunib yozish natijasida ijod erkinligi bo`g`ilishini ro`y - rost isbotlab berishga jasorat topa olmas edi. Munozaralar davomida juda ko`p tilga olingan va shoshilinch ravishda amaliyotga tadbiiq etilgan takliflar orasida «ideal qahramon» obrazini yaratishga chaqiriqlar adabiy jarayonga g`oyatda katta zarar yetkazgan edi. «Ideal qahramon» deyilganda, bironta ham nuqsonga ega bo`lmagan, hammadan aqlli, dono va baquvvatroq hisoblanib, barchaga yo`l ko`rsatadigan, sira yanglishmaydigan, atrofidagilarni ulug`vor ishlarga boshlaydigan, yuksak qadriyatlar yo`lida o`limga tayyor turadigan, bir so`z bilan aytganda, ma`naviy hamda jismoniy mukammallik timsoli sanaluvchi inson obrazi tushunilar edi. Xuddi shunday «ideal qahramon»ga yaqin

qilib yaratilgan obrazlarning namunasi sifatida urushdan keyingi yillar o`zbek adabiyotida Oybekning «Oltin vodiya shabadalar» romanidagi O`ktam va Komila, Abdulla Qahhorning «Shohi so`zana» komediyasidagi Dehqonboy va Hafiza, O.Yoqubovning «Birinchi muhabbat» dramasiidagi Muqaddas va Olimjon timsollari maydonga kelgan edi. Hayotda butkul nuqsonsiz odamlar bo`lmasligi barchaga kundek ravshanligi sababli yuqoridagi «ideal qahramon»lar obrazi faqat turmushni sun`iy ravishda yaltiratish, aslidan yaxshiroq qilib ko`rsatish natijasida yaratilganligi yaqqol sezilib turar va deyarli hech kimni ishontirmas edi. Demak, «ideal qahramon» obrazi ham hayotni sun`iy ravishda ko`tarib, yaltiratib aks ettirish bilan sotsializmni madh etuvchi vositalardan yana biri sifatida o`ylab chiqarilgan edi. Anglashiladiki, sotsialistik realizmning ilk bosqichida bu metod adabiyotni hukmron ijtimoiy tuzum, mafkura va siyosatning oddiy targ`ibotchisiga, maddohiga aylantiruvchi sun`iy tasvir vositalari, tayyor qoliplar, sxemalar hamda o`ylab chiqarilgan qoidalar yig`indisiga o`xshab borganligi sababli ijod erkinligining ochiqdan-ochiq cheklanishiga, uslubiy rang-baranglikning torayishiga, oqibatda genial badiiy kashfiyotlarning nihoyatda kamayib ketishiga yo`l ochgan edi.

Matbuot jadidchilik g`oyalarining tarqalishi va milliy uyg`onish harakatining vujudga kelishida g`oyat katta ahamiyatga molik bo`ldi. 1905-yildan keyin chiqa boshlagan jadid gazetalarning qaldirgochi «Taraqqiy» edi. Bu gazeta 1905-yildan e`tiboran chiqa boshlagan, ammo mushtariysizligi orqasida to`xtagan Ivan Geyerning gazetasi o`rniga haftada ikki marta chop etilgan. Ulamolarning xalq o`rtasidagi obro`-e`tiborini tushirishga harakat qilgan din, millat, vatan nomidan aytilgan fikrlari bilan yoshlarni milliy ozodlik va milliy madaniyat uchun kurashga chaqirgan bu gazeta tez fursatda shuhrat topdi va shu sababdan tez orada yopildi.

1906-yil sentabrdan boshlab «Taraqqiy»ning doimiy mualliflaridan biri Munavvarqori «Xurshid» gazetasini nashr eta boshladi. Haftada bir marta chiqarilgan bu «ilmiy, siyosiy, adabiy, maishiy», «jaridai islomiya» islom dinini targ`ib qilish bilan birga «Turkiston viloyatining gazetasi»ga qarshi kurashib, uning «buzuq harakati»ni (Avloniy) ommaga tushuntirib bordi. Xuddi shu vaqtda «Shuhrat», «Osiyo» gazetalari ham faoliyat ko`rsatdi.

Turkiston jadidlari Rossiya va Qrim tatarlari bilan yaqin aloqa o`rnatib, o`zlarining ma`rifiy dasturlarini matbuot orqali amalga

oshirishga katta kuch sarfladilar. Ularning sa'y-harakatlari bilan shu yillari publisistika, ayniqsa, o'sdi. Birgina Behbudiyning o'zi turli mavzulardagi 300 dan ziyod maqola e'lon qildi. Mirmuhsin Shermuhammedov esa 1914-yilning o'zidayoq matbuotda yuzga yaqin maqola bilan chiqdi. Agar bu ro'yxatga Munavvarqori, Avloniy, Hamza, Cho'lpon va boshqa jadid jurnalistlarining nashrlarini ham kiritsak, 10-yillarda o'zbek publisistikasi shakllanibgina qolmay, balki jamiyatning ijtimoiy hayotiga katta ta'sir o'tkazgani ham ravshanlashadi.

10-yillarda jadid matbuoti bilan birgalikda jadid adabiyoti ham maydonga keldi. Bu adabiyot asosan 1905-1918-yillarda shakllanib, Turkiston muxtoriyatining mag'lubiyatga uchrashi bilan o'z umrini tugatdi va uning aksar vakillari sho'ro hokimiyati bilan murosaga kirishdilar.

Jadid adabiyotining yetakchi sohasi she'riyatdir. O'zbek mumtoz she'riyatidan ham vazn, ham til va uslub, ham g'oyaviy jihatdan keskin farq qilgan jadid she'riyati XX asr o'zbek adabiyotida yangi yo'nalishning ravnaq topishiga tamal toshini qo'ydi. O'zbek xalqining asr boshlarida nodonlik va jaholat muhitida yashaganligi, ijtimoiy hayot, fan, madaniyat, texnika sohalaridagi o'zgarishlarga loqaydligi, kundalik maishiy muammolar girdobiga qolib, ma'naviy jihatdan nochor bir ahvolga tushganligi faqat jadid publitsistikasininggina emas, balki che'riyatning ham g'oyaviy yo'nalishini belgilab berdi. Jadidlar o'z she'rlari bilan xalqning basharasiga ko'zgu tutishga, bu ko'zguda uning g'arib va qashshoq hayotini, ruhsiz holati va baddin kayfiyatini aks ettirishga intildilar. Avloniy 1909-1917-yillar davomida e'lon qilgan «Birinchi muallim», «Ikkinchi muallim», ayniqsa, olti qismdan iborat «Adabiyot yoxud milliy she'rlar» degan to'plamlaridagi she'r va masallari bilan jadid she'riyatining shakllanishiga kuchli turtki berdi.

Nasr adabiy harakatni davr talablari va xalqning ruhiy-ma'naviy ehtiyoji sari yaqinlashtirishga uringan jadid adabiyotida salmoqli o'rinni egallaydi.

O'zbek jadidchilik harakatining yirik arboblardan biri Fitrat «Munozara» asari bilan jadid nasrini boshlab berdi. 1909-13-yillari Turkiyada tahsil ko'rgan va shu yillari yosh turklar harakati bilan yaqindan tanishgan Fitrat Turkistondagi davlat, din, maorif va madaniyat sohalarida tubdan islohot o'tkazish lozimligini

birinchilardan bo`lib sezdi. U o`sha erda yozilib nashr etilgan «Sayha» («Faryod» 1910) she`rlar to`plami, «Munozara» (1909) va «Sayyoh hindi» (1912) nasriy asarlarida Turkistondagi voqelikka farang olimi va hind sayyohining ko`zi bilan qarab, undagi chirkin tomonlarni shafqatsiz tarzda ochib tashladi.

So`nggi ikki asar publitsistikaga xos ruh va tasvir unsurlaridan xoli emas, lekin Fitrat agar «Munozara»ni bir farang bilan buxorolik mudarris o`rtasidagi bahs shaklida yozgan va hatto sahna asari sifatida namoyish etilgan bo`lsa, ikkinchi asariga hind sayyohi obrazini kiritgan hamda Buxoro amirligining ijtimoiy va iqtisodiy, ma`rifiy va diniy qarashlari asosiga jadidchilik harakatining dasturulamalini qo`ygan.

Jadid nasrida realistik an`analarni boshlab bergan Cho`lpon, Mirmuhsin Shermuhamedov, Hamza, Mo`minjon Muhammadjon o`g`li (Toshqin) va boshqalar Fitratdan farqli o`laroq, Turkiston xalqlari hayotining mudhish manzaralarini tasvirlash va xalqqa milliy taraqqiyot manzillarini ko`rsatish yo`lidan bordilar. Cho`lpon «Qurboni jaholat» hikoyasida (1913) o`lkaning zaharlangan muhiti har qanday yangi shabadani ham yutib yuborishi mumkinligini haqqoniy ko`rsatdi. «Do`xtur Muhammadyor» (1914) hikoyasida esa yangi avlod navqiron paytidayoq mahv bo`lmasligi uchun taraqqiyot darajasi baland bo`lgan shaharlar va mamlakatlarga borib, yuqori malakali mutaxassislar bo`lib kelishi hamda millatni olg`a yetaklashi lozim degan fikrni ilgari surdi. Bu har ikkala asar keyinchalik jadid yozuvchilarining ma`rifat nuri bilan sug`orilgan aksar asarlari uchun andoza vazifasini o`tadi. Shu yillari publitsistika sohasida ayniqsa, samarali ijod qilgan Mirmuhsin Shermuhamedov ham badiiy nasr bilan qiziqib, «Befarzand Ochildiboy» asarini (1914) yozdi. Muallif o`zining bu asarini garchand roman deb atagan bo`lsa-da, bu davrda hali jadid nasri yetarli badiiy tajribaga ega bo`lmagan vaqtda o`zbek romanining tug`ilishi amri mahol edi. Shuning uchun ham Hamza singari uning ham orzusi to`la ro`yobga chiqmagan. Biroq Mirmuhsin o`z asarida bir tomondan Ochildiboy ismli badavlat boyning, ikkinchi tomondan, undan qarzdor bo`lib qolgan Qulahmadning hayot tarzini kuzatgan va bu ikki obraz orqali 10-yillardagi voqelikning asosiy tamoyillarini belgilashga uringan. Jadid shoirlari qatorida ijod eta boshlagan Mo`minjon Muhammadjon o`g`li (Toshqin) ham shu yillari nasr sohasida qalam tebratib, «Eski maktab turmushi yoki Tolib» degan qissasini (1915) yozdi. Hamzaning «Yangi saodat yoxud milliy

roman» asari (1915) ham yosh avlodning tarbiyasi masalasiga bag`ishlangan. Hamza bu asarida Olimjon ismli yigitning murakkab hayot yo`lini tasvirlar ekan, uning jadid maktabida va oqila ona bag`rida tarbiya topgani uchun faqat oila a`zolariga mehribon ustoz va homiylariga sadoqatli bo`lib emas, balki «g`arib millat uchun kerakli» kishi bo`lib o`sganiga ham alohida e`tiborni qaratadi. Olimjonning otasi boyning o`g`li bo`lganiga qaramay, johil otasi orqasida ma`rifat bulog`idan bahramand bo`lmagan, shu sababdan u kufr yo`liga kirib, mol-mulkidan ayrilgan va qimorbozlarning cho`tali bilan kun kechiruvchi kimsaga aylangan. Hayotda o`z yo`lini va baxtini topgan Olimjon hatto ana shu badbaxt otasini ham oila bag`riga qaytarib, o`zining farzandlik burchini a`lo darajada ado etadi. Hamza asarda o`qimagan ota bilan o`qigan farzand taqdirini o`zaro qiyoslab, ilmning inson va jamiyat taqdiridagi ulug` ahamiyatini ochishga va jadidchilikning ma`rifatparvarlik g`oyalarini xalq ommasi orasida keng yoyishga uringan. 10-yillarning o`rtalarida «Juvonboz» va «Uloqda» hikoyalari bilan Abdulla Qodiriy ham jadid nasrining maydonga kelishiga o`z hissasini qo`shdi.

Shunday qilib, jadid nasri o`zbek adabiyotida ilk bor realistik qissa, hikoya, ocherk va esse-dialog janrlarining yaxshi namunalarini bera oldi va shu jarayonda zamonaviy o`zbek adabiy tilining shakllanishiga sharoit hozirladi.

Jadid adabiyotining muhim xususiyatlaridan biri shundaki, bu adabiyot vakillari badiiy ijodning faqat bir turida asarlar yozibgina qolmay, ayni paytda boshqa qo`shni turlarda ham asarlar yaratdilar. Bu bilan ham kifoyalanib qolmay, teatr san`atiga asos solib, o`zbek adabiyotiga birinchi marta dramaturgiyani olib kirdilar. Jadid dramaturgiyasi va teatrining otasi Mahmudxo`ja Behbudiydir. U garchand «Padarkush» nomli yagona p`esaning muallifi bo`lishiga qaramay, bu asari bilan o`zbek madaniyati tarixida dramaturgiyani boshlab berdi va jadidchilik harakatining dasturulamal ahamiyatga molik g`oyalarini shu p`esada ilk bor ifodaladi. «Padarkush» 1911-yil yozilgan va 1913-yilda alohida kitobcha shaklida nashr etilgan. Turkistonning ijtimoiy va madaniy taraqqiyotdan chetda tutib turgan chor amaldorlari shu asarning xalqqa etib borishini istamadilar.

XX asr boshlarida yangi o`zbek adabiyotida shakllanish jarayoni kechdi. Tariximizga jadidchilik, milliy uyg`onish nomi bilan kirgan bu davrda adabiyotimiz ham shakl, ham mazmun jihatidan yangilandi: dastlabki o`zbek nasri namunalari, dramatik asarlar

yaratildi. Jadid matbuoti yuzaga keldi. Zero, yangi o`zbek adabiyotiga tamal toshini qo`ygan iste`dodli yozuvchi va shoirlar uning jahon adabiyotidagi mavqeini ko`tarishga intildilar. Buni A.Qodiriy, S.Ayniy, A.Avloniy, M.Behbudiy, A.Cho`lpon, A.Fitrat kabi ijodkorlar yaratgan asarlar tasdiqlaydi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Jadidchilik harakati Turkistonda qachon va kimning ta`sirida vujudga keldi?
2. Asr boshlaridagi adabiyotni «jadid adabiyoti» deb atash sabablari nimada?
3. Jadid nasrining tug`ilishi kimning nomi bilan bog`liq?
4. Jadid dramasi-chi?
5. Jadid she`riyati qanday tamoyillar asosida rivoj topdi?
6. «Padarkush» dramasida Behbudiy qanday g`oyalarni ilgari surdi?
7. Jadid matbuotiga xos xususiyatlar nimalardan iborat?
8. Munavvar qori faoliyati haqida nima deya olasiz?
9. Jadidchilik harakati 20-yillar adabiyoti taraqqiyotiga qanday ta`sir ko`rsatdi?

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Каримов И. Адабиётга эътибор – маънавиятга, келажакка эътибор. – Т.: Ўзбекистон, 2009.
2. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажакимизни мард ва олийжаноб халқимиз билан бирга қурамиз. – Т.: Ўзбекистон, 2017.
3. Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак. – Т.: Ўзбекистон, 2017.
4. Миллий уйғониш. Илмий мақолалар ва матнлар. –Т.: Фан, 1993.
5. Алиев А. Истиқлол ва адабий мерос. –Т.: Ўзбекистон, 1997.
6. Ризаев Ш. Жадид драмаси. Рисола ва матнлар. –Т.: Шарқ нашриёт-матбаа концерни, 1997.
7. Каримов Н., Мамажонов С., Назаров Б., Норматов У., Шарафиддинов О. XX аср ўзбек адабиёти тарихи. Олий ўқув юртлари учун дарслик. –Т.: Ўқитувчи, 1999.
8. Қосимов Б. Миллий уйғониш. –Т.: Маънавият, 2002.
9. Санжар Содик. Янги ўзбек адабиёти тарихи. Дарслик. –Т.: Университет, 2005.
10. Каримов Н. XX аср адабиёти манзаралари. –Т.: Ўзбекистон, 2008.

Internet saytlari:

11. www.alishernavoiiy.uz

12. www.ziyo-net.uz

13. www.literature.uz

14. www.kutubxona.uz

MAVZU: 20-50-YILLAR ADABIYOTI

Reja:

1. 20-yillar o`zbek nasri, she`riyati, dramaturgiyasiga xos xususiyatlar.

2. 30-yillar adabiyotida adabiy turlar taraqqiyoti.

3. 40-50 yillarda ijtimoiy hayot va adabiyot.

Tayanch tushunchalar: epik tur janrlari, hikoya, qissa, roman, barmoq vazni, aruz vazni, erkin vazn, sochma she`r, drama, tragediya, komediya, ijtimoiy hayot, repressiya, kollektivlashtirish, urush mavzusi, jangovarlik

20-yillarda nasrning kichik va hozirjavob shakli – hikoya janrida ko`pgina asarlar yozildi. A. Qodiriy o`z hikoyalarida («Kalvak Maxzumning xotira daftaridan», «Toshpo`lat tajang nima deydi» va hk.) eskilik sarqitlarini fosh etdi. G`afur G`ulomning «Yigit», «Soat», «Elatiyada bir ov», «Jo`ra bo`za», «Eshon obod» kabi hikoyalarida yangicha turmush tarzi, yangi urf-odatlar targ`ib qilindi. A. Qodiriy va G`. G`ulom hikoyalari badiiy pishiqligi, kulgining kuchliligi, xarakterning aniqligi, folklor ohanglaridan, jonli xalq tili boyliklaridan unumli foydalanilganligi bilan ajralib turadi. Bu yillarda Shokir Sulaymon («O`ch», «Qotil», «Hukm», «Gulasal», «To`ti», «Qiz», «Lolazorda shumg`iya»), H. Olimjon («Zaharli yurak», «Tong shabadasi»), G`ayratiy («Tilanchi xotin», «Hashar»), Zarif Bashar («Hormang», «Ipak ko`ylak») kabi yozuvchilar ham zamonaviy mavzularda xilma-xil hikoyalar yaratib, yangilikning eskilik ustidan qozongan g`alabasini tasvirlab berdilar. Bu davr hikoyachiligida yangi inson (ijobiy qahramon) obrazini yaratishga intilish mavjud bo`lgan. Hamid Olimjon «Tong shabadasi» hikoyasida jamoatchilik yordamida zolim er Bo`ronboy changalidan qutulib, faol jamoatchi bo`lib

yetishgan Qunduzoy obrazini yaratgan.

20-yillar o`zbek adabiyotida zamonaviy realistik nasrning shakllanishi va hayotdan mustahkam o`rin olishida Abdulla Qodiriydek ulkan san`atkorning ijodi g`oyat katta ahamiyatga ega bo`ldi. Abdulla Qodiriy bu davrda kichik nasrning xilma-xil namunalarini yozish bilan cheklanmadi. U «O`tgan kunlar», «Mehrobdan chayon» kabi yirik asarlar yaratib, o`zbek realistik romanchiligiga asos soldi. Xuddi shu yillarda S.Ayniy «Buxoro jallodlari», «Odina», Mo`minjon Muhammadjon «Turmush urinishlari» asarlarini yozib, qissachiligimizni boshlab berdi. Biroq 20-yillar o`zbek nasrida yutuqlar bilan birga, naturalistik tafsilotlarga o`chlik, quruq bayonchilikka berilish, tasvirni badiiy jihatdan asoslay olmaslik singari nuqsonlar mavjud edi. Bundan qat`i nazar, umuman olganda, 20-yillar nasri yangi adabiyotimizning kelgusi taraqqiyoti uchun mustahkam zamin tayyorladi.

20-yillarda shoirlar safi G`ayratiy, G`.G`ulom, Oybek, H.Olimjon, Uyg`un, Elbek, Botu, Yashin, Mirtemir, Sobir Abdulla kabi yosh iste`dodlar hisobiga kengayib bordi. Ular ustozlar izidan borgan va ular mahoratini o`rgangan holda o`sha davrdagi ijtimoiy-siyosiy hayot haqida yozdilar. G`ayratiyning «Erk tovushi» (1927), «Yashash taronalari» (1928) to`plamlariga kiritilgan she`rlari bunga misol bo`ladi. Shoir o`z she`rlarida yer-suv islohoti («Yer ishlaganniki», «Qo`shchi ashulasi»), xotin-qizlar ozodligi («Men erkli», «Bir qiz kuylarkan»), yangi hayot va erkin mehnat («Temir bilaklar», «Mehnat va turmush», «Ish vaqti», «Dehqon qizi», «Ko`raman») kabi zamonaviy mavzularni aks ettirgan. Shuningdek, G`ayratiy yangi o`zbek she`riyatiga sanoat mavzuini olib kirdi. Shoirning «Neft bulog`i», «Bo`zsuv bo`ylarida», «Brigada signali», «Ishchi xotin», «Zarbdor qiz» kabi she`rlarida ishchilar hayoti, mehnati va orzu-istagi aks ettirilgan. G`ayratiy «Farg`ona», «Mening tuyg`ularim», «Shoir», «Ey qalam» kabi she`rlarida yangi hayot va erkin mehnatni, xalqlar do`stligi va chin insoniylikni kuylaydi.

Yangicha mazmuni yangicha shaklda ifodalashga, yangilikka intilish, zamon talablariga hozirjavoblik, minbarboplik va xalq qo`shiq-lari ruhiga hamohanglik – bu davr she`riyatining muhim xususiyatlari sifatida ko`zga tashlanib turdi. Ayni chog`da, g`oyaga berilib, badiiylikka yetarli e`tibor qilmaslik, madhiyabozlik, zamonasozlik va quruq ritorika kabi qusurlar ham 20-yillar

she`riyatida yaqqol seziladi.

20-yillarning ikkinchi yarmigacha asosan o`rganish va izlanish davrini o`tagan G`afur G`ulom, Hamid Olimjon, Oybek, Uyg`un, Usmon Nosir, Mirtemir, G`ayratiy, Shayxzoda singari shoirlar XX asrning 30-yillarida ijodiy kamolotga yetdilar.

20-yillarda endigina shakllana boshlagan o`zbek realistik qissachiligi 30-yillarga kelib, adabiyotda o`zining mustahkam o`rniga ega bo`ldi. Bu davrda qissa janrining mavzu doirasi kengayib, g`oyaviy-badiiy saviyasi ancha o`sdi. 30-yillarda zamonaviy mavzularda «Obid ketmon» (A.Qodiriy) «Yodgor», «Tirilgan murda» (G`. G`ulom), «O`tbosar» (A.Qahhor), «Oqim hukmi» (G`ayratiy), «Qor yog`di, izlar bosildi» (Sharif Rizo), «Hushyor yoshlar» (Majid Fayziy), «Partizanlar» (Talas) kabi qissalar yaratildi. Bu qissalarda kishilar ma`naviyatida paydo boigan ruhiy siljishlar ifodalangan. Xususan, Mulla Obid, Berli tatar, O`tbosar, Jo`ra va Saodat kabi obrazlar misolida yangicha fikrlaydigan insonlarning shakllanish jarayoni, ularning o`y-xayollari ko`rsatilgan.

30-yillar qissachiligida o`tmish mavzulariga qiziqish davom etdi. Ayniqsa, «Shum bola» (G`. G`ulom), «Sudxo`ning o`limi» (S. Ayniy) qissalarida o`tmish mavzusi ustalik bilan yoritildi. Badiiy jihatdan baquvvat bo`lgan bunday qissalar kitobxonlar qalbiga juda tez yo`l topdi.

Voqelikni keng ko`lamda va katta epik shaklda aks ettiruvchi roman janrida ham ancha yutuqlar qo`lga kiritildi. Bu davrda «Kecha va kunduz» (Cho`lpon), «Doxunda», «Qullar» (S.Ayniy), «Qutlug` qon» (Oybek), «Sarob» (A.Qahhor), «Huquq», «Dushman» (H.Shams) kabi xilma-xil romanlar paydo bo`ldi.

Bu davrdagi o`zbek romanchiligida boshqa xalqlar adabiyotida bo`lgani kabi, tarixiy mavzu ancha keng ishlandi. Xususan, «Kecha va kunduz», «Qullar», «Qutlug` qon» romanlarida xalqimiz tarixining turli bosqichlari jozibador va haqqoniy qilib tasvirlandi. Jonli va to`laqonli obrazlar yaratildi.

30-yillarda o`zbek romanchiligida zamonaviy mavzular ham yoritila boshlandi. «Sarob» (A.Qahhor), «Huquq», «Dushman» (H.Shams) romanlarida davr voqeligi qalamga olindi.

30-yillarga kelib, o`zbek she`riyatida shakl va mazmun sohasida bir qancha yangiliklar vujudga keldi. Ko`plab chuqur mazmunli go`zal poetik asarlar yaratildi. She`riyat yangi mavzu va yangi obrazlar bilan

boyidi. She`riyatning bunday xususiyatlari Cho`lpon, H.Olimjon, Oybek, G`.G`ulom, Uyg`un, Shayxzoda, Mirtemir singari taniqli shoirlar ijodidagina emas, balki 30-yillarda adabiyotga kirib kelgan Usmon Nosir, Amin Umariy, Hasan Po`lat, Sulton Jo`ra, Elbek, Temur Fattoh, Zulfiya kabi yosh iste`dodlarning asarlarida ham yaqqol ko`rindi. Bu o`rinda H.Po`latning «Jangchi», «Vaqtim chog`», A.Umariyning «Yoshlik», «Shodlik», S.Jo`raning «Shodligim», «Ochiq chehralar» singari she`rlarini eslash mumkin.

Olovqalb shoir Usmon Nosir (1912-1944) ijodidan lirikaning yangi namunalarini ko`plab keltirish mumkin. Shoir sevgi-muhabbatnigina emas, balki katta ijtimoiy-siyosiy masalalarni ham o`tli lirik misralarda ifodalab, o`quvchilar qalbini rom etadi. Usmon Nosirning: «Lirikam mening! Yuvgan, taragan, qaragan yurtning xizmatin qilishlik vazifang sening», – degan misralarida uning ijodni xalq va ona yurtga xizmat qildirish borasidagi fikr poetik ifodasini topgan.

Tasvir mahorati oshganligi, dunyo poetik tajribasidagi ilg`or usullarning o`zlashtirilganligidan ko`z yumagan holda ta`kidlash kerakki, XX asrning 30-yillari o`zbek she`riyatida zamonasozlik, madhiyabozlik, davr voqeligini asossiz ravishda haddan oshirib maqtab tasvirlash, shaxsga sig`inish kabi nuqsonlarga ham yo`l qo`yildi. Shoirlar jamoasi yaratgan she`riy xatlarda, shuningdek, «Bashar quyoshiga», «Soso», «Baxtlar vodiysi», «Nima bizga Amerika» (H.Olimjon), «Kommunizmning gul bog`lariga» (Uyg`un) kabi ayrim asarlarda bu nuqson yaqqol ko`zga tashlanadi. Bundan tashqari, 30-yillar she`riyatida ba`zan soxta novatorlikka berilish singari qusurlar ham uchraydi. E. Abbos, Ergash, U.Ismoiliiy, Sh.Sulaymonning ba`zi she`rlarida bu qusur ochiq ko`rinadi.

Umuman olganda, 30-yillarda o`zbek she`riyati ko`p jihatdan rivojlanib, dunyo darajasiga ko`tarildi.

30-yillar o`zbek she`riyatida «Xalq», «Diyorim» (Cho`lpon), «Turksib yo`llarida», «Yalovbardorlikka» (G`.G`ulom), «O`zbekiston», «Kuychining xayoli», «O`rik gullaganda» (H.Olimjon), «Tonggi bo`sa», «Kuz qo`shiqlari» (Uyg`un), «Fanga yurish», «O`zbekiston» (Oybek), «Yurak», «Yoshlik», «Mehrim», «She`rim» (U. Nosir) kabi ko`pgina badiiy jihatdan baquvvat she`rlar paydo bo`ldi. Ularda kishilarning his-tuyg`ulari, orzu-umidlari, ulug` maqsad uchun kurashlari aks ettirilgan.

Yangi dostonchilik (poemachilik) o`tmish dostonchiligidan o`zining mavzu doirasi, asosiy tasvir obykti, shuningdek, tasvir uslubi bilan farq qiladi. Yangi poemachilik sujetining ixchamligi bilan mumtoz dostonchilikdan ajralib turganidek, oddiy mehnat kishisining kundalik hayotini, maqsadini, orzu-umidlarini aks ettirishi jihatidan ham yangicha xarakterga ega. Yangi poemalarning asosiy qahramoni mehnatkash xalq vakillaridir. Yangi poemachilikning g`oyaviy mazmunini xalqimizning yangi jamiyat qurish yo`lida olib borgan kurashlari, bunyodkorlik mehnatlari va ezgu niyatlari tashkil etadi. 30-yillarning mahsuli bo`lgan «Ko`kan» (G`.G`ulom), «Zaynab va Omon» (H.Olimjon), «Jontemir» (Uyg`un), «O`ch», «Dilbar – davr qizi», «Temirchi Jo`ra» (Oybek), «Nomus» (Mirtemir), «Dongdor paxtakor», «Qobil», «Mehribonlar» (H.Po`lat) kabi dostonlarda bu xususiyatlar turli shakllarda gavdalanadi. 30-yillardagi o`zbek poemachiligining mavzu doirasi keng va rang-barangdir. Eng muhimi shundaki, bu davr dostonlarining aksariyati yangi voqelik tasviriga, zamonaviy mavzularga bag`ishlangan.

30-yillarda o`zbek epik she`riyati she`riy ertakchilik tarzida ham rivojlandi. Ertak-dostonchilik taraqqiyotiga Hamid Olimjon («Oygul bilan Baxtiyor», «Semurg`»), Sulton Jo`ra («Qaldirg`och», «Havorang gilam»), Zafar Diyor («Yangi ertak», «Nega xo`roz qichqiradi tonggacha») kabi shoirlar katta hissa qo`shdilar. Bu ertak-dostonlarda janr imkoniyatlari doirasida muhim hayotiy masalalar aks ettirildi.

30-yillardagi o`zbek dramaturgiyasi rivojida Ziyo Said va N.Safarovning «Tarix tilga kirdi», Z.Fatxullinning «G`unchalar», «Sotqinlar», N.Safarovning «Uyg`onish», I.Akramning «Adolat», U. Ismoilining «Rustam», «Paxta shumg`iyalari» kabi pyesalari ham muhim o`rin tutdi. Bu asarlarning aksariyati («Tarix tilga kirdi», «Sotqinlar», «G`unchalar», «Paxta shumg`iyalari») zamonaviy mavzularga bag`ishlangan. Masalan, «Tarix tilga kirdi» pyesasida bir-biriga qarama-qarshi bo`lgan ikki sinfiy lager o`rtasidagi keskin kurash tasvirlangan. Drama konflikti Temur, Ivan, Rafiq, Qo`rqmas, Ahmadshin kabi obrazlar bilan Badriy, G`afforboy, Oripov, Anvar kabi timsollarning o`zaro to`qnashuvlariga qurilgan. Asar sujeti qiziqarli va ta`sirli chiqqan. Dramada personajlarning o`z-o`zini fosh etishi usulidan o`rinli foydalanilgan. Badriy afandining o`z oiimi oldidan so`zlagan monologi bu jihatdan muvaffaqiyatli chiqqan. Biroq drama sxematizmdan xoli bo`lmaganidek, ba`zi epizodlarda badiiylik me`yor darajasida emas.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. 20-yillar o`zbek she`riyatiga xos asosiy xususiyatlarni sanang.
2. 20-yillar o`zbek nasrining badiiy barkamol namunalari qaysilar?
3. 30-yillarda o`zbek romanchiligida zamonaviy mavzularga doir yaratilgan asarlar qaysilar?
4. 30-yillar o`zbek she`riyatida ko`z ochgan badiiy baquvvat she`rlarga misol keltiring.
5. Ertak-dostonchilik taraqqiyotiga hissa qo`shgan shoirlar kimlar?
6. «Tarix tilga kirdi» pyesasida bir-biriga qarama-qarshi bo`lgan kuchlar qaysilar?
7. 30-yillardagi o`zbek dramaturgiyasi rivojida qaysi asarlar muhim ahamiyat kasb etgan?
8. 40-yillar o`zbek adabiyotida qanday tamoyillar yetakchi bo`ldi?
9. 50-yillar o`zbek adabiyotida shakl va mazmun hamda janrlar tarkibi masalasida bahs yuriting.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Каримов И. Адабиётга эътибор – маънавиятга, келажакка эътибор. – Т.: Ўзбекистон, 2009.
2. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажакимизни мард ва олийжаноб халқимиз билан бирга қурамыз. – Т.: Ўзбекистон, 2017.
3. Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак. – Т.: Ўзбекистон, 2017.
4. Миллий уйғониш. Илмий мақолалар ва матнлар. –Т.: Фан, 1993.
5. Алиев А. Истиқлол ва адабий мерос. –Т.: Ўзбекистон, 1997.
6. Ризаев Ш. Жадид драмаси. Рисола ва матнлар. –Т.: Шарқ нашриёт-матбаа концерни, 1997.
7. Каримов Н., Мамажонов С., Назаров Б., Норматов У., Шарафиддинов О. XX аср ўзбек адабиёти тарихи. Олий ўқув юртлари учун дарслик. –Т.: Ўқитувчи, 1999.
8. Қосимов Б. Миллий уйғониш. –Т.: Маънавият, 2002.
9. Санжар Содик. Янги ўзбек адабиёти тарихи. Дарслик. –Т.: Университет, 2005.
10. Каримов Н. XX аср адабиёти манзаралари. –Т.: Ўзбекистон, 2008.

Internet saytlari:

11. www.alishernavoiiy.uz

12. www.ziyo-net.uz

13. www.literature.uz

14. www.kutubxona.uz.

MAVZU: ABDULLA QODIRIY HAYOTI VA IJODI



(1894-1938)

Reja:

1. *A.Qodiriy ijodining o`rganilishi.*
2. *Adib shaxsiyati, ijtimoiy faoliyati, fojiviy qismati.*
3. *Adib hikoyalari.*
4. *Birinchi o`zbek romanchilik maktabining asoschisi.*
5. *«O`tgan kunlar» tevaragidagi bahslar.*
6. *Adibning hajviy asarlari.*

Tayanch tushunchalar: *A.Qodiriy hayoti, Qodiriy hikoyalari, Qodiriy -jurnalist, roman, «O`tgan kunlar», «O`tgan kunlar» atrofidagi bahslar, realizm, «Mehrobdan chayon», «Obid ketmon», Qodiriyning hajviy asarlari, yumor, satira, «Kalvak Maxzumning xotira daftaridan», «Toshpo`lat tajang nima deydi», Qodiriy va zamonaviylik.*

O`zbek adabiyoti ming yillar davomida asosan Sharq xalqlari adabiyoti, madaniyati doirasida rivojlandi. XIX asr adog`i XX asr

boshlarida u yangi bir ma`naviy olamga, Yevropa adabiyoti tajribalariga yuz bura boshladi. Shu tariqa xalqimiz tarixida, ma`naviyatida yangi davr boshlandi; o`lkada milliy uyg`onish, dunyoni, undagi o`zgarishlarni anglash jarayoni kuchaydi.

A. Qodiriy noyob iste`dodi, jasorati bilan xalqimiz madaniyati, adabiyoti tarixida yorqin iz qoldirdi, ko`p asrlik milliy adabiyotimiz rivojida tub burilish yasadi. Adib «O`tgan kunlar», «Mehrobdan chayon» asarlari bilan o`zbek romanchiligiga asos soldi. Uning qalamiga mansub hikoyalar, hajviy asarlar, publitsistik, adabiy-tanqidiy maqolalar, badiiy tarjimalar XX asr o`zbek adabiyoti xazinasidan munosib o`rin egallaydi.

Xalqimiz Qodiriy shaxsiga, merosiga hamisha katta ehtirom, zo`r qiziqish bilan qaragan. Afsuski, mustabid tuzum uzoq yillar xalqning ana shu qiziqish va ehtiromi yo`liga g`ov solib keldi. 20-yillari insonlik sha`nini toptab uni hibsga oldilar, bir necha oy qamoqda tutdilar. So`ng o`n yil davomida uning shaxsi, asarlari tevaragida «haqsiz hujumlar», «anglashilmovchiliklar» «bemaza isnodlar», «jimjimalik zamzamalar» davom etdi, nihoyat, 30-yillarning mudhish dovuli Qodiriyning xalq orasidan yulib olib ketdi, uning bebaho asarlari mahv etildi. 50-yillarning oxirlariga kelib adibning qutlug` nomi tiklandi, merosi xalqqa qaytarila boshlandi. U haqda yaxshi tadqiqotlar paydo bo`ldi. Biroq mustabid tuzum sharoitida adib haqidagi bor haqiqat yuzaga chiqmay keldi. 80-yillarning o`rtalariga kelib mustabid tuzum yemirila boshlagach, ayniqsa, istiqlol davrida adibning avvallari qaltis tuyulgan ko`pgina publitsistik asarlari e`lon qilindi. «O`tgan kunlar» matnida tushirib qoldirilgan o`rinlar joyiga qo`yildi. Qodiriy hayoti va qismatining eng fojeiy pallalari – 1938-yilgi tergov va hukm tafsilotlari oshkor etildi. H.Qodiriyning «Qodiriyning so`nggi kunlari» xotira-qissasi maydonga keldi, I. Sulton, X. Sultonov va N.Boqiy kabi yozuvchilarning adib hayotining dramatik lavhalarini gavdalantiruvchi asarlari yaratildi.

A.Qodiriy 1894-yil 10-aprelda Toshkent shahrida bog`bon oilasida tug`ildi. Abdulla bolaligidayoq zehni o`tkir, o`qish-o`rganishga mehr-ishtiyoqi baland bo`lgan. Ammo oiladagi moddiy muhtojlik tufayli bir oz kechikib, 9-10 yoshlarida maktabga boradi. Ikki-uch yil eski usulda o`qigach, 12 yoshida uni oiladagi nihoyatda qashshoqlik vajidan bir boyga xizmatchilikka beradilar.

Xo`jayin savdogar kishi bo`lib, ruscha yozuv-chizuvni biladigan

odamga muhtoj edi. Abdullaning zehni, o`qishga ishtiyoqini sezgan savdogar uni rus-tuzem maktabiga yuboradi. O`qishdan bo`sh vaqtlari akasi yoniga kirib toqichilik hunarini o`rganadi. Ikki-uch yil shu toqichilik va bog` ishlari bilan band bo`ladi. Bolalikda egallangan bu hunarlarni, ayniqsa, bog`dorchilikni u bir umr tark etmaydi. 1912-yilda Rasulmuhammadboy otliq savdogarga prikazchik bo`lib ishga kiradi. 1914-yilda uning katta qizi Rahbaroyga uylanadi. Abdullaning bundan keyingi ham totuv, ham sertashvish hayoti, faoliyati umr yo`ldoshi Rahbaroy, u keyinchalik birin-ketin in`om etgan ikki o`g`il, ikki qiz – Hafiza, Habibulla, Adiba, Ma`sudlar bilan kechadi.

Qodiriy ijtimoiy faoliyat doirasiga, badiiy ijod olamiga asr boshida o`lkadagi yetakchi ijtimoiy-mafkuraviy kuch - jadidchilik harakati ta`sirida kirib keldi. Ko`pchilik ilg`or ma`rifatparvar, erkparvar kuchlarga zo`r xayrixohlik bildirdi. Katta ishonch, g`ayrat bilan «ozodlik yo`lida har qanday og`irlikka ham chidab» turli vazifalarda ishladi, ko`proq matbuotda «Oziq ishlari», «Rosta», «Ishtirokiyun», «Qizil bayroq» gazeta va jurnallarida faoliyat ko`rsatdi. «Mushtum» jurnali uning ishtirokida tashkil topdi. H.Qodiriy bergan ma`lumotga ko`ra, adibning 1919-1925-yillar oralig`ida yozgan maqolalari 300 atrofida edi. Qodiriyning publisistik chiqishlari, avvalo, o`sha davrning tarixiy hujjati, zamonasining solnomasi, yozuvchining o`sha yillar ijtimoiy-siyosiy hodisalariga, kundalik voqealarga, hayot muammolariga munosabati, qisqasi, yozuvchining ma`naviy dunyosiga doir hujjatlar sifatida g`oyat ardoqlidir. «A.Qodirov ishi»ga oid hujjatlar orasida «So`roq majlisi protokoli» nisbatan batafsil, o`zbek tilida savodli tuzilgan. Aftidan, Qodiriyning so`zlari adib tomonidan o`z qo`li bilan yozib berilgan-u, kotib uni oqqa ko`chirgan. Protokolda Qodiriy o`ziga qo`yilgan ayblarning boshdan-oyoq noto`g`ri, mantiqsiz va g`arazgo`ylikdan iborat ekani, o`zining kimligini – o`tmishi va hozirgi kunini, e`tiqod hamda maslagini bayon etib beradi. Suddagi aybdor «A.Qodiriyning oxirgi so`zi» deb atalgan bu tarixiy hujjatda Qodiriy tabiatiga xos ko`p jihatlari – mustahkam iymon-e`tiqod, katta aql-zakovat, zo`r mantiq, tahliliy-ilmiy mushohada, haqqo`ylik, mardona shijoat-barchasi yorqin namoyon bo`lgan. Yozuvchi aybdor sifatida qamalishiga bahona bo`lgan «Yig`indi gaplar» maqolasining yozilishi, «Mushtum»da chiqish jarayoni to`g`risida gapirarkan, bu hodisaning jonli shohidlarini aytib, u, avvalo, mas`ul muharrirning roziligi, ma`qullashi

bilan chiqqanligini dalillar bilan isbotlaydi. Qodiriy maqoladagi respublika mas'ul rahbarlari – Oxunboboyev va Ikromovga daxldor jumlar, ya'ni Ovsar tilidan aytilgan, go'yo Oxunboboyev bilan Ikromovni tanqid qilayotgandek ko'ringan gaplar aslida ular shaxsiyatini kamsitish, obro'sizlantirish bo'lmay, balki uning aksi, hazil- mutoyiba-ovsarona tanqid yo'li bilan ular yonini olish ekanini aytadi.

Qodiriyning mash'um 1926-yildan keyingi hayoti, ijodiy qismati g'alati jumboq. Bir qarasangiz, Qodiriy ijtimoiy faoliyat, idora ishlari tashvishlaridan ozod, erkin ijod kishisi; u Toshkentning Samarqand darvoza dahasidagi bog'ida tinchgina ijod, jismoniy mehnat bilan band; o'z rejasi asosida qurdirgan mashhur shiyponida har xil mehmonlarni kutish, atoqli yozuvchi, rassom, bastakor, xonandalar bilan suhbat, bazm qu'rish bilan band. Ayni paytda, u 1928-yili tatar olimi Abdulla Shinosiyning uch bo'limdan iborat o'rta maktablar uchun yozilgan «Fizika kursi» o'quv kitobini o'zbekchallashtiradi. Qodiriy boshida qora bulutlar quyushgan o'sha kezlari adibning yaqinlari, mehribon tanish-bilishlari uni balo-ofatlardan saqlab qolish haqida qayg'urganlar, unga har xil maslahatlar berganlar.

H.Qodiriyning yozishicha, Toshkentning mashhur kishilardan Mannop tabib unga: «Dadangga borib sekin ayt, u albatta o'zini Toshkentdan chetroqqa olsin, – deydi. H.Qodiriy bo'lgan gapni dadasiga yetkazganida, u chuqur o'yg'a tolib, so'ng: «Mening hech gunohim yo'q! Gunohsizni qamamasalar kerak... Yo'q gunohni bo'yinga olib vatanni tark etish, xalq ko'ngliga shubha solish... allaqaysi joylarda bo'yin egib, sarg'ayib yurish... Yo'q bo'lmaydi!», deya qat'iy javob beradi.

1937-yilning 31-dekabr kuni kechqurun Qodiriy hibsga olinadi. O'sha kezlarda adib qattiq xastalanib, ruhiy qiynoqlar oqibatida badaniga ekzema toshib, dard azobidan o'zini qo'yarga joy topolmaydi. Ana shunday g'amli kunlarda u qamoqqa tushdi. Shu ketganicha uzoq yillar dom-daragi bo'lmaydi. Qodiriyning keyingi qismati haqida 80-yillar oxiriga qadar har xil gaplar, taxminlar yurardi, hibsdagi qismati, unga qanday ayb qo'yilgani, qachon va qayerda vafot etgani ham ma'lum emas edi. Nihoyat, oshkoralik, demokratiya kunlariga kelib davlat xavfsizlik qo'mitasida saqlanayotgan Qodiriyning «jinoiy ishi»ga oid hujjatlar tarixni olim R.Safarovning «Xo'rlikdan o'lim tansiqroqdir» (A.Qodiriy hayoti va

ijodiyot ahvoriga doir yangi ma`lumotlar) («Toshkent haqiqati», 1989-yil, 21-noyabr) sarlavhali maqolasi orqali ilk bor jamoatchilikka ma`lum etildi. A.Qodiriy 1938-yilning 4-oktabrida stalinizm jallodlari tomonidan Toshkentda qatl etildi. U hibsga olingach, ko`p o`tmay oilasini ta`qib etish boshlanadi. Uning asarlarini yashirib o`qigan yoki adib haqida biror kalima iliq gap aytgan necha odamlarning yostig`i quritiladi. Qodiriyning katta o`g`li – ToshMI tolibi Habibulla Qodiriy «xalq dushmanining farzandi» sifatida hibsga olinib, surgun qilinadi.

Adibning ana shunday fojeaviy qismati avlodlar ko`nglida mangu armon bo`lib qoldi.

10-yillarda adabiyotga kirib kelgan A.Avloniy, So`fizoda, Behbudiy, Fitrat, Cho`lpon, G`ozi Yunus, Hamza, A.Qodiriy va boshqa talay ziyoli -ajdodlarimizning hammasi jadidchilik harakati ta`sirida bo`ldi. A.Qodiriy ham o`z ilk ijodiy mahsulotlarida «Baxtsiz kuyov» dramasi, «Juvonboz» hikoyasi, «To`y», «Millatimga», «Ahvolimiz» kabi qator she`rlarida, undan keyingi «Jinlar bazmi», «Uloqda» nomli hikoyalarida ham shu g`oya, ma`rifatsizlik orqasida xarob bo`linayotgani va undan qutulishining yagona yo`li – ilm-ma`rifatni egallash kabi g`oyani singdirishga intiladi. Bu asarlarni Abdulla Qodiriy 1913-1916 yillarda yozdi.

Uning 1915-yilda chop etilgan birinchi nasriy asari «Juvonboz» kitob holda chop etilgan bo`lib, oxirida ikki she`ri ham e`lon qilingan. Bularan biri «Ahvolimiz» ikkinchisi, «Millatimga» degan sarlavhalar bilan atalgan. Har ikkalasida ham Qodiriy o`z xalqini, millatini ilm-ma`rifatga da`vat etadi. «Millatimga» she`rida g`aflat va jaholatda yotgan o`zbek xalqining ko`zini ochishga, uyg`otishga harakat qiladi. G`aflat hayot gulshanini jaholat cho`liga aylantirib yuborganidan chekayotgan iztiroblarini bayon qilib, bu holdan qutulish uchun barcha boyu savdogarlar, yoshlar qurbi yetadigan jamoatchilikni ko`plashib maktab-maorif taraqqiyotiga yordam ko`rsatishga da`vat etadi. Qodiriy ilk ijodiy mahsulidayoq hayotdagi, insonlar o`rtasidagi turli tabaqalar va ularning vakillari ahvoli ruhiyatini chuqur idrok etishga intiladi. Uning ilk ijodiy yillarida yaratgan asarlari orasida «Uloqda» hikoyasi alohida o`rin tutadi. Bu hikoyada yozuvchi obraz yaratichda ancha muvaffaqiyatga erishadi. Hikoya Qodiriyning to`la ma`nodagi realistik yo`lga tusha boshlaganini, insonga xos jonli obrazlar yaratishga muvaffaq bo`la boshlaganini ko`rsatadi. Bu hikoyada yozuvchi voqelikni ortiqcha bayon etishdan ko`ra unga badiiy

manzaralar yaratish usuli bilan ifoda etishga harakat qiladi. Hikoyada yozuvchi oddiy maishiy hodisa - O`rta Osiyo xalqlari orasida keng tarqalgan uloq chopishdek bir manzarani tasvirlaydi. Unda uloqchi bolaning shaxsiy kechinmalari, uning atrofdagi uloqchilarning hatti-harakatlari, ruhiy holatlari juda yaxshi, ishonarli ifoda etilgan. Oybek bu asarga yuksak baho berib: «Uloqda» hikoyasida tashviqotchining, voizning o`rnini san`atkor oladi. Yozuvchi bu asarda voqealar ustida muhokama qilmaydi, tushuntirmaydi, isbot qilmaydi, balki obrazlar bilan ko`rsatadi. Bu hikoyada ham foydasiz odatlarni qoralaydigan ma`lum «axloq», «ibrat» bor, lekin bu axloq turtib chiqmaydi»-deydi. «Uloqda» hikoyasi faqat Qodiriyning yutug`i bo`lib qolmay, Oktabr to`ntarishigacha bo`lgan o`zbek adabiyotidagi realizmning cho`qqisi, realistik hikoyaning eng yaxshi, yetuk namunasi.

Haqqoniylik, hayot haqiqatiga sadoqat-yozuvchining ijoddagi bosh shioridir. Ayni shu haqqoniylik, uning uchun adabiyot, san`at asarlariga, ijodkor shaxsiga baho berishning bosh mezonidir. U hamisha ijodkorlarni haqiqatning ko`ziga to`g`ri qarashga chaqiradi. «Men bir asar yozishdan avval shu yozmoqchi bo`lgan narsam haqidagi materiallarini puxta o`rganib chiqaman, - deydi adib. - Men biror joy to`g`risida asar yozmoqchi bo`lsam, o`sha joyni avval necha martaba ko`rgan esam-da, yana borib tekshirib, yaxshiroq o`rganib kelaman». Badiiy to`qima adabiy asarda katta ahamiyatga egaligini e`tirof etgani holda, «lekin men turmushda ko`rmagan, bilmagan narsam haqida hech narsa yozmayman», – deydi adib qat`iy tarzda.

A.Qodiriy 1919-yilda «O`tgan kunlar» romani ustida ish olib bordi. Romandan parchalar 1922-yilda «Inqilob» jurnalida bosilgan, 1925-yili asarning bo`limlari alohida-alohida, so`ng 1926-yili yaxlit holda kitob bo`lib chiqqan. Yozuvchi bu romanda xolis turib, o`tgan XIX asr o`rtalaridagi Turkiston tarixining, o`zbek xalqi hayotining haqqoniy manzarasini gavdalantiradi, muhim tarixiy-ijtimoiy jarayonlarni chuqur badiiy tahlil etadi, davrning yetakchi ijtimoiy kuchlari mohiyatini ochadi. O`sha zamon kishilari ahvol-ruhiyati, orzu-intilishlari, quvonch va tashvishlarini zo`r mahorat bilan yorqin obrazlar orqali ko`rsatadi, realizmning bosh printsiplaridan kelib chiqib, hayot haqiqatiga sodiq qoladi, real hayot qanday bo`lsa, o`shandayligicha ifoda etadi. Ilk bor shu roman orqali o`zbek xalqi o`z asl qiyofasini, ichki dunyosini, kuchli va ojiz tomonlarini bor bo`yicha go`yo tiniq ko`zgudagidek aniq ko`rdi. Bu roman o`zbek adabiyotida

realizmning haqiqiy tantanasi, katta yutug`i bo`ldi. «O`tg`an kunlar» romanining ma`no-mundarijasi, doirasi keng. Unda xilma-xil ijtimoiy-siyosiy, ma`naviy-axloqiy muammolar qalamga olingan. Biroq ular orasida eng muhimi-yurtning, millatning taqdiri, mustaqilligi masalasidir.

20-50-yillar adabiyot ilmida vujudga kelgan noxush vaziyat faqat adabiyot dunyosiga kirib qolgan tasodifiy, malakasiz kishilarni emas, yirik iste`dod sohiblarini ham chalg`itdi.

«O`tg`an kunlar»dek nodir asar M.Sheverdin singari qalamkashlar, S.Husayn kabi didi shakllanmagan munaqqidlar tomonidan noto`g`ri baholangan bo`lsa, unchalik ajablanarli emas edi. Ammo Oybekdek ulkan adib ham o`sha muhit ta`siri va tazyiqi ostida bu shoh asarning asl mohiyatini ochib berolmadi. Oybek «Abdulla Qodiriyning ijodiy yo`li» (1936) risolasida «O`tg`an kunlar» romani tahliliga keng o`rin beradi. Oybekning «O`tg`an kunlar» xususidagi mulohazalarini o`qiganda tadqiqot muallifi ularni qog`ozga tushirayotganda ziddiyatli holatni ko`nglidan kechirganligini sezib turasiz. Bir tomondan, Oybek insofli, iste`dodli yozuvchi sifatida «O`tg`an kunlar»da kashf etilgan badiiy haqiqat, adibning mislsiz san`ati oldida ta`zim qiladi, ayni paytda o`n yillik sho`ro maktabi ta`limi, mustaqil o`qish, o`zlashtirish, o`zi egallangan markscha-lenincha dunyoqarashi, davr siyosati uni Qodiriy badiiy haqiqatiga boshqacha ko`z bilan qarashga majbur etayotgandek bo`ladi. Oybekning e`tirozicha, «O`tg`an kunlar»da qahramonlar sinfiy tabaqalarning ijtimoiy mohiyatini emas, yozuvchining gumanistik, axloqiy, siyosiy-ijtimoiy «ideallari»ni ifoda etadilar; musbat obrazlarni berishda yozuvchi ma`lum nuqtai nazarni, axloqiy-estetik e`tiqodlarni, go`zallik printsiplarini o`ylab chiqarilgan odamlarda tajassum ettiradi; yozuvchi ularni «o`z axloqiy umumgumanistik ideali ichiga ko`mib, ijtimoiy ongning ob`yektiv ravishda rivojlanishini panada qoldiradi».

Uningcha, Otabek, Yusufbek Hoji va boshqa savdogar tabaqa namoyandalari «O`tg`an kunlar»da ijtimoiy kuchning haqiqiy siymosini atroflicha to`la ifoda etajak bir ravishda emas, balki ularning ayrim tomonlari romantik ravishda bo`rttirib tasvirlanadi; ular yaxshilikning ramzi kabi ko`rsatiladi, butun yomonlikni gavdalantirgan feodal tuzumi arboblariga qarshi qo`yiladilar. Otabek obrazi «davr taraqqiyoti tendentsiyasini to`liq aks ettiruvchi sotsial tip

darajasiga ko'tarila olmaydi; yozuvchi Otabekning» ma'naviy siymosini ideallashtiradi, uni yaxshilik, tozalik simvoli kabi ko'rsatadi».

«O'tgan kunlar»ga shunday qarash, baho berish va hatto 90-yillarga qadar turli ko'rinishda, ba`zan qo`polroq, ba`zan yumshoqroq davom etdi. Ko`rib o`tganimizdek, 70 yil davomida «O'tgan kunlar» romani tevaragida qizg`in bahs-munozaralar bo`ldi, u haqda asossiz tanqid, o`rinsiz da`volar bilan barobar, ayniqsa, 60-yillardan keyin ham iliq gaplar aytili.

«O'tgan kunlar»ning yana bir xarakterli jihati – unda yozuvchi ijodiy fantaziyasining mahsuli bo`lgan voqealar, to`qima obrazlar aniq tarixiy hodisalar, tarixiy shaxslar bilan mohirona uyg`unlashtirib yuborilganligida. Tarixda yashab o`tgan tarixiy siymolar bilan Otabek, Kumush, Qutidor kabi to`qima qahramonlar orasidagi tafovut sezilarli bir holdadir. Romanning yetakchi qahramonlari Otabek, Yusufbek Hoji, Kumush taqdirining o`tgan asr o`rtalarida o`lkada Toshkent va Qo`qonda yuz bergan muhim tarixiy voqealar (Qo`qon xonligi bilan Toshkent bekligi orasidagi to`qnashuvlar, Toshkentdagi isyon, qipchoq qirg`ini va hokazo) Xudoyorxon, Musulmonqul, Azizbek, Normuhammad qushbegi, Qanoatshoh kabi tarixiy siymolar bilan aloqadorlikda ko`rsatilishi, bir tomondan asarning ma`rifiy qimmatini oshirsa, ikkinchi tomondan, undagi tarixiylik, realistik xususiyatlarini chuqurlashtirgan. «O'tgan kunlar»dan boshlangan bu noyob tajriba keyinchalik yozuvchining «Mehrobdan chayon» romanida, Cho'lponning «Kecha va kunduz», Oybekning «Qutlug` qon» asarlarida, yana o`nlab yirik epik asarlarda davom ettirildi.

Yozuvchining «Mehrobdan chayon» romanida ham realistik mahorati Solih Mahdum obrazida juda yorqin namoyon bo`lgan. «Mehrobdan chayon» haqida ko`p tanqidiy fikrlar aytgan Oybek bu obraz tasviriga kelganda adibning mahoratiga tan beradi, Maxdumni «to`la-to`kis xarakter, tipiklik bilan individuallikni eng muvaffaqiyatli birlashtirgan odam obrazi», «Maxdum belgili bir guruhning xislatlari»ni o`zida porloq qabariq gavdalantirgan yig`indi realistik obrazdir, u asardagi hamma personajlar orasida eng jonli, eng yorqin, eng tipik figura», deb ataydi.

A.Qodiriyning deyarli barcha e`tiborga sazovor asarlari qatori «Obid ketmon» qissasi ham o`z davrida haqiqiy bahosini ololmadi, vul`gar sotsiologizm og`usi bilan zaharlangan, faqat «sinfy

yondashish»nigina mezon qilib olgan «tanqid» bu o`ziga xos qissa mohiyatini buzib, uni «geneologik buzuqliklar va xatolarga» to`la, «siyosiy tuturiqsiz» asar deb e`lon etdi. «Obid ketmon»ning o`ziga xos jihati shundaki, kollektivlashtirish haqida o`sha yillar yaratilgan ko`plab asarlardan farqli o`laroq, unda sinfiy raqiblar orasidagi kurash-to`qnashuv olishuvlar emas, xo`jalik, ishlab chiqarish muammolari tasviri, talqini birinchi o`rinda turadi.

A.Qodiriyni yozuvchi sifatida ilk bor elga tanitgan narsa – uning hajviy asarlari, aniqrog`i, «Kalvak Maxzumning xotira daftaridan» va «Toshpo`lat tajang nima deydi?» hajviy qissalari bo`ldi.

«Kalvak Mahzumning xotira daftaridan» asari 1923-27-yillar oralig`ida yozilgan, asar peshma-pesh matbuotda e`lon etilib turgan. Qodiriy bu asarida «tubdan haqiqiy hayot bilan aloqasi uzilgan, madrasa xurofoti bilan miyasi g`ovlag`on» mahalla imomi Kalvakning kulguli sarguzashtini hikoya qilib bermoqchi bo`lgan. Asar boshida muallif Maxzumning hayotdagi bir qator maqbul o`zgarishlar tarkib topib borayotgan yangicha taomillarni hazm qilolmay, noqulay ahvolga tushib qolish bilan bog`lik kulgili o`rinlar san`atkorona berilgan. Qiroatxonada erkak bilan ayol kishining oddiy munosabatlari Maxzumba fahsh bo`lib tuyuladi. U qiroatxonaning odamlarga tekin xizmat qilish sababiga tushunolmay garang bo`ladi. Qiroatxonadagi jadidona yangi ilmiy kitoblarga nafrat bilan qaraydi. Mahalliy xalq yoshlarining markazga o`qishga yuborilishi unga zo`ravonlik bo`lib ko`rinadi.

Shu tariqa boshda ko`proq jonli hayot bilan aloqasi uzilgan, qoloq, ovsar bir ruhoni ustidan kulishga qaratilgan asar bora-bora davrning ijtimoiy ziddiyatlari va illatlarini ochib beruvchi asarga aylanadi. Asar oxiridagi boblarda bu hol juda yaqqol ko`rinadi. «Qavoidul Umaro» bobida adib saltanatni boshqarishda podshoh va amirlar, sulton va salotinlar, Xudoyorxonning bek va bekozalari, Nikolay oq podshoh mansabdorlarining amal qilgan «ko`hna va lekin puxta qoidalar» ushbu «hurriyat, mardikor, saradehqon zamona hukumatdorlari orasida ham» davom etayotganidan achchiq istehzo bilan kuladi.

«Toshpo`lat tajang nima deydi?» asarining qahramoni Toshpo`lat xarakteri ham ziddiyatli. Uning tabiatida ko`p nobop jihatlar mavjud. U bolaligida yaxshi tarbiya ko`rmagan, maktabda yolchitib bilim olmagan, savodsiz, ma`rifatdan yiroq, hayotda yo`lini

topa olmagan, omadsiz odam. U gunoh ishlarda - nashavandlik, qimorbozlik, bezorilikdan ham toymaydi. Xuddi «Kalvak Mahzumning xotira daftaridan» asarida bo'lgani kabi bu erda ham muallif asar bosh qahramoni sarguzashtlari orqali bizni 20-yillar hayotining ziddiyatli dramatik hodisalariga, davrning o'tkir muammolariga ro'para qiladi.

Yozuvchining hajviy-yumoristik mahorati «xarakter kulgusi» yaratish san'ati yirik asarlarida, «O'tkan kunlar» romanidagi O'zbek oyim, Xushro'y, «Mehrobdan chayon»dagi Solih Mahdum, «Obid ketmon»dagi Xatib domla va Mulla Muhsin obrazlarida yana ham yorqinroq namoyon bo'lgan.

Qodiriy asarlari o'zbek adabiyoti osmonida quyoshdek porlab, odamlar vujudini hamon haroratli tafti bilan isitmoqda, beqiyos nuri bilan qalblarni charog'on etmoqda.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. A.Qodiriyning o'zbek adabiyoti, madaniyati taraqqiyotidagi o'rnini, xizmati nimadan iborat?
2. Qodiriyning fojeiy qismati haqida nimalar bilasiz?
3. Qodiriyning ilk ijodi, asarlariga xos xususiyatlar nimalardan iborat?
4. «O'tgan kunlar» romanining yozilish sabablari nimada deb o'ylaysiz?
5. «Mehrobdan chayon», «Obid ketmon» asarlari qanday sharoitda yaratildi?
6. «O'tgan kunlar» tevaragidagi bahslar to'g'risida nimalarni bilasiz?
7. «O'tgan kunlar» romanining g'oyaviy mundariyasi nimadan iborat?
8. Qodiriyning yozuvchi sifatida elga tanitgan qaysi hajviy asarlari bilan tanishsiz?

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Каримов И. Адабиётга эътибор – маънавиятга, келажакка эътибор. – Т.: Ўзбекистон, 2009.
2. Мирзиёев Ш. М. Буюк келажакимизни мард ва олийжаноб халқимиз билан бирга курашимиз. – Т.: Ўзбекистон, 2017. – 488 б.
3. Миллий уйғониш. Илмий мақолалар тўплами. – Т.: Фан, 1993.
4. Алиев А. Истиклол ва адабий мерос. – Т.: Ўзбекистон, 1997.

5. Ризаев Ш. Жади́д драмаси. Рисола ва матнлар. – Т.: Шарк, 1997.

6. Каримов Н, Мамажо́нов С, Назаров Б, Норматов У, Шарафиддинов О. XX аср ўзбек адабиёти тарихи. Олий ўқув юртлари учун дарслик. –Т.: Ўқитувчи, 1999.

7. Қосимов Б. Миллий уйғониш. – Т.: Маънавият, 2002.

8. Санжар Содиқ. Янги ўзбек адабиёти тарихи. Дарслик. –Т.: Университет, 2005.

9. Каримов Н. XX аср адабиёти манзаралари. –Т.: Ўзбекистон, 2008.

А.Қодирийга бағишланган тадқиқотлар:

10. Сотти Ҳусайн. Ўтган кунлар. –Боқу, 1932.

11. Алиев А. Абдулла Қодирий. –Т.: Ўзадабийнашр, 1964.

12. Иззат Султон. Абдулла Қодирий. Асарлар. II том. –Т.: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1972.

12. Мирзаев И. Абдулла Қодирийнинг ижодий эволюцияси. –Т.: Фан, 1977.

13. Ойбек. Абдулла Қодирийнинг ижодий йўли. Мукамал асарлар тўплами. 19 томлик, XIX том. –Т.: Фан, 1979.

14. Қодирий Ҳ. Отам ҳақида. –Т.: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт, 1983.

15. Абдулла Қодирий замондошлари хотирасида. –Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1986.

16. Қодирий Ҳ. Қодирийнинг сўнгги кунлари// Ёшлик, 1989. № 4-7.

17. Набижон Боқий. Қатлнома. –Т.: Камалак, 1992.

18. Қўшжо́нов М. Ўзбекнинг ўзлиги. –Т.: Фан, 1994.

19. Мирвалиев С. Абдулла Қодирий (ҳаёти ва ижоди). –Т.: Фан, 2004.

20. Норматов У. Қодирий мўжизаси. –Т.: Ўзбекистон, 2010.

21. Карим Б. Абдулла Қодирий ва герменевтик тафаккур. – Т.: Академнашр, 2014.

22. Раҳимжо́нов Н. Қодирийшунослик қирралари. –Т.: Наврўз, 2015.

23. Норматов У. Ижодкорнинг ҳароратли қалби. –Т.: Тugon zamin ziyo, 2015.

24. Каримов Б. Рухият алифбоси. –Т.: Ғафур Ғулом

номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2016.

Internet saytlari:


25. www.alishernavoiy.uz

26. www.ziyo-net.uz

27. www.literature.uz

28. www.kutubxona.uz.

**MAVZU: SADRIDDIN AYNIY VA O`ZBEK NASRI
TARAQQIYOTI**



(1878-1954)

Reja:

- 1. Sadriiddin Ayniyning hayot yo`li.**
- 2. Adib nasriga xos xususiyatlar.**
- 3. Yozuvchi nasriga ta`sir etgan ijtimoiy-badiiy omillar.**

Tayanch tushunchalar: zullisonaynlik, madrasa, eski maktab, tarixiy qissa, roman-epopeya, “Buxoro jallodlari”, “Qullar”, “Doxunda”, ijtimoiy-badiiy omil, jahon adabiyoti badiiy-estetik tajribalari, tarixiy-avtobiografik qissa, tarixiy-maishiy qissa, xalq og`zaki ijodi, Sharq didaktik adabiyoti an`analari

O`zbek va tojik xalqining donishmand farzandi, zullisonayn adib,

umrboqiy asarlari bilan jahon adabiyotiga ulkan hissa qo`shgan ulug` san`atkor Sadriddin Ayniy ijodiyotining qadr-qimmatini vaqt o`tgan sayin ortib, teranlik sirlari bir-bir ochilib bormoqda. Ayniqsa, o`zbek nasrining shakllanishi va taraqqiyoti ulug` adib faoliyati bilan chambarchas bog`liqdir. Shu ma`noda Sadriddin Ayniy ijodi o`zbek adabiyotining fenomenal hodisasidir.

Sadriddin Ayniy amirlik zamonida voyaga etdi, tanildi. Eski maktab, madrasa ta`limini oldi. Otasining “mulla bo`lma, qozi bo`lma, odam bo`l” o`giti ta`sirida kamol topdi. Maktabning, madrasaning chalamullalikka yo`naltirilgan ta`limoti, amirlikning mutassiblikka tayangan tartiboti ma`rifatli ota o`gitiga amal qilgan yosh Sadriddinda qoniqmaslik, norozilik, keyinchalik cheksiz nafrat hissini oshirdi. Ilk she`rlarida imo-ishoralalar, ramzlar vositasida ko`ringan bu tuyg`u nasriy asarlarida ochiq-oydin ko`rina boshladi. Atrofdagi nochorlik, zulm va zo`ravonlik, amir jallodlari tomonidan akasining qatl etilishi, o`zining darra bilan kaltaklanishi kabi ob`ektiv, sub`ektiv faktorlar bu nafrat tuyg`usini alangalatganligi, shubhasiz.

Yozuvchi madrasada o`qib yurgan chog`lari muqim turar joyga ega bo`lmagan. Ba`zan akasining, do`stlarining, tanishlarining hujralariga ko`chib yurgan, umuman, boshpanasiz qolgan paytlari ham bo`lganki, uning o`z ta`biri bilan aytganda, “ko`ylagining ichida” yashab yurgan. O`sha paytlarda yozgan she`rlari amir Abdulahadxonga ma`qul bo`lib, saroyga ishga taklif qilinadi. Ammo Ayniy turli sabablarni ro`kach qilib, bu taklifni rad qiladi. Yosh bo`lishiga qaramay bu dunyoning pastu balandini, oqu qorasini erta anglagan yozuvchida shaxsiy sifatlar shakllana boshlagan edi, maboda “madhiyago`y”likka rozi bo`lsa, kelgusidagi voqealar oqimi uni qaysi tomonlarga oqizib ketishi mumkinligini shoir Shamsiddin Shohin qismati misolida tushungan edi.

Ma`lumki, S.Ayniy ijodini she`r yozish bilan boshlaydi. Ahmad Donishning shafqatsiz realizm namunasi bo`lgan “Navodir ul-vaqoe” asari bilan tanishgach, unda yozuvchilikka havas uyg`onadi. Asarlari tilining sodda, ravon, xalqona jummlalarning pishiq, fikrlarining mantiqan bir-biriga bog`lanishi ustida sabot bilan mehnat qiladi. 1920-1921-yillarda nosirlikka jiddiy kirishadi.

Psixologlarning aniqlashicha, insonda xarakter xususiyatlari 22-25 yoshlar atrofida shakllanadi. Oktyabr inqilobi ro`y berganda Sadriddin Ayniy 40 yoshda edi. Adibning ideallari, qaror topgan

xarakteri, jumladan, ijtimoiy adolatsizlikka murossasizligi yangi tuzum g`oyalari-ga mos keldi. Shu bois adib amirning taxtdan ag`darilishini (1920) mamnuniyat bilan qarshilaydi.

Yana bir jihati – sho`ro hukumatiga ham bayroq qilib ko`tarish uchun Sadrid-din Ayniyga o`xshagan taniqli, e`tirof etilgan shaxs kerak edi.

XIX asrning ikkinchi yarmidan XX asrning 20-yillariga qadar bo`lgan Buxoro tarixida soxtalashtirilgan, xolisona o`rganilmagan nuqtalar ko`p. Tarixiy hujjatlar, darsliklar, ma`lumotnomalar o`z davrining siyosat va mafkurasi ta`sirida bir yoqlama yoritilgan bo`lib, bugungi kun Sadrid-din Ayniy asarlarining nafaqat badiiy, balki tarixiy ahamiyati nechog`lik baland va muhimligini ko`rsatib turibdi. Bu borada “Esdaliklar” juda qimmatli manba hisoblanadi.

Sadrid-din Ayniy poetik uslubini belgilovchi bosh asos bu – tarixiy haqiqatga sodiqlik va rostgo`ylikdir. Ibn Sino, Rudakiy, Firdavsiy, Shayx Sa`diy, Alisher Navoiy, Mirzo Bedil, Muqimiylar haqidagi ilmiy tadqiqotlarida ham shu xususiyat yetakchilik qiladi. Turkiy, forsiy, arabiy manbalarni taqqoslab, olim ilmiy qarashlarini tarixiy fakt, dalil, hujjatlar bilan asoslaydi.

Sadrid-din Ayniyning 20-yillarda yozilgan asarlarida uning yangi tuzumga xayrixohligi aniq ko`rinib turadi. Adib asarlarini xronologik tartibda ko`zdan kechiradigan bo`lsak, bu xayrixohlik asta-sekinlik bilan hushyorlikka, so`ng tahlikaga, keyinchalik qo`rquvga aylana borganligi seziladi. 30-yillarga kelib, amir saltanatidan qo`rqmagan odam sho`ro siyosatidan dahshatga tushadi. Chunki 20-yillarning oxiridayoq qatag`on bulutlari parokanda bo`lsa-da, ko`k yuzini qoplayotgan edi. Sinchkov, voqelikning ichki jarayonlarini teran tushunadigan ijodkorning bulardan bexabar qolishi mumkin emas edi. Shu bois o`tmish mavzuida yozilgan bo`lsa-da, “Doxunda” (1930), “Qullar” (1934) romanlarida Oktyabr inqilobi arafasi va undan keyingi davr voqealari atroflicha yoritiladi. O`sha davr adabiyotshunosligi tili bilan aytganda, “yot unsurlar”, “bosmachilar” harakatlariga munosabat bildiriladi. Albatta, bu harakatga qo`shilganlar orasida mol-mulkidan judo bo`lgan, erlari musodara qilingan alamzadalar ko`pchilikni tashkil qilardi. Bularning aksariyati savodsiz, uzoqni ko`rolmaydigan kishilar bo`lib, milliy ozodlik, Vatan mustaqilligi va din ravnaqi uchun kurashga kirishganlar juda ozchilikni tashkil qilgan. Olomonchilik kayfiyatiga asoslangan bu

oqim shu uchun milliy harakat tusiga aylanmagan. Qolaversa, jamiyatdagi mavjud tabaqalarni birlashtiradigan yagona bir g`oya, maqsad, manfaatlar birligi yo`q edi.

O`tgan tuzumda “bosmachilar harakati” deb nom olgan siyosiy harakatning Farg`ona hududidagi vakillari faoliyatiga doir manbalar anchagina. Biroq Buxoro muzofotidagi bu harakat vakillari haqidagi ma`lumotlar faqatgina Ayniy asarlaridagina saqlanib qolingan. Bu xususda boshqa badiiy, ilmiy, publististik manbalar kam. Ushbu harakatga Sadridin Ayniy xayrixoh bo`lmagan, lekin eng muhimi – bu faktlar beiz yo`qolib ketmagan, tarixiy hodisa sifatida qayd etilgan.

Tarixiy voqealarni badiiy talqin etishda ba`zi masalalarda ijodkorning sub`ektiv qarashlari ustunlik qilganligini ham qayd etish joiz. Shunday masalalardan biri jadidizm – yosh buxoroliklar harakatidir. Sho`ro siyosati avval jadidchilik g`oyalarini qo`llab-quvvatlab, har tomonlama ko`mak berib turadi. Yangi tuzum o`z asosini mustahkamlab olganidan so`ng jadidlarga ehtiyoji qolmaydi. Bu harakat ishtirokchilari ta`qibga olinadi, qamaladi, qatag`onga uchraydi.

Fayzulla Xo`jayev Sadridin Ayniyning “Buxoro inqilobi tarixi uchun materiallar” asarida jadidizmga noto`g`ri va mavhum baho berilganligini qayd etar ekan, “Ayniyning jadidizm bilan bolshevizmni, yaxlit, buzilmas, bir-biri bilan bog`langan bir butun harakat tariqasida talqin qilishga uringanligi hammadan ham qiziqroq bo`lib chiqdi”, deb yozadi.

Keyinchalik yozilgan “Doxunda”, “Qullar” asarlarida jadidchilikka munosabat bir qadar o`zgaradi – ular jamiyatdan ajralib qolgan harakat sifatida tasvirlanadi.

Bundan tashqari, har ikkala romanning oxirigi boblarida sovet voqeligiga bag`ishlangan tasvirlar cho`zilib ketgandek tuyuladi. Agar ana shu sovet voqeligiga bag`ishlangan o`rinlarga diqqat qilinsa, asar boshlaridagi ob`ektiv, tabiiy va ayniyona tasvir o`rnini publististik ohang, tashviqot uslubi egallaganligini ilg`ash qiyin emas. O`zlikni himoya qilish instinkti ishga tushadi, har ikkala asarning so`nggi fasllari sostrealizm metodi tamoyillariga muvofiqlashadi.

Ushbu romanlar yozilganda yozuvchi 53-56 yoshlar atrofida bo`lgan. Inson yoshi o`tgan sari vazminroq, mulohazakorroq bo`lib boraveradi. Asarlarida yangi voqelikni tarannum etsa-da, yozuvchi har qanday kutilmagan vaziyatga ruhan tayyorlanib, hadik ichida

qamalishini kutib yashagan. Bu bejiz emas edi. Asarlarida aytilishi kerak bo'lmagan ba'zi gaplar uchrardiki, ayniyshunoslar ham bu masalalarni chetlab o'tishgan. "Qullar" romanining o'n ettinchi faslida tatar boyining Abdurahimboy uyida mehmon bo'lish epizodi bunga misol.

Amirlikda jinoyatchilar kaltaklangan, zindonga tashlangan, kamdan kam hollardagina o'limga hukm etilgan. Arzimas sabablarga ko'ra otuvga hukm qilinayotganlar qismati yozuvchini iztirobga solgan, qayg'uga cho'mdirgan. U ham oddiy bir inson sifatida inson hayotining naqadar omonatligini, qatli kushning zalvorini chuqur his qilgan. 1936-1938-yillarni adib ijodida ruhiy tushkunlik davri deyish mumkin.

1939 yilga kelib qatag'on qutqusi batamom bitmagan bo'lsa-da, dunyo yangi bir balo – ikkinchi jahon urushi arafasida edi. "Sudxo'ning o'limi" shu yili yozilgan. Asar tez yozilishi mumkin, biroq uni yozishga tayyorgarlik bir pasda amalga oshadigan jarayon emas. Qissa syujeti yozuvchining talabalik davrlaridagi voqealarga asoslangan. Asar tilining maroqli, syujet va kompozistiyaning pishiq, g'oyaviy-badiiy xususiyatlarining barkamolligini e'tiborga oladigan bo'lsak, bu paytga kelib yozuvchi qamalish xavfidan tamoman qutulmagan bo'lsa-da, o'zini erkin va xotirjamroq his qila boshlaganligi seziladi. Chunki bu asarda zamonaga ortiqcha "ofarinbozlik" o'qilmaydi.

Sadriddin Ayniy xatti-harakatlari, yurish-turishlari, tilda bir gapni aytib, amalda boshqa ish qilishlari tufayli uch toifani juda yomon ko'rgan. Birinchisi – boylar, ikkinchisi – din peshvolari, uchinchisi – saltanat amaldorlari. Ayniyning asarlaridan asarlariga ko'chib yuruvchi bu toifa vakillari xayoliy, uydirma yo o'ylab topilgan kishilar emas. Ularning avlodlari – nevara, evaralari bugun turli sohalarda faoliyat ko'rsatmoqda. Boylar tekinox'rligi va xasisligi uchun, din peshvolari – riyokorligi va johilligi uchun, amaldorlar – zolimligi uchun yozuvchining asarlari syujetidan muqim joy oladilar. Ayniyning o'sib-ulg'ayishida, ijodkor bo'lib etishuviga, uni ma'nan va moddiy qo'llab-quvvatlagan boylar, ulamolar, qozilar ham bo'lgan. Yozuvchi asarlarida ular haqida qisman to'xtalsa-da, biroq batafsillikka o'rin bermaydiki, boisi ma'lum, siyosat ko'tarmasdi.

Sadriddin Ayniy ikki tuzumda yashadi. Badiiy asarlarida, asosan, o'tmish mavzui qalamga olinadi. Yangi tuzum aks etgan boblarda aniq

esda qoladigan biror bir yorqin xarakterni ko`rmaymiz. O`tmish hayoti yozuvchi uchun bitmas, tuganmas “qaynar xumcha”. O`tmish mavzusida yozuvchining qalami ravonlashadi, tarix tilga kiradi, moziy kino tasmasidek ko`z o`ngimizdan o`ta boshlaydi. Qiyoslashlar hayotiy, konkret. O`ylab topilgan, o`quvchiga mavhum tushuncha, taqqoslash, ibora, holat, manzara uchramaydi. O`xshatishlar, tasviriy vositalar qahramonlarning kasb-koridan, kundalik turmushida ko`rib, ishlatib yurgan narsa, buyum, tushunchalardan olinadiki, bu xarakter qiyofalarini ochishda, ta`sirdorlikni kuchaytirishda muhim rol o`ynaydi.

“Sudxo`rning o`limi”, “Eski maktab”, “Esdaliklar” – mutafakkir rassomning shoh asarlari. Bular shunchaki muzey devoriga osilgan jonsiz suratlar emas. Unda XIX asrning jabru jafolarini, anduhu alamlarini elkasiga ortib, nurayotgan saltanatning xarobalari aro adolat va iymon izlab XX asrning jinko`chalariga kirib borayotgan ijodkorning o`ychan, nuroniy qiyofasi aks etgan.

Sadriddin Ayniyning eng muhim xizmatlaridan biri shundaki, u o`zbek va tojik realistik prozasining shakllanishi va rivojiga munosib ulush qo`shdi.

Adibning ijodiy yuksalishi, jahon adabiyoti namoyandalari qatoridan mustahkam o`rin egallashi bir qator ob`ektiv omillar bilan aloqadordir.

I. Sadriddin Ayniy jahon adabiyoti badiiy-estetik tajribalari asosida o`zbek nasriga tarixiy qissa, roman-epopeyaning ilk namunalarini olib kirdi. Binobarin, adib qissalarining mavzuiy turlari har xildir. Ularni shartli ravishda quyidagicha tasniflash mumkin:

1. Tarixiy-avtobiografik qissalar. Bunga adibning “Esdaliklar”, “Eski maktab” singari qissalari misol bo`ladi. Uning avtobiografik asarlarni yozishdagi mahorati o`zbek nasrining “Bolalik” (Oybek), “O`tmishdan ertaklar” (Abdulla Qahhor), “Ko`rgan-kechirganlarim” va “Navro`z” (N.Safarov) singari namunalarining bunyodga kelishiga ijodiy zamin hozirladi.

2. Tarixiy qissalar. Bunga “Buxoro jallodlari”, “Muqanna isyoni” va “Temur Malik” asarlari misol bo`la oladi. Ustod Ayniy tarixnavislikda iste`dodli adibu, yozuvchilikda tarixning ulug` bilimdoni edi. U xalqimiz o`tmishini xuddi o`zi yashayotgan zamonday mukammal bilar, bilganlarini esa badiiyat libosiga shu qadar mohirona o`rab tasvirlardiki, undan zamon ruhi to`liq ufurib va

jaranglab turardi. Uning qalami tarixdagi har bir nuqtadan jonli obraz yaratishga mohir edi.

Ma'lumki, Sadridin Ayniy – Buxoro farzandi. Uning ijodi amirlik tuzumi davrida Buxoro adabiy muhitida shakllandi. Uning otasi Saidmurodxo`ja haqiqatparvar, ilmparvar, xalqparvar va hayotga faol munosabatda bo`luvchi kishi edi. Shu fazilatlar bolaligidan boshlab yosh Ayniy ruhiyati, qalbi va shuuriga ham singib bordi. Natijada uning ijodida oddiy halq vakillari ijodi bo`y ko`rsatdi.

Zero, “Buxoro jallodlari” tarixiy qissanavislikning debochasi sifatida o`zbek adabiyotida shunday qissalar yaratilishi uchun asos vazifasini o`tadi. Yosh Ayniy Buxoro amirligida kechgan voqealarning ko`pchiligini o`z ko`zi bilan ko`rganligi uchun ham qissadagi lavhalar jonli va hayotiy ifoda etilganligi kuzatiladi. Akademik M.Qo`shjonovning ta`kidlashicha, “Bu asar yaratilgan davrda A.Qodiriyning “O`tgan kunlar” romani O`rta Osiyoda keng tarqalib, o`zbek, tojik xalqlari orasida tarixiy tafakkurga qiziqish ortgan davr edi” (1, 18). Haqiqatan, bu qissa yaratilgan davr “o`tmishimizning eng kir va qora zamonlari bo`lmish xon zamonlari” (A.Qodiriy) dan bahs yuritadi. Zero, Buxoroning yaqin o`tmishida yuz bergan xunrezliklar adabiyot maydoniga kirib kelgan Ayniyni ham befarq qoldirmadi.

Qahramonlik pafosiga limmo-lim “Muqanna isyoni” va “Temur Malik” tarixiy-hujjatli asarlarini muallif ocherk tarzida taqdim etgan esa-da, aslida bu asarlar hujjatli tarixiy qissa namunasi sifatida ma`rifiy xarakterga egadir. Ayniy shu asarlari bilan o`smirlarga mo`ljallangan ma`rifiy-tarixiy nasrni boshlab berdi. Ular tarixiy ilmiy-badiiy qissa janrining ilk namunalari bo`lib, O`rta Osiyo xalqlari prozasida ham o`z davrida yangilik edi. Shu sababli bu yangilik boshqa ijodkorlarga ta`sir o`tkaza boshladi. Hamid Olimjon ustodning “Muqanna isyoni”dan ijodiy ta`sirlanib “Muqanna” tarixiy dramasini, Muxtor Ashrafiy “Temur Malik”dan ilhomlanib shu nomda simfonik syutasi va “Muhabbat va qilich” baletini, qolaversa, Mirmuhsin “Temur Malik” tarixiy romanini yaratdilar.

3. Tarixiy-maishiy qissalar. Bunga “Odina”, “Sudxo`rning o`limi”, “Etim” qissalari kiradi. Adibning “Etim” qissasi oddiy xalq hayotidan so`zlaydi. Aytish mumkinki, mazkur asar Oybekning “Qutlug` qon” romani yaratilishida xamirturush vazifasini o`tagan. Bu asarlardagi syujet mushtarakligidan tashqari bosh qahramonlar ruhiy-

ma`naviy o`xshashligida ham kuzatiladi. Demak, mazkur qissa adabiyotimizda shunday asarlarning yaratilishiga asos vazifasini o`tagan.

Qayd etish kerakki, bu ijodiy izlanishlar natijasida adabiyotimizda tarixiy qissa janriga asos solindi.

Ma`lumki, jahon adabiyotida roman-epopeyalar yozish ancha erta boshlangan. Agar Abdulla Qodiriy “O`tkan kunlar” asari bilan dunyoda oltinchi romanchilik maktabiga asos solgan bo`lsa, ustod Ayniy o`zbek adabiyotida birinchi roman-epopeyaning muallifidir. O`zbek xalqining bir asrlik hayoti badiiy aks ettirilgan “Qullar” asari hozirga qadar o`zbek adabiyotida yirik epik polotno bo`lib qolmoqda. O`zbek xalqi hayotining barcha qatlamlari qalamga olingan mazkur roman Ayniy badiiyatining yorqin namunasi sifatida ham ahamiyatlidir.

Ayniy nasrini o`ziga davrdosh bo`lgan boshqa ijodkorlardan ajratib turadigan muhim xususiyat – u yaratgan qahramonlarning oddiy xalk vakillari ekanligidir. Rahimdod, Odina, Yodgor singari obrazlar mulohazalarimizni tasdiqlab turadi.

Ayniyning adabiyotimiz tarixidagi katta xizmatlaridan yana biri - “Esdaliklar” memuar asarini yaratganligidir. Asar adib hayotining so`nggi yillarida yaratilgan. Buning sababini uning o`zi quyidagicha izohlaydi: “Mening fikrimcha, esdalik yozish roman va hikoya yozishdan qiyinroq bo`lgani uchun bu ishni ko`proq tajriba olgunimga qadar qoldirgan edim” (1,96). Adabiyotimiz tarixiga nazar tashlasak, Zahiriddin Bobur ham “Boburnoma”ni insho etgunga qadar o`zi ko`rgan va guvohi bo`lgan voqealarni kundaliklar tarzida yozib borgan. Shu kundaliklar mashhur “Boburnoma”ni yozishda katta material vazifasini o`tagan. Ya`ni Bobur ham bu asar bunyodga kelgunga qadar ancha-muncha hayotiy tajriba orttirgan.

II. Xalq og`zaki ijodi xazinasi adib ijodining, nasrining yuksalishida muhim omil vazifasini o`tadi. Otasi Saidmurodxo`jadan eshitgan rivoyatlar, To`taposhsha aytib bergan ertaklar ruhi keyinchalik adib asarlari mazmuniga singdi. Ayniqsa, bosh qahramon ruhiyatini ochib berishga, milliy hayot manzaralarini ta`sirchan ifodalashga xizmat qilgan “Qullar” romanidagi xalq qo`shiqlari, “Doxunda” romanidagi aytishuv, laparlar mulohazalarimizni tasdiqlab turadi. R.Vohidov va M.Mahmudovlarning yozishicha: “Rahimdod chalgan nayning nolasi, u kuylagan dardli qo`shiq Gulsum va

Husaynning badanlarini jimirlatib, mahzun yuraklarga sanchiq solgan mana bu misralar ham “Qullar” romaniga ayricha nafosat, mung, zebolik baxsh etgan:

Dodlama, dodlama, dod sasi galdi
Qarshining cho`lida yor sasi galdi.
O`lkadan o`lkaga el kabi yursam,
Gunlarning birida yor yuzin go`rsam...”

Haqiqatan, xalq qo`shig`idan olingan “og`ir dard samolarga taralgan, qullikka mahkum insonlar qalbiga g`ulg`ula solgan” (2,116) mungli satrlar Rahimdodning ko`ngil iztiroblarini o`zida aks ettiradi. Bunday misollarni yozuvchining deyarli barcha asarlaridan keltirish mumkin. Demak, Ayniy xalq og`zaki ijodining zukko bilimdoni sifatida uning sarchashmalaridan bahramand bo`lgan va milliy hayot manzaralarini jonli ifodalashga erishgan.

III. Sharq didaktik adabiyoti an`analari. Ma`lumki, XIX asr o`rtalarida keng qanot yoya boshlagan ma`rifatchilik, XX asr boshlarida yuzaga kelgan jadidchilik harakati adib dunyoqarashida keskin burilishlarni vujudga keltirdi. U Buxoroda jadid maktablari ochish ishida jonbozlik ko`rsatdi. Bu amaliy harakat, albatta, yozuvchi ijodida ham aks etdi. U shunday maktablar uchun darsliklar yozishga kirishdi. “Tahsibus sibiyan” (“Yoshlar tarbiyasi”), qizlar maktablari uchun “Qiz bola yoki Xolida” asarlari shu harakatlar samarasi sifatida bunyodga keldi. “Tahzibus-sibiyan” Sharq adabiy maktabi an`analari ta`sirida vujudga kelgan badiiy-axloqiy asardir. Ustodning ushbu kitobi Shayx Sa`diyning “Guliston”, Abdurahmon Jomiyning “Bahoriston” asarlari uslubida yaratilganligi bilan e`tiborli. Shunday fikrni asarning g`oyaviy yo`nalishi va ifoda tarzi xususida ham aytish joizdir. Unda nasru nazmga birday munosabat etakchilik qiladi. Asarda imkon qadar ixcham va sodda fikr yuritishga harakat qilinadi. Bayon qilingan tarbiyaviy fikrlar kichik hikoyalar guvohligida mustahkamlanadi.

“Qiz bola yoki Xolida” asari esa o`zbek qizi to`rt devor orasida mute` va erksiz saqlangan bir davrda adibning ma`naviy jasorati edi. Sharq didaktikasi ruhida yozilgan bu asarda Ayniy Xolida misolida qiz bolaning jamiyatda tutgan mavqei, sha`ni va orzu-havaslarini haqida fikr yuritadi: “Qiz bola ota-onasining eng sevukli bir mevasidur. Qiz bola ota-onaning qayg`ulik chog`larida eng mehribon bir sirdoshidir. Qiz bola qavmu qarindoshlarining obro`yi va nomuslaridir. Qiz bola

uyning ziynati va xonadonning davlatidir. Qiz bola yurtning bog`i va butun elu ulusning chirog`idir” (4,4). Mazkur ibratnamo fikrlar bugungi kunda qizlar tarbiyasida ham o`ziga xos dasturilamal vazifasini o`taydi.

Yuqorida biz Sadridin Ayniy nasriga xos muhim xususiyatlarni umumlashtirishga harakat qildik. Ulkan adibning adabiyotimiz oldidagi buyuk xizmati shundaki, u o`tgan asr boshlarida o`zbek nasriga yangi sahifalar ochdi: birinchi tarixiy qissa va roman-epopeyani yaratdi. Buning natijasida zamonaviy o`zbek adabiyotining tamal toshi qo`yilib, jahon adabiyoti bilan bo`ylasha oladigan asarlar yaratildi. Shu bilan birga o`zbek xalqi tarixining muhim qatlamlarini, milliy hayot manzaralarini badiiy aks ettirishda xalq og`zaki ijodi sarchashmalaridan mahorat bilan foydalandi. Qolaversa, adib Sharq didaktikasi ta`sirida go`zal asarlar bitdi. Bu jihatlar yozuvchi yaratgan nasriy merosning umrboqiyliigi va bezavolligini ta`minlab turadi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. S.Ayniyning bolaligi qanday kechgan?
2. Yozuvchi kimning “mulla bo`lma, qozi bo`lma, odam bo`l” o`giti ta`sirida kamol topdi?
3. Adibning qaysi romani o`zbek adabiyotida birinchi roman-epopeya hisoblanadi?
4. S.Ayniyning tarixiy-maishiy qissalari qaysilar?
5. Oybekning “Qutlug` qon” romani yaratilishida xamirturush vazifasini o`tagan qissani toping.
6. “Esdaliklar” memuar asarini yaratishda adib qanday tajribalarga suyanadi?
7. Adib ijodining, nasrining yuksalishida muhim omil vazifasini o`tagan omillarni belgilang.
8. “Qiz bola yoki Xolida” asarining tarbiyaviy jihati nimalarda namoyon bo`ladi?
9. Sadridin Ayniy nasriga xos muhim xususiyatlarni sanang.
10. Adibning o`zbek ma`rifatchilik adabiyoti taraqqiyotiga qo`shgan ulkan hissasi qanday?

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Каримов И. Адабиётга эътибор – маънавиятга, келажакка эътибор. – Т.: Ўзбекистон, 2009.

2. Мирзиёев Ш. М. Буюк келажигимизни мард ва олийжаноб халқимиз билан бирга кураимиз. – Т.: Ўзбекистон, 2017. – 488 б.
3. Миллий уйғониш. Илмий мақолалар тўплами. – Т.: Фан, 1993.
4. Алиев А. Истиқлол ва адабий мерос. – Т.: Ўзбекистон, 1997.
5. Ризаев Ш. Жадид драмаси. Рисола ва матнлар. – Т.: Шарқ, 1997.
6. Каримов Н, Мамажонов С, Назаров Б, Норматов У, Шарафиддинов О. XX аср ўзбек адабиёти тарихи. Олий ўқув юртлари учун дарслик. –Т.: Ўқитувчи, 1999.
7. Қосимов Б. Миллий уйғониш. – Т.: Маънавият, 2002.
8. Санжар Содик. Янги ўзбек адабиёти тарихи. Дарслик. –Т.: Университет, 2005.
9. Каримов Н. XX аср адабиёти манзаралари. –Т.: Ўзбекистон, 2008.

S.Ayniy asarlari:

10. Айний С. 8 томлик. 3-том. Қуллар. –Т: Бадиий адабиёт нашриёти, 1964.
11. Айний С. Қиз бола ёки Холида. – Тошкент: Ўрта ва олий мактаб. 1964.
12. Айний С. 8 томлик. 6-том. Эсдаликлар. III қисм. Т., Бадиий адабиёт нашриёти, 1965.
13. Айний С. Асарлар. 8 томлик. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги бадиий адабиёт нашриёти, 1967.
14. Айний С. Судхўрнинг ўлими. Т., Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1988.

S.Ayniy haqidagi tadqiqotlar:

15. Ҳасанов А. “Қиз бола ёки Холида” асари ҳақида. Китобда. Айний С. Қиз бола ёки Холида. Тошкент, 1964.
16. Бородин С. П. Айни /Бородин С. П. Собрание сочинений. В шести томах. Том 6. – Т.: Изд-во литературы и искусства, 1976.
17. Османова З.Т. Художественная концепция личности в литературе Востока. – Москва: Издательство «Наука» 1980
18. Қўшжонов М. Айний бадииятининг эволюцияси. – Тошкент: Фан, 1988.

19. Мирзаев С., Шермухаммедов С. Садриддин Айний. Ҳозирги замон ўзбек адабиёти тарихи. – Т.: Ўзбекистон, 1993.

20. Каримов Н. С. Айний ва Бальзак // Ўзбек тили ва адабиёти, 2008. № 2. –Б.20-24.

21. Воҳидов Р., Махмудов М. Устод Садриддин Айний сабоқлари. – Тошкент: Фан, 2004.

Mavzu: Abdurauf Fitrat hayoti va ijodi



(1886-1938)

Reja:

1. Fitrat ijodining o`rganilishi.
2. Fitratning hayot yo`li
3. Fitrat she`riyatining xususiyatlari
4. Fitratning nasriy asarlari
5. Fitrat - dramaturg.

Tayanch tushunchalar: Fitrat she`riyati, publitsistikasi, jadidchilik, «Qiyomat», xayoliy hikoya, drama, tragediya, «Abulfayzxon», istiqlol mavzusi, qomusiylik, nasriy asar.

XX asr o`zbek adabiyotining atoqli namoyandalaridan biri Abdurauf Fitrat hayoti va ijodining o`rganilish tarixini uch bosqichga ajratish o`rinlidir.

Birinchi bosqich Fitratning hayotlik davri bo`lib, u asosan,

yozuvchi asarlari haqida matbuotda ilk fikrlar aytila boshlagan, taxminan 1910-yillarning avvalidan to qatl etilgan – 1938-yilgacha boʻlgan davrni qamrab oladi.

Fitrat asarlariga Oktabr toʻntarishidan ilgariyoq faqat oʻzbek tilida emas, hatto rus tilida ham maxsus taqrizlar eʼlon qilina boshladi. Masalan, rus tilida nashr etilgan "Munozara"ga V.V.Andreyev 1916-yil oktabrida "Turkestanskiye vedomosti" gazetasining bir necha sonida "Buxorodagi yangi oqimlar" nomi ostida turkum-taqriz eʼlon qildi. Fitrat ijodini oʻrganishning bu bosqichidagi maqolalarda ikki nuqtai nazar koʻzga tashlanadi. «Chin sevich», «Abo Muslim» dramalariga taqriz yozgan Choʻlpon, «Qiyomat»ga soʻz boshi ilova etgan Nazir Toʻraqulov, «Hind ixtilolchilari»ga faol munosabat bildirgan Vadud Mahmud Fitrat asarlarini yuqori baholaydilar. Fayzulla Xoʻjayev 20-yillarning avvalida Fitrat asarlarining ijtimoiy salmogʻini alohida eʼtirof etadi. Sadriddin Ayniy «Tojik adabiyoti namunalari» kitobida Fitratga maxsus bob ajratib, uni «yangi zamonning yangi yoʻnalishdagi ulkan mahoratli yozuvchisi» deb ataydi. Biroq shoʻro siyosati va kommunistik firqa mafkurasi buyuk millatparvar adib dunyoqarashi va asarlarini baholashda asta-sekin oʻzining omonsiz tazyiqini oʻtkaza boshladi.

J.Boybulatov «Oʻzbek adabiyoti namunalari» (1928) bahonasida Fitratga islomning adabiyotdagi targʻibotchisi degan yorliq yopishtiradi va unga turkparastlikdan tortib shoʻro va yangi tuzumning gʻoyaviy-siyosiy dushmanigacha boʻlgan butkul ayblarni qoʻyadi.

Hamid Olimjon ham «Fitratning adabiy ijodi haqida» maqolasida (1936) yozuvchi dunyoqarashi va asarlari haqida ilmiy jihatdan notoʻgʻri fikr yuritgan.

Ikkinchi bosqich 1938-1990-yillardan iborat boʻlib, bu davrda Fitratning nomi ham, asarlari ham deyarli batamom qoralanib kelindi. Shaxsga sigʻinish oqibatlarini fosh etishda dastlabki qadamlar qoʻyilgan 1956-yildan boshlab Fitrat nomi oqlanib ketishi tufayli uning ayrim asarlariga ijobiy munosabat bildirildi.

Biroq baribir bu sanʼatkorga adolat bilan yondashuvga shoʻro mafkurasi yana uzoq yillar yoʻl qoʻymadi. Shunga qaramay Ozod Sharafiddinov, Ahmad Aliyev, Erik Karimov singari millatparvar va adolatgoʻy adabiyotshunoslar adib dunyoqarashi va asarlarini 60-70-yillardayoq imkoni boricha odil baholashga harakat qildilar. Bu

intilish uchun qattiq ta`na-dashnomlarga ham uchradilar. 80-yillarning o`rtalarida oshkoralik deb nomlangan zamonlar yetib keldi. Sobiq Ittifoq parchalandi, komfirqa tanazzulga yuz tutdi. Fitrat hayoti va ijodini adolatli o`rganish imkoniyati tug`ildi.

Matbuotda u haqida maqolalar bosila boshladi. Gazeta va jurnallarda sharh va so`zboshilar bilan san`atkor asarlaridan namuna, parchalar e`lon qilindi. Bu ishda ayniqsa Ahmad Aliyev, Begali Qosimov, Naim Karimov, Sherali Turdiyev, Hamidulla Boltaboyev, Sirojiddin Ahmedov kabi olimlar tashabbus ko`rsatdilar.

Uchinchi bosqich O`zbekiston mustaqillikga erishgan 1991-yildan boshlanadi. Bu davrdan e`tiboran endi Fitrat ijodini chuqur va atroflicha tadqiq qilish hamda asarlarini chop etishga kirishildi. Qisqa muddat ichida Ilhom G`aniyevning «Fitratning tragediya yaratish mahorati» (1994), «Fitrat. E`tiqod. Ijod» (1994), «Fitratshunoslik» (1995) singari monografiyalari, Hamidulla Boltaboyevning oliy va o`rta maxsus o`quv yurtlari uchun «Abdurauf Fitrat» nomli qo`llanmasi maydonga keldi. Ayni vaqtda Fitratning ijodidan tanlab olingan she`rlar, dramalar va maqolalardan iborat «Chin sevich» (1996) majmuasi, qo`llanma tarzidagi «Adabiyot qoidalari» (1995), «Bedil» (1996), «Munozara» («Sharq yulduzi» jurnali, 1-son) nomli kitoblari bosilib chiqdi.

Bizda Fitrat va Cho`lpon merosi man qilingan zamonlarda xorijda ular ijodini o`rganish davom etdi. Fuod Ko`pruli, Ahmad Zakiy Validiy To`g`on, Kamol Eraslon, Ibrohim Yorqin, Mahmad Saroy va boshqalar Fitrat asarlarini millat, Vatan dardi muammolari negizida tadqiq etdilar.

Fitrat shaxsi va ijodiga bo`lgan xalqaro miqyosdagi e`tibor tobora ortib bormoqda. Fitrat buyuk san`atkor bo`lishi barobarida ijtimoiy-siyosiy faoliyat bilan ham chuqur shug`ullangan ulkan davlat arbobidir. Uning bu yo`nalishidagi faoliyati ko`proq 1923-yilning o`rtalarigacha bo`lgan davrga to`g`ri keladi. Masalan, birgina «Buxoro Xalq sho`rolar jumhuriyatining konstitutsiyasi» Fitrat tahriridan keyingina Qurultoyda qabul qilinishi uning siyosiy-ijtimoiy sohada nechog`li katta hurmatga ega bo`lganligini ko`rsatadi. U Buxoro xalq jumhuriyatida mas`ul vazifalarni ado etdi. Xalq nozirlar kengashi hay`ati a`zosi, tashqi ishlar xalq noziri, maorif noziri singari yuksak lavozimlarda ishlagan Fitrat o`z zimmasidagi vazifalarga doimo yuksak talablar bilan yondashdi. U sho`rolar hukumati va Moskva

belgilagan yoʻldan emas, oʻz yoʻlidan borishga harakat qildi. Bu esa Moskvaga maʼqul kelmadi. Ustiga-ustak 1924-yilda oʻtkazilishi moʻljallangan milliy chegaralanishni amalga oshirish vaqti yetib kelmoqda edi. Bunday sharoitda Fitrat kabi mustaqil fikrlovchi arboblarning shoʻro siyosatiga toʻgʻanoq turishi turgan gap edi. Uni tuhmatlar bilan Buxoro jumhuriyatidagi barcha lavozimlardan ozod etadilar. Keyingi maʼlumotlar shuni koʻrsatmoqdaki, Fitrat 1923-yil oʻrtalarida Moskvaga oʻzi ketgan emas, u yerga chaqirib olingan. Chunki u vatanida shoʻro siyosatini oʻtkazishga xalal berishi mumkin edi.

Fitrat Buxorodagi jadidchilik harakatida faol ishtirok etibgina qolmay, bu harakatga rahbarlik ham qildi. Bu boradagi oʻz qarashlarini «Munozara», «Hind sayyohi qissasi» singari asarlariga singirdi. Dastlab boshlangʻich oʻqish-oʻqitish usullarini yangilash, maorifni takomillashtirish, savdo-sotiqdan ishlab chiqarishgacha boʻlgan yoʻnalishlarda jahonning ilgʻor mamlakatlaridagi tajribalarni oʻzlashtirish, mutaassiblikdan qutulish, jamiyatni ravnaq toptiradigan bilimdon yoshlarni dunyoning mashhur bilim oʻchoqlariga yuborish kerak degan Fitratning jadidchilik gʻoyalari sekin-asta bularni amalga oshirish uchun Buxoro amirligining davlat tuzumini isloh etish va oʻzgartirish kerak degan xulosa darajasiga koʻtariladi. Fitrat «Sayha», «Hind sayyohi», «Begijon», «Oila» singari asarlarida «mavjud tuzumni tanqid qildi, uning barcha kamchiliklarini ayovsiz fosh etib tashladi» degan edi bu haqida Fayzulla Xoʻjayev.

Agar eʼtibor berilsa, «Munozara»da ham, «Hind sayyohi»da ham Fitrat Turkiston xalqi jamiki boyligiga oʻzi ega boʻlmogʻi kerak, unga qanday koʻrinishda boʻlmasin boqimanda ravishda oʻzgalarning sherik boʻlishi va egaligi bir jihatdan adolatsizlik, ikkinchi tomondan oʻzimizni oʻzimiz uddalay olmayotganimiz, boshqara olmayotganimiz oqibatidir degan fikrni ilgari suradi. Bunga esa faqat istiqloq tufayligina erishish mumkin edi.

Bu Firqaning asosiy maqsadi avvalgi yoʻlni davom ettirib, amirdan islohot talab qilishdan iborat edi. «Yosh buxoroliklar»ning yetakchi rahbarlaridan biri boʻlgan Fitrat uning faoliyatida muhim mavqe tutgan. Mutaxassislarining eʼtirof etishicha, «Yosh buxoroliklar»ning aksar muhim hujjatlari loyihasi Fitrat qalamiga mansubdir. Bunga «Yosh buxoroliklar» qoʻmitasining «Buxoroda islohotlar oʻtkazish dasturi loyihasi» «Yosh buxorolik»larning PDP

syezdlari, III syezd nomidan Kominternga V.I.Leninga yuborilgan telegrammalar matni dalildir. Islohot loyihasiga juda muhim masalalarni kiritishgan edi. Unda Buxoroning siyosiy va iqtisodiy mustaqilligi, armiya va harbiy kuchlarni tutish tartiblari, yerga boʻlgan mulkchilikning turli shakllari, adolatsiz soliqlarni bekor qilib, oʻrniga yangicha odil soliqlarni belgilash, pul va kredit, ijtimoiy muammolarni hal etish, hokimiyatni boshqarish tizimi singari masalalar qamrab olingan edi.

Buxoro amiri goʻyo jadidlarga yon bosgandek boʻlib, farmon chiqaradi. Bu aslida koʻzboʻyamachilik, vaqtinchalik yon bosish edi, xolos. Bundan norozi boʻlgan Fitrat rahbarligidagi jadidlar Registonda namoyish uyushtirganlarida oʻqqa tutiladilar. Fitrat Toshkentga ketishga majbur boʻladi. 1917-yil oktabr toʻntarishidan soʻng ham «Yosh buxoroliklar» Buxoroni ozod koʻrmoq, u yerda respublika tuzmoq maqsadida kurashni davom ettiradilar. Amir esa ularni xalqqa musulmonchilikning dushmani sifatida koʻrsatishga harakat qiladi.

Oʻsha zamonda maqsad-orzularni amalga oshirishning eng yaxshi vositasi matbuot edi. Fitrat 1917-yilning yozidan Samarqanddagi «Hurriyat» gazetasiga muharrirlik qila boshladi.

Fitrat mohir jurnalist ham edi. U «Yurt qaygʻusi» rukni ostida istiqloq gʻoyalarini ifoda etuvchi maqolalarni eʼlon etdi. «Ittifoq etaylik», «Saylov yaqinlashdi», «Ikki roʻyxat», «Siyosiy hollar» kabilar shular jumlasidandir.

Fitrat aynan shunday rukn ostida uchta sochma sheʼr eʼlon qildi. Ularni oʻzbek istiqloq adabiyotining yaxshi namunalari deyish mumkin. Binobarin, «Qorongʻular ichra yogʻdusiz qolgan oʻzbek koʻzlari uchun tuprogʻingdan surma olgani keldim» yoki «Turkning nomusi, eʼtibori, iymoni, vijdoni zolimlarning oyoqlari ostida qoldi, Turkning yurti, ulogʻi, oʻchogʻi, Turoni yot qoʻllarga tushdi» kabi misralarda milliy tuygʻu, Vatanga muhabbat yolqinlanib turadi.

Fitratning jurnalistik faoliyati «Turkiston», «Ishtirokiyun» gazetalarida davom etdi. «Tong» jurnaliga muharrirlik qildi. Eski maktablarning yuqori sinf oʻquvchilari uchun 1917-yil Bokuda «Oʻquv» kitobini nashr etdi.

U 1921-yil bahoridan Buxoroda maorif ishlarini tashkil etishda qatnashdi. 20-yillarning oʻrtalarida u oʻzbek tilining qonun-qoidalarini yoritishga bagʻishlangan «Sarf», «Nahv» darsliklarini nashr etdi.

Bu davrda u «Chigʻatoy gurungi» tashkilotiga rahbarlik qildi.

Shu tashkilot tashabbusi bilan «O`zbek yosh shoirlari» to`plami nashr etildi, «Devonu lug`otit turk», «Qutadg`u- bilig» ustida tadqiqot ishlariga kirishdi.

Fitrat – qomusiy ijodkor. Uning ijodiy faoliyatida quyidagi yo`nalishlar mavjud:

1. Islom tarixi. «Muxtasar islom tarixi» asarini yaratdi.
2. Tarix. «Amir Olimxonning hukmronlik davri» kitobini yozdi.
3. Falsafa . «Bedil» falsafiy asarini yozdi.
4. Siyosat. «Sharq siyosati», «Siyosiy hollar» maqolalarini yaratdi.
5. Iqtisod nazariyasi. «Munozara», «Hind sayyohi» kabi asarlarida iqtisod bilan bog`lik jihatlarni tadqiq etdi.
6. Musiqashunoslik. «O`zbek klassik musiqasi hamda uning tarixi» risolasini yozdi.
7. Sport madaniyati. «Sharqda shohmot» maqolasini yaratdi.
8. Pedagogika. «Rahbari najot», «Oila», «Mavludi sharif» risolalari, «Jamiyat va xayriya» maqolalarini yozdi.
9. Maorif. «O`quv», «Ona tili» kabi darsliklar yaratdi.
10. Tilshunoslik. «Devonu lug`otit turk»ni birinchilar qatori o`rgandi. «Sarf», «Nahf»ni ishlab chiqdi.
11. Adabiyotshunoslik. «Qutadg`u bilig»ning Namangan nusxasini topib, fanga kiritdi. «Ahmad Yassaviy», «Navoiyning forsiy shoirligi ham uning forsiy devoni», «O`zbek adabiyoti namunalari», «Adabiyot qoidalari», shuningdek, Umar Xayyom, Firdavsiy, Turdi, Mashrab, Muqimiy, Furqatga bag`ishlab maqolalar yozdi.

Fitratdan bizga katta adabiy meros qolgan. Uning birinchi she`riy to`plami «Sayha» fors tilida Istanbulda nashr etilgan. Shu to`plamdan namunalar «Sadoyi Turkiston» (1914-yil, iyul)da bosildi. 1922-yilda nashr etilgan «O`zbek yosh shoirlari» majmuasiga ham Fitrat she`rlari kiritilgan.

«Vatandin buyuk va ulug` oshyon yo`q», deydi shoirning lirik qahramoni. Vatan mavzusini XX asrda Fitrat boshlab berdi. Unda vatan, uning istiqboli, iqboli uchun kerak bo`lsa, jondan kechmoqqa tayyor tura oladigan lirik qahramon siymosi yaratilgan.

Shuningdek, shoir she`rlarida erk, tabiat manzaralari, sharq, muhabbat mavzui muhim o`rin tutadi.

Shoir «Qor» she`rida shunday yozadi:

Shu kichkina, o`ksuz, oppoq bobaklar
Ucha-ucha etmay qolgan tilaklar
Kamsitilgan qo`llariga o`zini
Tashlab qo`yar, borligini unutar.

Ushbu misralarda ulg`aya olmay, voyaga yetolmay qolgan bokira go`daklar yanglig`, intila-intila manziliga borolmay qolgan tilaklar yanglig`, borlig`ini unutgancha, o`zini o`zga kuchning qo`liga topshirib qo`ygan beg`ubor oppoq qor obrazida ifodalanayotgan timsol aslida erk, ozodlikdir. Ayni choqda bu sharq mavzui bilan uyg`unlashib ketadi.

Qulog`iga oltin xalqa taqqanda
Tunlar butun hijronlardan ayrilib,
Ko`klar sari qarab uchib ketadur
Yana uchish, yana o`yin, yana erk...

Fitratning «Mirrix yulduziga», «Behbudiyning sag`anasin izladim» she`rlari ham o`zining g`oyaviy-badiiy yetukligi bilan XX asr she`riyatida muhim o`rin egallaydi.

XX asr boshlarida o`zbek adabiyotida hikoya janri vujudga keldi. A.Qodiriyning «Jinlar bazmi», «Uloqda» hikoyalari qatorida Fitrat ham bir qancha hikoyalar yozdi. Bular: «Me`roj», «Zahroning imoni», «Oq mozor», «Zayd va Zaynab» kabilardir. «Qiyomat» hikoyasi bu jihatdan e`tiborli. «Qiyomat» adabiyotshunoslikda din asoslari tanqid qilingan satirik asar sifatida talqin etib kelindi. 1. Fitratning bu yo`nalishdagi asarlarini dinning o`zi tanqid qilingan asarlar deb emas, din niqobi ostidagi xurofot va shu xurofotni ham din aqidalari darajasiga ko`tarishga urinishlar fosh etilgan asarlar, deb qarash to`g`ri bo`ladi.

2. Diniy mavzuga murojaat adib uchun istiqlol yo`nalishidagi g`oyalarini ifodalash va shu yo`l bilan ularni ommaga yetkazishda qo`llangan usul edi.

«Qiyomat» fantastik yo`nalishda. Fitrat uni «hayotiy» hikoya deb atagan. Xizmatkor Ro`ziqul boy eshigidan haydaladi-yu, o`zini ko`knorixonaga uradi. Ko`knori ta`sirida u narigi dunyoga rixlat qiladi. Shu asosda Ro`ziqulning «hangomalari» boshlanadi. Pochamir – uning laqabi. U narigi dunyoda Yaratganning tartib-intizomlariga bo`ysunmaydi, ularda ma`nisizlik ko`rib, qabul qilishni istamaydi.

Ro`ziqul ramziy ma`noga ega. U imperiya keltirgan, sho`ro

keltirgan hayotning, tartibning, shu kunning quli demakdir.

Asardagi yana bir epizod e'tiborli. Ko'knorixonada «Me'rojnomani»ni o'qib o'tirishar ekan, Pochamir va uning do'stlari bu kitob va'da qilayotgan jannatu ogoh etayotgan do'zaxlarga ishonmaydilar. Ulardan ko'ra o'zlarining shu holatlarini afzal ko'radilar. Bu tasvir orqali Fitrat sho'ro va'da qilayotgan kelgusi «jannat» tuzumiga ishonmaslik kerakligini uqtiradi.

Fitrat asar nomiga ham katta ma'no yukladi: «Qiyomat», ma'lumki, diniy tushunchaga ko'ra, qiyomat oxir zamonda sodir bo'ladigan dahshatli hodisadir.

Fitrat merosida dramaturgiya ham son, ham salmoq jihatidan katta o'rin tutadi. U o'n beshga yaqin drama yozgan. «Begijon», «Mavludi sharif», «Abo Muslim», «Temur sag'anasi», «O'g'uzxon», «Chin sevish», «Hind ixtilolchilari», «Shaytonning tangriga isyoni», «Arslon», «Abulfayzxon» kabilar shular jumlasidandir. Ular orasida drama, komediya, tragediya va, hatto, opera librettosi ham bor.

Fitrat dramaturgiyasi mavzu, qahramon va muammolar jihatidan rang-barangdir.

«Arslon» dramasida Buxoro xonligidagi dehqonlar hayoti va qismati tasvirlangan. «Chin sevish», «Hind ixtilolchilari»da Hindistonning mard farzandlari Vatanni ingliz bosqinchilaridan ozod qilish uchun kurash olib boradilar.

«Temur sag'anasi»da (1918) zamon azoblari va bosqinchilar zo'ravonligidan qutulishi uchun buyuk sarkarda ruhi yordamga chaqiriladi. Temur ruhining xalqqa o'tli murojaati va drama qahramonining sag'ana timsolida xalq qudratiga munojoti elni, yurtni istiqlol sari kurashlarga chorlaydi.

Fitrat dramatik asarlari ichida bizgacha butun mukammalligi bilan yetib kelgani «Abulfayzxon» tragediyasidir.

Asarda tasvirlangan asosiy voqealarning deyarli barchasi tarixiy zaminga ega. Ular tarixiy hujjatlarga asoslangan. Asarni yaratishda Fitrat A.To'le'ning «Abulfayzxon tarixi», Muhammad Amin Buxoriyning «Udaydullonoma», Mir Vafo Karmanog'iyning «Tuhfai xoniy» singari tarixiy asarlardan foydalangani I. G'aniyev tadqiqotlarida e'tirof etiladi.

Asarda ashtarxoniyalar sulolasining so'nggi vakili Abulfayzxon davridagi Buxoro tasvirlangan.

Tragediyadagi obrazlar dunyosi rang-barang. Asarda

Abulfayzxon, Hakimbiy, Rahim To`qsabo, tarixchi Mir Vafo, Nodirshoh, uning o`g`li Rizoquli tarixiy shaxslardir. Ulfat, Davlat, Qurbongul esa to`qima obrazlardir.

Abulfayzxon tarixda shaxsning roli nechog`li ekaniga bir timsolddir. Xon lashkarboshi bo`la turib, o`zida badbin va vahshiy xislatlarni tajassum etar ekan, bu faqat o`zi uchungina emas, butun mamlakatga ham ofatdir. Shuning uchun ham tarix, ham taqdir Abulfayzxonni jazolaganini Fitrat mohirlik bilan ko`rsatib bergan.

Umuman, tragediyada tarixiy voqelik haqqoniy ifoda etilgan.

Fitrat ijodiy merosining bugungi ma`naviy hayotimiz uchun ibratli jihatlari ko`p. Bu meros bizga millatparvarlikni, vatanparvarlikni, ona yurt uchun fidoiylilikni o`rgatadi.

Fitratning «Shaytonning tangriga isyoni» she`riy dramasini olmon olimasi Ingeborg Baldauf xonim nemis tiliga o`girish barobarida u haqda o`z fikr-mulohazalarini ham bayon etar ekan, «Abdurauf Fitrat: «Shaytonning tangriga isyoni» degan maqolasida ijodkorning shayton isyonkorligi misolida aslida o`z isyonini bayon etmoqchi bo`lganiga e`tiborni tortadi. Shuningdek, tadqiqotchi U.Amonov ham «Fitrat shaytonning isyonkorlik sajiyasi vositasida ozodlikka intilayotgan kurashchi timsolini badiiy aks ettirishni ko`zlagan»ini alohida e`tirof etadi. Chunki Shaytonning nutqida erkinlikka chaqirish, o`z tepasidagi hukmronidan norozilik, unga bo`ysunmaslikka da`vatni aks ettiruvchi jumlar ko`p uchraydi. Masalan:

Shayton
Topinmaymiz... Istasang
Yubor bizni adamg`a!

Shularni inobatga olib, adabiyotshunos U.Jo`raqulov asardagi shayton obrazining gumanistik talqinga xizmat qilganini ta`kidlaydi.

Dramada shaytonning monologi va dialoglari asardagi dramatik holatni rivojlantirishning asosiy vositalaridan biri sifatida ko`rinadi. Xususan, unda shaytonning Jabroil, Mikoil, Azroil singari boshqa farishtalar va malaklar bilan dialoglari asarda muhim mavqe egallagan. Asarda she`riy va dramatik unsurlar o`zaro birikib ketishida dialoglar muhim ahamiyat kasb etgan. Shu orqali personajlarning harakat va intilishlari, xarakter-xususiyatlari ochila borgan. Dialoglar mazmunida qahramon harakatining yo`nalishi, qahramon ruhiyati va kayfiyati, kechinmalari ham aks ettirilgan.

Bezaklarning aniqligi, musiqa va yorug`likning me`yori jihatidan o`ziga xoslik kasb etishi dramatik asarlar uchun yetakchi xususiyatlardan biri ekanini yaxshi bilgan Fitrat dramaning sahna bezagini ta`kidlashga alohida e`tibor qaratgan: «Ko`k ustida oydin bir kenglik. Bir chetida yoqutdan yasalgan, turli qimmatli toshlar bilan bezalgan yuksak bir minbar. Minbarning tepasida oltin harflar bilan «Haza minbaru hazrati Azozil» deb yozilgan» .

Musiqa va yorug`lik ham dramatik asarlar ta`sirchanligini oshiruvchi muhim vositalardan biri hisoblanishini nazarda tutib, ijodkor dramada musiqa bilan bog`liq: «Isrofil sur chaladir. Malaklar sajdadan bosh ko`taradirlar», yorug`lik bilan bog`liq «Havo qorong`ulanar, ko`k guldinar, chaqinlar chaqar, har tomon titrar» kabi parchalarni asar o`rtasi va oxirida keltirib o`tgan. «Sur» – shoxdan yasalgan surnay turi bo`lgan cholg`u asbobi hisoblanadi. Shundan bilish mumkinki, o`zbek adabiyotidagi dastlabki she`riy drama bir qator sinkretik belgilarni o`zida namoyon etgan: musiqa, sahna bezaklari, she`riy shakl kabilar.

«Shaytonning tanriga isyoni» asarida har bir obraz o`z xarakteriga xos xislatlarini o`z tili, xatti-harakati orqali ochganligi uni boshqa turdagi epik va lirik asarlardan ajratib turgan muhim alomatlaridir. Faqatgina unda personajlar nutqi she`riy tarzda berilgani uni she`riy dramaga aylantirgan. Dramada muallif bayoni yo`q. Unda voqealar bayoni personajlarning nutqi va xatti-harakati orqali ifoda etilgan.

Dramada shaytonning insonga sajda qilmaslik uchun isyoni ekani eng muhim nuqta sifatida aks ettirilgan, lekin buning sabablari batafsil bayon etilmagan. Sababi dramaturgning ushbu asarni yaratishdan ko`zlagan maqsadi aslida bu emas. U ko`proq shu an`anaviy syujet motivi orqali o`z g`oyaviy niyatlarini ifoda etishni ko`zlagan. Shunga qarab butun voqealarni markazlashtirgan. O`quvchi yoki tomoshabin bularni anglashi uchun esa o`rni-o`rni bilan ayrim shtrixlarni keltirib o`tgan. Masalan, quyidagi parcha tarkibida keltirilgan qavs ichidagi (Istehzo bilan) izohi shunday ishoraviy shtrixlardan biridir:

Shayton (Nido kelgan tomonga qichqiradir)

Chunki bilim senga tutash dushmandir!

(Istehzo bilan).

Hikmating bor, uni o`zing kel, qondir.

Men qo`rqmayman endi sening qahringdan,
Uchib ketdim iqlimingdan, shahringdan.
Tamug`laring, olovlarining, azobing,
Vahimalar, jannatlaring yalg`ondir.

Drama janri tarixidan ma`lumki, bu janr namunalarida hamisha ijtimoiy hayotda katta-katta o`zgarishlar, evrilishlar yuz berayotgan, bir-biriga qarama-qarshi kuchlarning o`zaro kurashi keskinlashgan nuqtalarni aks ettiriladi. Shuning uchun XX asr boshlarida Turkistonda yuz bergan mustamlakachilik bosqini, xalqning xo`rlanishi, erki qo`ldan olinishi, zulm va zo`ravonlikning ortishi shu kabi dramalarning yaratilishi va yoyilishiga zamin yaratdi.

«Shaytonning tangriga isyoni» asari nafaqat g`oyaviy jihatdan murakkablikka ega, balki unda voqealar tizmasi va personajlar ham cheklangandir. Shunga qaramay, undagi bosh qahramon – shayton o`z xarakterini turli tomondan namoyon qila olgan. Bunga esa asarda uning «nido» ko`rinishida keltirilgan monologik nutqlarga javobi to`la ishontira oladi. Uning «nido»ga javob nutqlarini keltirish orqali asarning g`oyaviy ta`sirchanligi yanada oshirilgan.

Dramada shaytonning o`zligini namoyon etishini chegaralayotgan kuchlar bilan ziddiyatli holati asar dramatzimini kuchaytirishga xizmat qilgan. U ana shu ziddiyatli holatlarning faol kurashchi sifatida ko`ringani uchun ham dramada markaziy o`rin egallab, asar bosh qahramoni darajasiga ko`tarilgan. Hatto asar nomi ham uning nomi bilan bog`langan. Dramada shaytonning faqatgina nutqi ifodasiga emas, xatti-harakatlari izohiga ham alohida e`tibor qaratilgan. Jumladan, unga nisbatan qo`llangan «(O`ylag`andan so`ng.)», (g`urur bilan), (odamga yaqinlashib) kabi izohlar fikrimizga dalil bo`la oladi. Tabiiyki, asarda keltirilgan bunday izohli holatlar uning asosida sahna ko`rinishlarini jonlantiradi.

Boshqa dramatik asarlar singari «Shaytonning tangriga isyoni» she`riy dramasida ham satira, aniqrog`i, hajv va tanqid, piching va kinoya, kesatiq va pisanda kabi dramatik tur asarlariga xos asosiy mezonlardan to`liq foydalanilgan:

Shayton:

Mening kabi ujuratlik xotiblar () tushunmasdan so`ylarlar.

Bular kabi tushunchasiz somi`lar () anglamasdan tinglaylar.

Yana so`yla, yana tingla, oxiri yo`q, uchi yo`q,

Tinglamaymiz deyarg`anda hech kimsaning kuchi yo`q!

Bu xususiyatning zohir bo`lishi ham sinkretizm bilan bog`liq. Dramada personajlarning uyushib kelishi ham dramatik asarlarga xos yana bir muhim xususiyat bo`lib, qizig`i shundaki, uning personajlar guruhi deyarli mifologik obrazlardan tashkil topgan.

Fitrat ham she`riy dramaga xos sinkretizm xususiyatini musiqa va sahna elementlariga bog`laydi. Binobarin, bezaklarning aniqligi, musiqa va yorug`likning me`yori jihatidan o`ziga xoslik kasb etishi dramatik asarlar uchun yetakchi xususiyatlardandir;

«Shaytonning tangriga isyoni» she`riy dramasida satira, aniqrog`i, hajv va tanqid, piching va kinoya, kesatq kabi xususiyatlar ko`zga tashlanadiki, bular ham asarning sinkretik xususiyatini namoyon etib turadi.

Umuman olganda, A.Fitrat ijodi serqirra, serko`lam bo`lib, qomusiy xarakter kasb etgan. Shu xususiyatiga ko`ra yangi o`zbek adabiyotining yorqin sahifasiga aylandi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Fitrat ijodi adabiyotshunoslikda qay darajada o`rganilgan?
2. Fitrat qachon, qayerda tug`ilgan?
3. Fitrat qayerlarda o`qigan?
4. Fitrat adabiyot maydoniga qachon kirib keldi?
5. Fitrat va jadidchilik xususida nima deya olasiz?
6. Fitratning qomusiy ijodkorligi nimalarda ko`rinadi?
7. Fitratning adabiyotshunoslik sohasidagi xizmatlari nimalarda namoyon bo`ladi?
8. Fitrat she`riyatiga xos xususiyatlar nimalardan iborat?
9. Fitratning nasriy ijodida qaysi asarlar muhim o`rin tutadi?
10. Fitratning dramaturglik faoliyati haqida so`zlang.
11. «Abulfayzxon» tragediyasi qaysi tarixiy manbalar asosida yaratilgan?

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Каримов И. Адабиётга эътибор – маънавиятга, келажакка эътибор. – Т.: Ўзбекистон, 2009.
2. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажакимизни мард ва олийжаноб халқимиз билан бирга кураимиз. – Т.: Ўзбекистон, 2017.
3. Миллий уйғониш. Илмий мақолалар тўплами. – Т.: Фан, 1993.
4. Алиев А. Истиқлол ва адабий мерос. – Т.: Ўзбекистон, 1997.

5. Каримов Н., Мамажонов С., Назаров Б., Норматов У., Шарафиддинов О. XX аср ўзбек адабиёти тарихи. Олий ўқув юртлари учун дарслик. –Т.: Ўқитувчи, 1999.

6. Қосимов Б. Миллий уйғониш. – Т.: Маънавият, 2002.

7. Санжар Содик. Янги ўзбек адабиёти тарихи. Дарслик. –Т.: Университет, 2005.

8. Каримов Н. XX аср адабиёти манзаралари. –Т.: Ўзбекистон, 2008.

Fitrat asarlari:

9. Фитрат А. Адабиёт қоидалари. – Т., Ўқитувчи, 1995.

10. Фитрат А. Танланган асарлар. Тўрт томлик. 1-том. –Т.: Маънавият, 2000.

11. Фитрат А. Танланган асарлар. Тўрт томлик. 2-том. – Т.: Маънавият, 2000.

12. Фитрат. Асарлар. 3 жилдлик. 1-2 жилдлар. –Т.: Шарқ , 2001.

13. Фитрат А. Танланган асарлар. III жилд. –Т.: Маънавият, 2003.

Fitrat ijodiga bag`ishlangan tadqiqotlar:

14. Болтабоев Ҳ. Абдурауф Фитрат. –Т.: 1994.

15. Ғаниев И. Фитратнинг трагедия яратиш маҳорати. –Т.: 1994.

16. Ғаниев И. Фитрат. Эътиқод. Ижод. –Т.: 1994.

17. Алиев А. Истиқлол ва адабий мерос . –Т.: 1997.

18. Қосимов Бегали. Миллий уйғониш: жасорат, маърифат, фидойилик. –Т.: Маънавият, 2002.

19. Н.Наимов. Фитрат фожиаси. –Т., “Фан”, 2005.

20. Исмоилбек Гаспринский. Ҳаёт ва мамот масаласи. –Т.: Маънавият, 2006.

21. Болтабоев Ҳ. Фитрат ва жаҳидчилик. –Т.: Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2007.

22. Б.Қосимов. Уйғонган миллат маърифати. –Т., “Маънавият”, 2011.

Internet saytlari:

23. www.alishernavoiiy.uz

24. www.ziyo-net.uz

25. www.literature.uz

26. www.kutubxona.uz.

MAVZU: ABDULHAMID SULAYMON O`G`LI CHO`LPON HAYOTI VA IJODI



(1897 – 1938)

Reja:

1. Abdulhamid Sulaymon o`g`li Cho`lpon ijodining adabiyotshunoslikda o`rganilishi.
2. Cho`lponning hayot yo`li.
3. Cho`lpon she`riyati.
4. Cho`lpon nasri.

Tayanch tushunchalar: *o`zbek she`riyati, ma`rifiy roman, Zakiy Validiy To`g`on, «Sadoi Turkiston», «Sadoi Farg`ona», «Adabiyot nadur?», «Do`xtur Muhammadiyor», hikoya, ma`rifatparvarlik adabiyoti, «Xalq», «Uyg`onish», «Buloqlar», «Tong sirlari», «Go`zal yozg`ichlar», «Adabiy parchalar», «Buzilgan o`lkaga», «Ko`ngil», Ayn (Olim Sharofiddinov), D.Quronov, «Qalandar ishq», «Yorqinoy», safarnoma,»Kecha va kunduz».*

Abdulhamid Sulaymon o`g`li Cho`lpon XX asr she`riyatining yirik vakili, o`zbek nasri, dramaturgiyasi, tanqidchiligiga katta hissa qo`shgan mutafakkirdir.

1950-yillarning ikkinchi yarmida Cho`lpon hech qanday jinoyat qilmagani uchun butunlay oqlanadi. 1958-yilda O`zbekiston yozuvchilar uyushmasi Cho`lponning adabiy merosini o`rganuvchi komissiya tuzadi. Shunga qaramay, Cho`lponni adabiyotga qaytarish

uchun yana 30 yil kerak bo`ldi. Buning sababi shunda ediki, o`sha davrdagi hukmron tuzum shoir oqlangan bo`lsada, imkon boricha uning ijodi to`g`risidagi haqiqatni yashirishga, asarlarini yuzaga chiqarmaslikka urinar edi. Hatto Fitrat va Cho`lpon ijodi to`g`risida ma`lumot berilgan chog`larda ham, ularga qo`yilgan eski ayblar takrorlanib, iste`dodlari-yu qarashlarining mohiyatiga oid haqiqat tilga olinmay o`tilar edi. Jumladan, 1961-1962-yillarda nashr etilgan ikki jildlik «O`zbek sovet adabiyoti tarixi ocherki» kitobida tanqidchilikdagi uzoq sukunatdan keyin Cho`lpon va Fitrat ijodi, ayrim qarashlari yuzasidan qisqacha ma`lumot berilgan bo`lsada, bu adiblar rasman oqlanganligiga qaramay asarlarida millatchilik va aksilinqilobchilik ruhi mavjudligi haqidagi asossiz aybnomalar qaytarilgan edi. 1967-yilda esa mazkur shoirlar to`g`risidagi haqiqat xalqqa yetib borishiga bir bahya qolgan edi. Xuddi o`sha yili Ozod Sharafiddinov va M.Zokirovlar tomonidan tayyorlanib, nashr etilgan «Tirik satrlar» nomli kitobda Cho`lpon hamda Fitrat ijodini deyarli to`lig`icha ijobiy baholaydigan maqolalar bosilib chiqqan edi. Afsuski, buni ancha kechikib payqab qolgan hukmron doiralar baribir haqiqatni yashirishning yo`lini topadilar, ya`ni ularning buyrug`i bilan «Tirik satrlar» kitobi do`konlardan yig`ib olinib, yondirib tashlanadi. Demak, o`sha davrlarda ulug` nemis shoiri Genrix Geynening: «Agar kitoblar kuysa, inson yonadi», – degan dono so`zlari butkul unutib qo`yilganligi ayon bo`ladi.

Faqat «Qayta qurish» deb atalgan davrning, ya`ni 80-yillarning oxirlariga kelib tanqidchi Ozod Sharafiddinovning Cho`lpon ijodining mohiyatini ro`y-rost ochib beruvchi maqolalari e`lon qilina boshlanadi. Turli jurnal va gazetalarda Cho`lpon asarlarini qayta nashr etishga kirishiladi. Shu tariqa tanqid va adabiyotshunoslikda Cho`lpon ijodini o`rganish tarixidagi talqinlarning yangilanish bosqichi boshlanadi. Natijada tanqidchilikda shoir ijodining qadr-qiymatini, go`zalligini, ulug`vorligini ochib beruvchi mazmundor va nozik kuzatishlarga boy kitoblar hamda maqolalar paydo bo`ldi. Ular orasida tanqidchi Ozod Sharafiddinovning «Cho`lpon» va «Cho`lponni anglash» nomli kitoblari hamda N.Karimovning «Cho`lpon» deb atalgan ma`rifiy romani shoir xotirasiga qo`yilgan adabiy haykalga monanddir. Cho`lponning so`nggi yillarda bosilib chiqqan «Yana oldim sozimni», uch jildlik asarlar to`plamining dastlabki ikki kitobi, to`rt tomlik asarlar majmuasi, «Adabiyot nadur?» va «Go`zal

Turkiston» singari asarlari shoir merosining katta qismini xalqqa yetkazib bergani tufayli madaniy hayotimizda ulkan voqea bo`ldi. Bu asarlardan keyinroq adabiyotshunoslardan **D.Quronovning «Cho`lpon», «Cho`lpon nasri poetikasi», X.Lutfiddinovaning «Zebi, Zebona...» nomli kitoblari, S.Mamajonov, N.Vladimirova, Z.Eshonova, N.Karimov va Ibrohim Haqqulning** ulug` shoir ijodiga oid ko`plab maqolalari paydo bo`ldi. Faqat ularda shoir ijodining va mahoratining ayrim qirralarini qisman ko`tarib talqin etish tamoyili yuzaga chiqdi. Agar 30-yillarda tanqidchilik Cho`lpon ijodini asossiz ravishda kamsitish va yerga urishga berilib ketgan bo`lsa, endi u shoir iste`dodi, mahorati hamda asarlarining ba`zi jihatlari yaltiratibroq talqin qilish yo`liga kirishib ketayotganga o`xshab qoldi. Demak, kelajakda uni bu yo`ldan qutqaruvchi yagona mash`al vazifasini haqqoniylik va xolislik tamoyillari ado etishi shubhasizdir. 2018-yilda yozuvchi Nabi Jaloliddinning «Tegirmon» romani paydo bo`ldiki, u Cho`lpon hayoti va ijodini xolisona talqin etish yo`lidagi jiddiy qadamlardan biri bo`lsa ajab emas.

Cho`lpon hayoti va ijodiy faoliyati adabiyotimizning eng yorqin sahifalaridan birini tashkil qiladi. U badiiy ijodning deyarli barcha turlarida faol qalam tebratdi. Lekin Cho`lpon birinchi navbatda yangi o`zbek she`riyatining asoschisi sifatida tarixga kirdi. Shoir an`anaviy mumtoz she`riyatimizni isloh qildi, undagi sirlilik, tantanavorli ko`rkiga samimiy, tabiiy, jonli ifoda usulini olib kirdi.

Shoir «Cho`lpon», «Qalandar», «Mirzaqalandar», «Q», «Andijonlik» kabi taxalluslar bilan ijod qilgan. Abdulhamid Sulaymon o`g`li 1897-yilda Andijonda Qatorterak mahallasida tug`ilgan. Co`nggi paytlarda ba`zi adabiyotshunoslardan, xususan, N. Karimov shoirning tug`ilgan sanasini 1898-yil deb ko`rsatishga urina boshladilar. Jumladan, Naim Karimov o`z qarashini tasdiqlashda, «Cho`lpon» nomli ma`rifiy romanida (2003) ko`proq shoirning qarindosh-urug`lari, yaqinlari so`zlab bergan xotiralarga tayanadi. Tanqidchi Ozod Sharafiddinov esa, Cho`lponning tug`ilgan sanasi 1897-yil ekanligi to`g`risidagi xulosasini chiqarganda to`lig`icha shoirning o`zi aytgan yoki so`zlab bergan ma`lumotlarga suyanadi. Uning aniqlashicha, turli arxivlarda Cho`lponning «Xalq dushmani» sifatida ayblanib, tergov qilinayotgan chog`da o`z qo`li bilan to`ldirgan anketasi bor ekan. O`sha anketada Cho`lpon o`zining tug`ilgan sanasini 1897-yil deb ko`rsatgan ekan. Ikkinchidan, ma`lum

vaqt Cho`lpon bilan hamkorlik qilgan mashhur rus yozuvchisi V.Yan shoir to`g`risida 30-yillarda nashr etilgan «Katta sovet entsiklopediyasi» uchun yozgan maqolasida Abdulhamidning o`zi bergan ma`lumotlarga asoslanib, uning tug`ilgan sanasini 1897-yil deb ko`rsatgan ekan. O`zgalarning xotirasiga nisbatan shoirning o`zi bergan ma`lumotlari haqqoniyroq bo`lishi shubhasiz ekanligini inobatga olsak, Cho`lponning tug`ilgan sanasini 1897-yil deb belgilash ishonchliroq ko`rinadi. Abdulhamidning onasi uy bekasi bo`lgan, otasi Sulaymonqul Mulla Muhammad Yunus o`g`li dehqonchilik, hunarmandchilik, bazzozlik bilan shug`ullangan. Cho`lponning otasi «Rasvo» taxallusi bilan g`azallar ham yozgan.

Abdulhamid avval eski maktabda o`qiydi, yaxshilab xat-savodini chiqargach, Andijon va Toshkent madrasalarida tahsil ko`radi, arab, fors, turk tillarini mukammal egallaydi. «Madrasada o`qib yurgan kezlrimda bir turk bilan tanishdim, – deb eslaydi Cho`lponning o`zi. – U Qur`onni boshdan oyoq yod biladigan g`oyat savodxon kishi edi. Keyin bilsam, Istambuldagi panturkistlar uyushmasi tomonidan u Sharqiy Turkistonga umumturk g`oyalarini targ`ib qilish uchun yuborilgan ekan. Gazeta va jurnallarni mutolaa qilishni o`shandan o`rgandim. Madrasadagi saboqlar bir chekkada qolib ketdi. Bir yo`la adabiyotga yuz burdim» («Jahon adabiyoti», 2010. №10. 133-bet).

Cho`lpon yoshligidayoq sharq adabiyotini shu qadar sevib qoladiki, butun umri davomida Firdavsiy, Hofiz, Sa`diy, Umar Hayyom, Rumi, Navoiy, Tavfiq Fikrat, Nomiq Kamol, Abdulla To`qay kabi buyuk so`z san`atkorlarining asarlarini yod olishdan to`xtamaydi, ular haqida hayajonli maqolalar yozadi. Zamona zaylini chuqur his etgan Cho`lpon Andijonda yangi ochilgan rus-tuzem maktabiga ham kirib o`qiydi. U yerda bir qancha dunyoviy bilimlarni, ayniqsa, rus tilini mukammal o`rganadi. Shunday qilib, Cho`lpon 16-17 yoshlaridayoq ham sharqona, ham yevropacha puxta ma`lumot olgan, ilg`or fikrli ziyoli bo`lib yetishadi.

Bo`lajak shoirning shakllanishida muhim rol o`ynagan hodisalardan biri uning mashhur boshqird jadidi va jamoat arbobi Zaki Validiy To`g`on (1890-1970) bilan tanishuvi bo`ldi. 1912-yilda Zaki Validiyning «Turk va tatar tarixi» degan kitobi bosilib chiqqan edi. Kitobni o`qigan Behbudiy Turkiston tarixini yozishni birgina unga ishonib topshirish mumkinligini matbuotda yozib chiqqan va yosh olimni Samarqand madrasalariga taklif qilgan edi. 15 yashar

Abdulhamid ham bu kitobni o`qib chiqqan va ta`sirlanib, muallifga minnatdorchilik maktubi yozgan holda Andijonga taklif qilgan edi. Taqdirning taqazosi bilan Qozon universiteti Zaki Validiyini 1913-yilning oxirlarida Farg`ona vodiysiga ilmiy safarga yuboradi. Olim Andijonda ekan, Nazir To`raqul bilan birga Abdulhamidlar uyida bo`ladi va bu aloqa Zaki Validiy yashirin faoliyatga o`tgan 1920-yilga qadar davom etadi.

Yoshligida Cho`lponga kuchli ta`sir ko`rsatgan boshqa omillar ham bo`lgan edi. Jumladan, yozuvchi V.Yan o`z xotiralarida shoirning otasi uni mudarris qilmoqchi bo`lgani, lekin u madrasada bir dunyo ko`rgan ziyoli bilan tanishib, fikri tamom o`zgargani, «adabiy-siyosiy ishlarga qizg`in havas uyg`onib», ko`pchilik yoshlar singari Fitrat ta`siriga berilgani haqida yozgan edi. Chindan ham Cho`lpon Fitratni 1913-yildan g`oyibona tanigan. Ilk bor ular Samarqandda Fitrat muharrirlik qilgan «Hurriyat» gazetasi tahririyatida uchrashganlar va 1919-yildan keyingi faoliyatlari yaqin hamkorlikda kechgan.

Shunday omillar ta`sirida matbuotda Cho`lponning dastlabki she`r va maqolalari 1914-yildan ko`rina boshlaydi. «Sadoyi Turkiston» gazetasi 1914-yil 14-aprel sonida «15 yashar Abdulhamid afandi»ning «Turkistonli qardoshlarimizga» she`rini mushtariylarga havola etar ekan, o`quvchilarni «yoshgina qalbi ila yorug`lik va ilm-maorif yo`liga boshlagan»idan mamnunligini yashirmagan va uning kelajagiga katta umid bildirgan edi. Demak, Cho`lpon 1913-1914-yillardan ijod qila boshlagan. Uning dastlabki asarlari «Sadoi Turkiston», «Sadoi Farg`ona» kabi mahalliy gazetalarda, shuningdek, Orenburgda chiqqan «Sho`ro» jurnalida bosiladi. Cho`lponning dastlabki asarlari jumlasiga «Vatanimiz Turkistonda temir yo`llar», «Adabiyot nadur?» kabi maqolalari, «O`sh» ocherki, «Qurboni jaholat» feletoni, «Do`xtur Muhammadiyor» hikoyalarini kirgizish mumkin.

Cho`lpon 16 yoshida yozgan «Adabiyot nadur?» maqolasida so`z san`atining jamiyat hayotidagi o`rni haqida fikr yuritir ekan, u millatni taraqqiy ettirish vositasi, ma`naviyatini ta`minlovchi omil degan g`oyani olg`a suradi. Bu maqolaning yana bir muhim tomoni shundaki, Cho`lpon unda adabiyotning obrazli tabiatini ham alohida ta`kidlaydi. Cho`lpon uchun adabiyot quruq g`oyalar yig`indisi emas, balki insonning ruhiy dunyosi, ehtirolari, tuyg`u va hayajonlari bilan bog`liq hodisadir. U odamlarning shuurigagina emas, his-tuyg`ulariga

ham ta`sir etishi, kishilarni hayajonlantirib, quvontirib yoki mahzun holatga solib, shu orqali zimmasidagi vazifani o`tamog`i kerak. Cho`lponning yozishicha, «Adabiyot chin ma`nosi ila o`lgan, so`ngan, qoralangan, o`chgan, majruh, yarador ko`ngilga ruh bermak uchun faqat vujudimizga emas, qonlarimizga qadar singishgan qora balchiqlarni tozalaydurg`on, o`tkir yurak kirlarini yuvadurg`on toza ma`rifat suvi, xiralashgan oynalarimizni yorug` va ravshan qiladurg`on, chang va tuprog`lar to`lgan ko`zlarimizni artub, tozalaydurg`on buloq suvi bo`lg`onligidan bizga g`oyat kerakdir».

Badiiy adabiyotning vazifasini shu qadar teran anglagan Cho`lpon dastlabki estetik qarashlariga o`zining ilk ijodidayoq amal qilishga intiladi. Xususan, uning «Do`xtur Muhammadiyor» hikoyasi XX asr boshlaridagi o`zbek ma`rifatparvarlik adabiyotida o`ziga xos o`rin tutadi. U badiiy jihatdan zaifroq bo`lib, tasvir o`rniga bayonchilik ustun, qahramonlari jonli xarakter kasb etmagan edi. Ammo shunga qaramay, adibning hikoyada Turkiston taqdiri haqida kuyib-yonib o`ylashi, xalqni jaholat botqog`idan, nodonlik iskanjasidan qutqaruvchi samarali omillarni izlashi aniq sezilib turadi. Hikoyaning bosh qahramoni – Muhammadiyor vatan taqdiri haqida iztirob bilan o`ylaydi. Uning ko`nglidan shunday fikrlar kechadi: «Ey vatandoshlarim! Qachongacha bu g`aflat? Nimaga buncha xushyoqmassizlar? Axir, sizlar ham odam-ku! Odamlardek harakat qilingizlar! Ko`z oldingizga kelib turg`on ilm va ma`rifat mevasidan foydalanmasdan nimaga og`izlaringizni ochub qarab turasizlar? Nimaga bu ishlarga kirishmaysizlar? Uyqudan ko`z ochinglar!.. Vaqt yetdi, balki o`tdi!»

Hayotni o`rganish oqibatida tug`ilgan o`y-fikrlari yosh adib qalbidagi tuyg`ularni g`alayonga keltiradi. Natijada adib sekin-sekin she`riyatga qo`l ura boshlaydi. Uning birinchi she`rlari «Turkistonli qarindoshlarimizga» («Sadoi Turkiston»), «Turkiston salomi» («Hurriyat» gazetasida) 1914-yilda bosilib chiqadi. Ularda jadidchilik ruhi, xususan, ma`rifatparvarlik g`oyalari ochiq bayon qilingan edi. Buning dalili sifatida «Turkistonli qarindoshlarimizga» g`azalidan dastlabki baytni o`qish kifoya:

Ilmu ma`rifat ham hunardan qoldi mahrum bizni xalq,

Ma`rifatsizlik balosiga yo`luqqan bizni xalq!

Ko`rinadiki, bu baytda vazn ham, qofiya ham, gap qurilishi qoidalari ham buzilgan. Jumladan, radifdan («Bizni xalq») avval

keladigan qofiyadosh unsurlar o`rnida «mahrum» va «yo`luqqan» so`zlari ishlatilgan. G`azalning «bizni xalq» birikmasidan iborat radifida esa qaratqich o`rnida tushum kelishigi qo`llangan. Demak, mazkur she`r yozilgan 1917-yilda ham Cho`lpon ijodiy yo`lining mashqlar va izlanishlar bosqichi davom etgan. She`rdagi saktaliklarni inobatga olib, Cho`lponning 1913-17 yillardagi ijodini birinchi bosqich deb hisoblasak, shoir bu davrda chinakam katta muvaffaqiyatga erisha oldi, deyish qiyin. 1917 yil oxirida Cho`lpon ijodining yetuklik bosqichi boshlangan. Bu davrda ko`pchilik jadidlar kabi Cho`lpon ham 1917-yil oktabridan keyingi o`zgarishlarni mamnuniyat bilan qarshi oladi va yangi tuzum tufayli Turkiston xalqi ham ozodlikka chiqishiga umid bog`laydi. Shoir qarashlaridagi va kayfiyatidagi bunday o`zgarish uning 1917-yil dekabrda bosilgan «Ozod turk bayrami» nomli madhiyasida ochiq ifodalangan edi:

Ko`z oching, boqing haryon!

Qardoshlar, qanday zamon!

Shodlikka to`ldi jahon!

Fido bukunlarga jon!

Turkistonli – shonimiz,

Turonli – unvonimiz,

Vatan – bizim jonimiz,

Fido o`lsun qonimiz.

Xuddi shunday ko`tarinki kayfiyat va Oktabrga ijobiy munosabat Cho`lponning «Qizil bayroq», «Temirchi», «Hukm kunida», «Qizil baynalmilal», «Xalq», «Kel beri» she`rlarida ham ochiq yuzaga chiqadi. Ularda Cho`lponning oktabr to`ntarishidan keyingi tartibsizliklarni, yovuzliklarni, nohaqliklarni payqay boshlaganligi seziladi. Faqat to`ntarishdan ikki yil keyin ham shoir bu dahshatlarning sababini inqilobga emas, balki 1914-yilda boshlangan 1-jahon urushiga bog`liq, deb hisoblaydi. O`zining mazkur qarashini Cho`lpon «Qurbon» nomli she`rida (1919) juda yaxshi ifodalagan edi:

Bir yurtkim, besh yildur qonlarga bulong`on,

Otasi o`g`lini «dushman» deb bo`g`odir.

So`ng burda noni ham qolmasdan talong`on,

Yosh go`dak bolasi: «bir burda non» deydir.

Ochlik ham har kuni «qurbonlik» so`raydir,

Har kuni unga ham yuzlarcha qurbonlar.

Qirilib tugalish dahshati o`raydir,

Yanami, behuda, gunohsiz, sofqonlar?

Cho`lpon 25-30 yoshlari o`rtasida juda barakali ijod qiladi. U «Uyg`onish» (1922), «Buloqlar» (1924), «Tong sirlari» (1926) degan uchta to`plam e`lon qiladi. Ulardan tashqari «Go`zal yozg`ichlar» va «Adabiy parchalar» degan kitoblarda ham uning anchagina she`rlari bosiladi. O`sha davr madaniy hayotida katta hodisa hisoblangan bu to`plamlar yangi o`zbek she`riyati uchun tom ma`noda poydevor bo`lib xizmat qildi. Ularga yozilgan taqrizlarda Cho`lpon «o`zbek she`riyatiga to`n kiygizgan»i ta`kidlangan, nafis lirika bobida o`zbek she`riyati yangi bosqichga ko`tarilgani qayd etilgan edi. 20-yillarda Cho`lpon she`rlaridan loaqal bir juftini ishtiyoq bilan yod olmagan adabiyot muxlisi yo`q edi, desak mubolag`a bo`lmas. She`riyat sirlarini egallashda, mahorat pillapoyalariga ko`tarilishda Cho`lpon lirikasi chinakam dorilfunun vazifasini ado etdi. O`sha davrda yosh shoirlar xoh ixtiyoriy, xoh beixtiyor uning ohanglarini, ranglarini, tashbehtarini takrorlashardi. 20-yillarda Oybek, G`afur G`ulom, Hamid Olimjon, Mirtemir, Uyg`un kabi shoirlar o`zlarini Cho`lponning shogirdi deb hisoblashgan va bu bilan faxrlanishgan.

V.Yan yuqoridagi xotirasida Cho`lponning mudarris bo`lishdan qochib, Toshkentga kelgani va gazeta-jurnallar tahririyatlarida ishlaganini eslaydi. Zaki Validiy uning 1917-1918-yillarda siyosiy ishlar bilan ham shug`ullanganini, jumladan, Orenburgda Boshqirdiston hukumati raisining kotibi lavozimida faoliyat yuritganini ma`lum qiladi. Boshqa bir o`rinda Zaki Validiy: «Turkiston hukumat a`zolaridan Ubaydulla Xo`ja va safdoshlari Mirmuhsin, shoir Abdulhamid Sulaymon (Cho`lpon), buxorolik Abdulhamid Orif o`g`li shu paytlarda (1918-yilyozi) Boshqirdistonda ishladilar», – deb yozadi. Shoirning mashhur tatar hurriyatparvari Mullanur Vohidov (1885-1918) vafotiga bag`ishlab «Sharq nuri» she`rini yozgani ham bu ma`lumotni tasdiqlaydi. Cho`lpon keyinchalik, ya`ni 1919-yilda Toshkentda Fitrat yonida bo`lgan va «Chig`atoy gurungi»da ish olib borgan. 1920-yilda esa shoir Bokuda Sharq xalqlari quriltoyida ishtirok etgan.

Adibning 1927-yilda o`zbek ziyolilarining quriltoyiga yozgan arizasidan o`sha yillari Turk RosTAda, «Ishtirokiyun», «Qizil bayroq», «Turkiston», «Buxoro axbori» gazetalarida mas`ul lavozimlarda ishlagani ma`lum bo`ladi. Fitrat Buxoroda hukumat tarkibida ishlab turgan 1920-1923 yillarda Cho`lpon o`sha yerdagi

gazetalarda xizmat qilgan. Xususan, u 1920-1922-yillarda chiqib turgan «Buxoro axbori» gazetasida mas`ul muharrir bo`lgan. 1924-yilda esa Cho`lpon Moskvada Maorif uyi qoshida yosh o`zbek artistlarining mahoratini oshirish uchun tashkil etilgan dramatik studiyaning adabiy emakdoshi va rahbarlaridan biri sifatida xizmat qilgan. Bu davrga kelib u zamonasining eng mashhur shoiri sifatida tanilgan edi.

1931-yilda Cho`lpon Fayzulla Xo`jayev tomonidan yana Moskvaga jo`natib yuboriladi. Cho`lpon 1932-34-yillarda Moskvada yashadi va SSSR Markaziy Ijroiya Komitetida tarjimon bo`lib ishladi. Xuddi shu davrda u Shekspirning «Hamlet», Karlo Gossining «Malikai Turandot» asarlarini tarjima qildi hamda «Kecha va kunduz» romanini yozdi.

1917-yilgi Oktabr to`ntarishidan keyin yuzaga kelgan tuzumni Cho`lpon avvaliga quvonch bilan qarshi oladi va endi jadidlarning ko`plab g`oyalari-yu, maqsadlari ro`yobga chiqishiga ishonadi. Faqat ko`p o`tmay shoirning dastlabki umidlari barbod bo`lib, ijodida millatparvarlik ruhi orta boradi. Bunga ko`proq 1921-yilda mamlakatda avj olib ketgan fuqarolar urushi, nohaq qonlar to`kilishi va ko`z ko`rib quloq eshitmagan tartibsizliklar sabab bo`ladi. Go`yo shoirga butun o`lkada yong`in boshlangandek tuyuladi. Bunday dahshatli manzara va kayfiyatni Cho`lpon «Yong`in» nomli she`rida (1921) shunday ifodalaydi:

Shunday katta bir o`lkada yonmagan,
Yiqilmagan, talanmagan uy yo`qmi?
Bir ko`z yo`qmi qonli yoshi tommagan,
Butun ko`ngil umidsizmi, siniqmi?

Shoir «Amalning o`limi» she`rida (1921) o`zining ilgarigi ko`tarinki umidlari puchga chiqib borayotganidan sarosimaga tushayotganligini, ularning so`nmasligini xohlashini ochiq ma`lum qiladi.

1923-yilga kelib Cho`lponning Oktabr inqilobiga bog`lagan umidlaridan, ko`tarinki kayfiyatidan asar ham qolmaydi. Endi u o`zini muhitning girdobiga tushib qolgan somon parchasiga, kimlarningdir xohishi bilan harakat qiladigan ongsiz kimsaga o`xshatadi. O`zining bu holatini ayon qilish uchun shoir «Somon parcha» she`rida (1923) juda ajoyib timsol topadi:

Topshirdim o`zimni muhitning erkiga...

Muhit girdobida bir somon parcha,
Bir poxol cho`pidek oqib boraman.
Har amal, har ishni «haq» deb boraman,
Vazminim qolmadi bir uzuq qilcha...
Muhit kuchlik ekan, egdim bo`ynimni,
Chaqmoqdek yaltirab uchish yo`q endi.
Yolg`on xayollarga ko`chish yo`q endi,
Oqishning yo`liga soldim kuyimni.
Kirmayman ko`chaning boshi berkiga,
Chunki taslim bo`ldim muhit erkiga...

Umidlari sarobga aylangan shoir qalbida muhit girdobida o`yinchoq bo`lishga qarshi isyon ruhi tug`ila boshlaydi. Shu tariqa shoir she`riyati davr o`zgarishlarining va Cho`lpon qarashlaridagi burilishlarning barometriga aylana boradi. Shunga ko`ra Cho`lpon she`riyati o`zbek xalqining yangicha ma`naviyatini, milliy ongini shakllantirishda buyuk ahamiyatga ega bo`lgan edi. Uning ko`pchilik she`rlarida mustamlakachilikka qarshi isyon ruhi yuzaga chiqa boshlaydi. Har bir asaridagi o`zgarishlarda badiiy yuksaklik orta boradi.

Mazkur fazilatlarining ko`pchiligi Cho`lponning 1924-yilda bosilib chiqqan «Buloqlar» nomli to`plamidagi she`rlarda jamlangan holda namoyon bo`lib, shoir qarashlari va mahoratining gultojiga, kulminatsiyasiga aylangan edi. To`plam keyinchalik Cho`lpon lirikasida asosiy o`rin egallaydigan leytmotiv, ya`ni shoir va u mansub bo`lgan xalq yoki millat erki, ozodligi haqidagi g`oyaning ifodasiga bag`ishlangan eng yuksak saviyadagi asarlardan tashkil topgan bo`lib, «Buzilgan o`lkaga» nomli mashhur she`r (1924) bilan boshlanar edi. Bu lirika durdonasi keyinchalik ko`p munozaralar, e`tirozlar uyg`otgan, hatto shoir G`ayratiyning «Tuzalgan o`lkaga» degan javob she`ri yozilishiga sabab bo`lgan edi. She`rda Cho`lpon ijodida ilk bor mustamlakachilikka qarshi isyon ruhi ochiqdan-ochiq ifodalangan edi. Shunga ko`ra, Cho`lponning «Buzilgan o`lkaga» she`ri tom ma`noda millatparvarlik tuyg`usi bilan sug`orilgan asarlaridan biri hisoblanadi. Shoir she`rida ko`m-ko`k o`tloqlari yanchilgan, podachilari osilgan, sharaq-sharaq buloqlari qaynashdan to`xtagan, go`zal qizlari, yosh kelinlari g`oyib bo`lgan baxtiqaro bir o`lkaning ayanchli, xarob holini tasvirlaydi. Bu she`rda o`tmishi, tarixi buyuk, tabiati go`zal, jannatmonand o`lka uchun iftixor tuyg`usi ham, uning yolg`iz «qon

bo`lmish ulushi» uchun alamli iztirob ham juda teran ifodalangan. Bu ulug` o`lkaboshiga tushgan fojealar, haqsizliklarga, adolatsizlikka qarshi, ona yurtning erki va ozodligi uchun kurashga undagan misralarda shoirning ehtirosli xitoblari kitobxon yuragini larzaga soluvchi otashin hayqiriqqa aylanadi:

Sening erkin tuprog`ingda hech haqqi yo`q xo`jalar,
Nega seni bir qul kabi qizg`anmasdan yanchalar?
Nega sening qalin tovshing «ket» demaydiularga?
Nega sening erkli ko`ngling erk bermaydi qullarga?
Nega tag`in tanlaringda qamchilarning kulishi?
Nega sening turmushingda umidlarning o`lishi?
Nega yolg`iz qon bo`lmishdir ulushing?..

Shaxs va millat ozodligi masalasi Cho`lpon she`rlarining ko`pchiligida markaziy o`ringa chiqadi. Shoir erkinlikni insoniy qadriyatlarining tub mohiyatini tashkil qiluvchi omil deb hisoblaydi. Uning 1922-yilda yozilgan «Kishan» she`rida kishan qullikni anglatuvchi, erkni bo`g`uvchi timsol sifatida namoyon bo`ladi:

Kishan, gavidamdagi izlar bukun ham bitgani yo`qdir!
Temir barmoqlaringning dog`i butkul ketgani yo`qdir!

Cho`lponning boshqa she`rlarida ham kishan timsoli tez-tez uchrab turadi. Xususan, shoir «Ko`ngil» she`rida insonni mag`rur bo`lishga, boshini baland ko`tarib yashashga, «kishan kiymaslik»ka undaydi:

Tiriksan, o`lmagansan,
Sen – da odam, sen – da insonsen,
Kishan kiyma,
Bo`yin egma,
Ki sen ham hur tug`ilg`ansan!

Shoirning dardmand yuragidan otilib chiqqan bu otashin satrlarni 20-yillardagi o`zbek erksevar she`riyatining shohmisralari desa bo`ladi. Shu va yana boshqa ko`plab she`rlarida Cho`lpon tom ma`noda erk kuychisi sifatida ko`rinadi.

Mustamlakachilikka qarshi isyon pafosi va millatparvarlik, vatanparvarlik ruhi bilan yo`g`rilgan asarlar keyinchalik Cho`lponni millatchi hamda «xalq dushmani» sifatida ayblash uchun dastak qilib olinadi. Xususan, 1927-yilda adabiyotshunos Ayn (Olim Sharofiddinov) ochiqdan-ochiq Cho`lponni «millatchi, vatanparast, badbin ziyolilarning shoiridir», – deb e`lon qiladi. Shu tariqa badiiy

asarlardagi milliy iftixor tuyg`ulari butkul teskari, ya`ni millatchilik tarzida talqin qilinishi keyinchalik shoirning cheksiz tuhmatlarga va oqibatda qatag`onga uchrashi uchun yo`l ochadi. Yuqoridagi misollardan ko`ringanidek, Cho`lpon o`z davrining deyarli har bir yangiligini, ijtimoiy muammolarini, inson ruhining eng nozik tebranishlarini ham qalamga olishga, zamon taqozo qilgan rang-barang mavzularni yoritishga intilgan. Faqat Cho`lpon she`riyatida ularning barchasini o`zaro jiplashtiruvchi yagona leytmotiv, ya`ni inson erki va u mansub bo`lgan xalq yoki millat ozodligi g`oyasi mavjud.

Cho`lpon ko`plab she`rlarida o`zining yoki insonning erki haqida iztirob chekar ekan, bu mavzuni ona xalqi yoxud millati taqdiri bilan uzviy birlikda talqin qilishga intiladi. Bu jihatdan Cho`lponning 1921-yilda Buxoroda yozilgan «Xalq» she`ri shoirning ijtimoiy va estetik qarashlari qanday rivojlanib borganligini aniqlashda benihoya muhim ahamiyatga ega. Unda muallif birinchidan, xalqning buyuk kuch ekanligini yaxshi ifodalaydi. Ikkinchidan, u o`lkaning ozodlikka, mustaqillikka erishuvini o`zining oliy istagi hisoblaydi. Uchinchidan, shoir ijod ahlini xalq bilan hamisha birga bo`lishga, «quchoq ochib xalq ichiga» kirishga undaydi.

Xuddi A.S.Pushkin ijodidagi kabi Cho`lpon she`riyatida ham erk va ozodlik g`oyalari mazkur shoirlar yashagan davrlar hayotida nihoyatda dolzarb bo`lgan ijtimoiy muammolar-u mavzular bilan bog`liqlikda talqin qilinadi. Cho`lpon lirikasida inson erki g`oyasini benihoya avj pardalarga ko`targan mavzulardan biri XX asrning 20-yillarida g`oyatda aktuallik kasb etgan xotin-qizlar ozodligi masalasi edi. Bu mavzu atrofida faqat O`zbekistonda emas, balki o`sha paytda Turkiya va dunyoning boshqa mamlakatlarida ham xilma-xil qarashlar, munozaralar va kurashlar qizib ketganini Cho`lpon juda yaxshi bilar edi. Shunga ko`ra u xotin-qizlar ozodligini inson erkinlikka chiqishining bir ko`rinishi deb hisoblab, bu mavzu talqiniga ko`plab she`rlarini, «Yorqinoy», «Hujum» dramalarini, «Qor qo`ynida lola», «Nonvoy qiz» hikoyalari-yu «Kecha va kunduz» romanini bag`ishlagan edi. Ular orasida xotin-qizlar ozodligi mavzuini boshqalardan butkul farq qiluvchi va benihoya ta`sirchan shaklda ifodalovchi «Men va boshqalar» she`ri (1921) Cho`lpon lirikasining shoh asarlaridan biri darajasiga ko`tarilgan. Unda antiteza, ya`ni qarama-qarshi qo`yish san`atidan mahorat bilan foydalanilgani

mavzuning favqulodda yorqin yoritilishiga xizmat qilgan:

Menda-da qanot bor, lekin bog`langan...

Bog` yo`qdir, shox yo`qdir, qalin devor bor,

So`zlari sadafdek, tovushi naydek

Kuyim bor... uni-da devorlar tinglar.

Erkin boshqalardir, qamalgan menman,

Hayvon qatorida sanalgan menman.

Bu she`r birinchi shaxs tilidan yozilganligi sababli ba`zi tanqidchilar uni Cho`lponning o`z erksizligiga qarshi isyoni deb talqin etishga urindilar. Umuman, erk g`oyasi Cho`lponning deyarli butun ijodidan qizil ip bo`lib o`tganligi sababli mazkur she`rni shoir shaxsining tutqunligiga ma`lum darajada ishora deb tushunish ham mumkindek tuyuladi. Biroq she`rdagi qahramonning «So`zlari sadafdek, tovushi naydek» deb ta`riflanishi asarning ko`proq xotin-qizlar ozodligi masalasiga bag`ishlanganligini tasdiqlaydi. Bu she`r 20-yillarda o`zbek ayollarining butun dunyodagi xotin-qizlar singari ozodlikka chiqishiga ishonch ruhiga to`liq gimndek yangragan bo`lsa ajab emas.

Cho`lpon she`riyati xalqchil g`oyalari, yuksak millatparvarlik va vatanparvarlik ruhi bilangina emas, chinakam xalqona ifoda vositalari bilan ham o`quvchilar qalbini zabt etgan edi.

Cho`lpon lirikasining naqadar go`zalligini, ayniqsa, «Go`zal» she`rida yaqqol ko`rish mumkin. «Go`zal» eng nafis, eng sehrli va eng sirli she`rlardan biridir. Uning sirliligi shundaki, she`rning kimyo nima to`g`risida ekanini uzil-kesil aniqlab olish amri mahol. Agar bu asar yozilishidan bir necha yil avval dindorlarga qarshi qarashlari uchun Cho`lponning ular tomonidan o`limga hukm qilinganini va shoir Toshkentga qochib, toshbo`rondan qutilib qolganini eslasak, she`rda ilohiy ma`shuqadan ko`ra yerdagi go`zal qiz kuylanganini taxmin etish mumkin bo`ladi:

Men yo`qsil na bo`lib uni suyib men,

Uning-chun yonibmen, yonib-kuyibmen,

Boshimni zo`r ishga berib qo`yibmen,

Men suyub... men suyub... kimni suyubmen?

Men suygan «suyukli» shunchalargo`zal,

Oydan-da go`zaldir, kundan-da go`zal!

Adabiyotshunos D.Quronov bu she`rning qahramoni, shoir madh etgan go`zal uning ona vatani, degan fikrni ilgari suradi. Bunday

bo`lishi ham ehtimoldan uzoq emas.

Agar Cho`lponning butun vujudini inson erki g`oyasi zabt etganligini eslasak, bu she`rda madh etilgan go`zal ilohiy ma`shuqa ham, yerdagi husnda tengsiz qiz ham emasligi yaqqol ayon bo`ladi. Lekin zukko tanqidchi Ozod Sharafiddinov aytganidek, she`rda shoirni maftun etgan go`zal ham uning uchun dunyoda hamma narsadan ustun turuvchi ma`shuqa, ya`ni inson erki hisoblanadi.

Bu she`rning mo`jizakor kuchi faqat mazmunining teranligi bilan belgilanmaydi. Uning ajib bir ichki musiqasi bor, oddiy til bilan ifodalab bo`lmaydigan jozibasi mavjud. Bularning bari birlashib, unga betakror sehr-jodu bag`ishlaydi.

Cho`lpon she`riyati mazmunan teran, ranglarga, mavjlarga boy bir dengizdir. Bu dengizning yuzaga kelishida mumtoz o`zbek she`riyati, xususan, Alisher Navoiy ijodi an`analari hayotbaxsh omil bo`lib xizmat qilgan. Bu fikrning isboti sifatida Cho`lponning «Qalandar ishq» she`rini eslash kifoya. Tanqidchi Ozod Sharafiddinov e`tirof etishicha, bu she`rda Alisher Navoiyning:

Orazin yopqoch ko`zimdin sochilur har lahza yosh,
Bo`ylakim paydo bo`lur yulduz, nihon bo`lg`och quyosh, –
kabi misralari bilan boshlanuvchi g`azalidagi singari tashbehlarning boyligi, mazmundorligi va yuksak san`atkorlik bilan qo`llanganligi ko`zga tashlanadi:

Muhabbatning saroyi keng ekan, yo`lni yo`qotdim-ku,

Asrlik tosh yanglig` bu xatarlik yo`lda qotdim-ku...

Muhabbat osmonida go`zal Cho`lpon edim, do`stlar,

Quyoshning nuriga toqat qilolmay yerga botdim-ku.

«Qalandar ishq» she`rida ochiqdan-ochiq «Muhabbatning saroyi» haqida gapirilgan bo`lsa-da, uni to`lig`icha ilohiy ishq yoki dunyoviy sevgi tarzida an`anaviy talqin qilib bo`lmaydi.

Juda uzoq zamonlardan beri ko`pchilik sharq xalqlarining mumtoz adabiyotlarida yagona ilohiy ma`shuqa sifatida Olloh timsoli madh etib kelingani ma`lum. Jahon realistik adabiyotida esa asosiy ma`shuqa sifatida yerdagi ayol timsoli yetakchi o`ringa chiqqan. Cho`lpon esa jahon she`riyatida ilk bor uchinchi xil ma`shuqa, ya`ni inson erki va ozodligi timsolini kashf etdi. Mazkur kashfiyoti bilan Cho`lpon butun jahon she`riyatidagi eng buyuk novator shoirlardan biri darajasiga ko`tarildi. Faqat Cho`lponning novatorligi shu kashfiyotning o`zi bilangina cheklanib qolmaydi, balki deyarli boshqa

hech kim qo`llamagan yoki uningchalik teran ma`no ifodasiga xizmat qildirgan olmagani cheksiz tashbehtar, tasviriy vositalar ummoni yaratgani hamda umrining asosiy maqsadi – inson erki g`oyasi talqiniga favqulodda muvofiqlikda bo`ysundirganligi bilan ham belgilanadi. U mumtoz shoirlarning lirik qahramonlari yangi davr uchun mos kelmayotganini, milliy she`rga zamon ruhini singdirish lozimligini anglab yetdi. Cho`lpon qadimiy qizil gul bilan may, Bog`i Eram va Hur qizlar, bulbul-u farishtalardan ham boshqa o`xshatish, mavzular borligini, ularni yoritishga o`zbek tilining qudrati yetishini isbotlashga intildi. Hatto oddiy tabiat manzaralari yoki unsurlari tasvirida ham shoirning ulardan barchasini asosiy g`oyaviy maqsadi ifodasiga bog`lay olganligi kishini hayratga soladi. Umuman, Cho`lpon lirikasida inson va tabiat birligi tasviriga g`oyatda teran ma`no yuklanganligi yaqqol sezilib turadi. Cho`lponning eng ezgu qarashlaridan biriga ko`ra dunyodagi butun mavjudot va inson kabi barcha tabiat unsurlari, xususan gullar, maysalar, yaproqlar, shoxlar, butoqlar hamda ildizlar ham erkin nafas olmog`i zarur. Mazkur oliy janob g`oyasini Cho`lpon «Binafsha» nomli she`rida (1922) nihoyatda katta iste`dod bilan yuzaga chiqargan.

Bunga iqror bo`lmoq uchun she`rdan quyidagi ikki bandi o`qish kifoya:

Binafsha, nimaga bir ozroq ochilmay,
Bir erkin kulmasdan uzilding?
Binafsha, nimaga hidlaring sochilmay,
Yerlarga egilding, cho`zilding?
Binafsha, sen uchun ko`kragim erk yeri,
Bu yerdan ko`klarga uchgil.
Binafsha, go`zalim, qayg`ulim, kelmaysan,
Qayg`ung zo`r, qayg`umni bilmaysan,
Menga bir kulmaysan.

O`z ko`ksini binafsha uchun «erk yeri» deb ta`riflashdek tashbeh dunyodagi boshqa bironta ham shoir ijodida uchramasa kerak. Koinotdagi deyarli har bir unurni asosiy g`oyaviy maqsadga bog`liq holda jonlantirish bilan bir qatorda Cho`lpon tabiat manzaralarining hassos kuychisi, ular vositasida inson ruhini ochishning ulug` san`atkori sifatida namoyon bo`ldi.

U bahor va yoz, kuz va qish haqida, tunu kunduz, yulduzlar, tog`lar, chashmalar, maysazorlar to`g`risida ko`p yozadi. She`rlarining

obrazlar tizimi ham juda rang-barang va betakror. Shoir mubolag`a, istiora, o`xshatish, sifatlash kabi mumtoz she`r san`atlaridan ham juda ko`p va mahorat bilan foydalangan. Masalan, uning «Shaftoliga» she`rida qizlarning yuzi shaftoliga qiyoslanadi. Muallif nozik yumor bilan sug`orilgan betakror shoirona obraz yaratadi:

O`n sakkizga kirgan qishloq qizlarining yuzidek
Qip-qizargan yuzlaringdan bir o`pich ber, shaftoli!
Senga qarab turganimda – bir ozgina bo`lsaham –
Bo`lmas kabi, yo`q kabidir... umidimning zavoli!

Tinimsiz shu qadar go`zal she`rlar yozishi oqibatida, Cho`lpon lirika sohasida 20-yillar o`zbek adabiyotida eng buyuk shoir darajasiga ko`tarildi. Xuddi shu yillarda Cho`lponning she`riyat bilan bir qatorda dramaturgiya sohasida ham noyob iste`dod egasi ekanligi ayon bo`ldi. Butun ijodiy yo`li davomida Cho`lponning «Halil Farang», «Cho`rining isyoni», «Mushtumzo`r», «Hujum» (V.Yan bilan hamkorlikda), «O`rtoq Qarshiboev» singari o`n beshta pesa yaratganligi haqida ma`lumotlar bor. Faqat ularning ko`pchiligi to`liq holda saqlanib qolmagan. Cho`lpon pesalari orasida «Yorqinoy» dramasi boshqalarga nisbatan g`oyaviy – badiiy jihatdan mukammalroq ekanligi bilan ajralib turadi. Bu pesa 1921-yilda yozilib, 1926-yilda alohida kitob holda nashr etilgan bo`lib, unda Cho`lpon Shekspir izidan borgan va shekspirona xarakterlar yaratishga intilgan edi.

20-yillarda «Yorqinoy» tomoshabinlar o`rtasida katta shuhrat qozonadi. U yetti yil ichida uch marta sahnalashtiriladi. Dramaning yetakchi qahramoni Yorqinoy xarakterida Cho`lpon tasavvuridagi ideal o`zbek ayolining fazilatlarini ifodalangan. «Yorqinoy» umumbashariy muammolar haqida bahs yurituvchi, erk, muhabbat, adolat, mardlik va nomus masalalaridan naql qiluvchi, ijtimoiy-falsafiy drama darajasiga ko`tarilgan asardir.

O.Sharafiddinov Cho`lponning «Yorqinoy» obrazini yaratishda «Oloy malikasi» nomini olgan Qurbonjon dodxohni nazarda tutgan bo`lishi ehtimolini qayd etadi.

20-yillarda Cho`lpon hikoyachilik sohasida ham badiiy ijodning yuksak cho`qqilariga ko`tariladi. Shundan dalolat beruvchi nodir asarlar sifatida uning «Qor qo`ynida lola», «Nonvoy qiz», «Nonushta», «Oydin kechalarda», «Gavharoy» hikoyalari e`lon qilinadi. Adib ijodining boshidagi ilk mashqlaridan o`zining

haqqoniyliги, badiiy mukammalligiga ko`ra keskin farqlanuvchi bu asarlar o`zbek realistik hikoyachiligining shakllanish davrida mustahkam zamin bo`lib xizmat qildi.

20-yillar oxirida qishloq xo`jaligini kollektivlashtirish mavzuida Cho`lponning «Yov» degan qissa yozgani haqida ham ma`lumotlar bor, biroq u asar hanuzga qadar topilgani yo`q.

Bu yillarda Cho`lpon yirik nasriy asarlar bilan bir qatorda safarnomalar ham yozgan bo`lib, ular muallifning sayohatni g`oyat sevishidan, ona yurt o`tmishi tarixini yaxshi qiyoslash hamda tegishli xulosalar chiqarish qobiliyatidan, o`lka go`zalligini nozik his qilish va yorqin manzaralarda jonlantirish iste`dodidan, zamonning dolzarb muammolarini o`ta ta`sirchan shaklda yoritish jasoratidan dalolat beruvchi asarlar sifatida saqlanib qoldi.

20-yillar oxirida Cho`lpon ijodiy yo`lining ikkinchi bosqichi tugaydi. 30-yillarga kelib, Cho`lpon lirikasida orqaga qarab siljish ko`rinadi. U endi zamonasozlik ruhida yoza boshlaydi. Ilgarigidek yonib-kuyib yozaolmaydi. Shoir lirikasida ma`lum vaqt umidsizlik ruhi, ma`yuslik ohanglari ortadi. Keyinroq ma`yuslik o`rnini qandaydir ko`tarinkilik egallay borgan bo`lsada, o`sha zo`rma-zo`raki «avj pardalar»da mavhum sohtalik, samimiyatdan yiroqlik sezilib turar edi. O`zining bu holatini shoir «Yana oldim sozimni» she`rida (1934) juda yaxshi ifodalagan edi:

Bir necha yilqan targ`ach
Yana oldim sozimni,
Endi aytib yig`lamas
Ko`ngildagi rozimni.

Endi Cho`lpon o`sha davrning muhim sanalarini, tarixiy hodisalarni madh etib, «Oktabr», «O`n yil Leninsiz», «Bu kunning shoiri», «Norin daryo», «Diyorim» kabi she`rlarini bitadi. Ularda muallifning bir amallab, ya`ni o`zini zo`rlab bo`lsada, yangi tuzumni olqishlashga uringani, lekin madhiyalar orasiga qandaydir mavhum kinoyalar, pichinglar, kesatiqlar, mazahlar aralashtirib turgani yaqqol seziladi. Buning dalili sifatida O`zbekiston Respublikasining 10 yilligiga bag`ishlangan «Diyorim» she`rini (1934) eslash kifoya:

Be`mani tarixni yondirdi inqilob,
Sen qo`ygan talabni qondirdi inqilob,
Qarg`agan kechmishdan tondirdi inqilob,
Kelajak mehrini ko`ngulga jo aylab!

Shoirilar, adiblar, hakimlar yonmadi,
Ma`quldan inqilob hech qachon tonmadi,
Kechmishning barchasin safsata sanmadi,
O`rganib yotadi kechmishni bel boylab.

Bunday she`rlar erkka tashna Cho`lponning yoniq ovozi, otashin qalb nidosidan ko`ra ko`proq qandaydir o`zga kimsaning, aniqrog`i, tavbasiga tayantirilgan notavon bir shaxsning itoatga to`liq iltijolariga o`xshab ketar edi. Obrazli qilib aytganda, ular haqiqiy oltindan ko`ra, ustiga tilla suvi yuritilgan jezni eslatar edi.

Bu bilan uning ijodiy yo`lidagi uchinchi bosqich boshlanadi. Xuddi shu paytda Cho`lpon hayotining fojealarga, dramalarga, haqoratlariga, xo`rliklarga to`la yillari yetib kelgan edi. U qand kasaliga muhtalo bo`lgan edi. Uning asarlarini bosmay qo`yishadi. Lekin shoirning iroda kuchiga qoyil qolish kerak. Ana shunday dahshatli muhitda ham u ijod qilishdan to`xtamadi. Adib bir qator yirik asarlarni, shu jumladan, Shekspirning «Hamlet» tragediyasini mahorat bilan tarjima qildi. Cho`lpon bu davrda ham tinimsiz ijod qilganining dalili sifatida 1935-37-yillar mobaynida «Kecha va kunduz» romani, «Soz» nomli she`riy kitobi bosmadan chiqqanini va «Jo`r» to`plami tayyorlanganini eslash mumkin. Cho`lpon hayotlik chog`ida nashr etilgan so`nggi yirik asari ikki kitobdan iborat bo`lgan «Kecha va kunduz» romani hisoblanadi. Romanning «Kecha» deb atalgan birinchi kitobida muallif o`zbek xalqining XX asr boshlaridagi fojealarga to`liq hayoti manzaralarini gavdalantirishni, «Kunduz» deb nomlangan va hozircha topilmagan ikkinchi qismida esa, 1917-yil Oktabridan keyingi o`zgarishlar mohiyatini imkon qadar ochib berishni o`zoldiga maqsad qilib qo`ygan edi.

«Kecha va kunduz» romanida ma`rifatparvarlik, jadidchilik va xotin-qizlar ozodligi g`oyalari nihoyatda qiziqarli syujet, drama unsurlariga boy uslub hamda to`laqonli insoniy xarakterlar yaratish vositasida ifodalangan edi. O`zining yuksak fazilatlariga ko`ra bu asar 30-yillar o`zbek nasrining jiddiy yutuqlari qatoridan o`rin oldi. Shunga qaramay, romanning birinchi kitobi chiqqan kezlarda yoq muallifga va asariga quruq tuhmatdan iborat taqrizlar e`lon qilingan edi. Jumladan, J.Sharifiy, O.Sharafiddinov, F.Sultonovlar «Qizil O`zbekiston» gazetasining 1937-yil 6-avgust sonida bosilgan «Kecha va kunduz» haqida» nomli maqolalarida roman yuzasidan quyidagi tarzda keskin xulosa chiqargan edilar: «O`suvchi yosh bo`g`inga zararli,

yoshlarimizni zaharlovchi pornografiya asarda asosiy o`rin olgan. Asarda haqiqat va baxt-saodat uchun, ozodlik-erkinlik uchun kurashuvchi xalq qahramoni yo`q. Cho`lpon o`z asarida xalq dushmanlari – jadidlar, aksil inqilobchi millatchilarning qarashlarini talqin etib, millatchilik ideyalarini niqoblaydi va uni targ`ib qiladi».

Bu parchadagi fikrlar ustida alohida-alohida o`ylab ko`rilsa, ularning barchasi qip-qizil tuhmatdan o`zga narsa emasligi yaqqol ayon bo`ladi. Chunonchi, «Pornografiya asarda asosiy o`rin olgan», – deganlarida, tanqidchilar romandagi fohishaxona manzaralari va Poshshaxonning kechasi Miryoqubning uyiga kelishi voqeasi tasvirini ko`zda tutganlar. Faqat bu manzaralar tasvirida Cho`lpon axloq normalari doirasidan chiqadigan bironta ham so`z ishlatmaganligi inobatga olinsa, romanda pornografiyadan asar ham yo`qligi yaqqol anglashiladi. Hatto Miryoqubning Hokim to`ra xotini Valya bilan yotib turgan tuni aks ettirilgan o`rinlarda ham pornografiya deb atashga asos beradigan bironta ham unsur uchramaydi.

Tanqidchilarning romanda xalq qahramonlari yo`qligi to`g`risidagi fikrlari ularning asarda Zebi, uning ota-onasi, O`lmas aravakash, Saltanat kabi kambag`al qatlam vakillari obrazlari yaratilganligini yetarlicha e`tiborga olmaslik oqibati hisoblansa kerak.

Nihoyat, taqrizdagi muallifni millatchilikda ayblashni ham 30-yillardagi bir salbiy tamoyilning oqibatidan o`zga narsa deb, qarash mumkin emas. Tanqidchilar o`sha vaqtda butun Sho`ro mamlakatida millatchilik bilan millatparvarlikni farqlamaslikdek mash`um tendensiyaga ko`r-ko`rona ergashganlar. Shunga ko`ra, ular romandagi Sharafiddin Xo`jayev, Miryoqub va boshqa jadidlarning milliy uyg`onish, xalq ma`rifati, ozodligi, ravnaqi to`g`risidagi qarashlarini hech ikkilanmasdan «Millatchilik ideyolari» deb e`lon qilib yuboraverganlar.

So`nggi yillarda tanqidchilikda romanning bosh qahramoni kim ekanligi ustida munozaralar qizib ketdi. Ozod Sharafiddinov va boshqa ko`p yirik tanqidchilar asarning boshidanoq anglanadigan, mohiyatidan kelib chiqib, undagi Zebi timsolini romanning bosh qahramoni sifatida e`tirof etdilar. D. Quronov va boshqa bir guruh adabiyotshunoslar esa asar o`rtalarida paydo bo`ladigan va jadidchilik g`oyalarini targ`ib etadigan Miryoqubni romanning bosh qahramoni darajasiga ko`tarishga intildilar. Masalaga aniqlik kiritmoq uchun romanning ayrim tafsilotlarini eslash o`rinli bo`ladi. Romanning

birinchi bobida shaharda yashaydigan yosh va go`zal qiz Zebining hovlisiga dugonasi Saltanat kelib, bahor yaqinlashayotganini hamda qishloqdagi qadrdonlari Enaxon keng dalalarga sayohatga taklif qilayotganini aytadi. Darhol safarga tayyorgarlik boshlanib, Zebi ota-onasidan ruhsat olgach, qizlar o`sha kengliklar tomon yo`lga chiqadilar. Demak, asarning boshidanoq keng dalalarga, ya`ni erkin nafas olishga tashna o`zbek qizi romanning yetakchi qahramoni sifatida namoyon bo`ladi. Xuddi mana shu ruh, ya`ni erk va ozodlikka tashnalik tuyg`usi Cho`lpon lirikasi bilan romani orasida qandaydir bog`liqlik yoki yaqinlik borligidan dalolat beradi. Qizlar manzilga yetib borganlarida ham, yozuvchi ulardan birini, ya`ni Zebini boshqalardan ajralibroq turuvchi personaj ekanligiga urg`u berish uchun u bilan birga ko`chada qolgan O`lmas aravakashni osmondagi oyga va yerdagi toyga o`xshatadi. Keyingi xuddi shunday topilma o`xshatishlarga boy oddiy hayotiy lavhalarda ham Zebi asarning deyarli barcha voqealarini o`zaro birlashtirib turuvchi qahramon sifatida ko`rsatib boriladi. Unga bog`liq keyingi voqealarning aksariyati, aniqrog`i, Zebining Akbarali mingboshiga to`rtinchi xotin sifatida uzatilishi, erining o`limida ayblanib, sud qilinishi, Sibir surguniga jo`natilishi, hukm o`qilganida, uyini qanday topib borishini o`ylashi – bularning hammasi Razzoq so`fining qizi romandagi asosiy syujet chizig`ini harakatga keltiruvchi kuch ekanligidan dalolat beradi. Xususan, sud sahnasida yozuvchining asosiy g`oyaviy maqsadi nimadan iborat ekanligi va u ko`proq qaysi qahramon timsoli orqali yuzaga chiqarilganligi ayon bo`ladi. Sud zalida o`tirganlarning deyarli barchasi va ayniqsa, chor amaldorlari Zebidek nozik – nihol hamda musichadan ham beozor qizning butkul begunoh ekanligini to`liq his qilib turadilar. Faqat ular sudda qoralovchi nutqida aytilganidek, xuddi Turkiya va Eronda yuz bergan inqiloblar Turkistonu Rossiyada ham takrorlanishidan qo`rqadilar. Shunga ko`ra ular sira o`ylab ham o`tirmay, mutlaqo aybsiz yerli xalq vakili bo`lgan o`zbek ayolining yetti yillik Sibir surguniga hukm qilib yuboraveradilar. Ular «sovuq ellardan muz kiyib kelgan» va qalblarini ham yax bosgan mustamlakachilar bo`lganlari uchun mahalliy ayolga nisbatan zarracha rahm-shafqat qilmaydilar. Xuddi mana shu voqea va tafsilotlardan romanning birinchi kitobi mohiyatini belgilovchi asosiy g`oya, ya`ni o`zbek ayolining ozodlikka chiqishi uchun chorizm mustamlakachiligi barham topishi zarurdir, degan falsafiy xulosa kelib chiqadi. Miryoqub

esa romanning o`rtalarida paydo bo`lib, o`zbek ayolining ozodligi masalasi jadidlar oldida turgan vazifalardan biri ekanligi haqidagi g`oyani ifodalashga xizmat qiladi. Muallif rejasiga ko`ra romanning «Kunduz» deb atalgan ikkinchi kitobida Zebi surgundan qaytgach, Miryoqub bilan yaqinlashib, xotin-qizlar ozodligi dushmanlaridan o`ch olishi va shu tariqa faol hamda kurashchan qahramonga aylanishi lozim edi. Buni Cho`lpon o`sha davrlarda hayotning qonuniy oqimi deb tushungan bo`lishi ehtimoldan uzoq emas. O`sha paytlarda butun dunyo bo`ylab feminizm harakatining avj olishi, 1927-yilda o`zimizda «Hujum» kompaniyasining boshlanishi, 1928-yilda Turkiyada ayollarning erkaklar bilan teng huquqli deb e`lon qilinishi hamda boshqa ko`plab tarixiy dalillar Cho`lponni muqarrar ravishda qalbidagi otashin maqsadni, ya`ni erkinlik g`oyasini o`zbek xotin-qizlarining ozodligi masalasi vositasida talqin qilishga olib kelgani shubhasizdir. Garchand, romanning ikkala kitobini birlashtiruvchi asosiy omil sifatida o`zbek ayolining tarixiy taqdiri va ozodligi masalasi qalamga olingan ekan, Zebi asarning deyarli boshidan oxirigacha asosiy ijobiy qahramon sifatida ko`rsatilganligi sira shubha tug`dirmaydigan fakt hisoblanadi. Bu hol 30-yillarda Cho`lponning sotsialistik realizm metodi talablarini sekin-sekin qabul qilayotganligidan, xususan, kurashchan va faol ijobiy qahramon obrazini yaratish yo`liga o`tganligidan hamda bu sohada ham katta iste`dod, bilim, mahorat bilan qalam tebratilsa, muayyan muvaffaqiyatga erishish mumkinligiga ishona boshlaganligidan guvohlik beradi.

Romanning deyarli boshidan oxirigacha Cho`lpon kitobxon shavq bilan o`qiydigan asar yaratishga intilgan. Buning uchun yozuvchi, birinchi navbatda asardagi voqealarning qiziqarli chiqishiga, o`quvchini zabt etib oladigan ta`sirchanlik kasb etishiga harakat qilgan. Bunga iqror bo`lmoq uchun Zebi mingboshiga to`rtinchi xotin sifatida uzatilganidan keyingi voqealarni eslash kifoya. Zebi xonadonga kelganidan keyin Akbarali mingboshining xotinlari orasida kundoshlik kurashi kuchayadi. Unda, ayniqsa, mingboshining ikkinchi xotini Poshshaxon faollik ko`rsatadi. U Zebiga bir choynak suv berib, mastligida mingboshiga ichirishni tayinlaydi. Shu orada kitobxoniga Poshshaxonning suvga kuchala solganligi ma`lum qilib qo`yiladi. Natijada kitobxon voqealarning keyingi davomini sabrsizlik bilan kutib, bu yog`i nima bo`larkin? – deb asarni qo`ldan qo`ymay o`qiydi.

Ko`chadan mast bo`lib qaytgan mingboshi tabiiy ravishda suv so`raydi. Zebi uzatgan choynakdan suv simirgan Akbarali avvaliga tipirchilaydi, so`ngra o`zini har yoqqa urib, talvasaga tushadi va nihoyat tezda jon beradi. Bu voqealardan hayajonga tushgan kitobxon, tabiiyki, Zebining qamalishi, sud qilinishi, surgunga jo`natilishi, Razzoq so`fining Eshonni o`ldirishi voqealarini ham cheksiz qiziqish bilan o`qiydi.

Roman davomida muallif qahramonlar qalbidagi bundan ham nozikroq harakatlarni ilg`ash va yuzaga chiqarish mahoratiga ega ekanligini namoyish qiladi. Buni, ayniqsa, Zebining suddagi ruhiy holati tasviridan yaqqol payqash mumkin. Sudda o`zini yetti yillik Sibir surguniga hukm qilingani haqidagi qaror o`qilar ekan, buni tushunmagan Zebi nuqul majlisdan keyin qanday qilib uyini topib borishi haqida o`ylaydi. Shu qadar nozik va ko`z ilg`amas ruhiy holatlarni yuzaga chiqarish Cho`lpondan avval faqat F.M.Dostoevskiy, L.N. Tolstoy, A.P. Chexov singari adiblarga nasib etgan bo`lsa ajab emas.

Romanning juda qiziqarli chiqishiga Cho`lpon deyarli har bir voqeaning qanday oqibatlariga olib kelganligini tasvirlash orqali erishgan. Chunonchi, muallif Zebining Akbarali mingboshiga to`rtinchi xotin qilib uzatilgani to`g`risidagi voqeani tasvirlar ekan, bu ish qizning ham, ota-onasining ham xohishiga zid holda ro`y berganini ma`lum qiladi. Shunga ko`ra va juda yoshligi sababli avvaliga Zebi mingboshiga qattiq qarshilik ko`rsatadi. Qizning qarshiliklari kuch bilan sindirilgach, yozuvchi: «tabiat o`z ishini qildi», - degan bitta jumla ishlatib, Zebining noiloj taqdir hukmiga bo`ysunganini, ya`ni uning uchun ko`ngilsiz hodisaning oqibatini ayon qiladi. Shu tariqa bir voqeaning qahramon ruhiga ta`sirini ko`rsatish, o`z navbatida o`sha personajning yangidan-yangi xatti-harakatlari yuzaga kelib, navbatdagi hodisalarga turtki berishini tasvirlash orqali Cho`lpon realistik roman syujeti uchun zarur bo`lgan mutanosiblikka erishgan. G`arb va rus tadqiqotchilari aniqlashicha, butun jahon romanchiligida voqealar va qahramonlar psixologiyasi orasidagi bunday mutanosiblik ilk bor 1731-yilda yozuvchi Antuan de Prevoning «Kavaler de Griyeva Manon Lesko tarixi» asarida yuzaga chiqqan. Avvalgi o`zbek romanlarining barchasidan psixologizmining chuqurligi bilan ajralib turuvchi «Kecha va kunduz» asarida Cho`lpon milliy yozuvchilar orasida birinchi bo`lib xuddi shunday mutanosiblikka erishgani bilan

nasr sohasida ham chinakam novator san`atkor ekanligini isbotlagan edi.

Cho`lponning romanchilik sohasidagi novatorligi asar tilini nihoyatda ko`p va kutilmagan yangiliklar hisobiga boyitganida ham ko`rinadi. Bunga yozuvchi XIX asr rus adabiyotidagi bir realistik an`anani ijodiy davom ettirish orqali erishdi. Ma`lumki, XIX asr rus hayotida frantsuz madaniyatiga yaqinlik juda muhim hodisa sifatida kuzatilgan edi. Shuning ta`sirida A.S.Pushkindan tortib A.P. Chexovgacha bo`lgan rus adabiyotida frantsuzcha so`zlardan, jummalardan, yaxlit-yaxlit matnlardan foydalanish an`ana tusini olgan edi. Turkiston chor Rossiyasi tomonidan bosib olingandan keyin mahalliy xalq hayotiga rus madaniyati, adabiyoti va tili unsurlari ham kirib kelganligi tabiiy bir holdir. Shuni inobatga olib, Cho`lpon «Kecha va kunduz» romanida Noib to`ra bilan Miryoqub, Epaqa bilan Mariya o`rtasidagi suhbatlarda va Zebi ustidan o`tkazilgan suddagi qoralovchi nutqida ruscha so`z, ibora hamda jummalardan nihoyatda o`rinli foydalangan. Cho`lponning mahorati shundaki, u tarjimalarini ilova qilmasdan ham chet so`zlari va jummalarining o`zbek kitobxonlariga osonlik bilan yetib boradigan hamda tushuniladigan qilish yo`llarini topgan.

«Kecha va kunduz» romanidagi voqealar tartibida ham Cho`lponning ma`lum darajada novatorlik yo`lidan borganligi sezilib turadi. U asardagi voqealarning barchasini hayotda qay tartibda yuz bergan bo`lsa, o`shanday xronologikizchilikda emas, balki ba`zilarining ketma-ketligini o`zgartirgan holda tasvirlagan. Masalan, Mariyaning Miryoqub bilan tanishuvidan avvalgi o`tmishi, Rossiyadagi hayoti turli chekinishlar va xotiralar vositasida ma`lum qilinib, qahramonlarning hozirgi, ya`ni turmush qurganlaridan keyingi vaziyatlariga bog`lab yuboriladi. Voqealarning ma`lum darajada hayotdagi ketma-ketlikdan farq qiluvchi, lekin kitobxon uchun qiziqarliroq tuyuluvchi xronologik tartibda berilishi Cho`lponning birinchilardan bo`lib, adabiyotimizga modernizm unsurlarini olib kira boshlaganligini isbotlaydi.

Cho`lpon deyarli butun ijodiy yo`li davomida tanqid va adabiyotshunoslik sohasida ham unumli qalam tebratdi. Uning tanqidiy maqolalari mazmunan rang-barang bo`lib, ba`zilari adabiyotning mohiyatini, go`zalligini ochib berishga bag`ishlangan. O`zining ikkinchi guruh maqolalarini Cho`lpon mumtoz o`zbek

adabiyoti va uning yirik namoyondalari ijodi tahliliga bag`ishlagan bo`lsa, yana bir qator tanqidiy asarlarida zamonaviy so`z san`atimiz, qardosh xalqlar va xorijiy yozuvchilar merosi yuzasidan teran fikr-mulohazalarni ilgari surgan. Cho`lponning adabiy-tanqidiy maqolalarida eng muhim o`rin tutgan muammolardan biri yangi o`zbek adabiyotini yaratish masalasi bo`lsa ajab emas. Cho`lpon yangi o`zbek adabiyotining boshlovchilaridan bo`lishi bilan bir qatorda xuddi shunday so`z san`ati yaratilishi zarurligini ilmiy jihatdan asoslab bergan zukko olim ham edi. Uning «Sho`ro hukumati va Sanoe nafisa», «Ulug` hindi», «Tagor va tagorshunoslik» kabi maqolalari xuddi shu masalani ilmiy asosda yoritishga bag`ishlangan edi. Cho`lpon fikricha, yangi adabiyot vujudga kelishi uchun umumbashariy qiymatga egab o`lgan va jahondagi eng yuksak badiiy kashfiyotlar qatoridan o`rin oladigan asarlar yaratilishi zaruriy shartlardan hisoblanadi. O`zining mazkur xulosalarini Cho`lpon xorijiy xalqlar adabiyotining juda ko`p nodir namunalarini, xususan, ulug` hind yozuvchisi Robindranat Tagor asarlarini o`qish va tarjima qilish jarayonida chiqargan edi. Dastlab u R.Tagorning «Hoy, yo`lovchiqiz» asarini ruschadan o`zbekchaga tarjima qilgan edi. Shoir faqat R.Tagor asarlarini o`qish yoki tarjima qilish bilan cheklanmasdan, uning ijodiga oid ko`plab maqola va kitoblar bilan ham yaqindan tanishib chiqqan edi. Oqibatda Cho`lponning «Ulug` hindi», «Tagor va tagorshunoslik» kabi maqolalari («Maorif va o`qitg`uvchi», 1925, 7-8-son, 11-12-bet) maydonga kelgan edi. Ularda muallif o`z e`tiborini, avvalo, R.Tagor ijodi umumjahon miqyosida qanday baholanishini ko`rsatishga qaratadi. Buning uchun R.Tagor ijodiga oid ko`plab maqola va kitoblar qisqacha tahlil qilinib, mantiqiy xulosalar chiqariladi. O`z kuzatishlari va tagorshunoslik tajribalariga tayanib, Cho`lpon bu yozuvchini «ulug` hindi», «muborak odam» deb ataydi hamda uning ijodini «sharq va g`arb o`rtasidagi oltin ko`prik» darajasida baholaydi. Yuqoridagi maqolalarda Cho`lpon asosiy diqqatini R.Tagor ijodidan o`zbek adabiyoti uchun saboqlar chiqarishga qaratadi. Oqibatda Cho`lpon ilgarigidek yozish mumkin emasligi, yangi adabiyot yaratmoq uchun R.Tagor darajasida asarlar ijod qilish zarurligi to`g`risidagi xulosaga keladi. O`zbek mumtoz adabiyotiga R.Tagor ijodi yuksakligidan turib, o`ta tanqidiy yondashuv oqibatida tug`ilgan mazkur xulosasini «Ulug` hindi» maqolasida Cho`lpon: «O`zimning yo`lsizligimdan biroz so`zlab

o`tay. Navoiy, Lutfiy, Boyqaro, Mashrab, Umarxon, Fazliy, Furqat, Muqimiylarni o`qiyman– birxil, bir xil, bir xil!» – deya nihoyatda keskin ifodalaydi. Bu so`zlardan mumtoz o`zbek adabiyotining muayyan darajadagi cheklangan tomoni va jahondagi ilg`or so`z san`atlaridan farqli qirradi ayon bo`ladi.

Umuman, Cho`lponning yuqoridagi maqolalaridan yangi o`zbek adabiyoti yaratishning asosiy yo`li tagorcha ijod, ya`ni realizm tomon yuz burish zarurligi to`g`risidagi xulosa kelib chiqadi.

Cho`lpon she`riyati atrofida 1927-yilda qizg`in munozara boshlanib ketdi. Unda Cho`lpon she`riyati yuksak san`at namunasi sifatida emas, balki ko`proq g`oyaviy, mafkuraviy tomoniga ko`ra keskin salbiy baholandi. Aytganimizdek, bu baho adabiyotshunos Ayn – Olim Sharafiddinovning: «Cho`lpon millatchi, vatanparast, badbin ziyolilarning shoiridir», – degan so`zlarida ro`yobga chiqqan edi. Bu so`zlar 20-yillarda o`zbek tanqidchiligi yo`q joydan siyosiy xato qidirish kasali, ya`ni vulgar sotsiologizm botqog`iga naqadar sho`ng`ib ketganligini tushunishga yordam berishidan tashqari, Cho`lponni halokat tomon surib ketgan yo`l qanday boshlanganligini yaqqol tasavvur qilishga ham imkon tug`diradi. Aynga javoban yozilgan maqolalarda, ya`ni bahs davomida shoir lirikasi umumbashariy qiymatga loyiq boshqa daho san`atkorlar ijodi qatorida turishi yangi dalillar yordamida asoslandi. Bu jihatdan Oybekning «Cho`lpon. Shoirni qanday tekshirish kerak?» maqolasidagi («Qizil O`zbekiston», 1927-yil 17-may): «Cho`lpon bizning hozirgi adabiy ehtiyojimizga javob berolmas deb, undan qo`l yig`amizmi? Menimcha, bu narsa xato. Bu kun rus birodarlarimizg`a qararak, ular Pushkinni qanday sevganligini ko`ramiz. Pushkinni rus ishchisi, komsomoli, firqaligi, olimi – hammasi sevadi, hammasi o`qiydi. Pushkin inqilobdan so`ng ham Pushkin bo`lib qoldi... Hozirgi yo`qsul yoshlar unga yana katta qiymat beradilar. Uni o`qib, asarlarining go`zalligida cho`mmak istaylar... Biz ham Cho`lpondan qo`l torta olmaymiz. Cho`lpon yangi adabiyotda yangi narsalar yaratdi. Muvashshah adabiyoti o`rniga bu kunning badiiy zavqiga yarasha yoqimli, go`zal she`rlar o`rtag`a chiqardi. Bugungi yosh nasl uning sodda tilini, totli uslubini, texnikasini ko`p sevadi. Undan ko`p go`zalliklar oladi. Cho`lponning mafkurasi emas, balki yaratgan badiiy namunalari o`qiladi, voz kechilmaydi», – degan so`zlari diqqatga sazovordir. Ularda Cho`lpon she`riyati faqat Shekspir emas,

balki jahonning yana bir genial san`atkori A.S. Pushkin ijodi kabi yangi adabiyotni boshlovchilik qudratiga ega ekanligi ochib berilgan edi. O`z vaqtida tanolinmagan, keskinrad etilgan bo`lsa-da, mazkur xulosa keyinchalik juda ko`p maqola va kitoblarda ilmiy jihatdan asoslab berildi.

Shunga qaramay, 30-yillarda boshqa yuzlab yozuvchilar, adiblar, san`atkorlar, olimlar kabi Cho`lponning ham boshida qora bulutlar behad quyuqlashdi. Endi uni «millatchi» debgina emas, ochiqdan-ochiq «xalq dushmani» sifatida qoralay boshlaydilar. Inqilobdan oldingi fors shoirlarini o`qigani ham Cho`lpon zimmasiga katta ayb sifatida yuklanadi. Umuman, 30-yillarda buyuk san`atkorlarni qanday qilib bo`lsa-da millatchilik, aksilinqilobchilik botqog`iga qulatilish nihoyatda avj olgan. Bunga iqror bo`lish uchun qiziq bir dalilni eslash kifoya: O`sha davrda uch buyuk o`zbek yozuvchisi ijodini yer bilan yakson qilib tanqidiy asar yozish vazifasi uchta shoir zimmasiga yuklangan ekan. Chunonchi, Fitrat ijodini kunpaya-kun qilish Hamid Olimjonga, Abdulla Qodiriy asarlarini balchiqqa bulg`ash Oybekka, Cho`lpon buyukligini oyoq osti qilish Maqsud Shayxzodaga topshirilgan ekan. Bulardan Hamid Olimjon zimmasiga yuklangan vazifani «sharaf bilan ado etib», «Fitratning adabiy ijodi haqida» degan maqola nashr ettirgan. Oybek esa Abdulla Qodiriy ijodini imkon boricha xolis baholashga intilib, «Abdulla Qodiriyning ijodiy yo`li» degan kitob e`lon qilgan va o`zining sof vijdonli adib ekanligini isbotlagan. Faqat davr siyosati iskanjalaridan to`liq chiqib ketaolmaganligi sababli Oybek ham o`z kitobida Abdulla Qodiriyning «O`tgan kunlar» romanida sinfiy kurash ko`rsatilmaganligi, mehnatkash xalq vakili obrazi yaratilmaganligi to`g`risidagi asossiz aybnomalarni takrorlashga majbur bo`lgan edi. Maqsud Shayxzoda esa, ko`pchilik zamondoshlarining guvohlik berishicha, yuqoridan topshiriq olganligiga qaramay, Cho`lpon ijodi yuzasidan maqola yozmagan yoki yozsa ham nashr ettirmagan ekan. Faqat Shayxzodadek halol, vijdonli kishilar kam bo`lib, topshiriq olmagan boshqa shuhratparast da`vogarlar matbuotni Cho`lpon ustiga ochiqdan-ochiq bo`hton yog`diruvchi dag`-dag`aga to`liq maqolalar bilan ko`mib tashlaydilar. Oqibatda, oradan ko`p o`tmay, 1937-yilning kuz oylarida Cho`lpon qamoqqa olinadi va 1938-yilning 5-oktabrida «aksilinqilobiy faoliyati» uchun otishga hukm qilinadi. Hukm esa 4 oktabrda ijro etib bo`lingan edi. Olamdan o`tgandan keyin uning

nomini butunlay o`chirib tashlash uchun harakat boshlandi. Shundan keyin, aniqrog`i, 1937-yildan Cho`lpon ijodini o`rganish sohasida o`zbek tanqidchiligi va adabiyotshunosligida qariyb chorak asr cho`zilgan sukunat davri boshlanadi. Bu davrda chet ellarda Cho`lpon ijodi yuzasidan Ibrohim Yorqin, Boymirza Hayit va boshqa ayrim tadqiqotchilarninggina maqolalari e`lon qilingan bo`lib, ularda, asosan, shoir asarlari, qarashlarining, iste`dodining qadr-qiymati haqida qisqacha ma`lumotlar berilgan edi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Cho`lpon xarakteri qanday muhitda shakllangan?
2. Abdulhamid Sulaymon o`g`li qanday taxalluslar qo`llagan?
3. Cho`lponning qaysi mashqi matbuotda bosilgan birinchi asari hisoblanadi?
4. Cho`lpon qanday estetik qarashlarni ilgari surgan?
5. Cho`lponning ijodiy yo`li qanday bosqichlarga bo`linadi?
6. Cho`lponning dastlabki nasriy asarlarida qanday kamchilik ko`zga yaqqol tashlanar edi?
7. Cho`lpon she`riyatida qaysi g`oya nihoyatda katta pafos bilan ifodalangan?
8. Cho`lpon she`riyatida «kishan» timsoli qanday g`oyaviy maqsadni ifodalashga xizmat qiladi?
9. Qaysi to`plam tanqidchilikda Cho`lpon she`riyatining eng jiddiy yutug`i sifatida etirof etilgan?
10. Cho`lponning 20-yillardagi hikoyalari qaysi ijodiy metod namunasi hisoblanadi?
11. Cho`lponning «Kecha va kunduz» romanida psixologik tahlil qanday o`rin tutadi?
12. Qaysi asar tanqidchilikda Cho`lponning dramaturgiya sohasidagi eng jiddiy yutug`i sifatida e`tirof etilgan?
13. 1927-yilgi munozaralarda Cho`lpon she`riyati qanday talqin qilingan?
14. Qaysi kitoblar cho`lponshunoslikning eng jiddiy yutuqlari sifatida e`tirof etilgan?
15. Cho`lponning «Ko`ngil», «Go`zal», «Qalandar ishq», «Xalq», «Binafsha» kabi she`rlarini yod oling.

Foydalanilgan dabiyyotlar:

1. Каримов И. Адабиётга эътибор – маънавиятга, келажакка эътибор. – Т.: Ўзбекистон, 2009.
2. Мирзиёев Ш. М. Буюк келажакимизни мард ва олийжаноб халқимиз билан бирга қураимиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017.
3. Миллий уйғониш. Илмий мақолалар тўплами. – Т.: Фан, 1993.
4. Алиев А. Истиқлол ва адабий мерос. – Т.: Ўзбекистон, 1997.
5. Каримов Н., Мамажонов С., Назаров Б., Норматов У., Шарафиддинов О. XX аср ўзбек адабиёти тарихи. Олий ўқув юртлари учун дарслик. –Т.: Ўқитувчи, 1999.
6. Қосимов Б. Миллий уйғониш. – Т.: Маънавият, 2002.
7. Санжар Содик. Янги ўзбек адабиёти тарихи. Дарслик. –Т.: Университет, 2005.
8. Каримов Н. XX аср адабиёти манзаралари. –Т.: Ўзбекистон, 2008.

Cho`lpon asarlari:

9. Чўлпон. Асарлар. Тўрт жилдлик. – Т.: Академнашр, 2016.

Cho`lpon ijodi haqidagi tadqiqotlar:

10. Шарафиддинов О. Чўлпон. – Т.: Чўлпон, 1991.
11. Каримов Н. Чўлпон. – Т.: Фан, 1991.
12. Шарафиддинов О. Чўлпонни англаш. – Т.: Ёзувчи, 1994.
13. Чўлпоннинг бадиий олами. Мақолалар тўплами. – Т.: Фан, 1994.
14. Каримов Н. Чўлпон (Маърифий роман). – Т.: Шарқ, 2003.
15. Чўлпон ва танқид. Мақолалар тўплами. Нашрга тайёрловчи – Б.Каримов. –Т.: Адабиёт жамғармаси, 2004.
16. Каримов Б. Руҳият алифбоси. –Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2016.
17. Қуронов Д. Чўлпон насри поетикаси. – Т.: Шарқ, 2018.
18. Наби Жалолиддин. Тегирмон. Роман. – Т.: 2018.

Internet saytlari:

18. www.alishernavoiiy.uz
19. www.ziyo-net.uz
20. www.literature.uz
21. www.kutubxona.uz.

MAVZU: OYBEK ROMANLARI



(1905–1968)

Reja:

1. *Oybek ijodining o`rganilishi*
2. *Hayot va ijod yo`li*
3. *Oybek she`riyatining o`ziga xos xususiyatlari.*
4. *«Mahmud Torobiy» dramasi*
5. *Oybekning nasriy ijodi.*

Tayanch tushunchalar: lirik tur, she`r, doston, lirizm, liro-epik tur, realizm, «Na`matak», «Chimyon daftari», «Qutlug` qon», tarixiy haqiqat, badiiy to`qima, «Navoiy», tarixiy obraz, adabiyotshunoslik.

Oybek yangi o`zbek adabiyotining betakror namoyandalaridan biri. Ijodiy yo`lini lirik shoir sifatida boshlagan Oybek keyinchalik she`riyat va nasrning barcha janrlarida, ayniqsa, doston va roman janrlarida ko`plab asarlar yaratdi. Oybek ijod maydoniga kirib kelganida o`zbek adabiyoti osmonida A.Qodiriy, Fitrat va Cho`lpon yulduzlari nur sohib turardi. Bu ulug` zamondoshlari nuridan munavvar bo`lgan Oybek o`zining dastlabki ijodida ular badiiy tajribasiga suyandi va birinchi navbatda, Cho`lpon she`riyatidan saboq oldi. Oybek ijodi ilk davridan boshlab tadqiqotchilar diqqatini o`ziga qaratib kelgan. Mirkarim Osimning texnikumning oz nusxali «Tong yulduzi» nomli jurnalida e`lon qilingan «Oybek va uning she`rlari» maqolasi (1925) bilan boshlangan adib haqidagi tanqidiy adabiyot boy

va rang-barangdir. O`zbek va rus adabiyotshunoslari hamda yozuvchilari qalamiga mansub o`nlab maqolalardan tashqari, adib ijodiga bag`ishlangan talaygina kitob va risolalar ham mavjud. Bular orasida Homil Yoqubovning «Oybek» (1959), «G`oyaviylik va mahorat» (1963) Matyoqub Qo`shjonovning «Oybek mahorati», Naim Karimovning «Oybek» (1985), «Oybek gulshanida qolgan g`unchalar» (1985) singari kitob va risolalari ajralib turadi. Ayni paytda Z. Saidnosirovaning «Oybegim mening» kitobi o`z vaqtida yozilgan. Ularda yozuvchining murakkab hayot va ijod yo`li bilan birgalikda badiiy mahorati va ijodiy laboratoriyasida bevosita aloqador masalalar keng yoritilgan.

Muso Toshmuhammad o`g`li Oybek 1905-yil 10-yanvarda Toshkentning Gavkush mahallasida dunyoga keldi. Bir paytlar hali rus manufakturasi mahalliy to`quvchilar va ularning mollarini siqib chiqarmaganida, bu mahallada istiqomat qilgan aksar aholi bo`zchilik bilan shug`ullanar edi. Bo`lajak yozuvchining otasi Toshmuhammad aka ham dastlab bo`zchi bo`lgan. Lekin bu hunar turmush tebratish kuchiga ega bo`lmay qolganida, u Toshkent atrofidagi qishloqlarga qatnab, baqqolchilik qilgan. Oybek dastlabki ma`lumotini musulmon maktabida oldi; bu maktabda garchand tarix, geografiya, matematika singari fanlar o`qitilmagan bo`lsa-da, Oybek u yerda So`fi Olloyor, Navoiy, Xo`ja Hofiz, Bedil singari mumtoz o`zbek va fors-tojik shoirlari ijodi bilan tanishdi. 1919-yilda «Namuna» deb atalgan boshlang`ich sho`ro maktabida o`qishni davom ettirdi. 1921-yili maktabni tugatib, Navoiy nomidagi ta`lim va tarbiya texnikumiga o`qishga kirdi. U shu erda Navoiy va Fuzuliy asarlariga muhabbat qo`ydi. Pushkin, Lermontov, Tolstoy singari yozuvchilar misolida rus adabiyotini kashf etdi. Oybek hayotining bu zangor faslini eslab: «Xayol daryosi keng edi menda. O`qtin-o`qtin, o`zimcha mashq qilib, bitta-yarimta she`r yozib ham qo`yardim. Xotiramda bor, ilk she`rim texnikumning «Tong yulduzi» degan devoriy gazetasida chiqdi. Keyin shu gazetaga o`zim mas`ul muharrir bo`ldim. Sekin-sekin respublika gazetalarida she`rlarim bosila boshladi», – deb yozgan.

Oybekning adabiy ijodi 1912-1922-yillari ana shu texnikumdan boshlandi. «Samoviy» taxallusi ostida o`zi ham uncha-muncha she`r va maqolalar yozib turgan ustoz Eson afandi Oybekdagi ijodga, adabiyotga bo`lgan maylni rag`batlantirib, uni Cho`lpon bilan, turk shoirlari bilan tanishtirdi. 1925-yildan Oybek O`rta Osiyo davlat

universiteti ijtimoiy fanlar fakultetining iqtisod bo`limida oliy ma`lumot olishga kirishdi. U bu vaqtda «Tuyg`ular» (1928), «Ko`ngil naylari» (1929), «Mash`ala» (1932), «Baxtigul va Sog`indiq» (1933) she`riy to`plamlarining muallifi edi.

Oybek iste`dodiga ko`ra shoir, tabiatiga ko`ra tadqiqotchi bo`lgan. Talabalik yillaridayoq A.Navoiy va u yashagan davr bilan qiziqqan Oybek ko`plab tarixiy va badiiy asarlarni mutolaa qilib, bilim doirasini muttasil kengaytirib borgan. U til va adabiyot institutiga xizmatga o`tishi bilan Navoiy hayoti va ijodini endi adabiyotshunos olim sifatida tadqiq eta boshlaydi. Ayni paytda, institut rejasiga ko`ra, A. Qodiriy ijodini o`rganishga kirishadi. 1937-yil u yozuvchilar uyushmasidan chetlashtirildi. Shu davrda dastlabki yirik nasriy asari – «Qutlug` qon» romanini yaratdi. «Rim adabiyoti» majmuasini o`zbek tiliga tarjima qildi. 1940-yili «Qutlug` qon» romani nashr etildi. Romanning kitobxonlar tomonidan qizg`in kutib olinishi Oybekni A.Navoiy hayotiga bag`ishlangan katta epik polotnoni yaratishga ilhomlantirdi. 1943-yili O`zbekiston Fanlar Akademiyasiga haqiqiy a`zo qilib saylandi. Shu davrdan boshlab Oybek Akademiyaning ijtimoiy-gumanitar bo`limiga boshliq, 1945-yildan esa O`zbekiston Yozuvchilar uyushmasi rayosatiga rais sifatida respublikaning ilmiy-gumanitar va adabiy hayotiga rahbarlik qildi. Oybek 1951-yili og`ir xastalikka chalinguniga qadar yirik jamoat arbobi sifatida qizgin faoliyat olib bordi. Ayni paytda u shoir, yozuvchi va publisist sifatida samarali mehnat qildi. Ijodni o`zining birdan-bir yashash tarzi deb bilgan Oybek hatto xastalik yillarida ham fidoiylarcha ishlab «Quyosh qoraymas» (1943, 1958), «Ulug` yo`l» (1967) romanlari, «Nur qidirib» (1957), «Bolalik» (1965), «Bola Alisher» (1967) qissalari, talaygina she`r va dostonlarini yaratdi.

Oybek qalamiga mansub adabiy-badiiy asarlar, ilmiy-publisistik maqolalar va tarjimalar adibning 20 jildlik Mukammal asarlar to`plamida nashr etilgan.

U «Navoiy» romani uchun SSSR Davlat mukofoti (1946), «Bolalik» qissasi uchun esa Hamza nomidagi O`zbekiston Davlat mukofoti (1963) bilan taqdirlangan.

Atoqli adib 1968-yil 1-iyulda vafot etdi. Uning qabri Toshkentning Forobiy qabristonidadir.

Oybek – chin ma`noda serqirra iste`dod egasi. U so`z san`ati va adabiyotshunoslik ilmining barcha tur va janrlarida chuqur iz

qoldirgan yozuvchidir.

H.Olimjon Oybek to`g`risida so`zlab, «U prozada shoiru poeziyada prozaikdir» deb aytgan edi. Mashhur shoirning qalamkash do`sti haqidagi bu so`zlarida jon bor: Oybek nasrga she`riyatning muattar nafasini olib kirdi va she`riyatni faqat nasrga xos bo`lgan tafsillar marjoni bilan boyitdi. Uning nasriy asarlaridagidek shoirona til boshqa biror yozuvchida uchramaganidek, she`riy asarlarida tasvir mukammalligi ham faqat uning o`ziga xos fazilatdir.

Oybekning dastlabki she`ri 1922-yili «Armug`on» to`plamida bosilgan. Bu vaqtda Oybek tahsil ko`rgan texnikumda Eson afandi va Ibrohim afandi singari o`qituvchilar tufayli talabalarda turk adabiyotiga nisbatan hurmat tuyg`usi tarbiyalanar edi. Shuning uchun ham «Cholg`u tovushi» deb nomlangan she`rida o`sha turk she`riyatiga xos ohanglar eshitiladi.

1926-yili chop etilgan birinchi to`plamini esa «Tuyg`ular» deb atadi. Bu to`plamga kirgan she`rlarida hatto qushlar va uy hayvonlariga ham ozor bermaslikka chaqiruvchi cho`lponona insonparvarlik balqib turadi. Shoir shu kezlari yozgan she`rlarining birini «Nay kuylari» deb atagan va uni Cho`lponga bag`ishlagan. Chindan ham Cho`lponning nozik tuyg`u va kechinmalar tasvirlangan she`rlarida nay sadolari mavjlanib turadi. Bu sadolar Oybek qalbiga ham yaqin edi. Shuning uchun u 20-yillarga oid she`rlarida cho`lponona mayin va nafis kechinmalarni tasvirladi. 20-yillarning ikkinchi yarmida matbuot Cho`lpon va cho`lponchilikka qarshi kurash boshlanib, Oybek ustiga ham malomat toshlari otildi. Shoir ana shunday bir vaziyatda Emil Verxarn, Uolt Uitson, V. Bryusov singari shoirlar ruhida ancha she`rlar yozdi. «Mash`ala» (1932) to`plamini tashkil etgan bu she`rlarda Oybek davr taqozosi bilan cho`lponona hazin kayfiyat doirasidan chiqib, qurilishlar pafosi bilan to`yingan shoir sifatida gavdalandi. Ammo bu yo`nalishdagi izlanish Oybekning insoniy tabiatiga zid edi. Shuning uchun ham u Pushkinning «Yevgeniy Onegin» she`riy romanini tarjima qilish va uning badiiy olami bilan yaqinlashish jarayonida «Ko`mir, temir, po`lat, g`isht» to`lqinlarining she`riyatga mutlaqo begona ekanligiga ishonch hosil qildi. U tarjimadan horigan kezlari Chimyon tog`larining jannatmonand etaklarida kezinib, go`zal tabiat ilhomi bilan sug`orilgan she`rlar yozdi. «Chimyon daftari»ni tashkil etgan bu she`r Oybekning shoir sifatida yangi va yuksak bir bosqichga

ko`tarilganidan dalolat beradi.

Oybek lirikasi ikki jilg`aning qo`shiluvidan iborat. Agar birinchi jilg`aga, aniqrog`i, 1-guruhga muhim ijtimoiy mavzularga bag`ishlangan asarlarni kiritsak, 2-guruh sof lirik she`rlardan iborat. U «O`zbekiston» singari ona-Vatanga mehr va iftixor tuyg`ulari porlab turgan asarlar yaratib, ularda shu g`ururga asos beruvchi go`zal manzaralarni badiiy muhrladi:

Bir o`lkaki, tuprog`ida oltin gullaydi,
Bir o`lkaki, qishlarida shivirlar bahor.
Bir o`lkaki, sal ko`rmasa quyosh sog`inar,
Bir o`lkaki, g`ayratidan asabi chaqnar.
Baxt toshini chaqib, bunda kuch guvillaydi.

1936-yil yozi Oybekning she`riy ijodida yangi bir davr ochdi. Shoir o`sha kezlarda qalamkash birodarlari bilan Toshkent atrofidagi go`zal Chimyonda yashab, A.S. Pushkinning «Yevgeniy Onegin» she`riy romanini tarjima qildi.

Bir tomondan, rus shoirining go`zal she`riy olami, ikkinchi tomondan, tog` qishlog`ining musaffo havosi bilan nafas olish, o`zbek tabiatining fusunkor manzarasini qalb ko`zi bilan simirish Oybek bulog`ini jo`shtirib yubordi. Shu davrga oid «Chimyon daftari» turkumiga kirgan she`rlarida Oybek hassos lirik shoir sifatida qaytadan tug`ildi. Bu turkumga kirgan «Tog` sayri», «Na`matak», «Tepaga chiqamen, soyga tushamen», «Abadiyat va umr» kabi she`rlarida Oybek o`zbek tabiatining takrorlanmas she`riy obrazini yaratdi. Oybekning shu yillarda maydonga kelgan «Mashrab», «Quyosh qo`shig`i» kabi she`rlari uning ham lirik, ham voqeaband she`rlar ustasi sifatida ijodiy diapazoni nihoyatda kengayganligini namoyish etdi. Ayniqsa, «Mashrab» poetik fikrning teranligi, qahramon obrazining ko`p qirralarga boyligi, badiiy tafsil va tashbehlarning go`zalligi, beqiyosligi bilan kitobxonni hayratga soladi.

Adabiyotshunoslar Oybek ijodiga xos bo`lgan yana bir nuqtaga e`tiborni qaratadilar. Ularning kuzatishlariga ko`ra, Oybekning qariyb har bir yirik nasriy asari uning biror dostonidan o`sib chiqqan. Chunonchi, «O`ch» hamda «Baxtigul va Sog`indiq» dostonlari «Qutlug` qon» uchun «xamirturush» bo`lib xizmat qilgan bo`lsa, «Navoiy» dostoni shu nomdagi romanning, «Qizlar» dostoni esa «Oltin vodiyan shabadalar» ning eskizidir. Urush yillarida Oybek frontga borib, o`zbek jangchilarining jangovar hayotlari bilan bevosita

jang maydonida tanishdi. Uning shu yillarda yozgan va keyinchalik «Olovli yo`llar» to`plamini tashkil etgan she`rlari ma`lum ma`noda «Quyosh qoraymas» romaniga eskiz bo`lib xizmat qildi. Oybek 50-60yillarda xasta bo`lishiga qaramay, ijoddan charchamadi. Ayniqsa, 60-yillarning o`rtalariga borib, sobiq sovet mamlakatida boshlangan «Xrushchev bahori» kezlarida lirik she`riyatga yana qaytib, talaygina purhikmat she`riy miniatyuralar yaratdi. Oybek she`riy ijodi bilan o`zbek she`riyatining ijodiy ufqini kengaytirib, tasvir imkoniyatlarini g`oyatda boyitdi. O`zbek she`riyatida realizm Oybekning she`r va dostonlari tufayli yanada teranlashdi. Shu bilan birga u Pushkin she`rlaridagi poetik latofat va nafis musiqani, A. Blok va V.Bryusov she`rlariga xos ramziylikni, Navoiy va Fuzuliy lirikasidagi nazokat va jo`shqinlikni hozirgi o`zbek she`riyatiga olib kirdi. Ana shu fazilatlar o`zaro uyushgan holda Oybek she`rlarining o`ziga xosligini ochuvchi poetik belgilar darajasiga ko`tarildi.

Ma`lumki, 1945-yilda Yaponiyaning Xirosima shahrida insoniyat tarixida nihoyatda mudhish voqea yuz berdi. Amerika tomonidan bu shahar ustiga atom bombasi tashlanib, necha minglab insonlar o`limga mahkum etildi. Inson aql-zakovati, bilimi tufayli erishilgan ilm-fan yutuqlari uning baxtu saodati yo`lida emas, fojiasi uchun ishlatilganligi dunyo ahlini dahshatga soldi. Bundan ta`sirlangan ijodkorlar esa ushbu global mavzuga adabiyotda ham o`ziga xos munosabat bildirdilar. Jumladan, Oybek oradan yigirma yil o`tib, taniqli adabiyotshunos U.Normatov o`rinli ta`kidlaganiday: «XX asrning eng mudhish hodisalaridan biri – ikkinchi jahon urushi poyonida yapon zaminida sodir etilgan – bashariyat tamadduni tarixidagi mislsiz ofat – atom qurolini ishga solish tufayli sanoqli daqiqalarda 200 mingdan ortiq tinch aholi yostig`ini quritgan, yana necha minglab tirik qolganlar taniyu qalbini bir umrga jarohatlagan, butun bashariyat ahlini vahshatga solgan mudhish hodisa haqida qalam tebratadi». Shoir yuragining qat-qatlariga yashiringan ulug` dardni – «davr jarohatining qalbdagi asoratlari»ni satrlarga tizib, «Davrim jarohati» nomli dunyo adabiyoti mezonlaridagi lirik asarni bunyodga keltirdi.

Dostonning har bir satri chuqur insoniy dard, mung va iztirob bilan sug`orilgan. Shoir atom bombasini «osmonda bir qopchiq og`u», «yalmog`iz o`ti», «ofat-quyosh», «ajal-nur», «olov ajdari» kabi tashbehlar bilan ifodalab, shu qiyoslar asosida inson hayotini tahlikaga

solgan bu qurolning dahshatlarini aks ettiradi:

Har kimda kundalik bir g`avg`o, bir ish

Kim bilur – osmonda bir qopchiq og`u.

Dostonda fojining yuz berishi quyidagicha hayotiy tasvir etilgan:

Ohista chayqalib tong shamolida

Parashyut tushmoqda ko`tarib ajal

Soat naq sakkizu o`n besh daqiqa

Yorildi ajalning qopi bemahal.

Shu tariqa «davr balosi» – samolyotning «shum qanoti»dan «yalmog`iz o`ti» – bomba insonlar ustiga endirildi. Ko`z ochib-yumguncha «yuz mingcha odamlar kulga» (U.Normatov) aylandi. Shoir bu haqda yozar ekan, Amerikaning ajalni olib kelgan samolyotini «shum kalxat», uning o`zini «tengi yo`q jallod» metaforalari orqali ataydi. Atom bombasi nurida qovjiragan jasadlarni «ko`mir»ga, nobud bo`lgan insonlar orzu-istaklarini «kuygan tabassum»ga mengzaydi. Bu fojia tufayli yuz ming odam hayotni bevaqt tark etgan bo`lsa, yana shuncha jon majruh va xasta bo`lgani ma`lum:

Ufqda bulutlar qonlarda suzar

Dud burqir xastalar nola-ohida

Vahm changalida qovjirak qalblar

Bulutday chayqalur g`am nigohida

Shoir tashxis bilan ziynatlagan misralarida fojiadan keyingi holat va manzaralarni ham tasvir etadi. U o`lim butkul soya solgan shaharda hatto marsiya aytuvchi inson ham qolmaganidan bu ishni tilsiz, zabonsiz dengiz o`z zimmasiga olganligini achinish va buyuk dard bilan bayon etadi. Bu o`rinda Oybek xalq ishonchlariga tayanib, jon oluvchi farishta Azroil nomini talmeh sifatida qo`llab, hatto bunday yovuzlikka u ham qodir emasligini ta`kidlab: «Azroil, insondan, kel, ol saboqni», deya hayqiradi.

Ko`rinadiki, «Davrim jarohati» dostonida muallif, avvalo, asr fojiasi tufayli chekilgan dard-alamni, umuminsoniy jihatlarni hassoslik bilan satrlarga tizishni ko`zlagan. Ayni vaqtda unda o`zbek xalqining ham dard, hasratlari yashiringan. Chunki asar yaratilgan o`tgan asrning 60-yillarida – erkinlik bo`g`ilgan biqiq muhitda Oybek ozodlik, mustaqillik haqidagi fikrlarini oshkora aytolmasdi. Shuning uchun Xirosima fojiasini tasvirlash barobarida xalqimizning erk va ozodlikka intilishi g`oyalarini ham aks ettirdi. Buni esa uning quyidagi

satrlari orqali his etish mumkin:

Qadamlarga g`ovdir – zulm toshlari

Yana:

Kurashur, qolsa-da ko`p kelinlar tul

Qo`llarni kishanlash, bil, endi mushkul

Qilsang-da bog`larni, kulbalarni kul

Vayronlik, qullikni bilmaydi ko`ngil.

«Qadamlarga g`ovdir – zulm toshlari», «Qo`llarni kishanlash, bil, mushkul», «Vayronlik, qullikni bilmaydi ko`ngil», – der ekan, shoir ramzlar, timsollar orqali o`z xalqining ming yillik orzularini ifoda etadi. Uning ko`nglida hamisha erkka, ozodlikka tashnalik hislari barq uradi. Shu ma`noda bu asar o`zbek «dostonchiligida o`ziga xos ijtimoiy pafos ifodasi an`anasini boshlab berdi».

Turonzaminning shonli tarixiga bag`ishlangan yana bir asar – bu serqirra ijodkor Oybek qalamiga mansub «Mahmud Torobiy» dramasi. O`zbek dramaturgiyasi taraqqiyotida Oybekning ham xizmatlari alohida ekanligini ta`kidlashimiz zarur. Dramaturgiya janrida, uning rivojlanish bosqichlarida, asosan, zamonaviy mavzu yetakchilik qilgan bo`lsa-da, dramaturglar tarixiy mavzularda ham bir qancha asarlar bitganlar. Oybekning «Mahmud Torobiy» dramasi ham bu janrning shu yo`nalishdagi eng yaxshi namunalaridan biridir. Binobarin, o`zbek dramaturgiyasida tarixiy mavzuning yoritilishi haqida bahs yuritiladigan bo`lsa Oybek, H.Olimjon, M.Shayxzodalarning nomlari va ularning asarlari faxr bilan tilga olinadi.

«Mahmud Torobiy» dramasi asosida 1943 yil kompozitor Oleg Chishko opera yaratadi va u 1944 yil Alisher Navoiy nomidagi O`zbek Davlat opera va balet teatrida qo`yilgan. Bundan ko`rinadiki, asar yaratilgan yillaridayoq san`at va madaniyat ahli e`tiboriga tushgan. E`tiborlisi, badiiy pishiq va o`ziga xos uslubda yozilgan drama bugun ham adabiyotshunoslar hamda kitobxonlar diqqat markazida turibdi.

Oybek drama uchun uzoq o`tmish tarixidan xalqning chingiziylar istilosi va bosqinchiligiga, zulm va zo`ravonligiga qarshi ozodlik uchun olib borilgan kurashi alangalangan davrni tanlab oladi. O`zbek xalqining – turkiylarning azaldan erk uchun bir jon-bir tan bo`lib kurashib kelganligi tarixiy manbalardan ma`lum.

Dramaturg realizm negizida tarixiy voqea va shaxslarga to`g`ri

yondashadi, o`tmishning jaholatparastlik tomonlarini qoralaydi, dramani romantik ruh bilan bezab, uni maqsad sari eltuvchi vositaga aylantiradi. Muallif uslubidagi bunday xususiyatlar kitobxonning hayotga, kelajakka umid bilan qarashiga, uning ichki dunyosini, qalbini go`zallashishiga, chin vatanparvar, fidoyi bo`lib yashashiga turtki beradi.

Asar an`anaviy pardalardan emas, balki qismlardan iborat. Tarixiy shaxs siymolari bilan birga badiiy to`qima obrazlar mushtaraklikda asarning jonli va hayotiy chiqishida ishtirok etadi.

Dramatik tur janrlarining alohida xususiyatlaridan biri monolog va dialoglar sanaladi. «Mahmud Torobiy» dramasida ham ushbu mezonlar asar mohiyatining to`laqonli namoyon bo`lishida ochqich vazifasini o`taydi. Qolaversa, qahramonlar ruhiyatining qirralarini ko`rsatish uchun monolog va dialoglardan unumli va o`rnida foydalanish qo`l keladi.

Bir shaxsninggina boshqalardan javob berishni talab qilmaydigan nutqi monolog bo`lib, badiiy adabiyotda ulardan keng foydalanib kelinadi. «Ayniqsa, dramatik asarlarda monologlarning badiiy-estetik vazifalar doirasi ancha keng. Jumladan, monolog dramatik personajning ruhiy holati, uning ongiyu qalbida kechayotgan jarayonlarni tasvirlashning asosiy shakli». Drama Jamilaning monologi bilan boshlanadi. Qiz hayotga kulib qaraydi, dunyoni go`zal tarzda anglaydi. Sababi u – maftun. Kitobxonning Jamila ruhiyatidagi bu kabi tovlanishlarni uning sopol ko`za ko`tarib, sharqirab oqib turgan suv bo`yida kuylagan qo`shig`idan ilg`ashimiz mumkin. Darhaqiqat, ishqqa oshno qalbning go`zal tarzda ko`rinish berishida ijodkor nutqning monolog tipidan foydalanadi:

Ishq chamanzor aylagay ko`ngil bog`in,
Dilda darding bo`lmasa, ingrarmi tor?

Bu o`rinda nutq oxirida kelgan savolning javob talab qilmasligi monologning o`ziga xos xususiyatlaridan birini ifodalaydi va dialogdan farqli tomonini ko`rsatadi.

Asar ibtidosida nutqning yana bir shakli – polilog (ikkitadan ortiq kishining nutqi)ga duch kelamiz. Dugonalar suhbatlari orqali yuzaga chiqarilgan vaziyat uning xususiyatlarini namoyon etadi, ya`ni bunda polilog bir vaqtning o`zida bir necha kishining suhbatlashishiga imkon beradi:

Birinchi qiz

Kim istaydi yor?
Ikkinchi qiz
To`g`ri, sira ingramaydi tor
Uchinchi qiz
Agar dilda bir dard bo`lmasa...
Birinchi qiz
To`g`ri, dili ishqqa to`lmasa!
Dardi borlar aytadi qo`shiq.
Kim deydi, ko`zimiz yumuq,
Jamilaxon, barin bilamiz.

To`rtinchi qiz
Hammangiz ham yor qidirasiz.
Nima bo`bdi? Sevmak, sevimak,
Har bir qizda eng shirin tilak.

Binobarin, ushbu nutq shakli – o`zaro suhbat orqali qizlarning intim tuyg`ulari, sof sevgi borasida g`unchalagan hislaridan xabardor bo`lamiz. Ko`pchilikning suhbatini fikr mohiyatini ifodalash doirasini kengaytirishi bilan ahamiyatga molikdir.

Dialog – ikki kishining o`zaro nutqiy muloqoti bo`lib, badiiy asar matnining tarkibiy qismlaridan biridir. Dramada dialogdan foydalanish ijodkor uchun katta imkoniyatlar eshigini ochadi. Chunonchi, dramani dialogsiz tasavvur qilib bo`lmaydi. Vaziyatni baholash, qahramonlarni yaqindan tanish, zamon, makon hamda vaqt nuqtai nazaridan dialog matnda muhim komponent hisoblanadi.

Yodgor
(Jamilaning orqasidan yetib)
To`xta bir zum, Jamilam, bir zum,
Eshittim-da, yelday yugurdim.

Jamila
Yugurganga hech o`xshamaysiz.

Yodgor
(Yuragini ko`rsatib)
Ushlab qara, so`z uqmovchi qiz!

Jamila
O`ynab ketar mening yuragim –
Bir yigitni ko`rsam, hattokim.
Uni bir dam esimga olsam...

Yodgor

Qay yigit u? Bilaylik biz ham.

Jamila

Umi? Rosti, mana shu, Yodgor!

Ushbu dialogdan anglaymizki, Yodgor va Jamila bir-biriga ko`ngil qo`ygan. Unda ikki oshiqning noz-firoqlari-yu sog`inch-iztiroblari, sevgining shirin toti hissi aks etgan. Oybek dramada muhabbat kartinasini shu darajada mohirlik bilan tasvirlaydiki, go`yo kitobxon ikkala yoshning suhbatini ularning oldida o`tirib tinglagandek holatni tuyadi.

Shu o`rinda asarning bosh qahramoni hisoblanmish tarixiy shaxs – Mahmud Torobiy kirib keladi va suhbat o`z-o`zidan Vatan muhabbati, uni ozod ko`rish istagi, bosqinchi mo`g`ullarga qarshi kurashish ishtiyoqi ufurib turgan maqsadga ulanib ketadi:

Yodgor

Biz hammamiz mo`g`ullarga qul.

Jamila

Og`izdan osh, qo`ldan shilar pul.

Yodgor

Yurt uchun bir mard ovoz darkor.

Torobiy

Bir kun bizga tole bo`lur yor,

Ammo dilda so`nmasin tilak.

Yoshlik zavqin unutmang andak.

Istiloqchilarga qarshi qo`zg`alish istagi Torobiy va Yodgorga tinchlik bermaydi. Ular butun boshli xalqni ham shu tilak negizida birlashishini xohlab, da`vatni kuchaytirish lozimligi anglaydilar va tarqaladilar. Shunday qilib asarda voqealar rivoji avj oladi, syujet liniyalari tarmoqlanib ketadi. 1-sahna Jamilaning quyidagi monologi bilan yakun topadi:

Usta Mahmud yoqimli kishi,

Xalq g`amidan o`zga yo`q ishi.

Uni sevmas beklar, boyonlar,

Yog`dirishar unga bo`htonlar.

Ushbu nutqdan Mahmud Torobiyning aslida oddiy xalq vakili bo`lib, kasbi usta-g`alvirchi ekani, yurt istiqboli uchun jon qadar kuyunishi, yoshlar taqdiri, kelajagi borasida qattiq qayg`urishi anglashiladi.

Bir qancha asarlarda bosh qahramon sifatida ayni kuchga to`lgan

yosh yigit obrazi tanlanadi, butun diqqat-e`tibor shu markazga qaratiladi. Ammo dramada Oybek bu yo`ldan bormadi. U o`z uslubiga ko`ra hayotning past-balandini ko`rgan, sermulohaza usta – Torobiyning tanladi. Bosqinchilarga qarshi kurash ruhi aks etgan manzaralarni sevgi va uning mashaqqatlari yo`lidagi sarguzasht motivi bilan boyitdi. Mahalla boyi To`sinboy suluv Jamilaga oshiq bo`lib qoladi. Qizga erishish uchun ko`p harakat qiladi. Biroq, Jamilaning unga bo`lgan nafrati cheksiz. To`sinboy bir o`rni kelganda – Jamilaning boshqa qizlar bilan birga asir olinganida, hatto, chingiziylardan ham uni so`raydi. Ammo Ollohning irodasi bilan Jamila ularning qo`lidan qutilib qoladi. Binobarin, bu kabi muhabbat atrofidagi alam va iztiroblar drama pafosini yanada yuksaltiradi va asarning o`qishlilikini oshiradi.

Dramada keltirilgan epizodik obrazlardan biri – Gadoydir. U, aslida, buxorolik ma`lum va mashhur naqqosh. Yurt boshiga kelgan ulkan tashvish uni-da chetlab o`tmagan. Ham zalvoridan tanib bo`lmas darajada o`zgargan usta – naqqoshni hech kim payqamaydi. Torobiy esa tiyrak nigohi bilan uni yaxshi eslaydi. Asarda yurt boshiga kelgan tashvish yuki bir qadar mana shu Gadoy va ustalarning dialoglari orqali anglanadi. Ya`ni Gadoy o`z boshidan o`tkazganlari – chingiziylar tufayli uch o`g`li, ikki qizi va xotinidan judo bo`lganini ming mashaqqat bilan so`zlab beradi.

Chaqirdim, chorladim – kelmadi o`lim, –

deya chekkan fig`onida uning bosqinchilar jabri tufayli chekkan barcha g`amlari o`z suvrati bilan akslanadi.

Chingiziylar qilmishidan g`azablangan Torobiy ustalar oldida xalqqa murojaat qilib, ularni qo`zg`alishga chorlaydi. Uning:

Yig`imas, zulmni ag`darish kerak,

Ildizi-la uni qo`porish kerak.

Tig`larning damini tig`lar qayirur.

Zulmga qarshi elni ko`tarish kerak.

Haqiqat quyoshin bulut o`rasa,

Go`zal samomizni qorong`ilasa,

Bo`ron bo`lib uni to`zg`itmoq lozim.

Qutulmoq istasang, po`lat tig` yasa!

Mahmud Torobiyning haqiqat oltindek chirimasligi, zanglamasligi; kun kelib bosqinchilar zulmidan elning ozodlikka chiqishiga ishonch aks etgan nutqi xalq ommasini ta`sirlantiradi va

ular isyon ishtiyoqi bilan yonishadi.

Shunday qilib, xalq bosqinchilarga qarshilik ko`rsatishni boshlaydi. Ammo ba`zida kuchli qurollangan katta qo`shinga qarshi kurashishga ularning imkoniyati yetmay qoladi. Bunday og`ir vaziyatni Torobiyning Yodgorga aytgan quyidagi so`zlari misolida ko`rish mumkin:

O`zingni qilma nobud.

Zulm taxtiga o`t yoqish kerak,

Senda yolg`iz dud...

Darhaqiqat, yolg`iz otning changi chiqmas, deganlaridek, dastlab birlashmay, yakka qilingan harakatlar samarasiz ketadi. Ayniqsa, hokim, shayxulislom, qozikalon hamda To`sinboy kabi mahalliy sotqin boylar tufayli ahvol yanada og`irlashadi.

Keyinchalik xalq buni tushunib yetdi va kuch birlikda, deya yagona markazga birlashdi. Torobiy monologi bunga dalil:

Torobiy

(o`z-o`ziga)

Ana xolos! Xalq bir daryodir,

Bir toshdimi, hech kuch to`solmas.

Har to`siqni yiqar, qo`porur.

Xalq birlashgan daryoga hech qanday kuch bas kelolmasligi ifodalangan bu monolog bizga erkparvar shoir Cho`lponning o`sha mashhur «Xalq» she`rini yodga soladi. Ehtimol, dramaturg ham shu misralarni yozish jarayonida Cho`lpon she`rini va unda ifodalangan cheksiz hissiyotni tuygandir.

Chingiziylarga qarshi kurashga otlanganlardan biri Mahamadsharifning xalq o`g`lonlari – mardlarga qarata aytgan nutqi esa uni Torobiyning fikrlariga hammaslak etadi:

El bolasi yurtni yovga qoldirmaydi,

Suyagini sahrolarda qoldirmaydi.

El o`g`lisan, elning botir sardori bo`l,

G`ariblarning boshin silar dongdori bo`l.

Qanday qilib bo`lsa ham, xalq bosqinchilarni yengishga harakat qiladi. Ularning ommani talab, qishloqlarga o`t qo`yib, hatto, qizlarnida cho`ri qilib olib ketishlariga qarshilik qilishga bot-bot urinadi. Birlikda qilingan harakat o`z samarasini bermay qolmaydi. Sotqinlar jazolanadi, bosqinchilar yurtdan imkon qadar quviladi.

Bosqinchilar tomonda siyosatdan norozilar paydo bo`ladi. Bu

chingiziylarning ildizi quriy boshlaganidan dalolat beradi:

Tangriqul

Hech bir ishga aralashmayman.

Mo`g`ul uchun ishladim ko`p yil.

Endi tog`lar, cho`llar oshmayman.

Tajribalar kirgizdi aql.

Nima bo`ldi otamning holi?

Itday sodiq edi hokimga...

Yaxshilarga bunda yo`q o`rin.

Kundan-kunga ko`ksim bog`lar g`am.

Tangriqul ismli birgina navkarning ushbu o`ylari – o`z-o`zi bilan ichki muloqotidan ayonki, askarlar orasida chingiziylarga nisbatan ichki qarshilik ham boshlanadi. Boylik talashish va orttirish orqasidan amaldorlarning adolatsizligi yagona sabab edi. Ichkilikbozlik, ishratbozlik, boylikka haddan tashqari ruju` qo`yish, oddiy xalqni nazarga ilmaslik oqibatida ular Torobiy va safdoshlari tomonidan tor-mor etildi. Buxoro xalqi ozod bo`ldi.

Oybekning «Mahmud Torobiy» dramasi markazida aniq tarixiy shaxs obrazi turganligi va uning xalq ravnaqi yo`lidagi urinishlari samarali bo`lganligi badiiy jihatdan to`la namoyon etilgan asar sifatida o`zini oqlaydi. Dramada ijodkor maqsadini ifodalash va ko`rsatish niyatida keltirilgan monolog hamda dialoglar, o`z navbatida, obrazlar kechinmalarini, ruhiyatini ochishga ham xizmat qilganligi asarning badiiy tili pishiq, mukammal ekanligiga ishora beradi.

Oybek «Qutlug` qon» asarida 1916-yil arafasidagi o`zbek xalqi hayotining barcha qatlamlarini ko`rsatgan. Unda boylar ham, amaldorlar ham, kambag`allar ham, jadidlar ham, o`g`ri-yu kallakesarlar ham bor. Adib bu rang-barang qahramonlar orqali ular mansub bo`lgan ijtimoiy guruh hayotini chizar ekan, tarixiy davr tobora yorqinlashib boradi. Oybekning mahorati shundaki, u voqealar oqimiga Gulnor obrazini olib kirish, muhabbat mavzuini yoritish jarayonida xalqning boshqa ijtimoiy qatlamlarini ko`rsatishga erishadi. Xullas, yozuvchi ikki yoqlama zulmdan sabr kosasi to`lgan xalqning 1916-yil qo`zg`olonga kelish yo`lini ko`rsatish maqsadida, bir tomondan, Yo`lchi va uning do`stlarini, ikkinchi tomondan Mirzakarimboy va uning xonadoni a`zolarini qahramon qilib tanlagan. Yo`lchi va Mirzakarimboy begona kishilar emas. Ular, aslida, yaqin qarindoshlar. Yozuvchi bu qahramonlar o`rtasidagi qarindoshlik

aloqasiga bejiz e`tiborni qaratmagan. U mazkur fakt orqali aslida bir ota-onadan tarqagan xalqning mol-mulk tufayli ikkiga: boylar va kambag`allarga ajralib ketganligini qayd etmoqchi.

«Birov egali non topa olmaydi, birovnikida qozon-qozon moy qaynaydi. Birov chaqaga zor. Birov pulning hidiga yota olmaydi. Dunyo shunday yasalgan ekan, bolam. Birovga yorug`, birovga qorong`u», – deydi personajlardan biri Yo`lchini yupatish maqsadida.

«Qutlug` qon» tarixiy roman sifatida o`zbek nasrini yangi pog`onaga ko`tardi.

Adibning keyingi tarixiy romani «Navoiy»dir. O`zbek shoiri va uning muhitini ravshan tasavvur etgan Oybekning romanda XV asrdagi Xuroson hayoti manzaralari va shu murakkab davrni oftob kabi yoritgan Navoiy obrazini yorqin, haqqoniy tasvirlay olishi aniq edi. Badiiy ijodning talabidan kelib chiqib, Oybek romanda, bir tomondan, Husayn Boyqaro, Majiddin, Nizomulmulk, Xadichabegim, Badiuzzamon, Jomiy, Binoiy kabi tarixiy shaxslar obrazlarini, ikkinchi tomondan, Sultonmurod, Zayniddin, Arslonqul, Dildor, To`g`onbek singari to`qima obrazlarni yaratdi.

Xullas, Oybek ham shoir, ham yozuvchi sifatida adabiyotimizni durdona asarlar bilan boyitdi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Oybek qachon va qayerda tug`ilgan?
2. Oybek lirikasining muhim xususiyatlari nimadan iborat?
3. Oybek lirikasining mavzular olami haqida so`zlang.
4. «Mahmud Torobiy» dramasi o`ziga xos xususiyatlarini sanang.
5. Oybekning nasrdagi mahorati nimalarda ko`rinadi?
6. «Qutlug` qon» romanida qaysi davr voqealari aks etgan?
7. «Navoiy» romanidagi tarixiy davr haqida so`zlang.
8. Oybekning zamonaviy romanlari haqida nimalar bilasiz?

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Каримов И. Адабиётга эътибор – маънавиятга, келажакка эътибор. – Т.: Ўзбекистон, 2009.

2. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажакимизни мард ва олийжаноб халқимиз билан бирга кураимиз. – Т.: Ўзбекистон, 2017.

3. Каримов Н., Мамажонов С., Назаров Б., Норматов У., Шарафиддинов О. XX аср ўзбек адабиёти тарихи. Олий ўқув

юртлари учун дарслик. –Т.: Ўқитувчи, 1999.

4. Санжар Содик. Янги ўзбек адабиёти тарихи. Дарслик. –Т.: Университет, 2005.

5. Каримов Н. XX аср адабиёти манзаралари. –Т.: Ўзбекистон, 2008.

Oybek asarlari:

1 Ойбек. Мукамал асарлар тўплами. 19 жилдлик. –Т.: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1975-1980.

Oybek haqidagi tadqiqotlar:

1. Ёкубов Ҳ. Адибнинг маҳорати. – Т.: Фан, 1968.

2. Каримов Н. Ойбек. – Т.: Ёш гвардия, 1985.

3. Ойбекнинг ижодий методи ва бадиий маҳорати. – Т.: Фан, 1985.

4. Каримов Н. Ойбек ва Зарифа. – Т., 1987.

5. Саидносирова З. Ойбегим менинг. – Т.: Шарқ, 1994.

6. Норматов У. Ижодкорнинг ҳароратли қалби. –Т.: Turon zamin ziyo, 2015.

Internet saytlari:

1. www.alishernavoiiy.uz

2. www.ziyo-net.uz

3. www.literature.uz

4. www.kutubxona.uz.

MAVZU: ABDULLA QAHHORNING HIKOYANAVISLIK MAHORATI



(1907-1968)

Reja :

- 1. A.Qahhor ijodining adabiyotshunoslikda o`rganilishi.*
- 2. Adibning hayot va ijod yo`li.*
- 3. A.Qahhorning hikoyachilik maktabi.*
- 4. A.Qahhorning nasrdagi mahorati .«Sarob»ning mashaqqatli qismati.*
- 5. A.Qahhor qissalarida hayotiy haqiqat ifodasi.*

A.Qahhor nasrning hikoya, qissa, roman, dramaturgiyaning komediya va adabiy tanqidning esse janrlarida xalq qalbidan chuqur joy olgan go`zal asarlar yaratdi. Adib ijodi adabiyotshunosligimizda keng tadqiq etilgan. H. Abdusamatov, O.Sharafiddinov, M.Qo`shjonov kabi taniqli olimlar adibning mahorat qirralarini yoritib berishgan. Xususan, O.Sharafiddinovning "Abdulla Qahhor" ijodiy portreti, M. Qo`shjonovning "A.Qahhor mahorati haqida" kitoblari bu jihatdan ahamiyatli.

A.Qahhor 1907-yil 17-sentyabrda Qo`qonda tug`ildi. Uning bolaligi Qo`qon atrofidagi Yaypan, Qudash, Buvayda, Olqor, Oqqo`rg`on singari qishloqlarda o`tdi. Otasi Abduqahhor aka temirchilik bilan shug`ullanardi. Adibning bolaligi ayanchli voqealarga to`la edi. Bolalikda boshdan kechirgan voqealarni keyinchalik adib "O`tmishdan ertaklar" qissasida san`atkorona aks ettirdi.

A.Qahhor Buvaydada eski maktabda tahsil oldi. Oqqo`rg`ondagi

jadid yo`nalishidagi maktabda o`qishi zukko Abdulla ta`lim-tarbiyasiga jiddiy ta`sir ko`rsatdi. Uning badiiy adabiyotga, xususan, sharq she`riyatiga ixlosi shu yerda uyg`ondi.

Oktyabr to`ntarishidan so`ng Qo`qondagi maktab internatda, keyinroq 1922-1924-yillarda shu shahardagi boshlang`ich sinf o`qituvchilari tayyorlaydigan bilim yurtida o`qidi.

Dastlabki ijodi 17-18 yoshlarda boshlandi. Shu yillarda "Mushtum", "Yangi yo`l" oynomalarida feleton, hajviy she`rlar, hikoyalar bilan qatnasha boshladi. Bir necha vaqt Toshkentda "Qizil O`zbekiston" gazetasida kunduzi ishlab, kechqurun o`qidi.

1926-yilda O`rta Osiyo davlat universitetining ishchilar fakultetini bitirdi. 30-yillarning boshlarida shu dorulfununning pedagogika fakultetida o`qidi.

30-yillarga kelib A.Qahhor yozuvchi sifatida tanila bordi. Matbuotda o`nlab hikoyalari bosilib chiqdi. Shu yillarda u rus adiblari N.V. Gogol, A.P. Chexovning mahorat sirlarini o`rganishga alohida e`tibor berdi.

Adibning birinchi kitobi 1932-yilda 25 yoshida "Qishloq hukm ostida" nomi bilan bosilib chiqdi. Asar qahramoni O`tbosar timsolida qishloqda jamoa xo`jaligini tiklashda jonbozlik ko`rsatayotgan kishilar qiyofasini yaratishga harakat qildi.

Uning dastlabki romani "Sarob" 1934-yilda yozildi.

A.Qahhorning o`nlab hikoyalari o`zbek adabiyotining bu janrdagi mumtoz namunalaridir. Tarixiy ("Bemor", "O`g`ri", "Anor", "Dahshat"), zamonaviy ("Asror bobo", "Kampirlar sim qoqdi", "Ming bir jon") hajviy ("Mayiz yemagan xotin", "Adabiyot muallimi", "To`yda aza") yo`nalishlaridagi bu hikoyalarda xarakter yaratish mahorati, silliq va ixcham hajmga katta mazmun sig`dirish kabi fazilatlar keyingi avlod yozuvchilari uchun san`atkorlik maktabiga aylandi.

"Adabiyot atomdan kuchli, lekin uning kuchini o`tin yorishga sarf qilish kerak emas", "Adabiyot hunar, uni kasbga aylantirib olgan yozuvchi olmaga tushgan qurtdan farq qilmaydi". Yozuvchi hikmatga aylangan ushbu fikrlariga umr bo`yi sodiq qoldi.

Bundan tashqari A. Qahhor ayrim ulkan yozuvchilar, tengqur adiblar, o`zidan keyingi avlod yozuvchilari, ularning asarlari haqida talabchanlik bilan fikr bildirdi. U o`ziga ham, o`zgalarga ham birdek talabchan yozuvchi edi.

S. Ahmad, P. Qodirov, O. Yoqubov, O. Sharafiddinov, M. Qo`shjonov, O`Hoshimov, A. Oripov, Sh. Xolmirzaev kabi yozuvchi va tanqidchilar dastlabki asarlari bilan oq A.Qahhorning yuqori bahosini olgan edilar.

A.Qahhor ikkinchi romani «Qo`shchinor»ni urushdan avval yoza boshladi. Asar urushdan so`ng yozib tugallandi.

Roman markazida Siddiqjon obrazi turadi. Asarda O`zbekistonda jamoa xo`jaligini tashkil etish jarayoni, bu jarayondagi murakkabliklar, kurash va qiyinchiliklar badiiy gavdalantiriladi. 40-yillar oxirlaridagi tanqidchilik sinfiy kurash yaxshi ko`rsatilmagan, bosh qahramon harakatida firqaviy faollik yetishmaydi, deb asarni keskin tanqid qildi.

Yozuvchiga qo`yilgan g`oyaviy, siyosiy ayblar asarni qayta ishlashga majbur etdi. Asarning qayta ishlangan yangi varianti «Qo`shchinor chiroqlari» nomi bilan 1951-yilda bosilib chiqdi. Shundan so`nggina asar o`zining haqiqiy bahosini oldi.

A.Qahhor o`zbek dramaturgiyasiga munosib hissa qo`shgan san`atkor adibdir. U komediya janrida barakali ijod qildi. «Yangi yer», (1949, keyingi nomi «Shohi suzana») «Og`riq tishlar» (1954), «Tobutdan tovush» (1962 , keyingi nomi «So`nggi nusxalar») va «Ayajonlarim» (1966) nomli komediyalarni ijod etdi.

A.Qahhor qissa janrida xalq hayotining turli davrlari, muammolari, turli kishilar xarakterini aks ettiradi. «Sinchalak»(1959) «O`tmishdan ertaklar» (1964), «Muhabbat» (1966) kabilar fikrimizni tasdiqlaydi. «Zilzila» qissasini yozuvchi tugatishga ulguradi.

A.Qahhor badiiy ijodni jamoat ishlari bilan qo`shib olib bordi. 50-yillarining boshlarida O`zbekiston yozuvchilari uyushmasini boshqardi. U rus adabiyotining mumtoz namunalarini o`zbek tiliga tarjima qildi. A.S. Pushkinning «Kapitan qizi», N.V. Gogolning «Uylanish», «Revizor» komediyalari, L. Tolstoyning «Urush va tinchlik» epopeyasi (Kibriyo Qahhorova bilan birgalikda) tarjimalari o`zbek kitobxonlarining eng sevimli asarlariga aylandi.

Adibning xizmatlari o`z davrida qadr topdi. U O`zbekiston oliy kengashiga deputat qilib saylandi. «Shohi suzana» qissasi uchun 1952-yilda

davlat mukofoti, «O`tmishdan ertaklar» qissasi uchun 1966-yilda Hamza

nomidagi O`zbekiston Davlat mukofotiga sazovor bo`ldi. Adib 60

yoshga
to'lishi munosabati bilan O'zbekiston xalq yozuvchisi unvoniga
musharraf
bo'ldi.

A.Qahhor og'ir betobligi tufayli 1968-yil 25 mayda Moskvada
vafot etdi.

Ma'lumki, A.Qahhor ijodini hajviy she'rlar, fel'etonlar
yozishdan boshladi. Uning iste'dodi keyinchalik hikoya janrida yorqin
namoyon bo'ldi.

A.Qahhor hikoyalari shartli ravishda uch yo'nalishga ajratish
mumkin:

Tarixiy, zamonaviy, hajviy hikoyalar.

«Anor», «Bemor», «O'g'ri», «Dahshat» kabilar tarixiy hikoyalar
bo'lib, ularda o'zbek xalqining Oktabr to'ntarishidan oldingi hayoti,
ya'ni o'tmishimiz voqealari aks etgan. Bu hikoyalar darsliklarda
adabiyotshunoslik ilmida boylar tuzumi keskin fosh etilgan asarlar
sifatida baholab kelindi. Mazkur asarlar o'tmishimizga nafrat, sho'ro
tuzumiga muhabbat uyg'otadi, deb xulosa chiqarildi.

Biroq o'sha paytda berilgan baholar bir yoqlama edi. Aslida
ushbu hikoyalarga umumbashariy badiiy-estetik talablardan kelib
chiqib qarash lozim. Ularda o'tmish hayoti – inson sha'nini
kamsituvchi, jamiyatning ijtimoiy-ma'naviy ildizlariga borib
taqaluvchi norasoliklar haqqoniy tasvir etilgan.

Binobarin, adib hikoyalari umuminsoniy qadriyatlar yuksak
darajada

ifoda etilgan asarlardir. Bu jihatdan «Bemor» hikoyasi e'tiborli.
Asardagi qattiq og'rib, vafot etgan ayol taqdiri va unga biror yordam
berishdan batamom ojiz eri Sotiboldining ahvoliga, uyqudan
to'ymagan

ko'zlari-yu, hali ancha shakl olmagan jujuq tilda onaizoriga saharda
xudodan

shifo tilovchi begunoh qizcha holati butun murakkabligi bilan aks
etgan.

Umuman, bir oila boshidan kechirgan bu kabi mudhish voqea faqat
feodalizm

jamiyati davridagi O'zbekistondagina emas, istalgan, hatto taraqqiy
etgan

kapitalistik yoki yetmish yil davomida maqtab kelingan sotsialistik

jamiyatda ham bo`lishi mumkin.

A.Qahhor ulkan iste`dodi va mahorati shundaki, u voqealarni umuminsoniy qadriyatlar nuqtai nazaridan mafkuraviy betaraflik asosida ifodalab bergan.

Yozuvchi siqiq va ixcham lavhalarda, kichik detallarda katta ma`nolarni jo etgan holda bir o`zbek oilasi misolida mohirona tasvir etdi.

«Dahshat»da boshqa bir manzarani kuzatamiz. Unsin - asarning bosh qahramoni. U taqdir taqozosi bilan Olimxon dodhoxga o`zigacha bo`lgan etti xotinning kenjasi bo`lib tushgan. U eriga sevimli va erka bo`lib, taqdirida bori shu ekan-da, deb yashay berishi mumkin edi. Biroq Unsinning «O`g`ri»dagi Qobil bobo, «Anor»dagi Turobjon, «Bemor»dagi Sotiboldidan farqi shuki, u mutelik qurboni bo`lib qolmaydi, erki uchun kurashadi. Adabiyotimizda aynan shu tipdagi qizlar obrazi yaratilgan: «Kecha va kunduz» dagi Zebi, «Qutlug` qon»dagi Gulnor. Ular taqdirga tan bergan qizlar. Biroq Unsin bu jihatdan ularga o`xshamaydi. U o`z taqdirini o`zgartirmoq, o`zi tug`ilib o`sgan uyiga qaytib ketmoq istagida tanho isyon ko`taradi. Dodhox Unsinning rozi bo`lishiga ishonqiramay shart qo`yadi. Unsin qishlog`iga ketish uchun yarim tunda qabristonga borib, choy qaynatib kelishi kerak edi. Yoshgina kelinchak uchun bundan ham qo`rqinchli, bundan ham dahshatli ish bo`lishi mumkinmi? O`z erkini qo`lga kiritish ilinjida Unsin rozi bo`ladi. A.Qahhorning mahorati shundaki, u o`z qahramoni Unsun halokatini faqat dahshat yoxud fojiasiga emas, erkinlik va xo`rlik yo`lidagi ezgu qo`shiq darajasiga ko`tara oldi.

«Xotinlar», «Asror bobo», «Ming bir jon», «Mahalla» singari hikoyalarida zamondoshlarimizning ma`naviy dunyosini, insoniy xislatlarini ko`rsatishga alohida e`tibor berdi.

«Ming bir jon» (1956) o`n yildan buyon og`ir dardga chalinib to`shakka mixlanib qolgan ayol haqidagi hikoyadir. Kasalxonaga kim kelsa undan xabar oladi. Kimdir eti ustixoniga yopishgan jussani ko`rib yoqa ushlaydi, kimdir esa uning bardoshiga, irodasiga qoyil qolib dalda beradi. Hoji aka esa bu ayolning dardini tushunishi u yoqda tursin, uning rangini ko`riboq shaytonlab qoladi.

Asarning oxirida «teri-suyakdan iborat» bo`lib qolgan o`sha xasta ayolning tuzalib hayotga qaytganidan, yo`g`on chorpaxil Hoji akaning esa qazo qilganidan voqif bo`lamiz.

O`n yil to`shakda mixlanib yotgan ayolning hayotga qaytishi

mo`jiza edi aslida.

A.Qahhor talqinidagi bu mo`jiza asar bosh qahramonining jismoniy zaifligiga qaramay, irodasida, bardoshida, «hayotga to`la ko`zlarida», ma`naviy qudratidadir. Uning hayotga chanqoqligida, odamlarga bo`lgan mehridadir. Ayni vaqtda eri Akramjonning unga cheksiz muhabbatida, atrofni qurshagan odamlarning unga bergan ruhiy daldasidadir. Shu bois asar qahramonlaridan biri Mirrahimov «bu xotinning joni bitta emas, ming bitta» deydi.

A.Qahhor - hajviy hikoyalar ustasi. U hajviy va yumoristik hikoyalarida qahramonlar xarakteri, dunyoqarashi, fe`l-atvoridagi ijtimoiy illat sifatida bartaraf etilishi zarur bo`lgan kamchiliklarni, ba`zan yengil-yelpi tuzatish bilan to`g`rilanishi mumkin bo`lgan xato va yetishmovchiliklarni ko`rsatadi.

«Mayiz yemagan xotin» hikoyasida yozuvchi yangi zamondagi o`zgarishlarni ko`rolmaydigan, paranjini tashlagan qizaloqdan tortib har bir keksa ayolgacha-barchaga gumonsirab qaraydigan, ular haqida kurakda turmaydigan gaplarni tarqatadigan mulla Norqo`zining hajviy qiyofasini yaratadi.

«Munofiq» hikoyasida ikkiyuzlamachi, bezbet, har so`ziga, har harakatida turlanib, tuslanib turuvchi beor kishi obrazi yaratilsa, «Adabiyot muallimi»da o`zi muallim bo`la turib, bilimi sayozligidan oddiy

bir vaziyatda kulgili holatga tushgan, lekin hech narsa bo`lmagandek, pinagini buzmay suvdan quruq chiqib ketuvchi «ustamon» qiyofasi gavdalantirilgan.

Umuman, A.Qahhor mazmunan teran, badiiy yuksak hikoyalar ijod etdi. Aytish mumkinki, A.Qahhor o`zbek adabiyotida o`ziga xos hikoyachilik maktabi yarata oldi.

A.Qahhor qissachilikda ham yuqori cho`qqilarga erishdi. Uning «O`tmishdan ertaklar», «Muhabbat», «Sinchalak» kabi qissalari mavjud.

«Sinchalak» qissasini ba`zi munaqqidlar tanqid qilishdi. Ularning fikricha, qissa o`ta zamonasozlik bilan yozilgan, qissa qahramonlari ham kommunistik axloq andozalar asosida qurilgan! A.Qahhor bir-biriga mutlaqo teng kelmaydigan kuchlar kurashini atayin tasvirlab, bu kurashda ko`pgina jihatlarni ochgan.

Qissa 1958-yilda o`zbek tilida e`lon qilindi. Oradan ko`p o`tmay K. Simonov tarjimasida rus tilida bosilgan. 1959-yilda Moskvada

o`zbek adabiyoti va san`at dekadasida asar yuksak baholanadi. Shundan keyin qisqa vaqt ichida u ukrain, belorus, qozoq, arman tillariga tarjima qilindi. So`ngra frantsuz, nemis, bulg`or tillarida chop etildi. Shu tarzda hajmi uncha katta bo`lmagan bu qissa o`zbek adabiyotining xalqaro shuhratini oshirdi.

«Sinchalak» qissasida 50-yillarning o`rtalarida o`zbek qishlog`ida yuz bergan o`zgarishlar, kishilarning orzu-umidlari ifodalangan.

Qissaning bosh qahramonlari-kolxoz partiya tashkilotining kotibasi Saida Aliyeva va kolxoz raisi Arslonbek Qalandarov. Saida ko`rinishidan nimjongina, oddiygina bir qiz. Uning hayot yo`li ham oddiy – 10 yillikni bitirib, komsomol ishida ishlagan, so`ng raykom kotibining yordamchisi bo`lgan. Qissada yozuvchi shu oddiy qiz hayotidagi burilish nuqtani, uning ma`naviy qudratining birinchi bor ro`y-rost namoyon bo`lish hodisasini tahlil qildi. Qissa muvaffaqiyatini ta`minlagan omillardan yana biri unda Saidaga qarama-qarshi qo`yilgan kolxoz raisi Qalandarov obrazi ham badiiy jihatdan mukammal ishlangan.

Qalandarov – murakkab obraz, bu timsolda hayotdagi real insonlarning taqdiri mujassam. Qalandarov xo`jalik ishlari tarixida katta xizmat ko`rsatgan, dehqonchilikdan xabardor, ishning ko`zini biladigan tadbirkor odam. Ammo Qalandarovda manmanlik kuchli. U odamlarning qarshisida hurmat va qo`rquv aralash itoatkorona odob saqlashini yaxshi ko`radi, birovdan tanqid eshitsu, joni chiqadi.

Yozuvchi Saida va Qalandarov o`rtasidagi gohida oshkora, gohida yashirin jangni tasvirlaydi. Qalandarov Saidani qo`lga olishni yaxshi ko`radi, ammo Saida bunga ko`nmaydi.

«Sinchalak» qissasini o`qir ekanmiz, A.Qahhorning o`sha davr illatlarini yorqin ochib berganini ko`ramiz.

A.Qahhor 1930-yilda «Sarob» romanini yozdi va uni 1934-yilda tugatdi. «Sarob» o`zbek nasridagi alohida hodisa sifatida ahamiyatli.

«Sarob» romani 1934-yilda «Sovet adabiyoti» jurnalida bosilib chiqdi. O`sha paytda O`zbekiston hukumati Respublikaning 10 yilligiga bag`ishlab eng yaxshi badiiy asarlar tanlovini o`tkazadi. «Sarob» bu tanlovda 2-o`rinni oldi. Keyin 3 yil o`tgach roman alohida kitob holida bosilib chiqdi. 1939-yilda «Yosh Leninchi» gazetasida bir maqola chiqdi. U paytlarda hali 1937-1938-yillarning dahshati kezib yurgan edi. Muallif romanga salbiy baho bergan, uni millatchilikning

kuychisi deb qattiq qoralagan edi. Keyin «Sarob» muhokama qilindi. Bu muhokamada romanga qo'yilgan siyosiy ayb rad etildi. «Sarob» romani oqlansa-da, 20 yil mobaynida roman qayta nashr qilinmadi. 1957-yilda A. Qahhor 50 yoshga to'lishi munosabati bilan 3 jildlik saylanmasini chiqaradigan bo'ldi, «Sarob»ni nashr qilish uchun uni qayta ishlash kerak edi. Shu sababli, «Sarob» romanining 2-varianti yuzaga keldi. «Sarob» to'g'risida maqolalar paydo bo'la boshladi, bu maqolalarda asarning nuqsonlari borligi, bosh qahramonning salbiy obraz ekanligi tanqid qilinadi. 1967-yilda A.Qahhor 6 jildlik saylanmasini nashrga tayyorladi va «Sarob» 3-marta nashr qilindi. Shu tarzda romanning bir-biridan farq qiluvchi uch varianti paydo bo'ldi. A.Qahhorning 80 yilligi munosabati bilan yuzaga kelgan ilmiy-tanqidiy ishlarda «Sarob» eng yaxshi asar sifatida baholandi. Keyin qayta qurish yillari boshlandi, shu paytlarda «Sarob» haqida o'ylamay shoshma-shosharlik bilan ham fikrlar aytili.

Qisqasi, «Sarob» – murakkab roman. Asosiysi, «Sarob» hozirgi kunda adabiyotimiz tarixidagi badiiy saviyasi jihatidan mukammal asar sifatida baholanmoqda..

Mustaqillik davriga qadar A.Qahhorning «Sarob» romani millatchilik mafkurasini fosh etuvchi asar tarzida talqin etildi. Bu qarash romanning matnidan kelib chiqib emas, davr siyosati tufayli yuzaga kelgan. A.Qahhorning bir xususiyati – o'zi yoqtirmagan qahramonlar tasvirida ham xolis bo'lishga, ularni jonli inson sifatida ko'rsatishga intiladi. Bu esa ayrim tanqidchilarga A.Qahhorni salbiy qahramonlarga nisbatan xayrixohlikda ayblashga asos bo'ldi. Hatto Saidiy uchun ham millatchilik asosiy, yetakchi, doimiy sifat emas, Saidiy xudbinlik qurboni bo'ldi. Saidiy o'ziga to'q oiladan bo'lgan. Uning otasi ishi yakson bo'lgandan so'ng o'zini osdi. Saidiyning istedodi bor edi, oiladagi muhit esa uni zaharladi. U o'ziga bino qo'yib birovlarini mensimasdi. Xudbinlik Saidiyda o'qishga ham, do'stlarga ham loqaydlik tug'diradi, faqatgina Munisxonni sevganidan keyingina hayoti butunlay o'zgaradi.

«Sarob» romanidagi yana bir obraz – Munisxon obrazidir. U ham badavlat oilaning qizi. Unda ham xudbinlik illati yuqori. U go'zal qiz bo'lgani uchun, faqatgina erkak zotini asir qilishni o'ylaydi. Hayotda biron maqsad bilan yashamagan, akasi Salimning siyosiy manfaatlari tufayli Muxtorxonga tekkan Munisxon oxiri buzuqlik yo'liga kiradi.

«Sarob» romanida Ehsan, Kenja, Shafrin kabi ijobiy obrazlar bor. Adibning butun fikr-o`yi Saidiyda bo`lgani uchun bu qahramonlar mustaqil xarakter darajasiga ko`tarilmagan.

«Sarob» romani hayotiy mazmunining teranligi, qahramonlarning insoniyligi, syujet va kompozitsiyaning aniqligi, tilining xalqchilligi bilan o`zbek adabiyoti rivojiga katta hissa bo`lib qo`shildi.

Abdulla Qahhor XX asr adabiyotini durdona asarlar bilan boyitgan va uni yangi sahifalar bilan bezatgan sermahsul yozuvchidir. Shu ma`noda adib mangulikka daxldordir.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar.

1. A. Qahhor ijodi haqida qanday yirik tadqiqotlarni bilasiz?
2. A. Qahhorning bolalik yillari qanday o`tdi?
3. A. Qahhor adabiyot maydoniga qachon kirib keldi?
4. A. Qahhorning hikoyanavislik mahorati nimalarda ko`rinadi?
5. A. Qahhor hikoyalardagi asosiy mavzular qaysilar?
6. A. Qahhor qissalari mavzulari va obrazlar tizimi haqida nima deya olasiz?
7. «Sinchalak» atrofidagi bahslar haqida so`zlang.
8. «Sarob» romani nashrlari haqida nimalarni bilasiz?
9. Munisxon va Saidiy obrazlariga munosabatingiz.
10. «Sarob» atrofidagi bahslar xususida so`zlang.
11. A. Qahhorning dramaturglik mahorati nimalarda ko`rinadi?

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Каримов И. Адабиётга эътибор – маънавиятга, келажакка эътибор. – Т.: Ўзбекистон, 2009.
2. Мирзиёев Ш.М. Буёк келажакимизни мард ва олийжаноб халқимиз билан бирга қурамиз. – Т.: Ўзбекистон, 2017.
3. Алиев А. Истиқлол ва адабий мерос. – Т.: Ўзбекистон, 1997.
4. Каримов Н., Мамажонов С. ва бошқалар. XX аср ўзбек адабиёти тарихи. Дарслик. – Т.: Ўқитувчи, 1999.
5. Санжар Содик. Янги ўзбек адабиёти тарихи. Дарслик. –Т.: Университет, 2005.
6. Каримов Н. XX аср адабиёти манзаралари. –Т.: Ўзбекистон, 2008.

A. Qahhor asarlari:

7. A.Қаҳҳор. Асарлар. 5 жилдлик. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги

Адабиёт ва санъат нашриёти, 1987-1989.

A. Qahhor haqidagi tadqiqotlar:

8 Абдусаматов Ҳ. Сайланма – Т.: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1985.

9. Шарафиддинов О. А.Қаҳҳор. – Т.: Ёш гвардия, 1988.

10. Қўшжонов М. А.Қаҳҳор маҳорати ҳақида. – Т.: Фан, 1988.

Internet saytlari:

10. www.alishernavoiiy.uz

11. www.ziyo-net.uz

12. www.literature.uz

13. www.kutubxona.uz.

MAVZU: G`.G`ULOM HAYOTI VA IJODI



(1903-1963)

Reja:

- 1. G`.G`ulom ijodining o`rganilishi.***
- 2. Shoirning hayot va ijod yo`li.***
- 3. G`.G`ulom she`riyati va undagi obrazlar olami.***
- 4. G`.G`ulomning nasriy ijodi.***
- 5. «Shum bola» – avtobiografik qissa.***

Tayanch tushunchalar: falsafiylik, hayotiy hikoya,

avtobiografik qissa, yumor, proza, badiiy mahorat, barmoq vazni, harbiy-vatanparvarlik, «Vaqt», «Yigitlarga», «Siyohdon», «Alisher», «Yoz», «Sharaf qo'lyozmasi», «Shum bola», «Mening o'g'rigina bolam».

O'zbek xalqining akademik shoiri, yozuvchi G'.G'ulom XX asr o'zbek adabiyotining yorqin vakillaridan biri. U o'zining falsafiy she'riyati, hayotiy hikoya va qissalari bilan o'zbek adabiyoti va madaniyati taraqqiyotiga munosib ulush qo'shdi.

Adabiyotshunoslik ilmida G'.G'ulom ijodi keng va atroflicha o'rganilgan. S.Mamajonov, O.Sharafiddinov, N.Shukurov kabi yirik olimlar G'.G'ulom she'riyati, nasri xususiyatlarini umumlashtiruvchi katta monografik tadqiqotlar yaratishgan. O'zRFA Adabiyot instituti xodimlari «G'.G'ulomning badiiy olami» degan jamoa to'plamini yaratishdi. 2003-yil G'.G'ulomning yuz yilligi tantana qilindi. Shu munosabat bilan G'.G'ulom haqida yangi kitoblar nashr etildi. Shulardan biri universitetimiz professori O.Safarovning «Zamonlar tongining charoqlarisiz» degan risolasidir. Umuman, G'.G'ulomning shoir va nosir sifatidagi mahoratini tadqiq etish, yangi-yangi qirralarini kashf etish adabiyotshunosligimiz oldida turgan vazifalardandir.

G'.G'ulom 1903-yil 10-mayda Toshkent shahrining Qo'rg'on-tegi mahallasida dehqon oilasida dunyoga keldi. Otasi – G'ulom Mirzo Orif o'g'li va onasi Toshbibi Yusuf qizi o'qimishli, zehqli, fors tilini yaxshi bilgan, adabiyotni sevgan kishilar edi. Otasi yana tatar, ozarbayjon, rus tillarini bilar edi. Bo'lajak shoirning savodi juda erta chiqdi. 9 yoshdan boshlab u Navoiy, Hofiz, Sa'diy, Fuzuliy asarlarini mutolaa qila boshladi. Afsuski, otasi (1912) va onasidan (1918) erta judo bo'ldi. Ro'zg'or tebratish va singillarini boqish tashvishi uning oliy maktablarda ta'lim olishiga imkon bermadi, faqat sakkiz oylik muallimlar kursini bitirdi (1918). Uning eng kuchli va talabchan o'qituvchisi hayot va vaqtli matbuot bo'ldi. Mustaqil o'qish orqali zamonasining ilg'or, yetuk ziyolisi darajasiga ko'tarildi. U bir vaqtning o'zida ikki maktabga mudirlik qildi, shahar maorif xodimlari komsomol qo'mitasiga kotib va maorif uyushmasi raisi o'rinbosari (1920-1928) bo'lib ishladi. Yetim bolalarni internatga yig'ib, ular hayotini yaqindan kuzatgan G'.G'ulom ilk she'rlarini shu yetimlarga bag'ishladi va bu mavzudan bir umr uzoqlashmadi. Shu yillarda «Kambag'al dehqon», «Sharq haqiqati», Mushtum», «Yer yuzi»,

«Qizil O`zbekiston» kabi gazeta, jurnallarda adabiy xodim, mudir, bosh muharrir o`rinbosari lavozimlarida ishladi. «Gazeta men o`qigan oliy maktablarning biri va birinchisi bo`ldi» deya yozgan edi u.

G`.G`ulomda adabiyotga bo`lgan ishtiyoq juda erta uyg`ondi. «Otam adabiyot bilan juda qiziqar ekan, – deb yozadi G`.G`ulom – uyimizga o`zbek shoirlari va kotiblaridan Xislat, Shomurod kotib va boshqalar kelib yurganini es-es bilaman. Farg`ona vodiysidan keladigan shoirlar: Muqimiy, Toshpo`lat Asiriy, Furqat, Muhyi va boshqalar biznikiga ko`p kelganini aytadilar. Otam «Mirza» va «G`ulom» taxalluslari bilan talay she`rlar yozgan. Lekin bular bir yerga to`planib, yo bo`lmasam bosilib chiqqan emas. So`nggi yillarda amakim Mirza Abdulla Mirza Orif o`g`li «Mirza» taxallusini o`ziniki qilib, she`rlar yozar edi...

Onam o`zbekcha, tojikcha adabiyotlarni o`qib, anglab oladigan zehnli xotinlardan edi. O`zi she`r havaskori bo`lgani uchun xalq og`zaki termalari vaznida ancha-muncha she`rlar aytib yurganini eslayman.»

G`.G`ulomlar uyiga Qozon, Orenburg, Boku, Boqchasaroyda chiqadigan gazeta va jurnallar kelib turardi. Otasi A.To`qay, Said Azim Shervoniy, Aliakbar Sobir Tohirzoda kabi yozuvchilar asarlarini uyiga sotib olgandi. Otasi yordamida fors-tojik, ozarbayjon, tojik va rus tillarini o`rgandi. «Mening boshlang`ich ijodimda yumor va satiraga maylim ko`proq edi. Demak, shu yillarda mening ijodimga Sobir Tohirzodaning qisman ta`siri bo`lishi mumkin, – deydi G`.G`ulom. Undagi shoirlik iste`dodining kamol topishida Sharq she`riy maktabi – Navoiy, Bobur, Mashrab, Muqimiy, Hofiz, Sh. Sa`diy, Rudakiy, Firdavsiy, Bedil kabilarning ijodlari ta`sir ko`rsatdi. Keyinchalik Sa`diyning «Guliston» asarini, Rudakiy, Firdavsiy, Bedil she`rlarini, Navoiyning Foni taxallusi bilan yozgan forsiy g`azallaridan o`zbekchaga tarjima qildi. Rudakiy ijodidagi ko`tarinkilik, falsafiylik G`.G`ulom ruhiga yaqin edi. Rudakiyning «Ko`zimning soqqasidek aylanib turuvchi jahon hamisha aylanadi, hamma vaqt gardon edi» baytidagi obraz yaratish yo`li bilan G`.G`ulom «Ko`zim qorachig`ida kezmoqda butun olam» misrasidagi obrazlilik o`rtasida mushtaraklik bor. Yoxud Firdavsiy «Shohnoma»si ham shoir ijodi gulshanida muhim manba bo`lib xizmat qildi. U ikkinchi jahon urushi qahramonlari haqida so`zlab: «Ming «Shohnoma» dostonini qonlar bilan bitgulik», - deydi.

G'.G'ulom Navoiyning «Tun ila tong» radifli g'azaliga muxammas bog`lab «Tun ila tong» asarini yaratdi. Shoir Hirot safaridan qaytgandan so`ng (1964) shu muxammasini, keyin «Xoki musallo», «Taxti safar» maqolalarini yozdi.

Folklor G'.G'ulom hayotida juda katta ahamiyatga ega buyuk maktab edi. U xalqning hayoti va orzu-tilaklarini, ruhiy olami, psixologiyasi, xarakteri, ma`naviyatini fol`klordan o`qib oldi. 1939-yil mart oyida O`zbekiston sho`ro yozuvchilarining II s`ezdida G'.G'ulom xalq ijodi to`g`risida katta ma`ruza qildi va u «Fol`klordan o`rganaylik» sarlavhasi bilan bosilib chiqdi. G'.G'ulomda xalq ijodi ta`sirining xilma-xil ko`rinishlarini topish mumkin. Unda fol`klor asarlarini qayta ishlash («Afandi o`lmaydigan bo`ldi», fol`klorga o`xshatish, «Hasan Kayfiy»), fol`klor motivi, bayon usuli («Tirilgan murda»), xarakter mohiyati va tipiklashtirish (Shum bola, Mamajon obrazlari), syujet silsilasi («Shum bola») qoliplash usuli («Yodgor») kabi namunalari bor.

G'.G'ulom V.Shekspirning «Otello», «Qirol Lir», Lope De Veganing «Qo`zibuloq qishlog`i», F.Shillerning. «Vilgelm Tel`», Nizomiy, Jomiy, Pushkin, L.Tol`stoy, A.To`qay, Prem Chand haqida maqolalar yozdi. G'.G'ulom mohir tarjimon ham. Nozik Hikmat, Hodi Toqtosh, A. Tolstoy, M.Tursunzodadan tortib A.Pushkin, M. Lermontov, N.Nekrasov, V.Mayakovskiygacha bo`lgan ijodkorlar asarlarini o`zbek tiliga o`girdi.

G'.G'ulom o`zbek jurnalistikasini o`zining ocherk, fel`etonlari bilan boyitdi. U saksondan ortiq fel`eton yozdi. Uning ayrim fel`etonlari satirik hikoya darajasiga ko`tarildi. «Guvohlikka o`tgan ho`kiz», «Siyrak la`li badaxshonlardan biri», «Sayyoh sozandalar haqida» kabilar shular jumlasidandir.

G`afur G`ulomning hikoyanavisligi «Jo`rabo`za», «Yigit» (1931), «Kulgi hikoyalar» (1932) kabi to`plamlarda yorqinroq ifodalanadi. Uning dastlabki «Arkning yemirilishi», «Ikki janggoh» kabi asarlarda o`sha davr o`zbek hikoyachiligidagi publitsistik tadqiqqa ruju qo`yish, konfliktni hal qilishga oid kamchiliklar uchraydi. «Hiylai sha`riy» (1930) hikoyasi latifani eslatadi. Ya`ni «Kuldirib yig`latadi, yig`latib kuldiradi». «Yigit» (1929) hikoyasida muhabbatni yer bilan yakson qilgan qishloqlik yigit haqida gap ketadi. Uning «Kim aybdor» (1932), «To`rt hangoma» (1941) kabi yumoristik hikoyalari latifanamo bo`lib, qoloqlikni fosh qiluvchi hikoyalardir.

G`G`ulomning ko`pgina hikoyalari lirik-dramatik yo`nalishda bo`lib, inson fojiasini, uning muhitini yoritishga xizmat qiladi. 1965 - yilda yozgan «Mening o`g`rigina bolam» lirik-dramatik va «Hasan Kayfiy» yumoristik hikoyalari jahon hikoyachiligi darajasidagi mukammal asarlardir. Ularda G`G`ulom ijodining eng cho`qqisi bo`lgan insonparvarlik kuylanadi.

«Mening o`g`rigina bolam» hikoyasida o`zi guvoh bo`lgan oddiy voqea asosida jamiyatni va shu og`ir sharoitda ham o`zining insonligiga putur yetkazmagan kishi tasvirlanadi. Yozuvchi o`z otanasi o`lib, 3 ta singlisi bilan katta onasi – «qora buvisi» qo`lida qolgan paytidagi uylariga o`g`ri kelishi voqeasini so`zlaydi. Oddiy kosib, ishsiz yigit 2 bolasi, xotini, onasini boqa olmay, o`g`rilik qilishga majbur bo`ladi. Kechasi «qora buvi»ning tomiga chiqqanda birdaniga aksirib yuboradi. Shu bilan «qora buvi» bilan tonggacha suhbat qiladi.

G`G`ulom talaygina ocherklar yozdi. Bu ocherklarda u aql-zakovatni, mehnatni ulug`lagan. U o`z ocherklarini «ocherklashgan hikoya» deydi. G`afur G`ulom g`oyaviy niyati, maqsadidan kelib chiqib, turli janrlardan foydalanadi. U bir qancha povestlar yozdi. 1931-yilda yozilgan «Netay» asari lirik-publitsistik yo`nalishda bo`lib, uchinchi shaxs tomonidan hikoya qilinadi. 1934-yilda dunyoga kelgan «Tirilgan murda» asari satirik ruhda bo`lib, qahramonning esdalik daftari shaklida yozilgan. 1936-yilda yaratilgan «Yodgor» yumoristik ohangda bo`lib, voqeani bosh qahramonning o`zi hikoya qiladi, unda «Ming bir kecha»ga xos ertaklardagi qoliplash yo`lidan foydalaniladi. «Shum bola» povesti sarguzasht yo`nalishda bo`lib, voqea qahramon tilidan bayon qilinadi.

Adib birinchi jahon urushining dahshatini, shafqatsizligini, zulmkorligini «Shum bola» asarida ko`rsatadi. Asar boshida o`sha davrda Toshkentda judayam ko`p jinnilar paydo bo`lganini aytadi. O`sha zo`ravon, shafqatsiz tuzum savdogaru dehqonlarni, kosibu hunarmandlarni jinni qilib qo`yadi. G`afur G`ulom «Juft kaptarga hukumatdan tekkan edi. Nikolay bormi, Kaufmani bormi, Mochalov bormi, Nabi o`g`ri degan mirshab bormi – hammasini bir qozon qilib, martabasining past-balandligiga qaramay, so`kaverar edi», deb yozadi. «Shum bola» sarguzashti bahonasida adib o`ziga fojeaviy hayotdagi inson holatini, uning axloqiy-ma`naviy dunyosini, odamlarning mehr-shafqatini haqqoniy mantig`i bilan tug`ilgan komik vaziyatni komik

voqea va detallarni tasvirlashga qaratadi. Bora-bora yumor satiraga aylanadi. Asarda satirik ruh kuchli, bu esa yozuvchi shartlilik printsipligiga ko`p murojaat qilganligidadir.

«Shum bola» o`zbek adabiyotidagi o`lmas asardir, uni har gal ko`zdan kechirganda yangi bir ma`no, o`zgacha bir kashfiyot yaratish mumkin. «Shum bola»da avtobiografik asarga xos xususiyatlar bor. Povestda real, tarixiy aniq faktlar, voqealar, tarixiy shaxslarga nisbatan badiiy to`qima, fantaziyaning salmog`i ortiq. «Shum bola»dagi qahramonlarga xos «erkin» avtobiografik belgilar ularni o`z orqasidan ergashtirmaydi, voqealar xarakterlarga ko`ra rivojlanadi. Bu asardagi qahramonlarning xarakterlari, asar syujeti, konflikti hayot haqiqatiga mos keladi. «Shum bola»da badiiy avtobiografik asarlarga xos fazilatlar ham ko`p. Shum bola , uning o`rtoqlari, tarixiy shaxslar, ular yashagan mahalla, ko`cha ham aniq. Shum bolaga G`afur G`ulom xarakterining ko`pgina xislatlari o`tgan. Asarda turli - tuman hayotiy taqdirlar ko`rsatilgan . Biroq bular qahramonning dunyoqarashi, tushunchasi, kechinmasi bilan ifodalanadi. «Shum bola»da ham voqelik shum bolalar taqdiri, holati, kechinmasi orqali tasvirlanadi.

«Shum bola» syujetining sarguzashtlik xususiyati, qahramonlarning mahallama-mahalla, qishloqma-qishloq yurishlari asarga ko`pgina qahramonlarning kirib kelishiga sabab bo`ladi. Avtobiografik asarlarda ham bu xususiyat asosiy va tabiiy holdir.

«Shum bola»da Sulton o`g`ri, o`lik yuvishda qatnashgan domulla, shum bola tomonidan so`yilgan eshakning egasi, shum bola xizmatida bo`lgan eshon va uning xotinlari, Sariboy oilasi kabi personajlar yo`l-yo`lakay paydo bo`lib, voqealar tizmasini vujudga keltiradi. Bu xislati bilan «Shum bola» avtobiografik asarlarga yaqin turadi. Ammo avtobiografik asarlarda qatnashgan yo`l-yo`lakay kiruvchi obrazlarning xakteri bir-biridan tubdan farq qiladi.

«Shum bola»da esa yangi-yangi voqealar va qahramonlarning kirib kelishi xarakterlar mantiqiga bog`liq. Xarakterlar mantiqi esa, ketma-ket kulgili vaziyatlarni yuzaga chiqaradi. «Shum bola» - yumoristik asar. Yozuvchi asar boshidayoq kulgili kayfiyat uyg`otadi.

30-yillardayoq G`afur G`ulom shoir sifatida shuhrat qozondi. Uning «Dinamo» (1931), «Tirik qo`shiqlar» (1932) to`plamlari, «Ko`kan» (1930) poemasi bosilib chiqdi. Uning asarlari ingliz, nemis, bulg`or, arman, fransuz, chex kabi tillarga tarjima qilindi. G`. G`ulomning o`ziga xos maktabi paydo bo`ldi.

G`. G`ulom uslubidagi bosh belgilar ko`tarinkilik, hayotni ideallashtirib tasvirlash, obrazlarning ulug`vor va mubolag`ali bo`lishi, notiqlik, ohanglarning rang-barangligi, tarixiy chog`ishtirish, kuchli ehtiros kabilardir. Bu uslub lirik-patetik usuldir. G`. G`ulom ijodi uchun tarixiylik xosdir. Uning «Alisher» «Tsoy Yuan» she`rlarida tarixiy o`tmish, bugunni kuylash tasviri, «Tekstil-kombinat va Misr ehromi», «Men yahudiyman» she`rlarida zamonaviy masalaning o`tmishini kuylash tasviri, «Pol Robsonga», «Qish», «Vaqt» she`rlarida esa tarixiy shaxs, tarixiy voqea va afsonaviy obrazlarni yordamga tortish masalalari yorqinroq ifodalanadi.

G`.G`ulomning insonlar tengligi uchun kurashi Ikkinchi Jahon urushi davrida yaratgan «Men yahudiyman» she`ridan boshlanadi. Shoir she`rda nafaqat yahudiy millatini himoya qiladi. «Men ham odamman», «Va mening qonim ham xalqlardan zarra», «Inson irqidanman, inson millati» so`zlarida barcha xalqlarni, shu jumladan, o`zbek xalqini ham himoya qilish kabi orzulari bor. Uning «Sharaf qo`lyozmasi» she`ri ostiga shoir «Ingliz lordining bizlarni qabila deb ataganiga javob» deb yozadi.

She`r boshida :

Qadim o`zbek xalqisan,

Asl odam avlodi.

Misr ehromlaridan

Tarixing qariroqdir, – deb yozadi.

XX asrdagi buyuk o`zgarishlarni, ayniqsa, ikkinchi jahon urushining ulkan saboqlarini aks ettiruvchi «Vaqt» nomli falsafiy she`ri badiiyati, fikriy bo`yoqdorligi bilan yangi o`zbek she`riyatida alohida sahifani tashkil etadi.

G`afur G`ulom she`rlari fikrning mantiqiy rivojiga, tasavvurlar yo`nalishiga, hissiyot va ruhiy kechinma oqimiga asoslangan. She`rlardagi hamma unsurlar bosh g`oyani ifodalashga xizmat etadi. Shoirning she`rlari manzarali she`rlardir. «Qor» she`ridagi manzara tasvir kishini lol qoldiradi.

G`afur G`ulom doimo xalq bilan, zamon bilan birga nafas olar, ular taqdirini o`ziniki deb bilar, qanday muhim voqea yuz bersa, unga hozirjavoblik bilan javob beradigan zehni o`tkir ijodkordir. U Ikkinchi Jahon urushining dastlabki kunlaridayoq «Kuzatish», «Men yahudiyman», «Sen yetim emassan», «Sog`inish» kabi shoh asarlarni yaratdi. U yetimlik g`urbatini o`z boshidan o`tkazgan va mehnat

faoliyatini yetimlarni maktab-internatlarga tortish bilan boshlagani uchun bu mavzu ijodining eng yuksak choʻqqisida boʻldi. 1927 yilda yozgan «Ukalarimizni unutmeylik» maqolasida «Jahon urushidan jabru jafu koʻrmagan ishchi, dehqon oilasi bormi? Yoʻq. Ming martaba yoʻq... Millionlarcha odamlarning yostigʻi qurib, joʻjabirday bolalari ota-onasiz, koʻchalarga tashlandilar. Qancha maʼsum, maʼsumalar bir parcha nonga muhtoj, och-yalangʻoch nolib, ochiq havoda titrab qoldilar», - deb yozdi va xalqni shu bolalarga koʻmak berishga chaqirdi. Gʻafur Gʻulomning oʻzi ham bir necha yetim bolani oʻqitdi. U bolalar uchun «Mukofot» (1940) toʻplamini tekinga chiqardi, «Lenin uchquni» gazetasida bosilgan sheʼrlarining qalam haqini oʻzi otaliqqa olgan maktabga oʻtkazdi.

Gʻafur Gʻulom «Netay», «Yodgor», «Shum bola», «Kimsanoy toʻgʻrisida besh qoʻshiq» asarlarida ham shu mavzuga qoʻl urgan edi. Shu sababli Ikkinchi Jahon urushi davrida millionlab yetim bolalar Oʻzbekistonga keltirilganda, ular haqida «Sen yetim emassan» nomli sheʼr yozdi.

Shoirning «Kuzatish», «Sogʻinish», «Gʻoliblar bayrami» sheʼrida qalb iztiroblari, tuygʻu va kechinmalarini haqqoniy ifodalaydi:

Koʻngillar agarchi loladek xandon
Musibat tangʻasi qalb ustiga dogʻ.

Gʻafur Gʻulom urushdan keyin «Vaqt», «Yigitlarga», «Siyohdon», «Alisher», «Yoz», «Sharaf qoʻlyozmasi», «Pol Robsonga», «Fargʻona uchun», «Anor», «Kulol va zargar», «Bizning uyga qoʻnib oʻting, doʻstlarim», «Alisher Navoiy qabri ustida», «Tun bilan tong» kabi sheʼrlarini yaratdi. Ushbu sheʼrlar akademik shoirning betakror isteʼdodini yana bir karra namoyish eta oldi.

Gʻafur Gʻulom chindan ham XX asr oʻzbek adabiyotiga teran sheʼriyati va mazmundor nasriy asarlari bilan ulkan hissa qoʻshdi. Binobarin, u oʻzbek adabiyoti va madaniyatining choʻng qoyalaridan biriga aylandi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Gʻ.Gʻulom ijodini kimlar tadqiq etgan?
2. Gʻ.Gʻulom qachon va qayerda tugʻilgan?
3. Gʻ.Gʻulomning bolalik yillari haqida nimalarni bilasiz?
4. Gʻ.Gʻulom qayerlarda oʻqigan?
5. Gʻ.Gʻulom nima uchun «Men uchun oliy maktab hayot boʻldi»

deydi?

6. G`G`ulom adabiyot maydoniga qachon kirib keldi?

7. G`G`ulom she`riyatidagi asosiy mavzular qaysilar?

8. Falsafiy ruhdagi she`rlarga misol keltirib, tahlil qiling.

9. G`G`ulom she`rlarining badiiyati xususida nima deya olasiz?

10. G`G`ulom qanday hikoya va qissalar yozgan?

11. «Mening o`g`rigina bolam» hikoyasi qaysi davrdan so`zlaydi?

Qora buvi kim edi?

12. «Shum bola» qissasi nima uchun avtobiografik asar deyiladi?

13. G`G`ulomni nima uchun akademik shoir deb ataymiz?

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Каримов И. Адабиётга эътибор – маънавиятга, келажакка эътибор. – Т.: Ўзбекистон, 2009.

2. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажакимизни мард ва олийжаноб халқимиз билан бирга қурамиз. – Т.: Ўзбекистон, 2017.

3. Алиев А. Истиқлол ва адабий мерос. – Т.: Ўзбекистон, 1997.

4. Каримов Н., Мамажонов С. ва бошқалар. XX аср ўзбек адабиёти тарихи. Дарслик. – Т.: Ўқитувчи, 1999.

5. Санжар Содик. Янги ўзбек адабиёти тарихи. Дарслик. –Т.: Университет, 2005.

6. Каримов Н. XX аср адабиёти манзаралари. –Т.: Ўзбекистон, 2008.

G`G`ulom asarlari:

7. Ғ.Ғулом. Асарлар. 10 жилдлик. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1972.

G`G`ulom haqidagi tadqiqotlar:

Шукуров О. Ғ.Ғуломнинг лирик поэзиядаги маҳорати. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1966.

Мамажонов С. Услуб жилolari. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1972.

Шарафиддинов О. Биринчи мўъжиза. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1979.

Ғ.Ғуломнинг бадий олами. – Т.: Фан, 1984.

Сафаров О. Замонлар тонгининг чароғларисиз. – Бухоро: Фан, 2003.

Назаров Б. Гафур Гуломнинг бадиий олами. – Т.: Фан, 2004.

Internet saytlari:

7. www.alishernavoiiy.uz

8. www.ziyo-net.uz

9. www.literature.uz

10. www.kutubxona.uz.

MAVZU: HAMID OLIMJON IJODI



(1909-1944)

Reja:

- 1. Hamid Olimjon ijodining o`rganilishi.***
- 2. Shoirning hayot va ijod yo`li.***
- 3. Shoir lirikasining g`oyaviy - badiiy xususiyatlari.***
- 4. Liro-epik asarlari.***
- 5. "Muqanna" she`riy dramasi va uning badiiyati.***

Tayanch tushunchalar: lirika, lirik qahramon, poema, adabiy ertak, she`riy drama, zamonasozlik, fol`klor an`analari, tashbeh, istiora, «Oygul bilan Baxtiyor», «Zaynab va Omon», konflikt, «Muqanna», «Ishim bordir o`sha ohuda», «Har yurakning bir bahori bor», «Xayoling-la o`tadi tunlar», «Daryo tiniq, osmon beg`ubor», «Eng gullagan yoshlik chog`imda».

Hamid Olimjon XX asr o`zbek adabiyotining yorqin vakillaridan

biri. U o`zining lirik she`rlari, poemalari, dramatik asarlari bilan adabiyotimizning sahifalaridan munosib o`rin egalladi.

Shoir ijodi adabiyotshunoslik ilmida atroflicha o`rganilgan. Adabiyotshunos S. Azimov hassos shoir Hamid Olimjon ijodini maxsus tadqiq etgan. Yirik olim N. Karimov adib she`riyatiga xos xususiyatlarini umumlashtirgan. Ayni choqda "Hamid Olimjon" nomli ijodiy portret yaratgan. Shoir ijodini tadqiq etish bugungi kunda ham davom etmoqda.

Hamid Olimjon 1909-yil 12-dekabrda Jizzax shahrida dunyoga keldi. U to`rt yoshga to`lganda otasi Olimjon aka vafot etdi. Azim bobo Jizzaxning xatli-savodli va obro`-e`tiborli kishilaridan bo`lib, Fozil Yo`ldosh o`g`li Xatirchidan jizzaxlik yoru do`stlarini yo`qlab tushganda, uning xonadonida ham bo`lar edi. Shunday paytlarda Abdulhamid bobosi pinjiga o`tirib, navqiron baxshining do`mbira jo`rligida aytgan dostonlarini qiziqib tinglar edi. Onasi Komila aya ham xalq ertaklarini yaxshi bilar edi. Bo`lajak shoir uzun qish kechalarini onasining "Yoriltosh", "Oygul va Baxtiyor", "Tohir va Zuhra" haqidagi sehrli ertaklarini tinglab o`tkazgan. Keyinchalik onasi aytgan ana shu ertaklar H.Olimjonning shoir bo`lib yetishuvida zamin vazifasini o`tadi.

1916-yildagi Jizzax qo`zg`oloni Abdulhamidni go`zal ertaklar olamidan yulqib olib, feodal asrning o`tli nuqtalaridan biriga tashladi. Qo`zgoloni bostirish uchun kelgan jazo otryadi aholining kichik bir qismini qilichdan o`tkazib, qolgan qismini jazirama dashtga haydadi. Shaharni to`pga tutib, shu jumladan H.Olimjonlar yashagan qo`rgonni ham yer bilan yakson qilishadi. Azim bobo bilan farzandi Ahmadjon esa Rossiya shaharlariga mardikorlikka yuboriladi. "Men bir kora kunda tug`ildim. Tug`ildim-u shu on bo`g`ildim" kabi misralar shunday paytlarda oq qog`ozga to`kilgan bo`lsa, ne ajab.

1917-yilda avval Fevral inqilobi, keyin Oktabr to`ntarishi yuz berdi. Abdulhamid Jizzaxda ochilgan Narimonov nomidagi to`liqsiz o`rta maktabni tugatib, Samarqanddagi o`zbek bilim yurtida o`qishni davom ettirdi. U yerda S.Ayniy, A.Shakuriy, Hoji Muyin, L.Vyatkin kabi olimlardan dars oldi va bu saboqlar uni she`r mashq qilishga ilhomlantirdi. 1928-yilda O`zbekiston Oliy pedagogika institutining iqtisod fakul`tetida o`qishni davom ettirdi.

1929-yilda birinchi she`rlari to`plami "Ko`klam" nomi bilan bosilib chiqdi, yana "Tong shabadasi" hikoyalar to`plamini e`lon qildi.

1931-yilda Hamid Olimjon "Qurilish" jurnaliga mas`ul kotib qilib tayinlandi.

Poytaxt Toshkentga ko`chib kelishi munosabati bilan Hamid Olimjon 1931-yil avgustda "Yosh leninchi" gazetasida mas`ul kotib etib tayinlandi. Shoirning "Olov sochlar" (1931), "Poyga", "O`lim yovga" (1932), "Daryo kechasi" (1936), "She`rlar" (1937), "O`lka", "Oygul bilan Baxtiyor" (1939) va "Baxt" (1940) she`riy to`plamlari, dostonlari tarjimalari e`lon qilindi. 1939-yilda u Yozuvchilar uyushmasiga mas`ul kotib qilib tayinlandi.

Shoir 1944-yil 3-iyul kuni baxtsiz tasodif tufayli olamdan ko`z yumdi.

Hamid Olimjon she`riy ijodini o`z avlodining kayfiyatini kuylashdan boshladi. Hamid Olimjon shoir sifatida insonning tuyg`u va kechinmalarini ifoda etuvchi yorqin she`rlar yaratdi.

Hamid Olimjon lirikasi ikki irmoqning tutashuvidan hosil bo`lgan hodisa. Birinchisi, shoirning davr tafakkuri va qarashlariga yo`g`rilgan lirik merosidir. 20-yillarning so`ngi va 30-yillarning boshlarida Hamid Olimjon sarbast she`rga murojaat qildi. U V.Mayakovskiyning badiiy tajribalariga suyanib, o`z ijodiga davrning muhim ijtimoiy g`oyalarini ochishga intildi va shu maqsadda sarbast she`rdan foydalandi. Shoirning "Nima bizga Amerika", "Tarix ko`rganmi", "Temir qonun", "Mudofaa kunlarida" kabi she`rlarida faol g`oyaviy kurashchanlik aks etgan. Bu she`rlarda bugungi kun nuqtai nazaridan to`g`ri bo`lmagan qarashlar mavjud. Lirik qahramon o`z sevgisini yangi tuzumga, yangi g`oyalarga qaratgani holda o`tli g`azab va nafratini ham sochadi. Shu davrda yozilgan "O`lim yovga" dostonida mana shu g`oyalar, xalq dushmanlariga qarshi nafrat asar pafosi darajasiga ko`tarilgan.

Hamid Olimjonning siyosiy lirikasi namunalaridagi yetakchi g`oya yangi jamiyatni, "yangi" insonni sharaflash bilan bog`liq. U Oktabr to`ntarishi tufayli paydo bo`lgan "xalq hokimiyati"dagi tinchlik va farovonlikka chindan ishonadi. Ana shu ishonch tufayli u yangi tuzum belgilarini ilhom bilan kuylaydi.

Hamid Olimjonning 1932-yilda Farg`ona vodiysi bo`ylab safari taassurotlari asosida yozilgan asari "Baxtlar vodiysi" balladasidir. Bu balladada shoir Farg`ona dalalariga kelgan bahor tasviri orqali sho`rolarning bahorini tasvirlamoqchi bo`ladi:

Ko`m -ko`k

Ko`m - ko`k

Ko`m- ko`k

Balladaning naqarotida ko`klam obrazi chizilgan. Bu yerda nafaqat butun Farg`ona vodiysi, balki butun sho`rolar mamlakati ko`m- ko`k bo`lib ko`rinadi:

Barcha yaproqlari

Birday ko`kargan.

Novdalari jonli bu noyob bahor.

Qarashlari nurga to`lgan

Bu ulug` vodiy ko`m-ko`k!...

30-yillar Hamid Olimjon lirikasida inqilobiy romantizm yetakchi tasvir metodi sifatida maydonga chiqdi. O`sha paytdagi dahshatli voqealarga qaramay, Hamid Olimjon kabilarning sotsialistik realizm nuqtai nazaridan hayotni aks ettirishlarini qoralab bo`lmaydi. Ular birinchidan, partiyaning siyosati tufayli mamlakat sotsialistik taraqqiyotning yangi bosqichga erishuviga astoydil ishongan edilar. Ikkinchidan, bu ishonch tufayli paydo bo`lgan asoslardan biri sotsialistik o`zgarishning dastlab ijobiy samaralari bo`lsa, ikkinchisi «yangi inson» edi.

Hamid Olimjon vatan mavzusiga murojaat qilib, sho`rolar vatani eng yaxshi kishilarning makoni ekanligini obrazli ifoda etadi:

Qulog`imga noming kirganda

Qumlik kabi tashna boqurman.

Sening jannat vodiylaringda

Nahlarday to`lib oqurman.

«O`lka» she`ridan olingan bu misralarda soxta tuyg`ular yo`q. Hamid Olimjon lirikasida samimiy his va kechinmalar avj nuqtaga ko`tarilgan.

Vatan obrazi Hamid Olimjonning ko`pgina she`rlari markazida turadi.

Oxiri men o`sgan el yakson etib g`am tog`ini,

Barcha tilsimlarni ochdi, topdi rohat bog`ini,

Bir vatankim, bunda yo`qdir dard va hasratdan nishon,

Bir vatankim, yer va osmonda odam topdi shon.

Bu misralar o`sha dahshatli paytlarda yozilgan. Moskvada katta shodiyona bilan o`tgan «O`zbek san`ati 10 kunligi» ham, paxtakorlarning «oq oltin»ni yaratganlari ham mamlakatda yuz bergan voqealar kishilar qalbiga vatanparvarlik g`ururini va sururini

birlashtirayotgan edi.

Hamid Olimjonning boshqa shoirlardan farqi shundaki, uning muhabbatida ham, nafratida ham porloq alanga bor.

Hamid Olimjonni 30-yillar to`fonlari chetlab o`tmadi. 1937-yilda u Yozuvchilar uyushmasidan o`chirildi. Shoirni Fitrat va Cho`lponlar taqdiri kutmoqda edi...

«Hamid Olimjon Sharqning eng yirik liriklaridan, – deb yozadi Asqad Muxtor. – U lirikaning kuchiga chuqur ishonch bilan qaradi, o`zining barcha janrdagi asarlarini lirikaning nafis sehri bilan sug`ordi». Ana shunday she`rlarning katta bir qismini fuqarolik g`oyalari ulug`langan she`rlar tashkil qiladi.

Hamid Olimjon XX asr o`zbek she`riyatida Cho`lpondan keyin birinchilardan bo`lib, insonning boy va go`zal ruhiy olamini nafis bo`yoqlar bilan tasvirladi. Uning 1939-yildan keyingi ijodida lirik qahramonning ichki olami barcha jilvalari bilan aks eta boshladi. Sarbast she`r o`rnida barmoqning latifligi, yalang`och g`oyalar o`rniga tuyg`ular nafosati yuzaga chiqdi. Umuminsoniy kechinmalarni tasvirlash jarayonida Hamid Olimjon iste`dodining yangi qirralari namoyon bo`la boshladi:

Tog`da yurar ohu bir juvon,
Sochimni taraydi shabboda
Menga bugun yaqindir osmon
Bulutlardan tepamda poda.

Hamid Olimjonning urush davrigacha bo`lgan ijodida «Ofeliyaning o`limi», «Holbuki tun», «Ishim bordir o`sha ohuda», «Har yurakning bir bahori bor», «Janub kechasida», «Xayoling-la o`tadi tunlar», «Mizimta daryosi», «Butun olam bir oppoq siyna», «Daryo tiniq, osmon beg`ubor», «Dunyo go`zal ko`rinur menga», «Eng gullagan yoshlik chog`imda» kabi o`nlab lirik durdonalar bor. Bu she`rlarda shoir ruh musavviri sifatida lirik qahramonning nozik tuyg`u va kechinmalarini mohirona tasvirladi.

“O`rik gullaganda” she`ri shoir ijodining eng yorqin namunalaridan biridir. She`r 1937-yilda yozilgan. Unda lirik qahramon qalbidagi kechinmalar tabiatdagi holatlar bilan uyg`unlikda ochib berilgan. Bu she`r o`zbek diyoriga keluvchi bahor nashidasining madhi sifatida yangrab keladi. Unda faqat bahor tasviri chizilgan emas. Shoir bunda qiyosiy tasvir san`atidan foydalanib, o`rik gullari bilan lirik qahramonning baxti o`rtasida uyg`unlik ko`radi.

Faqat shabboda va qushlar emas, balki hamma narsa lirik qahramonning baxtiyor ekanligi haqida roz aytgandek bo'ladi. Faqat baxtni maqtagan ovoz u yurgan bog'larni to'ldirib yuboradi. Ana shu tarzda chaman butilib ochilgan o'rik gullari baxt mavzusi bilan tutashib, katta falsafiy ma'no kasb etadi.

Shoirning ko'tarinki romantik uslubiga ballada janri yaqin bo'lgan. Shoirning urush yillarida yozgan eng yaxshi balladalaridan biri «Roksananing ko'z yoshlari»dir. Asardagi voqea Shahrixonida – urf-odatlar saqlangan Farg'ona vodiysidagi tumanlarning birida kechadi. Hamid Olimjonning urush tufayli o'zbeklardan makon topgan Roksana fojeasini, tarixiy davr manzarasini tasvirlaydi. Begona muhitda qolgan Roksananing boshiga katta musibat tushadi. Agar yolg'iz go'dagi Vovaning o'limi Roksanani ruhan majruh etsa, uning jasadini qayerga qo'yish masalasi yanada iztirobga tushiradi. Roksanani o'z panohiga olgan Sora butun mahallani oyoqqa turg'izib, uni izlasa, qabristondagi chol unga malham bo'ladi.

Sof ishqiy mavzudagi “Bo'lsam” radifli g'azali 1943 yilda yozilgan. 7 baytdan iborat bu g'azal shoirning mumtoz adabiyot an'analarini o'ziga xos usulda davom ettirganligidan nishonadir. G'azal mumtoz adabiyotda keng qo'llangan aruzning *hazaji musammani solim* tarmog'ida bitilgan. Baytdan baytga o'tgani sari poetik fikr rivojlanib boradi. Binobarin, dastlabki bayt matla' bo'lib, unda lirik qahramon haqiqiy oshiq timsolida gavdalanadi. Mazmuni: oshiq bir nafas bo'lsa-da ma'shuqaning yonog'i uzra xol, labining yaprog'idan tomgan qatra bol bo'lishga tayyor. Bunda lab yaprog'i shoirning betakror istiorasi. Chunki labning shakli yaproqqa o'xshaydi.

Ikkinchi bayt: demak, lab yaproq ekan, u daraxtning bir qismi. Lirik qahramon shu daraxtning butog'ida bulbul bo'lib xonish aylashga, bu yo'lda hatto g'uncha labni ochish uchun shamol bo'lishga tayyor. Demak, she'rdagi an'anaviy obraz bulbul hisoblanadi.

Beshinchi baytda oshiq nihoyatda xokisor tarzda namoyon bo'ladi: ma'shuqaning bog'ida gul bo'lishga o'zini loyiq emas deb o'ylayapti oshiq. Shu bois ma'shuqa qalbi qasriga devor bo'lishga ham rozi.

So'nggi bayt fidoiy oshiq qiyofasini yanada yorqinroq namoyon etadi. Oshiq visol uchun jonini ham fido etmoqchi. Maqta' ana

shunday xulosaviy fikr bilan yakun topadi.

Hamid Olimjonning harbiy lirikasida «Sevgi», «Sen tug`ilgan kun», «Sharqdan G`arbgga ketayotgan do`stga», «Qamal qilingan shahar tepasidagi oy» kabi she`rlar muhim o`rin egallaydi. Ularda urush davri haqiqati badiiy bo`yoqlarda tasvirlangan.

Hamid Olimjonning harbiy lirikasidagi xalqona ohanglar, soddalik va samimiylik shoir iste`dodining o`ziga xos xususiyatidir. U 30-yillarning o`rtalaridan fol`klorni o`rganish kun tartibiga qo`yilgan bir paytda xalq og`zaki ijodining davr ruhiga mos asarlari asosida zamonaviy ertak-dostonlar yozishga ahd qildi. Chunki u bolalik chog`larida ertak, dostonlarga mehr qo`ygan edi. 1937-yilda yozilgan «Oygul va Baxtiyor»da «Malikai Husnobod» ertagidagi ozodlik va baxtiyorlik, baxt va muhabbat g`oyalari ifoda etilgan.

O`zbek adabiyotida Hamid Olimjonga qadar ham xalq dostonlari ruhidagi she`riy uslub bor edi. Avloniyning 10-yillardagi, Elbekning 20-yillardagi she`riy hikoya va masallari shu uslubda yozilgan, lekin Hamid Olimjon bu xalqona she`riy til va uslubga o`zgacha jo`shqinlik olib kirdi. Dostonda o`zbek xalq ertaklari va dostonlari tarovatini ko`ramiz:

Yashnab misoli bir gul
Er-ko`kni ovozasi
Tutib ketganda Oygul
Jambulning darvozasi
Ochilmadi shunda ul
Darg`azab qilich soldi
Darhol qaytarib oldi.

1939-yilda Hamid Olimjon xalq ertaklaridan foydalanib «Semurg` yoki Parizod va Bunyod» dostonini yozdi. Bu dostonda ham o`zbek xalq ertaklariga xos voqealar rivojlantirilib, yangi voqealar zanjirini hosil qiladi. Bu dostonda Semurg`, dev kabi afsonaviy obrazlar qatvashadi.

Sobiq sho`ro davri adabiyotining xususiyatlaridan yana biri – adabiyotda davr ruhi mujassamlanishi kerak edi. Ana shu munosabat bilan shoir 30-yillar adabiy hayotida yangilik bo`lgan «Zaynab va Omon» dostonini yaratdi. Hamid Olimjon 1933-yilda qishloq xo`jaligini jamoalashtirish mavzusida asar yozish uchun Qo`qon va Mulkobodga bordi. Yangi hayot qurayotgan insonlarni o`rgandi. Shoir paxtakor o`zbek ayollaridan biri g`ijduvonlik Zaynab Amonova

hayoti bilan tanishdi. U haqida avval ocherk, keyin doston yaratdi. U Zaynabning mashaqqatli hayot yo`lida «yangi kishi»ning tug`ilishi jarayonini kuyladi. Shoirning fikricha, Zaynabning o`z haq-huquqlarini tanishi kolxoz tuzilishi bilan bevosita bog`liqdir:

Kolxozdagi mustaqil turmush
Va mahsuldor yaratuvchi ish
G`ussalarni ayladi barbod
Faqat shunda u qozondi ot.

Atoqli adabiyotshunos S.Azimovning aytishicha, Hamid Olimjon Pedakademiyada o`qigan vaqtlarida Sadridin Ayniy ta`sirida Muqanna qo`zg`oloni bilan qiziqqan, tarixni qunt bilan o`rgangan. 1937-yillarda Muqanna harakatiga bag`ishlangan dramatik asar yozishni boshlagan va uning birinchi pardasini yozib tugatgan. Ammo adabiy tajribasining yetishmasligini bilib, bu ishni tugata olmagan. 1941-yilda shoir o`ziga xos tajriba va malakalarni egallab, yana Muqanna mavzusiga qaytdi. Shu yilning boshlarida asarni qayta yozishga kirishdi. 2- fevraldayoq birinchi pardasini yozib tugatdi. Bir yil tanaffusdan so`ng 1942-yil 31- mayda asarni yozib tugatdi.

Urush yillari adabiyotining o`ziga xos xususiyatlaridan biri, ijodkorlarimizning tarixga murojaat etishlaridir. Bu tarix yurt ozodligi uchun kurashgan mard o`g`lonlar obrazlarini badiiy gavdalantirish bilan bog`liq. Binobarin, Hamid Olimjonning «Muqanna», Oybekning «Mahmud Torobiy», M.Shayxzodaning «Jaloliddin Manguberdi» she`riy dramalari bu jihatdan ahamiyatli.

Ma`lumki, yurt erki va ozodligi uchun bosqinchilarga qarshi kurashgan oddiy xalq orasidan chiqqan yo`lboshchilar nomi qahramonlar sifatida ulug`lanib, asrlar osha tildan tushmay keladi. Shunday tarixiy shaxslardan biri – Muqannadir. U VIII asrning 70-80 yillarida Movarounnahrda arab xalifasining bosqinchiligi va hukmronligiga, mahalliy feodallar zulmiga qarshi ko`tarilgan xalq ozodlik harakatining boshlig`i edi. Uning asl ismi Hoshim ibn Hakim bo`lib, Marv shahri yaqinidagi Koza qishlog`ida tug`ilgan. Hamid Olimjonning «Muqanna» nomlik she`riy dramasi shu tarixiy voqelik talqiniga bag`ishlangan.

Buxoroda yashagan tarixchi Narshaxiyning yozishicha, uning bir ko`zi ko`r, boshi kal va basharasi juda xunuk bo`lganligidan yuziga ko`k parda tutib yurgan. Shuning uchun ham u «Muqanna», ya`ni «niqobdor» laqabi bilan mashhur bo`lgan. Uning tarafdorlari ham oq

pardada yurishgan. Muqanna 769 yildan boshlab, umrining oxirigacha Movarounnahrda arab xalifaligi hukmronligiga qarshi ko'tarilgan xalq harakatiga boshchilik qilgan, u o'qimishli va bilimdon bo'lib, fors va arab tillarini puxta bilgan. Muqanna qo'zg'oloniga zarba berish uchun xalifa Abu Ja'far 775-yilda Ozarboyjondan lashkarboshi Jabroil ibn Yahyoni chaqirtirib olib, uni katta harbiy kuch bilan Movarounnahrda yuboradi. Ammo Jabroil qo'zolonchilardan yengiladi va Samarqanddagi arab qo'shinlariga kelib qo'shiladi. Arablarning birlashgan qo'shinlari Muqannaga qarshi tashlanadi. Narshax qal'asida va Samarqandda «Oq kiyimlilar» yengilgach, mahalliy feodallar sotqinlik qilib, joylarda arablarga yordam bera boshlaydilar. Ular arablar bilan birga Muqannaning Som tog'idagi istehkomini qamal qilishda faol qatnashadilar. Uzoq davom etgan qamaldan so'ng kuchsizlana boshlagan muqannachilar taslim bo'ladilar. Ammo arablarga taslim bo'lishni or bilgan Muqanna o'zini uch kun davomida qizdirilgan tandir oloviga mardona tashlab halok bo'ladi. U o'z o'limidan oldin safdoshlariga yangi kuch – qo'shin olib kelajagini aytib, umidvorlik urug'ini kurashchilar qalbiga sochib ketadi. Ushbu tarixiy haqiqat Narshaxiyning «Buxoro tarixi» asarida keltirilgan bo'lib, H.Olimjon dramadagi voqealarning ishonarliligini ta'minlash maqsadida tarixiy haqiqatni badiiy to'qima uyg'unligida ifodalashga erishgan:

Yana ko'rmoq bo'lganlarga yuzimni,
Quloq soling, tanitayin o'zimni.
Ochilar u g'alabaning tongida.
Jangga kirgan odamlarning ongida.
Yana meni ko'rmoqqa zor bo'lganlar,
Kulartagin va G'irdakka boqsinlar.
Yana kimki, vatan uchun jang qilsa,
Yana kimki, yov holini tang qilsa,
Yana kimki, yovni quvsa vatandan,
Mening chehram ko'rinadi o'shandan.

Muqannaning vatan uchun ko'rsatgan jasorati o'rnak sifatida badiiy asarlar markaziga chiqarilgan. Aslida, Vatan ozodligi, xalq erki, baxti, kelajagi uchun arab bosqinchilariga qarshi kurashgan Muqanna boshchiligidagi xalq qo'zg'oloni o'tgan asrning 30-yillardayoq Hamid Olimjon diqqatini ham tortgan edi. U ikkinchi jahon urushi boshlangach, yurtparvarlik, qahramonlikni madh etuvchi

mavzuda qalam tebratishga kirishadi. Binobarin, shoir xalqimizga avlod-ajdodlarimizning Vatan ozodligi yo`lidagi mislsiz jasoratini, qahramonlikning shonli sahifalarini yaqqol ko`rsatish zarurligini anglagan edi. Ana shu ma`naviy ehtiyoj shoir qo`liga qalam tutqazdi va tarixiy she`riy drama yuzaga keldi. Bunday asarlar o`sha qonli yillarda o`zbek yigitlarini jang maydonlarida qahramonlik namunalari ko`rsatishga chorladi.

H.Olimjon dramada muayyan g`oyaviy-estetik maqsadni amalga oshirish uchun qo`zg`olonning hamma tarmoqlarini birlashtirdi, bir doiraga to`pladi. Bu esa, ayni choqda, tarixiy voqealarning ichki mazmunini ko`tarinki – romantik yo`sinda yorqin ochishga xizmat qildi. Muqanna obrazi dramada shu maqsad yo`lida rivojlantirildi. Asar tarkibiga bir qator to`qima obrazlar ham kiritilgan: Qul Otash, uning xotini Gulobod, qizi Guloyin, quldor Feruz, arab qo`shinlari boshlig`i Sayid Battol, arab ruhoniysi Jaloyir shular jumlasidandir. Bu obrazlar tarixiy haqiqatni, davr qarama-qarshiliklarini, qo`zg`olon xarakterini keskin dramatik konflikt orqali yanada to`la va teran aks ettirishga imkon tug`dirgan.

Shoir Muqanna harakati bilan bog`liq bo`lgan voqealarning detallariga, tafsilotlariga emas, balki ularning umumiy yo`nalishiga, mohiyatini ochishga, talqiniga ko`proq e`tibor qaratadi. Binobarin, bunday yo`nalish asar pafosining bir pog`ona yuqori ko`tarilishiga turtki bergan.

Otashparast qul Otashning oilasi arab bosqinchilarining Islom dinini qabul qildirish yo`lida amalga oshirilgan turli majburlovlaridan og`ir vaziyatlarga tushadi. Ular musulmon diniga sig`inishga butunlay qarshi. Muqannaning bosqinchilarga qarata bosh ko`targanligi xususidagi xabar Otashning qizi Guloyin orasida Uyg`un va Izzat Sultonning «Alisher Navoiy» dramasi yinning yuragini ham larzaga soladi. Qiz ularning safiga qo`shilish ishtiyoqida harakatga tushadi. Shunday ketma-ketlikda dramatik holat liniyalari rivojlanib, Muqanna boshliq erkparvar kuchlar safi kengayib boradi va arablarga qarshi kurashuvchi, ular bilan tengma-teng olishuvchi katta ijtimoiy harakatga aylanadi.

Asar yaratilgan va sahnalashtirilgan bir paytda nemislar sobiq sovet mamlakatini xonavayron qilishayotgan edi. Shuning uchun ham asarning zo`ravonlikka, bosqinchilikka qarshi qaratilgan ruhi yangi g`azab va nafratni uyg`otuvchi qudratga ega bo`lgan.

Hamid Olimjon «Muqanna» fojeasi bilan sho'ro tuzumi va mamlakatini dushmanlardan himoya qilishga katta hissa qo'shdi. Lekin bugun bu asar mustaqillik uchun kurash g'oyasi, ona-Vatanni sevish, ardoqlashni o'rgatuvchi asar sifatida juda ham qadrlidir.

Hamid Olimjon ijodi XX asr o'zbek adabiyotining nurli sahifasi bo'lib qoladi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. H.Olimjon ijodi haqida yaratilgan qanday yirik tadqiqotlarni bilasiz?
2. H . Olimjonning bolalik yillari qanday o'tdi?
3. H . Olimjon adabiyot maydoniga qachon kirib keldi?
4. H . Olimjonning 30-yillar ijodi haqida so'zlang.
5. Zamonasozlik va shoir she'riyati xususida nima deya olasiz?
6. H . Olimjon she'rlaridagi asosiy mavzular qaysilar?
7. Urush yillarida H.Olimjon qanday asarlar yaratdi?
8. H. Olimjonning poemachilikdagi mahorati haqida nima deya olasiz?
9. «Zaynab va Omon» poemasida zamonasozlik xususiyati nimalarda ko`rinadi?
11. H .Olimjon adabiy ertaklari qaysi xalq ertaklari asosida yaratilgan?
12. H. Olimjonning dramaturglik mahorati nimalarda ko`rinadi?
13. «Muqanna» dramasi syujeti qanday qurilgan?

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Каримов И. Адабиётга эътибор – маънавиятга, келажакка эътибор. – Т.: Ўзбекистон, 2009.
2. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажакимизни мард ва олийжаноб халқимиз билан бирга қурамыз. – Т.: Ўзбекистон, 2017.
3. Алиев А. Истиқлол ва адабий мерос. – Т.: Ўзбекистон, 1997.
4. Каримов Н., Мамажонов С. ва бошқалар. XX аср ўзбек адабиёти тарихи. Дарслик. – Т.: Ўқитувчи, 1999.
5. Санжар Содик. Янги ўзбек адабиёти тарихи. Дарслик. –Т.: Университет, 2005.
6. Каримов Н. XX аср адабиёти манзаралари. –Т.: Ўзбекистон, 2008.

H.Olimjon asarlari:

7. Ҳамид Олимжон. МАТ. 10 жилдлик. – Т.: 1981-82.

8. Ҳамид Олимжон. Дарё каби уйғоқ ўтурман. Сайланма. – Т.: Шарқ, 2009.

Н.Олимжон haqidagi tadqiqotlar:

9. Каримов Н. Ҳамид Олимжон. – Т.: Ёш гвардия, 1980.

10. Каримов Н. Ҳамид Олимжоннинг поэтик маҳорати. – Т.: Fan 1984.

11. Азимов С. Сайланма. – Т.: Ғ.Ғулум номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1988.

12. Умуров Ҳ. Барҳаёт сулола. – Т.: Наврўз, 2017.

Internet saytlari:

7. www.alishernavoiy.uz

8. www.ziyo-net.uz

9. www.literature.uz

10. www.kutubxona.uz.

MAVZU: MIRTEMIR HAYOTI VA IJODI



(1910-1968)

Reja:

- 1. O`zbek she`riyatining bobodehqoni.***
- 2. Mirtemir ijodining o`rganilishi.***
- 3. Mirtemir she`riyatidagi xalqchil ruh.***
- 4. "Qoraqalpoq daftari" to`plami mundarijasi.***
- 5. «Surat» lirik qissasi tahlili.***

Tayanch tushunchalar:

Mirtemir she`riyati, poetik obraz, ramziylik, Mirtemir va fol`klor, xalqona ohanglar, harbiy lirika, doston, lirik xarakter, lirik qahramon, peyzaj lirikasi, «Qoraqalpoq daftari», «Surat», "Yodgorlik».

Mirtemir ijodi adabiyotshunosligimizda keng o`rganilgan. Otayorning «Mirtemir» adabiy portreti, «Men quyoshni ko`rgani keldim» kitobi bu sohadagi jiddiy qadamlardir. O.Sharafiddinovning «Iste`dod jilolari» kitobida Mirtemir she`riyati, uning xalqchilik jihatlari tadqiq etilgan.

Mirtemir Tursunov 1910-yili hozirgi Chimkent viloyatiga qarashli Iqon qishlog`ida tug`ilgan. Qishloqning kunbotarida musulmon dunyosida katta shuhratga ega bo`lgan Turkiston shahri, janubda O`tror, Boybalx xarobalari, Yassi, Suyri qal`alaridan qolgan kultepalar... Bu yurtda tariximizning nafasi ufurib turganligi yaqqol ko`zga tashlanadi.

Mirtemir bolaligidanoq ona-yurt mehrini yuragiga singdirib voyaga etdi. Uning otasi Tursunmat Umarbek o`g`li dehqon va chorvador bo`lgan, ona tomonidan bobosi esa "o`rta bo`yli, charaqlagan katta ko`zli, qora va chechan odam" bo`lib, qishloqda mullalik qilgan, Mirtemir shu bobosining maktabida savod chiqargan. Keyinroq esa qishloqda yangi ochilgan «No`g`oy domla»ning maktabida o`qigan.

1921-yilda Mirtemir Toshkentga keladi va Beshyog`ochga joylashadi, u yerdagi Almaiy nomli maktabda o`qiydi. O`sha vaqtda mamlakatda fuqarolar urushi to`xtagani yo`q, iqtisodiy ahvol og`ir edi. Ammo Mirtemir fan asoslarini astoydil egallashga, ayniqsa, she`riyat, adabiyot sirlarini kashf etishga kirishadi. 1923-yilda yangi shahardagi O`zbek erlar bilim yurtiga ko`chib keladi. Bu dargohda adabiyotga ixlosi yanada kuchayadi.

Mirtemirning birinchi she`ri «Yer yuzi» jurnalining 1926-yildagi 15-sonida bosiladi. 16 yoshar o`spirinning bu she`ri pishiq va puxtaligi bilan ajralib turardi. O`sha kezlari bir-biriga zid bo`lgan adabiy guruhlar o`zaro kurashib yotgan sharoitda, ham she`riyatning to`g`ri yo`li uzil-kesil aniqlanmagan bir holatda yosh shoir o`z she`rlari bilan «olamni yashnatib yuborishni» ko`zlaganini oshkora aytadi.

Har yoqqa taralsin tanburim tovushi,
Birakay to`xtasin ko`zlarning yoshi.
Tashlansin qo`llardan qayg`ular toshi,
Tugalsin borliqning hazin yig`lashi.

U qisqa muddatda jo`shqin iste`dodli shoir sifatida mashhur bo`ladi. Adabiy saboqlarni esa «Yosh leninchi» gazetasi qoshidagi to`garakda, keyinchalik «Qizil qalam»dagi qizg`in munozaralar va g`oyaviy kurashlarda oladi. 1928-yilda uning «Shu`lalar qo`ynida» deb nomlangan birinchi kitobi nashrdan chiqadi, keyin «Zafar» (1929), «Qaynashlar», «Komunna», «Tong» (1932) kabi she`riy to`plamlari nashr etiladi. Mirtemirning bu davrdagi she`rlari mavzu jihatidan xilma-xil. Bu shoirning xalq hayotini keng ko`lamda kuylashga intilganidan dalolat beradi. Biroq muhim mavzular, yangi g`oyalar, yuksak badiiy shaklda ifodalanishi ham kerak. Mirtemirning ilk she`riyatiga shu jihatdan yondashsak, uning asarlari hali g`o`r ekanligini ko`ramiz. Ularda muhim ramziylik, mavhum obrazlar serob. Aftidan, yosh shoir «poeziya» deganda chashmalar, to`lqinlar, buloqlar, uchqunlar, oy yuzlar, zar qanotlar, bulbullar, chechaklar, olovlar ifodasini tushungan.

1929-yili Mirtemir bilim yurtini bitirib, O`zbekistonning o`sha paytdagi poytaxti Samarqandga boradi va Pedakademiyada o`qiydi. Ayni choqda u O`zbekiston Markaziy ijroiya qo`mitasining raisi Oxunboboevning shaxsiy kotibi bo`lib ishlaydi. Shu tariqa, yosh shoir oldida katta istiqbol yo`li ochilgandek bo`ladi. Ammo uning taqdiriga yana yangi tuzumning farmonbardor kuchlari aralashadi - Mirtemir qamoqqa olinadi va Shimoldagi Belamorkanal qurilishiga badarg`a etiladi. Mirtemir bu yillarni eslashni yomon ko`radi – u to`g`rida gapirganda jo`ngina va kaltagina qilib «Boshimga sinog`lik kunlar ham tushdi» deb qo`ya qoladi. U tom ma`nodagi dorilomon kunlarga etib kelmay olamdan o`tdi. Shuning uchun biron-bir asarida «sinog`lik» kunlarning ma`nosini ochib bergani yo`q, hatto bu to`g`rida memuar xarakteridagi narsa ham yozmadi. Aksincha, tuzumning zug`umi shunchalik ediki, u ba`zi asarlarida o`n minglab mahbuslarning jonini sabil etgan Belamorkanal qurilishini «ulug`laydi». Masalan «Buyuk to`g`on ustida», «Kutib olganda» she`rlari shunday asarlardir.

Yoxud «Nomus» poemasida Ashur degan yosh yigitning taqdiridan so`zlaydi. Bolaligida otasidan judo bo`lgan Ashur og`ir

qiyinchiliklar ichida o`sadi, qarovsiz qolib o`g`rilik ko`chasiga kiradi, jinoyat ustiga jinoyatlar qiladi, borgan sari insonlik qiyofasini yo`qotadi.

Mirtemir 30-yillarning ikkinchi yarmida ham izlanishda davom etadi. U shoirlarga xos qat`iyat va sabot bilan she`rdan she`rga qalamini charxlab boradi. Bunda unga yana poetik tarjima qo`l keladi. 30-yillarning ikkinchi yarimlarida A.S. Pushkin, M.Yu. Lermontov, N.A. Nekrasov, T. Shevchenkoning durdona asarlarini tarjima qiladi, oliy poeziya sirlaridan voqif bo`ladi. Shoir shu yillarni she`riyatni oziqlantiradigan qudratli manbalardan biri xalq poeziyasini chuqur o`rganishga kirishadi. Bu esa uning she`rlariga yangicha ruh, yangicha rang bag`ishlaydi.

«Qo`shiqlar», «Uxla qo`zim», «Ko`zlarim yo`lingda», «Bo`sasi qand» kabi she`rlar shular jumlasidandir. Mana «Yali-Yali» she`ri. 1939-yili yozilgan bu she`r hozirga qadar xalqimizning eng sevimli qo`shig`i bo`lib kuylanib kelmoqda. Shoir xalq ohanglarida yozadi :

Bo`ylarida suqsur uchar, g`oz uchar,
Qirg`ovul, oqquvlar noz uchar,
Bulbul o`qub nag`ma, xushovoz uchar,
Qishni quvib, ko`klam uchar, yoz uchar
Ko`kka to`lib savt-sado, yali-yali.

30-yillarning oxiriga kelib, uning she`rlarida chinakam soddalik, tilda esa ravonlik va aniqlik vujudga keldi. Shoir har bir she`rida detallarning yorqinligiga erishdi, bironta sun`iylikka yo`l qo`ymaydi, detallar esa serma`no fikrlarni, to`lqinli hislarni ifodalashga ko`mak beradi. Binobarin, fol`klorning hayotbaxsh kuchi Mirtemir she`rlariga xalqona ruh olib kirdi.

1941-yili urush boshlandi. Butun el qatori Mirtemir ham yurt boshiga musibatli kunlar tushganida safarbarlik kamarini beliga bog`ladi. 1941-1945-yillar mobaynida u sobiq O`zbekiston SSR Ministrlar soveti huzuridagi radioeshittirish qo`mitasida muharrir bo`lib ishladi, keyin esa Alisher Navoiy nomidagi opera va balet teatrida adabiy emakdosh sifatida xizmat qiladi. Biroq qaysi vazifada ishlaganidan qat`iy nazar, u shoir sifatida qalamining kuchini to`laligicha front manfaatlariga bo`ysundirdi.

Shoirning «Sevgi», «Bu mening Vatanim», «Soy», «Ona shahar», «Qirg`oq», «Yodgor», «Dengiz bo`yida» kabi she`rlari harbiy libos yopingan, qahri qattiq, ifodasi zo`r, mehri oftob Vatan

haqidagi eng yaxshi she`rlardandir.

O`sha kezlari qardosh xalqlar hayotidan asarlar yozish poeziyaning eng yaxshi an`analaridan edi. Bu mavzu Mirtemirning anchadan beri qiziqtirib kelardi. U 30-yillardayoq qoraqalpoq hayotini aks ettiruvchi «Amu qirg`oqlari», «Oysanamning to`yida» kabi asarlarini yaratgan edi. Shundan keyin shoir ko`p yillar mobaynida bo`lajak turkum uchun materiallar yig`adi, bir necha marta Qoraqalpog`istonga boradi, qardosh xalqning hayotini, madaniyatini, adabiyotini o`rganadi. Shu maqsadda qoraqalpoq eposi «Qirq qiz»ni Uyg`un bilan hamkorlikda o`zbek tiliga o`giradi. Ana shu izlanishlar natijasida 1957-yilda «Qoraqalpoq daftari» maydonga keladi.

Mirtemirning “Suv qizi” dostonidan ijodiy ta`sirlanish E.Vohidovning «Orzu chashmasi» asarida ham yorqin kuzatiladi:

1. Mirtemir asarni ertak, Erkin Vohidov esa Qora dengiz ertagi deb ataydi. Ayni paytda E.Vohidov dostoniga Mirtemirning «Suv qizi» dostonidagi «Kecha oydin, bahor ayyomi, Qatra-qatra yosh to`kar buloq» satrlarini epigraf qilib keltiradi. Demak, mazkur epigraf orqali shoirning Mirtemirdan ta`sirlanganini payqash qiyin emas.

2. Har ikkala doston lirik kirish bilan boshlangan. «Suv qizi»da:

Yulduzlar-la charog`on kecha...

O`rmonlarga boqar o`roq oy.

Yo`llaringga boqdim, erkatoy,

Sen kechikding va`daga picha.

«Orzu chashmasi» dostonidagi debocha ham ana shunday qayg`uli ruh bilan ibtido topadi:

Tebranadi

Ohista to`lqin,

Moviy dengiz tilga kiradi,

Qoyalarga boshin uradi...

3. Syujetlararo bog`liqlik bor. «Suv qizi»da ham, «Orzu chashmasi»da ham asar qahramoni dengiz bo`yida yashashi tasvirlanadi. Demak, ekspozitsiya bilan bog`liq mutanosiblik mavjud. «Suv qizi»da Orzini qaroqchi Ali bobo dengizning narigi yog`idagi berahm sultonga sotib yuboradi. «Orzu chashmasi» da ham qaroqchi Ali bobo Orzuni o`g`irlab ketadi va uni xonga tortiq qiladi.

4. Syujetlararo bog`liqlik ruhiy-ma`naviy jihatdan o`xshash obrazlarni vujudga keltirgan. Binobarin, har ikkala bosh qahramon ham Orzu (Mirtemirda Orzi) deya nomlangan. Sababi, Mirtemirning

qahramoni Orzi otasining yakka-yu yagona farzandi sifatida voyaga etgan. Erkin Vohidovning lirik qahramoni ham ota-onasining yolg'iz farzandi. Ayni paytda ular qismatdosh. Voqealar rivoji kuzatilsa, har ikkala dostonida qaroqchilar tomonidan o'g'irlangan, orzulari poymol bo'lgan qizlar bir yil o'tib farzandli bo'ladi. Dostonlarning echimida Orzi va Orzu bag'ridagi bolasi bilan birga o'zini to'lqinli dengizga tashlaydi. Demak, dostonlarning tasvir yo'sini o'xshash.

Demak, Erkin Vohidov Mirtemirning dostonchilikdagi ijodiy an'anasini davom ettirgan. Ayni paytda shoirning o'ziga xosligi, E.Vohidov asarda lirizmga keng o'rin bergan. Chunki poemadagi lirizm, latish adabiyotshunosi V.P.Kikansning ta'kidlashicha, uzluksiz ravishda rivojlanib boruvchi jarayondir. Demak, Mirtemir dostoniga nisbatan «Orzu chashmasi»da lirik ruhning ustunligini aynan shu fikr bilan asoslash mumkin.

Mirtemirning «Suv qizi»dostonida ertak va doston janri xarakteridan kelib chiqib, epiklik lirizm bilan uyg'unlashib ketgan. E.Vohidov esa asar syujetini «Kuntug'mish» dostoni motivlari bilan boyitganligi kuzatiladi. U «Suv qizi»dan farqli o'laroq, asarga Orzuning sevgilisi Og'ado'st obrazini olib kiradi. Asarning yana bir muhim jihati, shoir buloqqa alohida mazmun yuklaydi. Uni insonlashtirib, Orzuning sirdoshi sifatida tasvir etadi. Shu ma'noda Erkin Vohidovning «Orzu chashmasi» dostoni XX asrning 30-yillarida vujudga kelib, takomillasha boshlagan yangi tipdagi liro-epik poemaga xos an'analarni davom ettirdi hamda uni mazmun va shakl jihatidan yanada boyitdi.

«Qoraqalpoq daftari» haqiqiy poeziyaning ashaddiy dushmani bo'lgan ritorikadan, quruq suxandonlikdan, sun'iy yaltiroqlikdan, bachkana balandparvozlikdan yiroq. Shoir har bir she'rida go'zal poetik obrazlar, betakror detallarni qo'llaydiki, ular tufayli biz hayotning ulug' haqiqatlarini chuqurroq bilib olamiz, hayotning shu paytgacha ko'zga ko'rinmagan tomonlarini ko'rib, uning jozibasini, nafosatini his qilamiz. Shu ma'noda «Qoraqalpoq daftari»ga kirgan qariyb har bir she'r poetik kashfiyot darajasiga ko'tariladi.

«Qoraqalpoq daftari»ning yana bir qimmatli tomoni shundaki, bu turkumdagi she'rlarda shoirning lirik xarakterni turli tomonlardan, turlicha kayfiyatlarda ocha olish qobiliyati yaqqol ko'rinib turadi. Shoir lirik qahramonlarini, ularning ma'naviy qiyofasini, ichki dunyosini goh jiddiy, goh yumor bilan chizadi. Eng xarakterlisi

shundaki, shoir bugungi odamlar haqida yozar ekan, har bir she`rda ularga o`z munosabatini yorqin ifodalaydi, o`z qalbini, o`z tuyg`ularini ochib beradi.

«Qoraqalpoq daftari»ning yana bir fazilati shundaki, bu turkumda real hayot poeziyasi juda nafis, g`oyat nozik va yuksak did bilan tasvirlanadi. «Tongdan ham go`zal», «Suluv yoz», «Daryo jimir-jimir» kabi she`rlarda hayot go`zalligidan benihoya zavqlanish bor. Shoir butun qalbi, butun borlig`i bilan hayotni sevadi. Bu sevgi unga hayotning ezguliklarini poetiklashtirish imkonini beradi. Shoir bu sevgisini aniq narsalar, jonli obrazlar orqali tasvirlaydi. She`rda hayot go`zalligi allanechuk mavhum tushuncha emas, balki oddiy insonning ijodkor mehnati bilan chambarchas bog`liq sifatida ifodalangan. Bu, ayniqsa, «Bulut» she`rida aniq ko`zga tashlanadi. Ko`m-ko`k osmonda suzib yurgan oppoq pag`a bulutlar shoir tasavvurida goh bir gala oqquvlarga, goh qorli cho`qqilarga, goh oq barqutga o`xshaydi:

Ko`k yuzida pag`a bulut – oq bulut,

Bir qarasang – osmon to`la oqquvlar,

Bir qarasang – baland qorli cho`qqilar,

Bir qarasang – ko`z ilg`amas oq barqut.

Bu nurli, yorqin tasvir lirik qahramonning go`zallik tuyg`usi benihoya o`tkir ekanidan dalolat beradi. Ammo bu bulutlar faqat chiroyli ko`ringani, oqquvday suzgani uchungina go`zal emas. Bu go`zallikning siri boshqa narsada - ko`kdagi oq bulutlar shoirga oddiy kishilarning mehnati tufayli bunyod etilgan tog`-tog` paxta xirmonlarini eslatadi.

«Qoraqalpoq daftari» turkumiga Mirtemirning «Surat» degan ixcham lirik qissasi ham kiradi. Ma`lumki, shoir «Surat»ga qadar ham, undan keyin ham poema janriga ko`plab marta murojaat qilgan va bu janrda birda muvaffaqiyatli, birda no`noqroq asarlar yaratgan. «Surat» shu asarlar ichida alohida ajralib turadi.

«Surat» yozilgan kezlarda she`riyatda inson iztiroblarini, yurak dardlarini kuylash deyarli mumkin emas edi. Bu tushkunlik kayfiyatiga berilish deb hisoblanar, insoniy dardlarni kuylashga jur`at etgan shoir burjua she`riyatiga taqlid qiluvchi pessimist deb e`lon qilinardi. Chunki sho`ro kishisi kulfat nimaligini bilmaydigan, mabodo boshiga musibat tushib qolsa, uni kulib turib mardonalik bilan yengib o`tadigan irodali, baxtiyor, nekbin inson deb hisoblanardi. Tabiiyki, bunday tasavvurlar asosida yaratilgan inson xarakterlari,

odatda tussiz, sun`iy chiqardi va kitobxonga ta`sirchanligi bilinmasdi. Shunday sharoitda Mirtemir o`zbek shoirlari orasida birinchilardan bo`lib inson haqida haqiqatni yozishga jur`at etdi. «Surat» og`ir hayot yo`lini kechirgan, «o`limlardan hatlab o`tgan», urush olovlarida qovrilgan, bu og`ir sinovlarning hammasida chiniqib, ma`naviy dunyosi boyib chiqqan insonning madhiyasidek tuyuladi. Shoir lirik qahramon biografiyasini batafsil tasvirlamaydi, faqat ayrim chizgilar bilangina uni eslatib o`tadi.

Toshlon frontdan qaytadi, ammo xotini dunyoda hammadan ortik sevgan odami uni kutmay boshqaga turmushga chiqibdi... Butun qissa mana shu aldangan sevgi tarixidan iborat. Shoir Oysuluv obrazini ham juda hassoslik bilan chizadi, uning qanday qilib xiyonat yo`liga qadam qo`yganini, eng pok, eng yuksak tuyg`ularni poymol etganini batafsil tasvirlamaydi. Shunday bo`lsa-da, biz Toshlon kechinmalaridan uning ham, Oysuluvning ham ma`naviy qiyofasini bilib olamiz. Bu kechinmalar juda yolqinli, ichki olovga ega.

«Surat» poemasi insonning qalbi, ruhiy dunyosi haqidagi tasavvurlarni ifodalaydi.

1956-yildan keyin mamlakatda yuz bera boshlagan muayyan ijtimoiy-siyosiy o`zgarishlar ta`sirida Mirtemir ijodida ham yangilanish jarayoni boshlandi. Avvalambor, Mirtemir bu davrda juda faol ijod qildi - u bir necha marta tanlangan asarlarini chop ettirdi, yuzlab lirik she`rlar yaratdi, o`nlab poetik to`plamlar e`lon qildi.

Mirtemirning so`nggi kitobi «Yodgorlik» deb nomlanadi. Shoir bu kitobida ham butun umri davomida kuylagan ohanglarga sodiq qoldi. Yuqorida ko`rganimizdek, Mirtemir o`z ijodining boshidan oxirigacha ona yurtini, vatan go`zalligini kuyladi. U oddiy mehnatkash odamni sevar, unga sajda qilar, u yaratgan va yaratadigan mo`jizalarni muqaddas deb bilardi. "Yodgorlik» da shoir lirikasining shu xususiyatlari yangicha bir kuch bilan jilolanadi. Mirtemirning «Toshkent taronalari», «Sen borsan», «Toshkent oqshomlari», «Yil boshi orzulari», «Hindu raqqosasiga bag`ishlaganim», «Baxt qo`shig`i», «Yorti asr qo`shiqlari» kabi she`rlari siyosiy-publitsistik lirikaning namunalaridir.

Mirtemirning ko`pgina she`rlarida chuqur hayotiylik bilan odamdagi oddiy fazilatlarni buyuklik darajasiga ko`taradi. «Ishboshi», «Siz shundoq», «Paxtakor tilidan», «Abror Hidoyat», «Ovunchoq», «Bu o`sha» kabi she`rlar fikrimizning yorqin dalilidir. Bu she`rlar

ichida ikki she`r alohida ajralib turadi. Bularning biri «Pattining hasratlari», ikkinchisi «Toshbu». Bu ikki she`r o`zbek ayolining vafosi va sadoqatiga, matonati va bardoshiga, ibosi va go`zalligiga, xullas, uni chinakam inson qilgan fazilatlariga qo`yilgan she`riy haykaldir. Bu ikki she`r G`afur G`ulomning «Xotinlar», Oybekning «Raisa» kabi asarlari qatorida turadi.

Mirtemir ijodining so`nggi bosqichidagi asarlar shoir poeziyasidagi xalqchilik, beqiyos milliy ranglarga yo`g`rilgan obrazlilik, shaklning mukammalligi, uslubning aniqligi yana bir pog`ona yuksak ko`tarilganidan dalolat beradi. Ayniqsa, shoir she`riyatining tili o`lkamiz tabiatidagi ranglarga, jilolarga hamohangligi bilan kitobxonda yorqin taassurot qoldiradi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar :

1. Nima uchun Mirtemirni o`zbek she`riyatining bobodehqoni deyishadi?
2. Mirtemirning bolalik yillari xususida so`zlab bering .
3. Mirtemir adabiyot, she`riyat olamiga qachon kirib keldi ?.
4. Mirtemir «boshimga sinog`lik kunlar tushdi» deganda nimani nazarda tutadi?
5. Mirtemir she`riyatining asosiy mavzulari qaysilar ?.
6. «Qoraqalpoq daftari» ga kirgan she`rlarning mundarijasi nimalardan iborat?
7. Shoir she`riyatida xalqona ohanglarning mavjudligini qaysi she`rlar tasdiqlaydi?
8. Shoirning harbiy lirikasiga xos xususiyatlar nimalardan iborat ?
9. «Surat» lirik qissasi syujeti, obrazlar tizimi haqida nima deya olasiz?

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Каримов И. Адабиётга эътибор – маънавиятга, келажакка эътибор. – Т.: Ўзбекистон, 2009.
2. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажакимизни мард ва олийжаноб халқимиз билан бирга қурамиз. – Т.: Ўзбекистон, 2017.
3. Алиев А. Истиклол ва адабий мерос. – Т.: Ўзбекистон, 1997.

4. Каримов Н., Мамажонов С. ва бошқалар. XX аср ўзбек адабиёти тарихи. Дарслик. – Т.: Ўқитувчи, 1999.

5. Санжар Содик. Янги ўзбек адабиёти тарихи. Дарслик. –Т.: Университет, 2005.

6. Каримов Н. XX аср адабиёти манзаралари. –Т.: Ўзбекистон, 2008.

Mirtemir asarlari:

7. Миртемир. Асарлар. Уч томлик. Иккинчи том. –Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1971.

8. Миртемир. Асарлар. 4 жилдлик. 1-4 жилдлар. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1980-83.

9. Миртемир. Оҳ, менинг ўзбаки юрагим. – Т.:, 1990.

Mirtemir haqidagi tadqiqotlar:

10. Отаёр. Миртемир. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1980.

11. О.Шарафиддинов. Истеъдод жилolari. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1982.

12. Отаёр. Мен қуёшни кўргали келдим. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1985.

13. Қувватова Д. XX асрнинг иккинчи ярми ўзбек дostonчилигининг таракқиёт хусусиятлари. ДД. – Т., 2016.

Internet saytlari:

11. www.alishernavoiiy.uz

12. www.ziyo-net.uz

13. www.literature.uz

14. www.kutubxona.uz.

MAVZU: ZULFIYA HAYOTI VA IJODI



(1905-1996)

Reja:

- 1. Zulfiya ijodining o`rganilishi.*
- 2. Hayot va ijod yo`li.*
- 3. Shoiraning estetik qarashlari.*
- 4. Shoira she`rlarida avtobiografizm.*
- 5. «Quyoshli qalam» dostoni tahlili*

Tayanch tushunchalar: avtobiografizm, lirik qahramon, lirik doston, hijron motivi, «Qizil durra», «Hijron kunlarida», «Quyoshli qalam», «Uni Farhod der edilar», «Xotiram siniqlari».

Zulfiya ijodi adabiyotshunosligimizdja keng o`rganilgan. Adabiyotshunos A.Akbarovning «Zulfiya» nomli adabiy portreti shoira ijodiy yo`lini yoritishga bag`ishlangan. O.Sharafiddinovning «Adabiy etyudlar» nomli kitobida «Qalbimizga yaqin shoira» deb nomlangan qism mavjud. Unda shoira she`rlari tahlil etilgan.

Isroil Muslimov qizi Zulfiya 1915-yil 1-martda Toshkentning O`qchi mahallasida dunyoga keladi. Hovli mo`jazgina bo`lsa-da, unda bir-biridan chiroyli muattar gullar o`stirilardi. Oiladagilar musiqani, she`rni yaxshi ko`rardilar. Zulfiya oiladagi kenja farzand bo`lib, uning to`rtta akasi bor edi. Ularning hammasi keyinchalik katta lavozimlarda ishlaganlar, qatag`onning achchiq-chuchugini totganlar.

Oilada onaning xizmati beqiyos edi. «Agar iste`dodim bor bo`lgan bo`lsa, uning chashmasi – onam. Agar adabiyot ahliga bir kaft yanglig` she`riy hosil tutgan bo`lsam, uning urug`ini qalbimga avval onam sochganlar» - degan edi Zulfiya. Shoira ning butun ijodi davomida onani, ayolni ulug`lovchi otashin she`rlar yozishi bejiz emas edi. Uni doim «qattiq minnatdorchilik tuyg`usi», «uzilmagan qarz hissini to`kib solish ehtiyoji» band etadi va shu mavzuning yangi jihatlari ochiladi. Zulfiyaning otasi temirchi bo`lgan. «Ustaxona uyimizning yonginasida bo`lganligi uchun ham, – deydi Zulfiya, – men uning laxcha cho`qqa aylangan po`lat eritmalarini turli shaklga solishini, o`sha cho`g` po`latdan turli asboblari yasashini hayrat bilan kuzatishni yaxshi ko`rardim. Olov va mehnat mahorat bilan birikkanda inson ko`p ishlarning uddasidan chiqishi mumkinligini ham men bolalikdan anglab yetdim. Keyinchalik charchagan yoki dilga tanglik cho`kkan, loqaydlik hukmron bo`lgan daqiqalarda qo`ra tepasiga engashgan otamning salobatli, aziz qiyofasini, bolg`asining bir maromda ko`tarilib tushishini eslashning o`zi menga ajoyib tarzda yangi kuch-quvvat bag`ishlardi».

Zulfiya boshlang`ich maktabni bitirgach, xotin-qizlar pedagogika bilim yurtida (1931-1934 yillar) o`qidi. Shu yerda she`r yoza boshladi. Bilim yurtining oldida adabiy to`garak bo`lib, uning rahbari shoir Shukur Sa`dulla edi. To`garakda Uyg`un, G`.G`ulom kabi shoirlar bilan uchrashuvlar o`tkazilardi. Shoira o`z ustozini, avvalo, «davrnin, hayotning o`zi» deb o`ylardi. O`sha davrnin mashhur shoirlari, turli-tuman kitoblar shoiraga ijod sirlarini anglashda yordam berdi. Birinchi she`ri – «Qizil durra»ning dunyoga kelishida paranjini tashlab zavod-fabrikalarda boshlariga qizil durra o`rab ishlayotgan ayollar hayoti saboq bo`lgan. Shoira hayot, turmush saboqlaridan ilhom oldi va 17 yoshida «Hayot varaqalari» (1932) degan ilk to`plamni nashrdan chiqardi. Ammo u bunda dunyoga, insonga o`z nuqtai nazaridan qarash darajasiga ko`tarilgandi. 1935-yilda Zulfiya hassos shoir Hamid Olimjon bilan taqdirini bog`ladi. Bu shoira uchun, uning ijodi uchun ulkan burilish bo`ldi.

Shoira bilimni har tomonlama oshirib bordi, aspiranturada o`qidi, bolalar nashriyotida muharrirlik qildi. Ikkinchi Jahon urushi ko`pchilikni ruhiy jihatdan tetiklashtirdi, katta-yu kichikning e`tibori Vatan himoyasi bo`lib qoldi. Urush Zulfiya uchun katta sinov davri bo`ldi. 1944-yilda turmush o`rtog`i Hamid Olimjondan judo bo`ldi,

ammo bu ayrilish Zulfiyani dovdiratib qo`ymadi, endi u ikki sozni – o`zi va Hamid Olimjon sozini chalishni bo`yniga oldi. Bu shoira she`riyati mazmuni, yo`nalishi, ruhidagina emas, ayni choqda ijtimoiy faoliyatida ham yaqqol ifodalandi. «Saodat» jurnalida bosh muharrir bo`lib ishladi (1953-1980), Osiyo va Afrika yozuvchilari harakatida faol qatnashdi, mamlakatimiz vakili sifatida Hindiston, Yugoslaviya, Shrilanka, Misr , Birma, Avstraliya kabi mamlakatlarni ko`rdi. Zulfiyaga qo`sha-qo`sha mukofotlar berildi, bu uning el oldidagi qator xizmatlari uchun edi. U respublika davlat mukofoti laureati bo`ldi. «Saylanma»si uchun sobiq SSSR davlat mukofoti laureati, O`zbekiston xalq shoirasi, xalqaro «Nilufar» mukofoti, Bulg`oriyaning «Kirill va Mefodiy» ordeni sohibasi kabi yuksak unvon va martabalarga sazovor bo`ldi. Unga Mehnat Qahramoni unvoni va ko`plab orden, medallar berildi.

Zulfiya sevgi, sadoqat, hijron, ona, vatan,tong, tinchlik, dunyo, hurriyat, hayot, umr, yurtdoshlari va taqdiridoshlari jasorati, shodligi, iztiroblari, fojeasi, irodasi haqida ham qalam yuritdi, yuritganda ham ularni o`z shaxsiy nuqtai nazari bilan, shaxsiy dardu tashvishi tarzida talqin qildi.

Shoiraning 50-yillar siyosati, mafkurasi ta`siri va tayziqida yozgan o`nlab she`rlarini e`tiborga olmaganda (masalan, «Saodatning chet ellik bir xonimga javobi», «O`zbek qizi ovozi», «Partiya, senga salom», «Men kommunistman» kabi she`rlarini hisobga olmaganda) ko`pgina asarlari haqiqiy lirika namunal aridir.

Zulfiya jurnalistning «Shoirning bosh siri nimada deb o`ylaysiz?», «Yangi tashbehlar, metaforadami?» deb bergan savollariga bunday javob beradi : «Fikrda, g`oyada ! Butun vujudingni tug`yonga solib, «Bugun aytmasang, halok qilaman» deb qalbingda hayqirib turgan fikrda! Fikr shaklni ham, metafora, tashbehlarni ham o`zi yetaklab kelaveradi».

Chindan ham Zulfiyaning eng yaxshi she`rlarida fikr tig`izligi, falsafiy teranlik ustivorlik qiladi. Uning she`rlari o`ychan, vazmin. Shoira tuyg`u, fikrga monand ohori to`kilmagan, «fikrni to`la ifoda etadigan chaqmoqday» so`z, ifoda, obraz topadi. Zulfiya she`rlarida ixchamlikni yoqtiradi. Bu ham shoiraning so`z zimmasiga katta fikr, his-hayajon yuklay olganining natijasi hisoblanadi. Agar fikr va kechinmaning yangi jihatlari ko`rinib qolsa, u mustaqil, ammo mazmunan, ruhan o`zaro bog`langan bir necha she`r yaratadi. Zulfiya

ijodidagi turkum she`rlar shu tarzda tug`ilgan.

Shoiraning «Uni Farhod der edilar», «Quyoshli qalam», «Xotiram siniqlari» dostonlari haqiqatan ham ixcham tuzilishga ega

Zulfiya she`riyatida fojiaiviylikni keltirib chiqargan va chuqurlashtirgan asos esa uning tarjimai holiga bog`liq va fojiaiviy ohangning ustunligi shoira she`rlarida yana bir o`ziga xoslikni – voqeaviylikni, ixcham syujetlilikni keltirib chiqargan.

Zulfiya: «Nazarimda, shoirlar o`z tarjimai hollarini yozmasliklari kerak. Negaki, shoirlar haqida she`rlari tavsif beradi, ular haqida hamma narsani aytib bermasa ham ijodlarida hayotlarining ko`pchilik tomonlarini sharh etib berishga qodir she`rlar bo`ladi. Urush yillari, – deydi Zulfiya, – turmushning o`zi qat`iyat bilan haqiqiy so`z talab qiladi: beixtiyor ravishdami yoki birovning tajribasiga murojaat qilish natijasidami, asl so`zlar o`z-o`zidan quyilib kelaverganidan keyin ularni o`rni-o`rniga joylashtirish, bir-biri bilan bog`lash yo`lini topar ekansan ... 1943-yili chiqqan «Hulkar» kitobim yangi ishning yakuni bo`ldi. She`rlarim voqeaband bo`lib qoldi desammikan? Lekin bayonchilik ma`nosida emas. Men bu she`rlarga o`z ruhiy tariximning bir parchasini joylashtira boshladim, bu parchaning o`z tuguni, kulminatsiyasi va yechimi bor edi. Endi yozmoq uchun Lev Tolstoy aytganidek, dastlab gapning uchini uchiga ulab olishim kerak edi. She`rni boshlab qo`yib, oxirini topmagunumcha uni davom ettira olmas edim. Endilikda qayoqqa qarab ketayotganligimni bilganimdan yo`lning eng qisqasini izlab topa olardim. Natijada she`rlarim muxtasar va tugal bo`la boshladi».

Hamid Olimjon hayot vaqtidayoq shoira ijodiga hijron ohangi kirib keldi. Bu ohang «Hijron» she`rida, «Uni Farhod der edilar» dostonida, H.Olimjon tomonidan tahrir qilinib, bosmaga tushirilgan «Hijron kunlarida» she`riy to`plamida muhim o`rin tutdi.

Zulfiya boqiy baxt orzusi bilan turkum she`rlar yozdi. Turkumga kirgan har bir she`r mustaqil asar darajasiga ko`tariladi. Ayni choqda mazmuni, yo`nalishi, ruhi bilan o`zaro uzviy bog`lanadi. Shoiraning she`riy turkumlari ko`p, har birida ijodkor ruhiy olamining yangi qirrasini namoyon bo`lgan. Agar «Hijron kunlarida» turkumida urushning shafqatsiz alangasida azoblangan qalbning g`olib chiqishi ifodalansa, «Yuragimga yaqin kishilar»da shu insondagi matonat, sadoqat, nekbinlik ildizlarini odamlar mehri, ona- Vatan mehrida ko`radi. «Mushoira» turkumida insoniyat taqdiri, tashvish-intilishlari

mushtarakligi ta`kidlanadi. «O`ylar», «Yillar, yillar» turkumlarida esa hayot va inson, umr mazmuni, muhabbat va sadoqat, yashash va kurash ma`nosi to`g`risida fikr yuritiladi.

Zulfiya ijodining yana bir o`ziga xos jihati bor : u hayotdagi hamma narsa haqida va inson qalbidagi xilma-xil kayfiyatlar xususida yozadi, ammo ularni ayol qalbi bilan tinglab, ayol ko`zi bilan ko`rib, idrok etib, ayol so`zi bilan tasvirlaydi, ayolning ovozida kuylaydi. Shoiraning har bir she`rida obrazlar ham ayollar dunyosidan topilgan. Uning tashbehlari ham ayollardan olingan, ularning tuyg`ulari, ruhiy olami, orzu-armonini ifodalashga xizmat qiluvchi yuksak obrazlardir. To`g`ri, bizni o`rab turgan borliq, insoniy dardlar shoirlar uchun ham mushtarakdir, ammo bu murakkab sirli olamni va qalbning eshigini ular o`z kalitlari bilan ochadilar. Asarning g`oyaviylik va badiiylik darajasining mezoni bittadir. Biroq voqelikni ko`rish va badiiy tadqiq etishda mushtaraklik bilan birga o`ziga xos xislatlar ham bor. Shoiralar qalbi g`oyat nozik, dilgir, bardoshlidir.

«Ayol o`zi go`zallik va ezgulik bilan egizak didli, – degan edi Zulfiya. – Go`zallik va hayot esa hamma narsani yamlab simiruvchi urush oloviga yov ... Mana shuning uchun ayolning ovozida – she`rida, romanida, hikoyasida, qo`yingki, butun hayoti va faoliyati bilan baholi qudrat ana shu tinchlik, osoyishtalik, go`zallik, ezgulikni himoya qiladi, biri dehqon sifatida dalada, biri ishchi sifatida zavodda, biri shundoq ayol, ona, insoniyatning bir zarrasi bo`lgan o`z oilasining tiragi, asosi sifatida yaxshi niyatlar bilan yashaydi. Shu tufayli yozuvchi ayollar ijodida eng asosiy mavzu onalik baxti , farzand va uning kelajagi to`g`risidagi o`ylar, vatan va elning osoyishtaligi haqidagi fikrlar, butun xalqlar bilan do`stlik, birlashib, birdamlashib, kurashib, jahonda tinchlikni saqlab qolishga , farzandlarga eng yaxshi kelajakni ta`minlashga chaqirish kabilar muhim o`rin tutadi.

«Uni Farhod der edilar» poemasida ham ayol qalbining sezgir, beorom tabiatini ko`ramiz. Doston markazida qahramonning vatanparvarlik, mardlik bilan to`la ma`naviy dunyosi tahlil etiladi. Asarning zamirida san`atkorning so`zi bilan ishi bir bo`lishi kerak degan fikr ham bor. Qobilqori o`zbek sahnasida juda ko`p rollarni ijro etib, qahramonlik, insonparvarlik, Vatanga jonfidolik kabi tuyg`ularni targ`ib qilgan edi. Uning iste`dodiga qoyil qolgan tomoshabinlar Farhod rolini mahorat bilan ijro etgan Qobilqorini Farhodning o`zi-ya, deydilar. Shoira xalqning shu mehridan kelib chiqib, dostonni «Uni

Farhod der edilar» deb nomlaydi. Qobilqorining soʻzi bilan ishi bir edi, frontga borib, jonini ona-vatanga tikadi va shu yoʻlda mardona halok boʻladi. Uning qahramonona hayot yoʻli va fojiali taqdiri «hayotimizni saqlab qol, doʻstlar uchun qasos ol», degan chaqiriq yangligʻ yangraydi. Jangchilar armiya gazetasida oʻz fikrlarini shunday ifodalagandilar : «Har bir jangchidek Qobilqorining qalbi ham Vatanga sadoqat va yashashga muhabbat oʻti bilan toʻlib turadi».

Oybek haqidagi «Quyoshli qalam» dostoni ham ijodkorning Vatan, xalq, tarix, kelajak avlod oldidagi burchi toʻgʻrisidadir. «Quyoshli qalam» 1970-yilda yozilgan. Doston haqida adabiyotshunos N.Rahimjonov shunday yozadi: «Zulfiyaning «Quyoshli qalam» poemasi­dagi yangicha badiiy talqin Oybekning nuqtai nazari, ijodiy pozitsiyasi orqali insoniy fazilatlarini, murakkab ijod jarayonlarini ochishda koʻrinadi; qahramonning tarix va tarixiy voqelik, insoniylik va maʼnaviy goʻzalliklar haqidagi mushohadalarda zuhur topadi...Voqelik uygʻotgan assosiatsiyalar, Oybekning ijodkor tabiati va insoniy shaxsiyatiga xos keng va teran mushohadakorlik belgilari shoiraning yangi va original kontseptsiyasi orqali gavdalanadi; hayotning goʻzalligi bilan maʼnaviy kamolotning uygʻun manzarasini yaratgan». Binobarin, doston chuqur lirizm bilan sugʻorilgan. Shoira Oybek obrazini yaratishda ichki monolog, dialog, kechinma va tuygʻularning hayotiy holatlari, oʻy-mushohadalari asosiy oʻrin tutadi. Asar uchun Oybekning Buxoroga tashrifi voqeasi asos qilib olingan. Doston real voqelikka asoslangan. Bu haqda Zarifa Saidnosirova shunday yozadi: «Oybek koʻpdan beri Buxoroga borib, soʻnggi amir haqida va Buxoroning 1917-yilga qadar boʻgʻiq, fojiali hayoti haqida asar yozish uchun material toʻplash niyatida yurardi. «Guli va Navoiy» dostoni tugagach, u ana shu niyatni roʻyobga chiqarishga kirishdi. Biz 1968-yilning aprelida Buxoroga joʻnadik». Doston kompozitsion yaxlit va oʻziga xos syujet tizimiga ega. Uni lirik-falsafiy doston deyish mumkin. Doston bagʻridan Oybekning nurli siymosi yaraqlab turadi. Dostonda Oybek, Zarifaxonim timsollari yaratilgan. Shoira Oybekning yoʻl taassurotlarini, yangi-yangi asarlar tugʻilishi jarayonini, shoirning Buxoro xususidagi oʻy-fikrlarini hassoslik bilan qalamga oladi. Doston besh qismdan iborat. «Xayol qanotida» deb nomlangan qismda Oybekning yoʻl taassurotlari qalamga olinadi. Jumladan , shoira yozadi:

Yo`l uzoq, yo`l yaqin, boshsiz , so`ngsiz yo`l,
Biri tor , biri keng ravon va so`qmoq.
Tinglab ko`r, qarichi ming ertakka mo`l,
Tug`ilmoqday farzdir birini o`tmoq

Bunda insonning hayot yo`li shoirona ta`rif etilgan. Binobarin, insonning hayot yo`li bir tekis emas, u uzoq-yaqin, tor-keng so`qmoqlardan iborat. Bunday yo`lni-da bosib o`tish g`oyatda mashaqqatli.

Yo`l demak, o`tilgan bir umr demak,
Hech biri muqimmas tuproq singari.
Lekin zamon o`ta borlig`i hikmat
Biz-la ketayotgan kimlar yo`llari.

Binobarin, shoira inson umrini yo`lga qiyos etadi. Shu asosda Oybekning serqirra hayot yo`liga bog`laydi. Oybek Buxoroga yo`l oladi:

Bizning mashinamiz ufq va quyosh,
Elu yuraklarga kirishga shoshar.
Muazzam adibga safarda yo`ldosh,
Baxtidan quvonchim arshidan oshar.

Oybek hayotda juda ko`p yurtlarda bo`lgan. Sayohatlari davomida unga shoirona xayol- qanot doimo hamroh bo`ldi. Shoir yurt kezar ekan, yangi- yangi asarlar yozilishiga zamin tayyorladi. Shoira Zulfiya ta`kid etganiday, u har gal «taqdirlarga , dillarga safar» qildi. Ya`ni Oybekning yangi-yangi qahramonlari tug`ildi. Buxoroga kelar ekan, yo`l bo`yi ijod istagi uni tark etmadi.

O`ylar bilan dil ham otilajakday
Adib o`ltiradi ko`ksini quchib.
Ufqda mo`jiza ochilajakday,
Mashina yeladi qush kabi uchib.

Zulfiya shoir obrazini yaratar ekan, Oybek xarakteriga xos jihatlarni, dunyoqarashini, ijod ahliga xos xususiyatlarni yoritishga intiladi. Shoir portretiga xos chizgilar satrdan-satrga o`tgani sayin mukammallashib boradi. «Bu yirik ko`zlarning teran nigohi», «Faqat chust do`ppisi ostidan toshgan «, «Ikki qo`l orqada, odimlar vazmin, Xiyol bukchayganday ko`rindi qaddi» singari misralar Oybekning nafaqat tashqi ko`rinishini balki ichki dunyosini, ruhiyatini ifodalashga xizmat qilgan. Binobarin, adibning ko`zlari yirik va serma`no bo`lgan, boshida doim chust do`ppi kiyib yurgan, hamisha

ikki qo`li orqada bo`lgan.

Zarifaxonim obrazini yaratishda ham Zulfiyaning iste`dodi yorqin ko`zga tashlanadi. Binobarin, Zarifaxonimga berilgan ta`riflar g`oyatda samimiy, tashbehlariga boy. «Qalamday vafodor, ilhomday zebo, Vijdoniday toza, hayotday dono, eriday zahmatkash, eriday tanti» Zarifaxonim Oybekning sadoqatli umr yo`ldoshi edi. «Sertashvish umrining munis hamdami, lochinday o`g`illar va qizga ona, horganda tiliyu ishchi qalami» Zarifaxonim Oybek bilan hamma damlarda birga bo`la oldi. Zulfiya Zarifaxonimdagi ana shu ezgu fazilatlarni ko`pchilikka o`rnak qilib ko`rsatadi va uning vafo-sadoqatini g`oyatda ulug`laydi. Haqiqatan, Oybek va Zarifaxonim ibratli oila sifatida mazmunli umr kechirdilar:

Adib so`zi yetgan har bir ovulga
Ajabmas topilsa uning shogirdi.
Ikkisi go`zal bayt qo`sh misrasiday
Ishqda, ishda , baxtda umr kechirdi.

Shoira Zulfiya «Adib tinmay terdi javohirlarni» der ekan, shoir yaratgan asarlarga ishora qiladi. Buxoro tuprog`iga shoir ulug` orzular bilan kirib keladi. Binobarin, u

Bugun Buxorodan qalbini izlar,
Izlar ming yillarga kirgan xayolin.

Haqiqatan, Buxoroning qadim tarixi bor. Uning har bir toshi hikmat so`zlaydi, ko`hna minorlari, madrasalar necha ming asrlarga guvoh. Shunday yurt qanday qilib Oybek qalbida ilhom uyg`otmasin, ko`nglida yangi tug`yonlarni paydo qilmasin. Shoirning o`z e`tiroflarini shu o`rinda keltirish o`rinli: «O`z xalqimning taqdiri haqida o`ylab yurib, menda yangi-yangi temalar tug`iladi» (14-tom, 15-b). Shoir qaysi yurtda bo`lmasin ana shu kayfiyat unga hamisha hamroh bo`ladi :

Garchi darsligiday tanish Buxoro,
Titdi mudroq, uyg`oq keksa, yosh bobin.
Zindonda titrab, minorlar aro
Kezdi va axtardi dilga xitobin.

Shoir ko`hna Ark, minoralar, obxona yonidan o`tar ekan, o`sha tarix sahifalari ko`z oldida jonlanadi. Xususan, «obxonaning zax shiftlaridan Ayniy ko`zlari jovdirab boqardi». Go`yo ustod Ayniy adibga xitob qilib, uni ijod qilishga chorlayotganday:

Go`yo g`olib Ayniy yozib, shodlanib,

So`nik Ark ustida etardi parvoz.
Go`yo derdi: «Mavzu yotar taxlanib,
Yo`zing, Oybek, qancha yozsangiz ham oz!»

Zero, shoir rafiqasi xursand edi. Zarifa Saidnosirova Oybek haqidagi xotiralarida yozadi: «Oybekning boshi to`la fikr... xayol... Uning butun borlig`i, ulug` bir ummon singari ko`piradi, qaynaydi, toshadi». Zulfiya ham Oybekdagi ana shu xislatni, fazilatni she`riy satrlarda samimiyat bildan ifoda eta olgan.

Oybek Buxoroga kelgandan keyin Buxoro davlat pedagogika instituti (Hozirgi BuxDU) talabalari shoir bilan uchrashadilar. Bu tarixiy uchrashuvni marhum ustozimiz Saidjon Aliyev (Ilohim, ruhlari shod bo`lsin!) tashkil etganlar. Dostonda ham shunga ishoralar bor.

Oqshom horib qaytdi mehmonxonaga.
Ikki qiz va yigit kutardi uni.
Institut zalin tirband to`ldirgan,
Suyukli kuychiga ilhaq o`ltirgan
Sonsiz muxlislar-la she`rxonlikda
Jaranglab kechaga sho`ng`idi kuni.

Shunday qilib, Oybek mehmonxonaga horib qaytadi, yana xayol og`ushiga cho`madi. Bundan Zarifaxonimning ko`ngli ancha taskin topadi:

– Oybek ishlayapti! – dedi baxtiyor
Va aziz siymoga qildi ishora.
Qarayman: chindan ham ilhom dardi yor
Vujudi o`z qalbi sochgan ziyoda.

Zarafshon Buxoro vohasidan oqib o`tadi. Zarafshon sohillarini kezar ekan, ko`nglida yangi-yangi satrlar tug`ila boshlaydi. Ushbu ruhiy holatni Zulfiya quyidagicha ifoda etadi:

Shoir sohilda tik. Keng ko`ksin kerar
Tabiatdan yayrab ichadi havo,
Xayolin zabt etar munis sehrigar
Suvdan kelayotgan fusunkor sado.
Daryo o`z kuychisin to`lqin qo`yniga
Olib ketmoq bo`lib jo`shqin oqadi.
Kuychi maftun turar suv o`yiniga
Mag`rur aksi undan bizga boqadi.

Binobarin, tabiat go`zalliklari shoirga ilhom baxsh etadi.
Oybek bilan Zarifa Saidnosirova Buxoro amirligi tarixi bilan

tanishishda davom etar ekan, orqadan Zulfiya bilan ularning qizi Gulrang ham etib kelishadi. Zarafshon sohili xotiralarida Zulfiyaning ham nigohi sezilib turadi:

«Iching ! – deydi menga o`rnini berib, –
Har daryo suvining o`z bahrasi bor!»
Hozir ustoz turgan sohilda turib
Go`yo imtihondan o`tmog`im darkor.

Zulfiya Oybekni o`ziga ustoz deb bilgan. Shuning uchun shoira satrlari samimiy va ayni paytda hayotiy. Chunki shu paytda Zulfiya ham ular bilan birga Buxoroda bo`lgan. Demak, shoira Oybek sayohatiga guvoh. Shundan bo`lsa kerak Zulfiyaning Buxoroga bo`lgan mehr-muhabbati satrlar bag`rida sezilib turadi.

Buxoro safari o`z nihoyasiga etgach, ular navqiron va yangi shahar Navoiyga yo`l oladilar. Bu haqda Zarifa Saidnosirova yozadi: «Buxorodagi uchrashuvlarimiz tugagach, do`stlar bizni Navoiy shahriga olib bordilar. Bu ertaklardagiday ko`rkam shahar bizda katta taassurot qoldirdi». Dostonda ham shoira real voqelikdan chekinmagan. Navoiy shahri haqidagi eng yaxshi taassurotlarini dostonda ifoda etgan.

Cho`li Malik ko`ksin kesib tushgan yo`l
Ro`yoday bir yangi dunyoga chorlar.
Bugungi fikr, ijod , Mehnat nomli qo`l
Bo`lib naq kaftida ko`tarmish shahar.

«Ro`yoday yangi bir dunyo» yangi qurilgan Navoiy shahridir. Cho`l bag`rida qad ko`targan ertaklardagidek afsonaviy shahar sayyohlarni o`ziga maftun etadi. Mashaqqatli mehnat evaziga bunyod bo`lgan bu shahar g`oyatda ko`rkamligi bilan Oybek qalbiga yangi she`riy navolar olib kiradi. Shoir ko`ngliga bir narsa taskin beradi.

Qaytarkanmiz deydi o`zicha sekin
«Navoiy yuragi urib turibdi».

Ma`lumki, Oybek mutafakkir shoir haqida doston va roman yozib, Navoiyning betakror timsolini yaratdi. Navoiy nomli shahar xalqimizning o`z shoiriga bo`lgan yuksak ehtiromini namoyish etib turardi. Shu bois Oybek mehnatkash qo`llarga tasannolar o`qiydi.

Navoiy shahridan so`ng ularning yo`llari Qarshi tomonga tushadi. Bu haqda Z. Saidnosirova yozadi: «Qarshida Sharifa bilan Bekmurod bizni mamnuniyat ila qarshiladilar. Ikki-uch kun mehmon bo`lib, may bayrami arafasida Toshkentga qaytdik». Zulfiya tarixiy

haqiqatni mahorat bilan badiiyat sintezidan o`tkazgan.

Yo`l!

Bu tinim bilmas sayyoh Qarshini,
Tollimarjon GESin zarur ko`rmog`i.
Axir buyuk mardlik, mehnat-la dashtni
Hayotga olmoqda shonli avlodi...

Oybek tabiatan yangiliklarga juda o`ch edi. Shu bois xalqimizning bunyodkorlik ishlarini, cho`llardagi jasoratli mehnatni o`z ko`zi bilan ko`rishni juda-juda istardi. Shuning uchun xastaligiga qaramay Qarshi tomon oshiqdi. U yerda ham Oybek sharafiga juda katta ziyofat-bazm uyushtiriladi. Sakson dara degan joyda bo`lishadi.

Deydi:

–Yashash kerak daryoday uyg`oq.

Sakson dara! Yana sakson yil sevib,
Kezsam, bilsam ona yerni naq dehqon,
Keksalik va dardni bir yoqqa qo`yib,
To`yib-to`yib yozsam qolmasdi armon...

Binobarin, shoir qalbida armonlar , orzular bisyor edi.

Shoir Toshkent sari oshiqdi. Sababi, yurtda o`sha paytlar keng bayram qilinadigan 1-may yaqinlashayotgan edi.

Shoir xasta bo`lishiga qaramay sayohat davomida «na charchashni bildi, na darddan zorni». Biroq Buxoro, Navoiy, Qarshi xotiralirini qog`ozga-da to`liq tushirishga ulgurmasdi, so`ngsiz armonlari qalbining tubida qolib ketdi.

Zulfiya dostonida Oybek ruhiyatini rangin satrlarda ifoda etadi. Ma`lumki, adib xastalangandan so`ng qanchalik muolajalar qabul qilmasin, tili duduqlanib qoladi. Shoira ana shu tarixiy haqiqatni badiiyat sintezidan mohirlik bilan o`tkazadi.

Yiqildi yana bir cho`ng ulkan chinor,
Adab, ma`rifatning yorqin qasrida .
Hali G`afur G`ulom, Shayxzoda, Qahhor
Dog`ida dilimiz yig`lashda-ku zor
Nahot yetim qoldik yana o`lim qasrida?

Zarifa Saidnosirova bu haqda afsus, armonlarga to`la o`kinch bilan yozadi: «Bu (ya`ni Buxoro safari) Oybekning so`nggi safari, yor-do`stlari va kitobxonlaribilan so`nggi uchrashuvi edi». Haqiqatan, hali o`zbekning ulug` adiblari G`afur G`ulom, Maqsud Shayxzoda, Abdulla Qahhor firog`i dillarni o`rtayotgan edi. Biroq xalqning yana

bir «cho`ng chinori « quladi. Bu chinor Oybek edi. Shoira Zulfiya ana shu mungli daqiqalarni, armonlarga to`la qalblarning iztiroblarini g`oyatda ustalik bilan satrlar bag`riga singdiradi. Biroq bir narsa taskin bo`la oladi: hassos shoir, buyuk qalb egasi Oybekning umri yoniq misralarida, go`zal va jozibali nasriy asarlarida davom etadi.

Buyuk bu uyquni etarkan ardoq,
«Oybek ishlayapti» deydi nasllar.
O`z ko`rkini ko`rib tasvirlarida
«Oybek ishlayapti» deydi asrlar.

Umuman, shoira Zulfiya Oybekning go`zal poetik obrazini adabiyotimiz tarixida birinchilardan bo`lib yaratdi. Oybek doimo ijod bilan yashagan, xayol uning eng yaqin hamrohi bo`lgan. Shundan bo`lsa kerak, shoira asarini «Quyoshli qalam «deb nomlaydi. Zero, Oybekning qalami quyoshdek taftli, shu bois bu qalamdan to`kilgan misralar, she`riy tizmalar yoniq va haroratli. Shoira dostonida Oybek haqidagi tarixiy haqiqatdan samarali foydalanib, yana bir etuk siymoning poetik timsolini adabiyotimizga olib kirdi.

Zulfiyaning «Xotiram siniqlari» dostoni istiqloлга shukronalik ruhi bilan sug`orilgan bu dostonida Zulfiya o`tgan hayotiga nazar tashlar ekan, o`zi yashagan tuzum manzaralarini qalbi tubidagi o`kinchlar, armonlar vositasida tasvirleydi. U sobiq tuzumning qusurlarini, shu tuzum sharoitida yashab ijod etganda yo`l qo`ygan xatoliklarini mardona turib tan oladi. Shoiraning ijodiy jasorati shu bilan belgilanadi.

«Yangi hayot» debmiz o`sha kunlarni,
Betlab, benolish yashabmiz ko`p yil.

Bir o`ylab ko`rmabmiz bu yurt hokimin
Labi kulib, nechun rang-ro`yi zahil.

Bu fikrlar o`ziga xos iqrorнома, xatolardan ozurlangan qalb sadolaridir. Yashab o`tgan hayot yo`liga nazar tashlab, undagi qusurlarini tan olish insonning e`tiqodi yuksakligini va kuchli iroda sohibi ekanligini namoyon etadi. Shoira «yurt hokimining labi kulib, rang-ro`yi zahil bo`lganligi, o`zini toji yo`q podshoday sezishi» misolida mamlakatimizning rasman ozod, lekin amalda qaram bo`lgan yetmish yillik hayotiga ishora qiladi. Chunki bunday fikrlarni sobiq tuzum yillarida baralla aytishning iloji yo`q edi. Shuning uchun Zulfiya hurriyatga, yurtning mustaqil kunlariga shukrona qilar ekan, ko`z o`ngida beixtiyor o`tmish manzaralari jonlanadi. Ayniqsa, u shu

kunlarga intilgani uchun qatag`on qilingan akasini kuyinib yodga oladi:

Aka, jonim akam – jondoshim akam,
Oltmish yil izimga qaytib yig`layin,
Bo`g`zimda tosh bo`lgan yo`qlovlarimni
«Oh»larim eritar – aytib yig`layin.

Bu misralar orqali shoira akasiga o`xshagan millat farzandlariga qaynoq mehrini ifoda etayotir. Shuning uchun unda «aka» so`zi bir misraning o`zida uch marta takrorlantirilishi evaziga millat fidoyilari obrazi umumlashtirilgan. Asarda «yo`qlov» so`zi ham bekorga ishlatilmayapti. Chunki qatag`onga uchraganlarning qismati shu qadar ayanchli ediki, hatto ular uchun ovoz chiqarib yig`lash, aza ochish mumkin emas edi. Shuning uchun shoira oltmish yil ortga qaytib, bo`g`zida qotib qolgan «oh»larini eritib yig`laydi. Bu ohu nolalarda esa nafaqat bir lirik qahramon – shoiraning, balki butun boshli millatning ezg`in va qayg`uli tuyg`ulari yashiringandir.

Shoira o`sha davrdagi qamoqxonalarda haqida ham yozadi:

Onam qo`llarida mushtday tugunchak,
Tosh shaharni kezar avaxta izlab.

Avaxta nechadir, zor ona necha,
Nechalar yashardi zamoni «sizlab».

Bu satrlarda shoiraning onasi timsolida davr onalarining holati aks etgan. Onaning tugunchak bilan shahardagi qamoqxonalarda sargardon bo`lishi, o`g`lining qaysi avaxtaga tashlanganligini bilish uchun soatlab navbatda turishi singari tasvirlarda bu xususiyat bo`rtib ko`rinadi. Sokin jussali, dili vayron, «mo`ldir-mo`ldir ko`zlarida qotgan yoshlar» kabi tasvirlar davr onalarining farzanddan ayro tushgan holatini o`zida yorqin aks ettira oladi.

Ota, bir ko`rmadik ko`zingizda yosh.
Yashab umidlarning pok sajdasi

Hatto yovingizga otmadingiz tosh.
Va faqat dedingiz: «Soldim xudoga»,
Bu qirg`in doyasi xudosizlar-ku.

Bu satrlarda endi jigargo`shasi qatag`on qilinib xo`rlangan ota qiyofasi gavdalantirilmoqda. Shoira o`z otasiga xos mustahkam iroda, sabru qanoatni ifoda etar ekan, o`sha davr otalarining tipik qiyofasini chizadi va ular bu ijtimoiy ko`rgulik sabab chekkan ruhiy iztirobini erkaklik g`ururi tufayli onalar kabi oshkor etolmasdan, «Soldim

xudoga» deyish bilan o`z hukmini bildirganligini ochib beradi. Bunday hayotiy tasvirlarda, albatta, millatning ijtimoiy dardi qalamga olingan.

Badiiy ijodda iztirobli kechinmalarni, insoniy dardlarni xotiralar tarzida ifoda etish usuli butunlay yangi emas. V.M.Jirmunskiyning yozishicha, bu usulni qo`llash J.Bayron dostonlari («Parizina»)dan boshlangan. U keyingi yillarda o`zbek dostonchiligida ham urfga aylanib bormoqda. Zulfiya ham qalbida kechgan tug`yonlarni monologda ifoda etar ekan, bu usuldan samarali foydalanadi. Shu jihatlarni inobatga olib, adabiyotshunos N.Rahimjonov «Xotiram siniqlari» dostonining XX asr oxiri – XXI asr boshlari o`zbek dostonchiligi takomilida ayricha ahamiyat kasb etganini ta`kidlab, yozadi: «Gap asar mavzui milliy istiqloлга bag`ishlanganligida emas. Hamma gap hurriyat uyg`otgan milliy g`urur tuyg`ularini ta`kidlash asnosida inson ruhoniyyati iqlimlariga teran kirib borganligida, kechinmalar silsilasi asosida erkka intilib yozg`irgan ruhning suratini chiza olganligida ko`rinadi».

Umuman, hassos shoira Zulfiya she`r va dostonlari bilan yangi o`zbek adabiyotiga munosib hissa qo`shdi va o`z nomini adabiyotimiz sahifalarida muhrlay oldi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Zulfiya hayoti haqida nimalar bilasiz?
2. Zulfiyaning ilk she`ri qaysi va qayerda bosilgan?
3. Zulfiya va Hamid Olimjon munosabatlari xususida so`zlang.
4. Zulfiya she`riyati mavzulari qaysilar?
5. «Quyoshli qalam « dostoni kimga bag`ishlangan?
6. Doston kompozitsiyasi va obrazlar olami xususida so`zlang.
7. Zulfiyaning o`zbek dostonchiligida badiiy hodisa bo`lgan asari qaysi?
7. Zulfiya hukumatimiz tomonidan qanday taqdirlangan?

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Каримов И. Адабиётга эътибор – маънавиятга, келажакка эътибор. – Т.: Ўзбекистон, 2009.
2. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажакимизни мард ва олийжаноб халқимиз билан бирга кураимиз. – Т.: Ўзбекистон, 2017.
3. Алиев А. Истиқлол ва адабий мерос. – Т.: Ўзбекистон, 1997.

4. Каримов Н., Мамажонов С. ва бошқалар. XX аср ўзбек адабиёти тарихи. Дарслик. – Т.: Ўқитувчи, 1999.

5. Санжар Содик. Янги ўзбек адабиёти тарихи. Дарслик. –Т.: Университет, 2005.

6. Каримов Н. XX аср адабиёти манзаралари. –Т.: Ўзбекистон, 2008.

Zulfiya asarlari:

7. Зулфия.Тонг билан шом аро. Сайланма.– Тошкент: Шарқ, 2005.

Zulfiya haqidagi tadqiqotlar:

8. Олимжон А. Шоира Зулфия. Тарихий-биографик очерк. – Т.: Ўздавнашр, 1953.

9. Мусина Ф. Зулфиянинг ижодий йўли. – Т.: Ўздавнашр, 1961.

10. Султонова М. Шоира Зулфия. – Т.: Фан, 1962.

11. Қаюмов А. Зулфия. Адабий портрет. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1985.

12. Эҳтиром. Жамоа тўплам. – Т.: Ўзбекистон, 1995.

13. Қувватова Д. XX асрнинг иккинчи ярми ўзбек дostonчилигининг таракқиёт хусусиятлари. ДД. – Т., 2016.

MAVZU: ASQAD MUXTORNING HAYOTI VA IJODI



Reja:

- 1. Asqad Muxtor ijodining o`rganilishi.**
- 2. Hayoti va faoliyati.**
- 3. Asqad Muxtor she`riyati.**
- 4. "Tug`ilish", "Chinor" romanlari tahlili.**
- 5. "Buxoroning jinko`chalari» – biografik qissa.**

Tayanch tushunchalar: sotsialistik realizm, lirikada falsafiylik, zamonasozlik, biografik qissa, qissanavislik, "Buxoroning jinko`chalari", roman, syujet tizimi, obraz, «Opa-singillar", "Tug`ilish", "Davr mening taqdirimda", "Chinor".

Asqad Muxtor XX asr adabiyotining taniqli vakili. U o`zining falsafiy lirikasi, epik turdagi asarlari bilan adabiyotimizda ham shoir, ham nosir sifatida yorqin iz qoldirdi. Adib ijodi adabiyotshunoslik ilmida keng tadqiq qilingan. Adabiyotshunos O.Tog`aev adib ijodini maxsus o`rgangan va "Asqad Muxtor" nomli adabiy portret yaratgan. Shuningdek, T. Hamid, S.Mirvaliyev, O.Sharafiddinov kabi shoir va adabiyotshunoslar adib ijodi xususiyatlarini umumlashtirishga harakat qilganlar. Xususan, T.Hamidning "Qo`shiqlar qanotida" nomli tadqiqotida uning shoirlik mahorati, she`rlariga xos muhim fazilatlar haqida fikr yuritiladi. Istiqlol yillarida nashr etilgan "XX asr o`zbek adabiyoti tarixi" darsligida adib ijodi xususida yangicha fikrlar, talqinlar mavjud.

Asqad Muxtor 1920-yilda Farg`ona shahrida dunyoga kelgan. Uning otasi temiryo`lda, onasi to`qimachilik kombinatida ishlagan. Bo`lajak shoir 11 yoshga kirganda otasi olamdan ko`z yumadi. Bu vaqtda mamlakatda ocharchilik, oddiy xalq juda qiyinchilik bilan kun kechirardi. Asqadni bolalar uyiga beradilar. U shu yerda yashab, maktabni tamomlaydi. Asqad maktabda o`qib yurgan vaqtlarida she`r yoza boshlagan. Uning dastlabki she`rlari "Lenin uchquni" gazetasida bosilgan. Maktabni tugatgach, Toshkentga boradi va O`zbekiston xalq komissarlari kengashi qoshidagi jurnalistika kursida ta`lim oladi, ayni paytda "Yosh leninchi" gazetasi tahririyatida ishlaydi. 1938-yilda Asqad Muxtorning "Bizning avlod" nomli 1-she`riy asari "O`zbekiston adabiyoti va san`ati" jurnalida bosilgan. Asqad Muxtor o`qishni davom ettirish uchun 1938-yilda Samarqanddagi O`zbekiston Davlat dorilfununiga kiradi. Ammo urush to`satdan boshlangani uchun Samarqand dorilfununi Toshkentdagi O`rta Osiyo davlat dorilfununiga vaqtincha qo`shiladi. Asqad Muxtor o`qishni tugatgach, 3 yil davomida Andijon davlat pedagogika institutida o`zbek adabiyoti kafedrasini mudiri bo`lib ishlaydi. Urushdan keyin yana jurnalistika sohasiga qaytib "Yosh leninchi" va "Qizil O`zbekiston" gazetalari tahririyatida faoliyat ko`rsatadi. Asqad Muxtor tahririyat topshiriqlari taqozosi bilan respublikadagi korxonalarni, kolxoz va sovxozlarni, katta qurilishlarni kezi chiqadi. O`sha paytdagi eng

dongdor qurilish Bekobod metallurgiya zavodining qurilishi edi. Asqad Muxtorning ijoddagi ilk muvaffaqiyatlari shu qurilish bilan bog`liq. Avval "Po`lat shahri", "Istiqbol" kabi asarlar yuzaga keldi, 1947-yilda "Po`lat quyuvchi" dostoni nashr etildi. "Shu kichkina kitobchani Aleksandr Fadeev tilga olib, kelajagimga umid bildirgan edi. O`sha gapning tafti yuragimni hali ham isitib turadi" degan edi 1966-yilda A.Muxtor. Haqiqatan, taniqli adibning ushbu so`zi uni yangii-yangi asarlar yozishga ruhlantirdi. Deyarli har yili turfa kitoblari bosmadan chiqdi. Bular qatoriga "Hamshaharlar" (1949) "Rahmat, mehribonlarim" (1954), "99 miniatyura" (1962), "She`rlar" (1966), "Quyosh belanchagi" (1971), "Sizga aytar so`zim", "Sirli nido" kabi she`riy to`plamlarini kiritish mumkin.

Asqad Muxtor urushdan keyin proza sohasiga qo`l ura boshladi. Prozadagi birinchi asari "Daryolar tutashgan joyda" qissasi bo`ldi. 1955-yilda "Opa-singillar" romanini e`lon qildi. Bu roman adabiyotda katta voqea edi, bu to`g`rida maqolalar bosildi. Shundan so`ng Asqad Muxtorning "Qoraqalpoq qissasi" (1958), "Tug`ilish" (1960) "Davr mening taqdirimda" (1964), "Chinor" (1969), "Bo`ronlarda bordek halovat" (1976), "Buxoroning jinko`chalari" (1980), "Jar yoqasida chaqmoq" (1982), "Amu" (1984), "Kumush tola" (1987) singari qissa va romanlari maydonga keldi. Bundan tashqari, Asqad Muxtor "Mardlik cho`qqisi", "Samandar", "Yaxshilikka yaxshilik" kabi dramatik asarlar va ko`plab maqolalar muallifidir.

Asqad Muxtor tarjimachilikda ham o`z kuchini sinab ko`rdi. U A.Pushkin, M.Lermontov, A.Blok, V.Mayakovskiy, K.Simonov asarlarini, Sofoklning "Shoh Edip" tragediyasi, A.Isaakning "Al-Maarriy" asari, Shekspir va Shiller tragediyalarini o`zbek tiliga tarjima qildi. Asqad Muxtorning ham deyarli hamma asarlari o`nlab tillarga tarjima qilindi, shu jumladan, urdu, hind, xitoy, ingliz tillarida bosilib chiqdi. O`zbek adabiyotini shuhratini xalqaro miqyosga olib chiqishda Asqad Muxtorning xizmati beqiyosdir.

Shu xizmatlarini hisobga olib, Asqad Muxtorga "O`zbekiston xalq yozuvchisi" unvoni berildi.

Asqad Muxtor faqat adib va shoirgina emas, balki tashkilotchi sifatida adabiy jarayonlarni uyushtirgan. U ko`p yillar "Sharq yulduzi", "Guliston" jurnallariga va "O`zbekiston Adabiyoti va san`ati" haftaligiga muharrirlik qildi, bir necha marta O`zbekiston Yozuvchilar uyushmasida kotiblik qildi.

So`nggi yillarda jamoatchilik ishlaridan uzoqlashdi, ammo

ijoddan to`xtamadi, bir necha she`rlar e`lon qildi. 1994-yilda "Insonga quulluq qilurman" hikoyalar to`plamini chop etdi.

Atoqli adib Asqad Muxtor 1997-yilning aprelida hayotdan ko`z yumdi.

Asqad Muxtor adabiyotga shoir sifatida kirib keldi va qaysi janrda ijod qilmasin, baribir u shoir bo`lib qolaverdi. Asqad Muxtor ko`p yillar she`rni barkamolroq, yetuk qilish yo`llarini izlagan, uning obrazli zaminini mustahkamlashga intilgan.

Shoir bu to`g`rida shunday deydi: "O`ttiz yil davomida she`r haqida o`yladim, uning ifoda shakllari, vositalari, printsiplari, ruhi haqidagi fikrlar juda ko`p marta o`zgardi, she`r turmush o`chog`idan olingan laxcha cho`g`, hayotiy epizodga asoslangan, syujetli bo`lishi kerak deb, she`rning bo`lak turlarini tan olmay, ancha yil yurdim: she`r yalt etgan oniy tuyg`u, zavq-shavq tug`yoni, uni faqat muzika janrlari bilan qiyos qilish mumkin, degan ruhda ham ancha vaqt ishladim; she`r hayot falsafasining essentsiyasi, fikr, fikr, fikr! Fikrsiz poeziya yo`q deb anchagina biryoqlama ratsionalistik she`rlar yozdim...»

Darhaqiqat, Asqad Muxtor she`riyatning so`qmoqlarida ortiqcha hashamlarga, yaltiroq bezaklarga berildi. Chunki estetik talablar, mafkuraviy qoliplar ijodkorni chalg`itardi.

A.Muxtorning birinchi yirik she`riy asari "Po`lat quyuvchi" bo`lib, 1947-yilda e`lon qilingan. Bu doston Fadeevning ijobiy bahosiga sazovor bo`lgan. Dostonni ishchilar hayoti mavzusida yozilgani uchun ham o`sha davrda maqtaldi. Chunki u paytda ishchilarga atalgan asar yaratilmagan edi. Doston zamonaviy bo`lgani, teran g`oyaviylik mavzusida bo`lgani uchun ko`klarga ko`tarildi. "Po`lat quyuvchi" dostoni quruq maqtovga emas, tahlilga muhtoj, badiiyati juda zaif edi.

Bu asar ko`klarga ko`tarilgani uchun Asqad Muxtorning keyingi asarlarida ham sun`iylik ildizlari yaqqol ko`rinadi. Buni "Katta yo`lda" va "Mangulikka daxldor" dostonlarida ham kuzatish mumkin.

Asqad Muxtorning 40-50-yillarda yozgan she`rlari ham o`sha vaqtda ijobiy baholandi. Chunki bu she`rlar ham hukmron mafkuraga ma`qul tushgan edi. Asqad Muxtor ishchilar mavzusida yozadigan shoir deb e`lon qilindi. Tanqidchilar uning she`rlaridan dastgohlar ohangini topishdi. Shu uchun ham "Hamshaharlarim", "Tokar Ahmad muzokarasi", "Keksa master so`zi" she`rlari o`sha yillar she`riyatining yutug`i hisoblangan. Biroq bu she`rlar badiiy poetik nafosatdan yiroq

edi.

60-yillarga kelib, Asqad Muxtor baquvvat lirik she`rlar yarata boshladi. Bu lirikada insonning ma`naviy dunyosi, tabiati, kayfiyati namoyon bo`ladi. Inson shaxsi har tomonlama ochilgani uchun A. Muxtor lirikasida novatorlik yorqin ko`zga tashlanadi. Bu fazilatlar birinchi marta 1962-yilda nashr etilgan "99 miniatyura"da aks etgan. Keyinchalik shoirning badiiy mahorati "Quyosh belanchagi", "Sizga aytar so`zim", "Yillarim" kitoblarida o`z ifodasini topdi. Qisqasi, A.Muxtor she`rlarida falsafiy teranlik yuzaga keldi.

Shoir she`rlarida inson tabiatining sirlari haqida gapiradi:

Nima odam qilgan Odam Atomizni?
Birovlar der: olma. Birovlar bug`doy.
Har holda men ko`rsatmadim o`zni.
Ezgulikkagina oshiqday.

Asqad Muxtor she`riyat bilan birga nasrda ham ijod qilgan. Dastlab u hikoyalar yozgan. Shu tariqa 1951-yilda "Daryolar tutashgan joyda" qissasi paydo bo`ldi. 1955-yilda adib "Opa-singillar" romanini yozdi.

"Opa-singillar" romanidan so`ng Asqad Muxtor "Tug`ilish" (1961), "Davr mening taqdirimda" (1964), "Chinor" romanlarini yaratdi. Bu romanlar sotsialistik realizm talablariga rioya etilgan asarlar, ya`ni o`sha davr mafkurasi talablariga bo`ysunishga majbur bo`lgan. Shu sababli bu romanlar vaqt sinoviga bardosh berolmadi.

"Tug`ilish" romanida O`zbekistondagi qurilishlardan biri haqida hikoya qilinadi. Yozuvchining asl maqsadi qurilish jarayonida yangi avlodning tug`ilishini tasvirlashdir. Roman qahramonlari Luqmoncha, Juman, Sangin, Samadiy, Sadbar, Adolat, Xoldor, Kimsan, Bek, Pochchayev kabi yoshlar, Rahmonqulov, Elchibek Bo`riyev kabi qurilish rahbarlaridir. Qurilishga kelgan yoshlar har xil: ular orasida o`z hayotini xalqqa foyda keltirishga sarflovchi Luqmoncha, Juman, Sangin kabilar, rahbarlikdan boshqa narsani bilmaydigan Pochchayevlar, og`ir sharoitda yo`lini yo`qotgan Beklar bor.

Qurilish rahbari Rahmonqulov ishning ko`zini biladigan odam. U faqat davlat tomonidan berilgan topshiriqni bajarishni o`ylaydi. U rejani topshirishni haqida bosh qotiradi-yu, u rejani amalga oshirayotgan odamlar nazaridan chetga qoladi. Adib Rahmonqulov obrazida sobiq sotsialistik turmush tarzining xos jihatlardan biri - inson omiliga, jamiki moddiy boyliklarni yaratuvchi mehnatkash omma taqdiriga loqayd qarash illatlarini fosh etgan.

Asqad Muxtorning "Chinor" romani 70-yillardagi o`zbek adabiyotida katta voqea bo`lgan. Bu roman ham mafkura ta`sirida yozilgan bo`lsa-da, adibning izlanuvchanligidan, jasoratidan darak beradi. "Chinor" romani ba`zi nuqsonlarga qaramay, o`nlab tillarga tarjima qilindi. Bu roman 1973-yilda O`zbekiston respublikasining Hamza nomidagi Davlat mukofoti bilan taqdirlandi.

"Chinor"ning bosh g`oyasi hayotning o`tkinchiligini, xalqning manguligini, yaxshilik, oliyanoblik, ezgulikning abadiyligini ulug`lashdir.

Romanning bosh qahramoni – Ochil buva. Bu obraz ramziy mohiyatga ega. Uning timsolida o`zbek xalqining umumlashgan nuroniy siymosini ko`ramiz.

Asqad Muxtor "Chinor" romaniga "Rivoyatlar, hikoyatlar, qissalar" deb kichik sarlavha qo`ygan. Bu roman besh rivoyat, besh hikoyat, besh qissadan iborat. Ularning hammasi mustaqil. Har bir qissada alohida qahramonlar o`z taqdiri va xarakteriga ega. "Chinor" an`anaviy voqealar romani emas, balki mushohadalar va munozaralar xususidagi asardir. Janr xususiyatiga ko`ra "Chinor"ni falsafiy-lirik roman desa bo`ladi. Asar o`zbek xalqining sobiq sho`ro hokimiyati yillarida bosib o`tgan tarixiy yo`lini realistlik lavhalarda tasvirlashga bag`ishlangan.

80-yillarda mamlakatimizda yangi tarixiy sharoit yuzaga keldi. Shu davrda adib "Buxoroning jinko`challari" qissasini yaratdi.

Bu qissa atoqli davlat arbobi, O`zbekiston xalq komissarlari kengashining birinchi raisi Fayzulla Xo`jayevga bag`ishlangan.

Fayzulla Xo`jayev favqulodda shaxs. U Ubaydulloxoxo`ja QosimXo`jayev degan savdogar oilasida tug`ilgan. Hatto Ubaydulloxoxo`janing oltini tufayli Buxoro aqchasining mag`zi but – boshqa podsholiklar singari puch emas. Fayzulla 16 yoshdaligida otasi vafot etib, butun meros unga qoladi. Fayzulla bu pullarni amirlik tuzumiga qarshi ishlatadi; u yashirin tashkilotlarga kiradi, ixtiyoridagi pullarni ozodlik kurashlariga sarflaydi, isyonlar uyushtiradi.

Fayzulla najot yo`lini Buxoroning jinko`chalaridan izlaydi, lekin har gal to`g`ri yo`lni topdim deganda, bu yo`l sarob bo`lib chiqadi. Qissada Fayzullani haqiqat sari eltgan mushkul yo`llar mahorat bilan tasvirlangan. Adib F. Xo`jayev va uning atrofida birlashib, Buxoroning inqilob arafasidagi g`oyat murakkab, pinhoni oqimlarga boy, ziddiyatlarga to`la tarixiy manzarasini san`atkorona aks ettiradi.

Qissada Fayzullo Xo`jayevning keyingi hayoti qanday

kechganligi tasvirlanmagan. Lekin Buxoroning jinko`chalari uni haqiqatning katta yo`liga olib chiqishga ko`mak berganligi realistlik lavhalarda ifoda etilgan.

Qissadagi voqealar 1917-yildan oldin sodir bo`lgan. Tabiiy, hozirgi davr bilan u vaqtdagi Buxoro orasida juda katta farq, uzoq masofa mavjud. Asqad Muxtor davr ruhiyatini yorqin epizodlarda tasvirlay olgan. Ayniqsa, asarning tili ravon. Yozuvchi o`sha davrga xos so`zlash uslubini, iboralarni, atamalarni chuqur o`rganib, asarda o`rinli qo`llagan. Shuning uchun ham "Buxoroning jinko`chalari" qissasi tarixiy hodisalarga munosabatdagi davr bilan bog`liq ayrim qusurlariga qaramay, badiiy jihatdan ancha barkamol asardir.

Asqad Muxtorning «Dol Qoya» dostoni xalq ijodidagi «Qaytar dunyo» afsonasini stilizatsiya qilish asosida yaratilgan. Adabiyotshunos Sh.Hasanovning yozishicha, «shoirning lirik kechinmalari afsona jo`rligida zamondoshlari psixologiyasini ochishga qaratiladi, natijada afsonaning ichki mohiyatidan teran, salmoqdor mazmun chiqariladi». Darhaqiqat, ushbu dostonda ham insoniy qadriyatlar talqiniga bag`ishlangan afsona yordamida falsafiy mazmun kuchaytirilgan. Unda insonning keksayishi – tugun. Boboning Dol Qoyaga nevara tomonidan olib borilishi – kulminatsion nuqta va nevaraning boboni Dol Qoyadan uloqtirmasdan yashirib qo`yishi yechim hisoblanadi.

Asarning bosh qahramonlari nevara va bobodir. Unda hikoya qilinishicha, nevara keksa bobosini ajdodlar udumiga ko`ra, Dol Qoyadan uloqtirib, o`zi yana qabilasiga qaytishi kerak bo`ladi. Shuning uchun u ming mashaqqat bilan bobosini orqalab, yuqoriga tomon intiladi. Lekin shu damda uning fikri o`zgaradi:

– Bobo, qarang, osmon, xuddi shiysha!

Nahot, qiynamasa bu ranglar sizni?

Nahotki shularni ko`zingiz qiysa?

Yashashni hech istamaysizmi?

Tajohuli orif san`ati orqali ifodalangan bu misralarda nevara bobosini yashashga, hayotdan zavqlanishga chorlaydi. Bobo hayotda e`tiqodli inson bo`lganligi uchun ko`hna udumga qarshi borishni o`ziga isnod deb biladi, lekin nevara boboni odamlardan uzoqda asrashini, asrab-avaylashini aytib, uni ko`ndirishga erishadi.

Dostonda inson qadri yuksak ulug`lanadi va keksalar har doim ham millatning aql-zakovat chirog`i bo`lib kelganliklari bugungi kitobxonga axloqiy mazmunga ega bo`lgan afsona orqali

tushuntiriladi. Ayni paytda unda afsonaga xos xayoliy uydirma kuzatiladi:

Derlarki, quyunlar unda sarsari,
Tunlari sharpalar yurarmish.
Mog`oraning zim-ziyo qa`ri
Odamday shivirlar, dam oh urarmish.

Dol Qoyadagi mog`oraning odamday shivirlashi, oh urishi odatiy hol emas. Shu orqali shoir uning xalq tushunchasida shunchaki oddiy qoya emas, balki g`ayrioddiylik kasb etgan makon ekanligiga urg`u beradi. Ayni choqda bu yerda inson o`z ajali bilan dunyodan o`tishi lozimligi, uni qoyadan tashlash xalqimizning islom tarbiyasini olgandan keyingi fe`liga zidligi ifoda etilgan.

Asarning yana bir muhim jihati shuki, shoir dastlab bosh qahramonga nom bermaydi. Eski udumni buzib, bobosining hayotini saqlab qolgan nevara yillar o`tib el-yurt koriga yaraydigan farzand bo`lib yetishgandan so`ng unga Roston deb ism qo`yadi.

Shoir ezgulik va yovuzlik kurashini jonli aks ettirish maqsadida Rostonga qarshi bo`lgan tantiq shahzoda obrazini olib kirgan. Asardagi voqealar shu joyda o`z cho`qqisiga erishadi. Chunki Roston shahzodaning kim tong nurini menga ko`rsatsa, uning istagini amalga oshiraman, degan mantiqsiz shartini bajaradi. Shahzoda Rostonning chag`al urug`ini qiz solig`idan ozod qilish haqidagi istagini noiloj qabul qiladi. Sababi, xalqqa nisbatan uning qalbida yovuzlik hukmron edi. Shu bois shahzoda chag`al urug`iga tegishli don-dun, g`aram, omborlarni yoqib yuboradi. Yurtda boshlangan ochlikdan xalqni yana Roston qutqaradi. Natijada shahzodaning chag`al xalqini qulga aylantirishdan iborat xudbinona istagi amalga oshmaydi. Shoir erk hamma davrlarda xalqning azaliy orzusi bo`lib kelganligini, ezgulik kuchlari hamisha g`olib bo`lishini yuqoridagi lavhalar orqali kitobxonga yetkazadi. Bu voqeaning yana bir ibratli jihati shundaki, xalq Rostonga o`z xaloskori sifatida qaraydi va nogahon dunyodan o`tgan yurt oqsoqolining o`rnida yosh Rostonni boshliq etib saylamoqchi bo`ladi. Shundagina u bu martabaga munosib emasligini, azaliy udumga qarshi borib, bobosini Dol Qoyadan tashlab yubormaganini, amalga oshirgan ezgu amallari ortida donishmand bobosi turganligini aytadi. Demak, shoir donishmand bobo obraziga shu jihatdan alohida mazmun yuklaydi.

E`tibor berilsa, doston syujeti afsonaviy voqealarga yo`g`rilganligi bilan nihoyatda ta`sirchanlik kasb etmoqda. Unda

garchi bobo qismati obrazlantirilayotgan esa-da, aslida tub mag`zida ko`p asrlik tarixga ega ulug` xalq taqdiri, ruhiy erkinligi masalasi yotadi. Buni baralla aytish mushkul bo`lgan o`tgan asrning 80-yillarida shoirga afsona vosita bo`lib xizmat qildi.

Doston mazmunidan Dol Qoya misolida ko`hna udumlar insonning zavoliga emas, kamoliga xizmat qilishi kerak, degan hayotiy xulosa kelib chiqadi. Umuman, Asqad Muxtorning «Dol Qoya» dostonida ko`hna afsona mazmuni davr voqealari bilan bog`lab qayta talqin qilingan. Unda afsona mazmuni deyarli o`zgarishsiz, ammo uning shakli batamom o`zgartirilib, stilizatsion fol`klorizm yuzaga keltirilgan. Doston chuqur falsafiy-ijtimoiy mazmunga yo`g`rilganligi bilan e`tiborni tortadi va 80-yillar o`zbek adabiyotida dostonning o`ziga xos ko`rinishi sifatida o`rin tutadi.

Asqad Muxtor o`zbek she`riyatiga falsafiy ruh olib kirdi, o`zbek prozasini realistlik roman va qissalar bilan boyitdi. Shu ma`noda iste`dodli adib o`z nomini adabiyotimiz sahifalarida yorqin iz qoldirdi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. A.Muxtorning hayot yo`li xususida so`zlang.
2. A.Muxtor adabiyot maydoniga qachon kirib keldi?
3. A.Muxtor qanday ijtimoiy vazifalarda ishladi?
4. Adib ijodi va sotsialistik realizm metodi xususida nima deya olasiz?
5. Shoir lirikasining xarakterli xususiyatlari nimalardan iborat?
6. "Opa-singillar" romani zamonasozlik xususida nima deya olasiz?
7. Adib ijodida voqea bo`lgan asar qaysi edi?
8. "Chinor" kompozitsiyasi, syujeti, obrazlar tizimi haqida nima deya olasiz?
9. Adibning qissanavislik mahorati qaysi asarlarda namoyon bo`lgan?
10. Nima uchun yozuvchi asarini "Buxoroning jin ko`chalari" deya nomladi?

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Каримов И. Адабиётга эътибор – маънавиятга, келажакка эътибор. – Т.: Ўзбекистон, 2009.
2. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажакимизни мард ва олийжаноб халқимиз билан бирга қурамиз. – Т.: Ўзбекистон, 2017.
3. Алиев А. Истиклол ва адабий мерос. – Т.: Ўзбекистон, 1997.

4. Каримов Н., Мамажонов С. ва бошқалар. XX аср ўзбек адабиёти тарихи. Дарслик. – Т.: Ўқитувчи, 1999.

5. Санжар Содик. Янги ўзбек адабиёти тарихи. Дарслик. –Т.: Университет, 2005.

6. Каримов Н. XX аср адабиёти манзаралари. –Т.: Ўзбекистон, 2008.

Asqad Muxtor asarlari:

7. Асқад Мухтор. Асарлар. Тўрт томлик. Т., Ғ.Ғулом номидаги нашриёт, 1980-1983.

8. Мухтор А. Дол қоя // Шарқ юлдузи. –Т., 1986.- №6. –Б. 13-26.

Asqad Muxtorga bag`ishlangan tadqiqotlar:

9. Султонова М, Владимирова Н.В. Қаҳрамоннинг шаклланиши. –Т.: Фан, 1965.

10. Сайимов Б. Асқад Мухтор прозаси. –Т.: Фан, 1969.

11. Тоғаев О. Асқад Мухтор. Адабий портрет. –Т.: Ўзбекадабий нашр, 1975.

12. Ҳамид Т. Қўшиқлар қанотида (Асқад Мухтор шеърляти). – Т.: 1975.

13. Мирвалиев С. Роман ва замон. – Т.: Фан, 1983.

14. Шарафиддинов О. Ижоднинг катта йўлида. Китобда: Биринчи мўъжиза. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1983.

15. Асқад Мухтор замондошлари хотирасида. – Т.: Маънавият, 2003.

16. Қувватова Д. XX асрнинг иккинчи ярми ўзбек достончилигининг тараққиёт хусусиятлари. ДД. – Т., 2016.

Internet saytlari:

17. www.alishernavoiy.uz

18. www.ziyo-net.uz

19. www.literature.uz

20. www.kutubxona.uz.

MAVZU: ODIL YOQUBOVNING HAYOTI VA IJODI



Reja :

- 1. Adib ijodining o`rganilishi.*
- 2. Odil Yoqubov – taniqli adib va jamoat arbobi*
- 3. «Muqaddas» – yozuvchini elga tanitgan asar.*
- 4. Qissadan romanga. Yozuvchining zamonaviy romanlari.*
- 5. «Ulug`bek xazinasi»da ulug` alloma fojiasining aks etishi.*

Tayanch tushunchalar: O.Yoqubov va shaxsga sig`inish, «Muqaddas» qissasi, zamonaviy ruh, «Ulug`bek xazinasi», tarixiy roman, «Oqqushlar, oppoq qushlar», zamonaviy roman, tarixiy obraz, publitsistika.

Odil Yoqubov 60-yillarda adabiyot maydoniga kirib keldi. U XX asr o`zbek adabiyotida nasr taraqqiyotiga munosib ulush qo`shdi va shu bois yirik nosirlar qatoridan o`rin oldi. Yozuvchi ijodi adabiyotshunosligimizda keng tadqiq qilingan S.Mirvaliyev, U.Normatov, M.Qo`shjonov, N.Xudoyberganov, I.G`afurov singari yetuk adabiyotshunoslar tomonidan tadqiq etilgan. S.Mirvaliyev o`zining «Roman va zamon» nomli tadqiqotida yozuvchi romanlari xususida to`xtaladi. M.Qo`shjonov esa yozuvchining epik turga mansub asarlarini tahlil qiladi.

Odil Yoqubov 1927-yil Turkiston shahri yaqinidagi Qarnoq qishlog`ida dunyoga kelgan. Bu ko`rkam qishloq yozuvchining ijodiy izlanishda chuqur iz qoldirdi. Uning otasi Egamberdi Yoqubov 1916-yilda mardikorlikka olinib, Belorussiya o`rmonlarida daraxt kesib, rus

tilini o`rganib, qishloqqa bolshevik bo`lib qaytadi. Shu zaylda, zamon ota bilan o`g`ilni bir-biriga zid qiladi: ota Yoqub shayx – taqvodor – ruhoni, o`g`il – Egamberdi esa jangovor bolshevik. U yurtda sho`ro hokimiyatini barpo qilish yo`lida faol kurash olib boradi, keyin Toshkentda SAKU(Sredne Aziatskiy Kommunisticheskiy universitet) da o`qib, yana Chimkentga qaytib, turli mas`ul lavozimlarda ishlaydi. Ota farzandlari tarbiyasiga alohida e`tibor beradi. Bu xonadonda «Ming bir kecha», «O`tgan kunlar» kabi asarlar har kecha mutolaa qilinardi.

Otasi Odiljonni rus maktabida o`qitadi, u bolaligidanoq rus tilini puxta egallashga kirishadi, keyinchalik ona tilida o`qishni davom ettirgan. Bilimdon adabiyot o`qituvchilari ham unga buni singdirgan, 1937-yilda O.Yoqubovning otasi shaxsga sig`inish qurboni bo`ldi. Birgina uzatilgan qizdan boshqa 4 nafar bola bir beva ayol qo`lida qoladi. Johil kishilar «xalq dushmani»ning bevasi va farzandlarini tahqirleydilar, ammo olijanob kishilar ham qarab o`tirmasdan ularga yordam qo`lini cho`zdilar. 1941-yil II Jahon urushi boshlanib, unga qo`liga qurol ushlab biladigan barcha kishilar urushga ketdilar, qishloqdagi og`ir ishlar esa yosh o`spirinlar qo`liga o`tdi. «O`qishni tashlab qo`lga ketmon olishga to`g`ri keldi, – deb yozadi adib. «Hayot saboqlari va ijod mashaqqatlari» maqolasida, – ko`klamda dalaga chiqib yer haydardik va yerlarni sug`orardik, «eshak karvon» larda front uchun g`alla tashirdik. Bu ham yetmagandek, urush cho`zilib mash`um qoraxatlar kela boshlaganida, ayollarning, yosh-yosh kelinchaklarning osmon-falakni titratuvchi faryodlarni eshitib, qon qaqqashdik, ular chekkan iztiroblarning guvohi bo`lardik».

Urushning oxirgi yili Qarnoqdan bir yo`la 40 ta yigit frontga jo`naydigan bo`ldi. Odil ham safdoshlari qatori xizmat safariga jo`nadi. Gobi sahrosi va Xingan tog`laridan yayov o`tib Kvantun armiyasini tor-mor etishda qatnashdi, so`ng besh yilcha Port-Artur yaqinidagi Chan-Chjou shahrida xizmat qildi. Nihoyat, 1950-yil xizmatni tugatib o`z ona vataniga qaytadi.

Toshkent davlat universitetini filologiya fakultetida o`qidi, salkam 10 yil «Literaturnaya gazeta»ning O`zbekiston bo`yicha muxbiri, kinostudiyada, G`afur G`ulom nomidagi nashriyotda muharrir, «O`zbekiston adabiyoti va san`ati» gazetasida bosh muharrir bo`lib ishladi.

Adib biografiyasiga, hayot tajribasiga oid bu faktlar asarlariga

real zamin bo`lib xizmat qildi, bolalik taassurotlari, hayotda ko`rgan-kechirgan, ko`nglida chuqur iz qoldirgan voqea-hodisalar «Er boshiga ish tushsa», «Diyonat», «Oqqushlar, oppoq qushlar», «Izlayman», «Adolat manzili» kabi asarlarda o`z ifodasini topgan. Qissa va romanlaridagi hatto o`tmishga borib taqaladigan «Ulug`bek xazinasi»dagi voqealarning bir uchi ham o`zi tug`ilgan qishloqqa borib taqaladi.

O.Yoqubov badiiy ijodini harbiy xizmatda yurgan paytlarida boshlagan edi. Uning birinchi asari «Tengdoshlar»dir. Bundan tashqari u ko`pgina hikoyalar ham yozgan. U bu asarini «o`zbekcha mufaqqiyatsiz variant» deb ataydi. Asar Hamza nomidagi teatr sahnalarida ham bir necha bor qo`yilgan.

O.Yoqubovni yozuvchi sifatida elga tanitgan asar 1961-yilda e`lon qilingan «Muqaddas» qissasi bo`ldi. «Tengdoshlar»dan «Muqaddas» qissasiga qadar o`tgan o`n yillik davr go`yo yozuvchi uchun ijodda betinim izlanish, kitobiylik ta`sirini yengib o`tish yillari bo`ldi.

Muallif «Muqaddas» qissasida hayotning o`zidan olgan zavqini, o`z yurak dardini, hayajonlarini izhor etdi. Qissada ikki yoshning ilk mustaqil hayot qadamlari, quvonch va tashvishlari judayam oddiy til bilan qalamga olingan, eng muhimi shundaki, yozuvchi bildirmoqchi bo`lgan fikr kitobxon ko`nglini larzaga solarli darajada go`zal bir poetik shaklni topa olgan. Qissa qahramoni Sharifjon muayyan bir vaziyatda o`z irodasiga, e`tiqodiga xilof ravishda xudbinlik ko`chasiga kiradi, o`zgalar manfaatiga zid bu xatti-harakat qahramonning o`zi uchun noxushlik olib keladi, eng aziz kishisi-sevgilisidan judo bo`ladi. Sharifjonning qing`ir yo`llar bilan sevgilisi Muqaddas o`rniga o`qishga kirib qolishi tasodif, ammo shu tasodif zamirida yozuvchi hayotning muayyan haqiqati, ziddiyati, falsafasini ko`radi, ya`ni hayotda ko`pchilik manfaatiga zid xatti-harakati, avvalo, o`sha odamning shaxsiy manfaatiga ham zid tushishini juda nozik va ta`sirchan ifodalaydi.

«Muqaddas» yozuvchining bosh estetik axloqiy printsiplarini shakllantiruvchi asar sifatida ham juda qimmatlidir. «Muqaddas» faqat qissa qahramoni nomi bilan bog`liq bo`libgina qolmay, yozuvchi asarda zo`r ehtirom bilan ilgari surgan insondagi eng aziz, muqaddas tuyg`ular – vijdon, burch, diyonat, imon-e`tiqod, adolat g`oyasini ham o`zida ifodalaydi. «Muqaddas»dan «Diyonat», «Oqqushlar, oppoq

qushlar» va «Adolat manzili» ga qadar adibning e`tiboriga sazovor barcha asarlari xuddi shu muammo bilan ifodalanadi. Qisqa qilib aytganda, diyonat, imon-e`tiqod, ijtimoiy adolat yozuvchi ijodining bosh ma`naviy muammosi, uning asosiy estetik prinsipi esa haqiqatni aytish, hayotni murakkabligi bilan ko`rsatishdir.

1963-yilda yaratgan «Bir fel`eton qissasi»da jurnalist Uchqunjon yaxshi surishtirmay, shoshma-shosharlik bilan bir vaqtlar mehnatda dong taratgan keyinchalik esa yengil hayotga o`rgangan ayol haqida fel`eton yozgan. Keyin Uchqunjon katta xato qilganini bilib, vijdon azobiga tushadi, asli bu qalbi toza yigit endi xatosini tuzatish uchun kurashga otlanadi. Yozuvchi dongdor ayol saltanatini halokat yoqasiga olib kelgan omillarni aniqlaydi. Ma`lum bo`ladiki, saltanatni hissizlik, adolatsizlik shu ko`yga soladi, brigadir Mo`min akaning sovuqqonligi, eri Qulahmadning loqaydligi tufayli hayotdan, mehnatdan ko`ngli qoladi.

1968-yilda yozilgan «Qanot juft bo`ladi» qissasi yozuvchi ijoditakomilida muhim o`rin tutadi. Qissa personajlari Akram, Sayyora, Shavkat, Nilufar, Sodiq – barchasi orqali odatdagidek iymon, e`tiqod, diyonat tahlil etiladi. Shu bahonada yozuvchi bir emas, bir necha ijtimoiy-ma`naviy, axloqiy muammolarni ko`taradi.

Odil Yoqubov «Muqaddas»dan boshlab deyarli har bir asarida biror muhim masalani ko`tarish bilan barobar, qalamga olingan mojarolarning hayotiy ildizini, sabablarini yechishga intiladi. Boshqacha aytganda, analitik tasvirga moyillik adib ijodida yetuk realizmga xos fazilatning rivojlanishiga olib keldi - uning qahramonlari murakkab tabiatli shaxslarga aylana boshladi.

Yozuvchi qissalarida shakllangan badiiy fazilatlar, realistik printsiplar uning romanlarida, xususan, «Diyonat», «Ulug`bek xazinasi» kabi asarlarida yanada yorqin ko`zga tashlanadi. «Qanot juft bo`ladi» qissasidan oldin yozuvchi «Er boshiga ish tushsa» romanini e`lon qilgan. Bu asar yozuvchining o`z boshiga tushgan voqea - hodisalar, bolaligidagi taassurotlari asosida bitilgan. Asarning bosh qahramonlari uch bahodir – Mashrab, Qo`chqor va Akmallardir. Urush yillarida ular fuqaro sifatida shakllanadilar, jamoat ishlarida faol qatnashadilar, yozuvchi yosh qahramonlarining musaffo qalbini, pok sevgisini mehnatdagi shijoatini Ertojev, Chavandoz orqali qalloblarga nisbatan nafratini ehtiros bilan ifodalaydi. Odil Yoqubovning 70-80-yillarda yaratgan zamondoshlari haqidagi

«Diyonat», «Oqqushlar, oppoq qushlar», «Adolat manzili», tarixiy mavzudagi «Ulug`bek xazinasi» va «Ko`hna dunyo» asarlari faqatgina adib ijodida emas, balki o`zbek romanchiligi rivojida ham yangi bosqichdir.

Yozuvchi xoh zamondoshlari, xoh olis o`tmish haqida qalam tebratar ekan, avvalo, davrning muhim romanbop gaplarini aytadi, ko`pchilikni hayajonga solgan ijtimoiy muammolar haqida fikr yuritadigan qahramonlarni yaratadi. Eng muhimi, romannavis ayni mustabid tuzum mafkurasi va psixologiyasini oshkor qiladi. Adib roman ustida ishlar ekan, hayotda ko`p uchratgan, dilida tuggan - turmushda «katta ishlar qildim» deb ko`krak kergan, qonunni oyoq osti qiladigan xo`jalik rahbari obrazini yaratish, uning parvozi va inqirozini ko`rsatishni o`z oldiga maqsad qilib qo`yadi.

Ma`lumki, o`zbek adabiyotida 50-60-yillari ham turli xildagi rahbar xodimlar obrazlari ko`p yaratilgan edi. Otaqo`zi shunday hayot kishisi sifatida kuchli va ojiz tomonlari bilan ifodalangan. Uni biz har jihatdan 70-yillarning tipik rahbar xodimi deya olamiz. Unda ishchanlik bilan barobar savod, bilim, did, madaniyat ham yetarli. Erta-yu kech el-yurt ishi bilan band bu odam oilasini, farzandlarini o`ylamaydi. Ammo bora-bora u o`jar, toshbag`ir odamga aylanadi.

Asar asosidagi yetakchi g`oya diyonat-e`tiqodning o`ziga xos timsoli, ayni paytda, kurashlarda toblangan adolat, insof, diyonat tuyg`usi qon-qoniga singib ketgan oddiy odam Normurod domla obraziga xos yetakchi xislatlarning hayotbaxsh ta`siri, qudrati ana shunda.

Yozuvchining «Oqqushlar, oppoq qushlar» asari g`oyaviy muammolar jihatidan «Diyonat» romanining davomidek tuyuladi. Agar «Diyonat»da o`zboshimchalik, ko`zbo`yamachilik keng yoyilgan davr tasvirlangan bo`lsa, bu romanda o`lkamizda xuddi o`sha illatlarga qarshi boshlangan ayovsiz janglar, 80-yillar o`rtalaridagi shiddatli kurashlar qalamga olinadi. Roman markazida esa Shorahim shovvoz obrazi turadi.

Romandagi shovvoz siymosida mehnatkash xalq asl bobo - dehqon, bog`bon xarakteriga xos fazilatlar namoyon bo`ladi. Shovvozning butun umri mehnatda o`tgan, el-yurt ichida o`zini shaxsiy hayotini, huzur-halovatini unutgan, hatto sevgan kishisi ko`nglini ham ololmagan, sog`ligi haqida qayg`urmagan. U bu narsalarni kech tushunib yetgan edi. Ammo unga hayot boshqatdan

ato etilganda ham o`zgarmagan bo`lardi. Chunki u faqat mehnat qilish uchun yaratilgan edi.

«Oq qushlar, oppoq qushlar» hozirjavoblik bilan yozilgan, hali tugallanmagan hayotiy jarayonlar haqidagi roman bo`lganidan unda ko`tarilgan ijtimoiy-ma`naviy muammolarning hammasi badiiy yechimini topmay qolgandek, adib ayrim chigal, keskin mojaro, ziddiyatlar yechimini berishda bir oz shoshilgandek ko`rinadi.

Odil Yoqubov 1988-1991-yillar davomida «Adolat manzili» romani ustida ishladi. Asar 1994 yili «Sharq yulduzi» jurnalida bosildi. O`sha yili turk tiliga tarjima qilinib, alohida kitob holda chiqdi. «Adolat manzili» qalamga olingan mavzu – muammolari jihatidan «Diyonat» va «Oqqushlar, oppoq qushlar» romanlarining mantiqiy davomi. «Diyonat»dan boshlangan «Oqqushlar»da davom ettirilgan ma`naviy-ijtimoiy jarayonlar, muammolar badiiy tahlilning o`ziga xos in`ikosi deyish mumkin. Bu uch roman har biri mustaqil bo`lsa-da, o`ziga xos trilogiya sifatida davrning halokatga yuz tutishini ochib beradi.

«Adolat manzili» romanining voqeasi oddiy – unda «o`zbek ishi» deb yatalgan ko`ngilsiz hodisaning ayanchli ko`rinishi hikoya qilinadi. Yaqindagina sovxoz direktori bo`lgan halol yigit «pora bergan»likda ayblanib qamaladi va qamoqxonada bunga chidolmay o`zini-o`zi o`ldiradi. Asardagi barcha gap-so`zlar, voqealar bosh qahramon Suyun burgut obrazida ko`rsatiladi. Yozuvchi bu hodisaga munosabat bildirish uchun bir talay personajlarning ma`naviy qiyofasini gavdalantiradi.

Tajribali adib Suyun burgut obrazidagi xalq dostonlari qahramonlari shijoatini eslatuvchi favqulodda xislatlarni izchil realistik asosda ruhiy jihatlan tahlil etadi.

Odil Yoqubovning avvalgi romanlarida sho`ro odami bo`la turib, inqilob, sho`ro hokimiyatiga sodiq qolgan holda haloligi, adolatparvarligi, diyonati bilan davriga sig`magan, nobop muhit zarbalariga tez-tez duch kelganda ham e`tiqodidan qaytmagan nuroniy qariyalar obrazi yaratilgan. «Diyonat»dagi Normurod domla, «Oqqushlar, oppoq qushlar»dagi Shorahim shovvoz shular jumlasidandir. «Adolat manzili»dagi veteran o`sha personajlarni eslatadi.

Yozuvchiga katta shuhrat keltirgan asar «Ulug`bek xazinasini» romanidir. Atoqli adib Chingiz Aytmatov «Ulug`bek xazinasini» haqida

shunday deydi: «Yaxshi kitob haqida gapirish maroqli. Bu yuksak va oliyjanob proza namunasi badiiy quvvati jihatdan salmoqdor, bu tarixiy roman meni larzaga soldi... Bu esa yaxshi asarning birinchi alomati. Bundan ham muhimi shundaki, romanni o`qirkanman, ko`nglimda turkiy xalqlarimiz tarixi uchun iftixor tuyg`usi jo`sh urdi.

Ulug`bek shunday dahoki, u bizning asrlar osha tariximizga, zaminda turgan mavqemizga guvoh. Ulug`bek – bizning dildagi ohimiz, hasratimiz. U buyuk insonning tajribalar haqida, dunyo haqida yuksak mezonlarda turib mulohaza yuritish, hukm – saboqlar chiqarish uchun asos beradigan shaxs...

Ulug`bek men uchun o`rta asrning atoqli olimi bo`lgani uchun emas, balki xalqlarimiz tarixidagi eng murakkab, og`ir fojiani boshidan kechirgan alloma bo`lgani uchun ham ulug`dir». Ulug`bek haqida Maqsud Shayxzoda tragediya yaratgan. Ulug`bekdan so`z ochgan kishi bu tragediyani chetlab o`tolmaydi. Odil Yoqubov ham Maqsud Shayxzodaning tajribalarini puxta o`rgangan, shuning uchun ham roman bilan tragediya o`rtasida bir muncha o`xshashliklar mavjud.

Masalan, roman ham xuddi tragediya kabi Ulug`bek hayotining so`nggi davrini asos qilib olgan, tragediyadagi ko`pgina faktlar romanda ham bor, u erda tilga olingan tarixiy shaxslar romanda ham uchraydi. Ammo «Ulug`bek xazinasini» romanidagi faktlar, tarixiy shaxslarning talqini, g`oyaviy-badiiy yo`nalishi bilan «Mirzo Ulug`bek» tragediyasidan keskin farq qiladi.

Mirzo Ulug`bek taxtdan tushayapti, shu og`ir fojiali daqiqalarda u ko`p parsalar haqida o`ylaydi. Avvalo, u shoh temuriyzoda bo`lsa-da, hokimiyatni saqlab qolishi zarur, ammo u johil raqiblar qo`lida, o`g`li esa ular qo`lida qo`g`irchoq, toj-taxt deb o`z otasiga bosh ko`targan. Bu hol ulug` allomani larzaga soladi. Ulug`bekda insoniylik g`ururi kuchli. O`g`liga qarshi jangga chiqishga or-nomusi yo`l qo`ymaydi. Mirzo Ulug`bek tanti inson, agar taxtga munosib merosxo`r topilsa, u yaxshilikcha shohlikni topshirishga tayyor. Abdulatif – riyokor, Abdulaziz – kaltabin, majruh, ota toj-taxtini ularga topshirolmaydi. Ulug`bekni Movorounnahrda 40 yil rahnamolik qilib to`plagan, asosiy boyligi – qurdirgan madrasalariyu, yaratgan asarlari – hammasi nobud bo`lishidan qo`rqadi.

Ulug`bek taxtdan tushgach, Abdulatif hokimiyat tepasiga keladi, atrofida riyokor shayxlarni yig`adi, ma`rifat ahlining, oddiy xalqning

boshiga qora kunlar soladi.

«Ulug`bek xazinasi» romanining ta`sir maromi ko`pgina tarixiy asarlarga o`xshamasdan, xiyla shiddatli. Roman kompozitsion jihatdan juda puxta, voqealar xarakterlar izchil, bir-biri bilan mantiqan bog`langan.

Tarixiy romanning vazifasi faqat tarixiy haqiqatni aniq gavdalantirish emas, balki o`tmish saboqlarini yodga olish hamdir. «Ulug`bek xazinasi» ham o`tmish haqida achchiq haqiqatdan hozirgi avlodlarga ibrat bo`lishga saboq bo`ladigan asardir. «Ulug`bek xazinasi» romani 1970-73-yillarda yozilgan, 1974-yili alohida kitob holida nashrdan chiqqan. Shundan beri asar qayta-qayta chop etildi, jahondagi ko`pgina tillarga tarjima qilindi.

Umuman, O.Yoqubov yirik nosir sifatida XX asr adabiyoti sahifalarini boyitdi. U yaratgan va yaratayotgan nasriy asarlar-qissa va romanlar istiqlol mafkurasiga xizmat qiladi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. O.Yoqubov ijodi haqida yaratilgan qaysi tadqiqotlarni bilasiz?
2. O.Yoqubovning bolalik yillari haqida so`zlang?
3. O.Yoqubov qismatidagi fojiaiviylik nimalarda ko`rinadi?
4. O.Yoqubovning dastlabki nasriy asari qanday nomlanadi?
5. O.Yoqubovning qissalaridagi mavzular qaysilar?
6. Turg`unlik illatlari fosh etilgan qanday asarlarni bilasiz?
7. «Ulug`bek xazinasi» romanidagi tarixiy shaxslar obrazi haqida so`zlang.
8. Ulug`bek xarakteridagi muhim xususiyatlar nimalardan iborat?
9. Romandagi Ulug`bekka muxolif kuchlar obrazi haqida nima deya olasiz?
10. «Oqqushlar, oppoq qushlar» romanida qaysi davr manzaralari aks etgan?
11. «Adolat manzili» romanidagi Suyun burgut obrazida qanday g`oya ifodalangan?

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Каримов И. Адабиётга эътибор – маънавиятга, келажакка эътибор. – Т.: Ўзбекистон, 2009.
2. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажакимизни мард ва олийжаноб халқимиз билан бирга қураимиз. – Т.: Ўзбекистон, 2017.

3. Алиев А. Истиклол ва адабий мерос. – Т.: Ўзбекистон, 1997.

4. Каримов Н., Мамажонов С. ва бошқалар. XX аср ўзбек адабиёти тарихи. Дарслик. – Т.: Ўқитувчи, 1999.

5. Санжар Содик. Янги ўзбек адабиёти тарихи. Дарслик. –Т.: Университет, 2005.

6. Каримов Н. XX аср адабиёти манзаралари. –Т.: Ўзбекистон, 2008.

Odil Yoqubov asarlari:

7. Одил Ёқубов. Диёнат. – Т.: Ғ. Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1978.

8. Одил Ёқубов Сайланма. Уч томлик. –Т.: Ғ. Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1985-1987.

9. Одил Ёқубов Оққушлар, оппоқ қушлар... –Т.: Ғ. Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1988.

10. Одил Ёқубов Адолат манзили. –Т.: Шарқ, 2005.

Odil Yoqubovga bag`ishlangan tadqiqotlar:

11. Худойбергандов Н. Парвоз давом этади. –Т.: Ғ. Ғулом номидаги нашриёт, 1980.

12. Шарафиддинов О. Ижод довлари оша. Китобда: Биринчи мўъжиза. –Т.: Ғ. Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1979.

13. Қўшжонов М. Қалб поклиги. Сайланма. Икки томлик. 2-том. –Т.: Ғ. Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1982.

14. Норматов У. Етуклик. –Т.: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва сан`ат нашриёти, 1982.

15. Расулов А. Тиниқлик. Китобда: Янги замон – янги қахрамон. –Т.: Ғ. Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1976.

16. Каримов Ҳ. Ижод ва истеъдод. Китобда: Адабий портретлар. –Т.: Ғ. Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1985.

17. Муродов Ғ. “Улуғбек хазинаси” романида полифоник ва монологик тафаккур уйғунлиги // БухДУ илмий ахборотлари. – Бухоро, 2003. – 1-сон. – Б. 29-33.

18. Муродов Ғ. “Улуғбек хазинаси” романида адабий-бадий тажрибалар уйғунлиги // БухДУ илмий ахборотлари. – Бухоро, 2003. – 4-сон. – Б. 40-45.

19. Санжар Содиқ. Тарихий-полифоник роман. Жиноятсиз детектив. Китобда: Ижоднинг ўттиз лаҳзаси. –Т.: Шарқ, 2005.

20. Ёқубова М. Улуғ ва садоқатли муҳаббат //Жаҳон адабиёти, 2012, №10.

21. Носиров А. Одил Ёқубов романлари поэтикаси. ДД. 2019.

Internet saytlari:


22. www.alishernavoiiy.uz

23. www.ziyo-net.uz

24. www.literature.uz

25. www.kutubxona.uz.

MAVZU: PIRIMQUL QODIROV NASRI¹



(1928-2010)

Reja:

1. *Pirimqul Qodirov ijodining adabiyotshunoslikda o'rganilishi.*
2. *Pirimqul Qodirovning hayot yo'li.*
3. *Yozuvchi nasriga xos xususiyatlar.*
4. *P.Qodirov nasrida tarixiy mavzu talqini.*

¹ Бу мавзу тадқиқотчи Ихтиёр Камолов билан ҳамкорликда ёзилган.

Tayanch tushunchalar: Pirimqul Qodirov nasri, obraz, ramziylik, adabiy an'ana, novatorlik, folklor, xalqona ohanglar, roman, xarakter, qahramon, peyzaj tasviri, "Uch ildiz", "Yulduzli tunlar", "Avlodlar dovoni", "Ona loshin vidosi".

XX asr o'zbek adabiyoti tarixida yozuvchi Pirimqul Qodirov o'ziga xos o'rin tutadi. Pirimqul Qodirov bir qator samimiyatga to'liq badiiy asarlar yaratish bilan adabiyot xazinasiga o'zining sezilarli hissasini qo'shdi. Jumladan, u zamondoshlari haqidagi "Uch ildiz", "Qora ko'zlar", "Erk", "Meros" kabi asarlari, ko'plab publitsistik maqolalari, tarixiy mavzudagi "Yulduzli tunlar" ("Bobur"), "Avlodlar dovoni" ("Humoyun va Akbar") romanlari bilan xalqimizning e'tiborini qozondi. U L.Tolstoy, A.Chexov, K.Fedin, X.Diryayev ijodidan tarjimalar qildi. Ayni paytda, adib badiiy ijodni, tarjimonlikni ilmiy-tadqiqot ishlari bilan qo'shib olib bordi. Filologiya fanlari nomzodi Pirimqul Qodirov uzoq yillar ilmiy xodim sifatida O'zFA Til va adabiyot institutida ishladi. U ko'proq badiiy asar tili, yozuvchi mahorati muammolarini tekshirish bilan shug'ullandi. Olimning "O'ylar" kitobiga kirgan talay qaydlari, "Dil va til", "Xalq tili va realistik proza", "Til va el" tadqiqotlari uning yuksak tanqidchilik iste'dodiga ega ekanligidan dalolat beradi. Yozuvchi Abdulla Qahhor: "Pirimqulning jussasi kichik bo'lsa ham unda filning kuch-quvvati, bardoshi bor", - degan edi. Pirimqul Qodirovning o'zi esa: "Iste'dod bu ko'pga ketadigan bardosh"- degan hikmatni qayta-qayta takrorlab eng muhim estetik qarashlaridan biri darajasiga ko'targan edi.

Pirimqul Qodirov 1928-yilning 26-oktabr kuni Tojikiston Respublikasining O'ratepa tumanidagi Kengko'l qishlog'ida tavallud topgan. Yozuvchi keyinchalik o'zi voyaga yetgan muhitni, tarbiya olishida otasi va onasi qanday rol o'ynaganligini quyidagicha xotirlagan edi: "Otamiz boy bo'lib badarg'a qilinganligi uchun hukmron mafkura yoshlikda bizni ruhan ezib, undan bezdirgudek bo'lardi. Holbuki, otam mehnat qilib charchamaydigan, besh vaqt namozini kanda qilmaydigan, umrida aroq ichmagan, muloyim tabiat, mo'min-qobil odam edi. Hayotda juda ko'p og'ir, asabbuzar hodisalarni boshdan kechirgan bo'lsa ham, rahmatli biz bolalarni urib-so'kkanini eslayolmayman. Lekin onamiz bizni zir yugurtirib ishlatar, xato qilsak, ayamay jazo berar intizomni qattiq tutar edilar... Onamizning momolari O'g'iljon dodxoh Farg'ona vodiysining O'sh

tomonlarida shuhrat qozongan Qurbonjon dodxohning izdoshlaridan bo'lgan ekan. U kishi olamdan o'tgan kezlarida tug'ilgan bizning onamizga o'sha momosining ismini berib, "O'g'iljon" deb ot qo'ygan ekanlar. Shuning uchun ham iste'dodning gurkirab o'sishida baxtsiz bolalik emas, bolalikdan boshlangan tarbiya muhim deb hisoblayman ("Yoshlik", 2011. №1. 34-bet). Pirmqul Qodirov Kengko'l degan o'zbek qishlog'idagi maktabda o'qigan kezlarida yozuvchi Oybekning "Qutlug' qon" romanini berilib mutolaa qiladi va xuddi shu paytlarda qalbida adabiyotga havas uyg'ona boshlaydi. "Qutlug' qon" romanidan qanday ta'sirlanganini Pirmqul Qodirovning o'zi keyinchalik mana bunday xotirlagan edi: "Bundan oltmish besh yil muqaddam yettinchi sinfni bitirayotgan paytlarimda "Qutlug' qon" romanini qanchalik ta'sirlanib o'qiganim haligacha yodimdan chiqmaydi. Kitobdan olgan yorqin taassurotlarim uni o'qigan joyning manzaralari bilan birga hamon ko'z o'ngimda turibdi. Shaxsan men Yo'lhining tuprog'i to'piqqa chiqadigan ko'chalarda yalangoyoq yurib, qishloqdan shaharga kelishini ham aynan o'z hayotimga o'xshatardim. Chunki, bolalik paytimizda otamiz boy bo'lgani uchun bor mol-mulkimizni sho'rolar tortib olgan, qish kunida bizning issiq uyimizdan quvib chiqarib badarg'a qilgandi ("Yoshlik", 2011. № 1. 5-bet).

Pirmqul Qodirovning urushdan keyingi yillarda jamoa xo'jaligidan boshlangan mehnat faoliyati yo'l qurilishi, so'ng Bekobod metallurgiya kombinatida davom etdi. O'sha yillarda P. Qodirovning matbuotda bosilgan ocherklaridan biri shoira Zulfiya e'tiborini tortadi. Shoira o'sha ocherkda keyinchalik barq urib rivojlanadigan iste'dod uchqunlarini ko'rgandek bo'ladi va yosh adibni jiddiy ijodiy zafarlar sari yo'lga da'vat etadi. P.Qodirov 1951 yili O'rta Osiyo Davlat dorulfununi Sharq fakultetini tarix ixtisosligi bo'yicha tugatib, Moskvadagi Maksim Gorkiy nomidagi jahon adabiyoti institutining aspiranturasiga o'qishga kiradi. Natijada tadqiqotchi urushdan keyingi qishloq nasri haqidagi nomzodlik ilmiy ishini himoya qiladi.

Pirmqul Qodirov 1954-1963-yillar davomida Ittifoq Yozuvchilar uyushmasi qoshida o'zbek adabiyoti bo'yicha maslahatchi bo'lib ishladi. U 1965-1976- yillarda O'zbekiston Fanlar akademiyasining Til va adabiyot institutida katta ilmiy xodim vazifasini bajardi. Adib ijodining debochasi bo'lmish tolibi ilmlar

hayotini, ichki olamini aks ettirgan “Studentlar “ hikoyasini 1950-yilda bosmadan chiqardi. Faqat bu hikoya juda zaif mashq bo’lgani uchun yozuvchi Abdulla Qahhor uni keskin tanqid qilgan edi. Tanqiddan to’g’ri xulosa chiqargan P.Qodirov katta ijodiy mehnat qilib, 1958-yilda xuddi quyoshli kunda momoqaldiroq bo’lib, chaqmoq chaqqanidek, o’zining birinchi asari “Uch ildiz” romanini nashr ettiradi. “Iliqlik” deb atalgan o’sha davr ruhini, o’zgarishlarini, yangiliklarini o’zida mujassamlashtirgan bu roman tezda keng kitobxonlar ommasining, mashxur yozuvchilarning e’tiborini qozondi. Xususan, 1959-yilda Moskvada bo’lib o’tgan O’zbekiston adabiyoti va san’ati dekadasi vaqtida mashhur qozoq yozuvchisi Muxtor Avezov “Uch ildiz” romanini zamon ruhini hamda kishilar ma’naviy olamini yorqin aks ettirgan asar sifatida yuqori baholagan edi. O’sha vaqtda roman qo’lyozmasi respublika yozuvchilar uyushmasida muhokama qilinganda ustoz Abdulla Qahhor: “Ancha vaqtdan beri men o’zbek adabiyotida momoqaldiroq guldurosini eshitmay yurgan edim. Nazarimda mana shu asar adabiyotimizga momoqaldiroqday gulduros solib, chaqmoqday yaltillab kirib kelyapti”, - deya asarga yuksak baho bergan edi. Keyinchalik bu asar haqida I.Sulton, R.Hodizoda, L.Bat kabi mashhur yozuvchilar va adabiyotshunoslar ko’plab fikr bildirdilar.

Yozuvchi “Uch ildiz”da talaba–yoshlar, ziyolilar hayotiga murojaat etar ekan, sal burun o’zi mehr qo’yib tarjima qilgan K.Fedinning “Ilk sevinchlar” romani qatori “Sarob” tajribalaridan ham ruhlangan edi. ”Studentlar va ziyolilar hayoti “Sarob” romanida qanchalik teran va ta’sirli ko’rsatilgani ko’pchilikka ma’lum, deb yozadi Pirimqul Qodirov. ”Abdulla Qahhor saboqlari” maqolasida, - Men ham birinchi romanimni studentlar va ziyolilar hayotidan yozmoqchi edim ...Tilda, tasviriy vositalar tanlashda Abdulla akaning eng yaxshi an’analariga kuchim yetgancha amal qildim, ammo ”Sarob”dagi psixologik teranliklar, ayniqsa salbiy qahramonlarni ichdan ko’rsata olish san’ati men uchun egallashim mahol bo’lgan marralar edi”.

“Uch ildiz” 50-yillar o’rtalaridagi muhim tarixiy jarayonlarning qaynoq izidan borib yozilgan, o’zbek adabiyotida shaxsga sig’inishning noxush oqibatlarini dastlabkilardan bo’lib aks ettirgan yirik asar edi. Shaxsga sig’inish muhitida yetishgan, aqidaparastlik hamda vulgar sotsiologizm g’oyalari bilan zaharlangan,

safsatabozlikni o'zlariga qurol qilib olgan, shular vositasida mansab-martabalarga, ilmiy darajalarga ko'tarilgan, xolis, iste'dodli, haqiqiy fan zahmatkashlarini yo'ldan olib tashlashga erishgan kimsalarning asl qiyofasini fosh etish, ularga qarshi turgan yangi tipdagi kishilar kurashini ko'rsatish romanning asosiy g'oyaviy – badiiy mundarijasini tashkil qiladi.

Roman voqealari bir oliy o'quv yurtida bo'lib o'tadi. Asar qahramonlari ziyolilar, professor-o'qituvchilar, aspirantlar va talabalar bo'lib, asardagi mojarolar, asosan, mafkuraviy kurash tevaragida ketadi. Asarda yoshlarning ishq-muhabbati, sevgisidagi adashishlari, yangicha qarashlarning tantanasi, o'quv-tarbiya masalalari bilan bog'liq mojarolar ham qalamga olingan. Ularning barchasi har xil yo'llar bilan bosh masalaga, mafkuraviy qarashlarga borib ulanadi. Asarda yozuvchi murakkab toifadagi odamlarning asl qiyofasini ochishga urinadi. "Uch ildiz" romanining bosh qahramoni, yangi muhit avlodi vakili Mahkam hayotda duch kelgan eng xatarli shaxslar – dekan Hakimov bilan uning shogirdi, izdoshi Eshonboevdir. Ularning mafkurasi, kurash usullari xavfli bo'lib, sof vijdonli kishilarga qarshi harakatlarda ig'vo, qo'rqitish vositalaridan keng foydalanadilar. Bu sohada Hakimovning eng katta muvofaqqiyati Umarovning qamalib ketishi, Toshevning og'ir jazo olishi Akbarovning ta'qibga uchrashidir. Yoshlarga haqiqat va adolat uchun kurashda homiylik qilgan personajlar obrazini qanday yaratganligini P.Qodirov mana bu tarzda eslaydi "O'sha yillarda biz talabalar suyukli ustozlarimizga nohaq otilgan malomat toshlaridan qattiq iztirob chekkanmiz. Bu iztiroblarimni "Uch ildiz" romanida Mahkam va Ochil kabi yoshlar navqiron, suyukli domlalari professor Abdurahmon Toshev va dotsent Temur Akbarovlar tomonida turgan, ularga tuxmat qilgan baxillarga qarshi kurashgan lavhalar orqali ko'rsatishga harakat qilganman... Toshev obrazida men Oybekni nazarda tutgan edim. Otasi temirchi bo'lgan Temur Akbarovni tasvir etganda ustoz Abdulla Qahhor ko'z oldimda turgan edi". ("Yoshlik", 2011. №1, 15- bet).

Romanda Eshonboev ham Akbarovni fosh etishda faol qatnashadi, olimning: "O'tgan asrlarda Buxoroda o'nlab madrasalar bo'lgan", degan so'zini u "o'tmishni ideallashtirish"ga yo'yadi. U olim biografiyasidan ko'plab "chatoqlik"lar topadi. Bu "hushyor" kimsa talabalar hayotidan ham nuqul g'oyaviy xatolar qidiradi.

Ehtimol, romanda Hakimov, Eshonboev obrazlaridan psixologik teranliklari bilan yetarlicha ochib berilmagandir, ularning Toshev va Akbarovga qarshi olib borgan kurashlari butun murakkabliklari, keskinliklari bilan ko'rsatilmagandir. Yozuvchi qarama-qarshi qutblar orasidagi mafkuraviy kurashlar va olishuvlarni bevosita emas, balki, ko'proq parda orqasida beradi. Ammo shu holda ham, asarga o'shanday keskin ijtimoiy konfliktlar olib kirilishining o'ziyoq katta ijodiy jasorat edi. Yoshlar hayotidagi keskin to'qnashuvlar va ziddiyatli ruhiy jarayonlarni badiiy tahlil qilish yo'li bilan yozuvchi har bir insonning yashashi uchun zarur bo'lgan uch omil haqida o'ziga xos falsafa yaratadi. Romannavisning g'oyaviy falsafasiga ko'ra inson baxtga erishmog'i uchun teran fuqorolik tuyg'usiga, chinakam muhabbatga va chuqur bilimga ega bo'lmog'i zarur. Roman mana shunday chuqur g'oyaviy pafos bilan yo'g'rilganligi badiiy adabiyot barcha zamonlarda kishilar uchun chinakam hayot darsligi bo'lib qolishini tasdiqlovchi yorqin bir dalil hisoblanadi.

Pirimqul Qodirov "Uch ildiz" ustida qizg'in ish olib borayotgan kezlarda, aniqrog'i, 1956-yili "O'tgan kunlar" romani bilan tanishadi. Natijada u kompozitsiyasi, kiritma voqealarga boyligi va yana nimalari bilandir shu asarni eslatuvchi "Qora ko'zlar" asarini yaratadi.

Yozuvchi o'sha quvonchli daqiqalarni quyidagicha xotirlaydi: "Menga shu vaqtgacha yetishmay yurgan badiiy nafosatning bir (o'sayotgan o'sha yosh tanaga zarur bir "vitamin"ni) Abdulla Qodiriy romanlaridan topganday suyundim. Bu yangicha nafosat ham dilimga payvand bo'lib, yozayotgan narsamga olijanob ta'sir ko'rsatgani o'zimga keyin sezildi. Davrimizning ijobiy qahramonlaridagi joziba meni o'ziga ko'proq tortardi".

"Qora ko'zlar" asari yozuvchi ijodida olg'a tashlangan qadam, o'zbek romanchiligida muhim hodisa bo'ldi. Bu roman 60-yillar boshidagi qishloq hayoti manzaralarini, turmush qiyinchiliklarini, murakkabliklarini, ziddiyatlarini ro'yi-rost ko'rsaganligi bilan ajralib turadi. Unda hozirgi kunlarga hamohang muammolar talqinini ham uchratish mumkin edi. Xususan, roman rahbarlikdagi, xo'jalikdagi ko'zbo'yamachiliklarni, qo'shib yozishlarni, kishilar axloqidagi tubanliklarni hamda ularga qarshi kurashuvchilar borligini ochiq – oydin gavdalantirishi bilan deyarli barcha davrlar uchun dolzarblik qiymati kasb etadi.

“Qora ko’zlar”da muallif olis qishloq, orqada qolgan xo’jalik hayotini roman ko’zgusiga solib ko’rsatadi. Asar boshdan oyoq oddiy, zahmatkash mehnat ahliga, har qanday mushkul vaziyatlarda ham, insoniy fazilatlarni saqlab qola olgan asl odamlarga chuqur hurmat, hamdardlik ruhi bilan sug’orilgan. Yozuvchi xuddi o’sha “Qora ko’zlar”- jafokash kishilar boshiga tushgan kulfatlar uchun chin dildan qayg’uradi, xalq taqdirini chigallashtirgan hayotiy-ma’naviy omillar ustida mushohada yuritadi. Adib qoloq tushunchalarga odamlar turmushi va ongini zaharlovchi bir og’u deb qaraydi. Qoloq tushunchalar nihoyatta yashovchan bo’lib, ularga qarshi kurashish benihoya mushkul.

Romanni o’qiganda kitobxon buni butun qalbi bilan sezib turadi. “Qora ko’zlar”da 60-yillar boshlaridagi qishloqning ijtimoiy munosabatlari yaxshi tahlil qilib berilgan. Romanda shaxsga sig’inish, mustabid tuzum muhitida yetishgan mansabdorlarning xilma-xil timsollari yaratilgan. Roman ichida keltirilgan “O’tgan kunlar”dagi Usta Olimning mungli sevgi sarguzashtlarini yodga tushiradigan, bir tomondan mustaqil, ikkinchi tomondan, asar g’oyaviy – badiiy muammolari bilan tutashib ketgan Madaminjon hikoyasi, uning o’z turmush o’rtog’i Ma’sudaning fojeaviy qismati haqidagi alam-iztiroblarga to’la qissasi jaholat va ijtimoiy adolatsizliklarga qarshi o’tkir aybnoma, achchiq hayot sabog’i kabi yangraydi. Ma’suda qismati romandagi Hulkar, Jannatoy, Cho’lponoylar va ularning qadriga yetmay, hayotini zaharlayotganlar uchun emas, umuman, 60-yillar o’zbek qishloqlaridagi real ahvol haqida jiddiy ogohlantirish edi. Hulkardek nozik-nihol qizning cho’pon sifatida qo’y boqqani toqqa chiqib ketishi ham o’sha yillari bizning jamiyatimizda mehnat taqsimoti noto’g’ri yo’lga qo’yilganligi haqidagi o’ziga xos bongga o’xshab ketadi.

Xuddi “Qora ko’zlar” romanidagidek hayot ziddiyatlarini butun keskinligi bilan yuzaga chiqarish yo’lidan borib, P.Qodirov “Meros” qissasida paxta yetishtirishdagi mehnatning og’irligi, mashaqqatlarga va hatto fojealarga to’liqligi to’g’risidagi haqiqatni chinakam san’at vositalari orqali ifodalashga muvaffaq bo’ldi. Qissaga dong’i ketgan mehnat qahramoni Mamajon Dadajonov hayotining so’nggi yillari asos qilib olingan bo’lib, u tunu- kun paxtazorda ishlashi, tinim bilmasligi oqibatida mashina ruli ustida uxlab qoladi. Oqibatda halokat ro’y beradi, ya’ni paxta zaxmati tufayli kuch-quvvatga

to'lgan, har tomonlama rivojlangan, navqiron yigit qurbon bo'ladi. O'z davri uchun yozuvchining bu talqini jasorat hisoblanar edi. Ulkan badiiy qiymatga ega bo'lganligi sababli "Meros" qissasi yozuvchining adabiyot sohasidagi eng jiddiy yutuqlaridan biri darajasiga ko'tarildi. Uning mag'ziga o'sha da'rdagi paxta yakkahokimligiga qarshi isyon ruhi yashiringan edi.

"Meros"dagi realistik tasvir yo'lidan borib Pirimqul Qodirov "Jon shirin" hikoyasida faqat ishni, paxtani, reja bajarishni, shu orqali keladigan shon-shuhratnigina o'ylab, odamlar haq-huquqi, sog'lig'i, hattoki hayotini unutgan kimsaning haqiqiy basharasini ko'rsatib beradi. Farosatsiz brigadir, unga buyruq bergan zo'ravon rais, raisga dag'dag'a qilgan raykom kotibi – mana shu bir-biri bilan chirmashib ketgan halqa jinoyati tufayli "dori sepilgan" paykalda ishlashga majbur etilgan bir necha kishi zaharlanadi va halok bo'ladi. Bu ish gunohkorlarni aniqlash, aybini bo'yniga olish, vijdoni qiynalish, achchiq haqiqatdan saboq chiqarish o'rniga jinoyatchilar ishni bosdi-bosdi qilishga tirishadilar.

Yozuvchi qishloq hayotini faqat zulmat, g'urbat, dalalardagi mehnat mashaqqatlaridan iborat, deb talqin etmaydi. U realizm tamoyillariga rioya qilgan holda, hayot murakkabligi, qarama-qarshiliklari bilan ko'rsatishga intiladi. Pirimqul Qodirovning qishloq turkumiga oid asarlarida, ayniqsa, "Qora ko'zlar"da tog'-dashtlarning, yaylovu archazor-qirlarning buloqlardan hosil bo'lgan irmoqlaru qizg'aldoqlar bilan burkangan o'tloqlar ta'rifga sig'mas manzaralar, qizlar bazmi shoirona bir nigoh, zo'r ilhom-ehtiros bilan tasvirlangan. Yozuvchi olis qishloqlarga mashaqqatlar bilan kirib borayotgan yangiliklarni, sof vijdonli kishilar timsolini ham muhabbat bilan qalamga oladi. "Qora ko'zlar"dagi Avaz, Zamonali, Mansurov, "Jon shirin"dagi Muzaffar, "Yerk"dagi Sattor, "Meros"dagi Yolqin - bularning barchasi odamlar baxti, el-yurt g'ami bilan yongan haqiqiy qahramonlardir.

Pirimqul Qodirovning qishloq turkumiga kirgan asarlari, tabiiyki, kam-ko'stlardan holi emas. Goho asarlarda ko'tarilgan masalalarni butun keskinligi bilan hal qilishda izchillik yetishmay qoladi, asar oxiriga borib boshdagi taranglik susayib ketadi, mojarolar ko'pincha ijobiy kuchlar foydasiga osonlikcha hal bo'ladi goho salbiy kuchlar ta'rifi va talqinida muayyan qoliplar ta'siri seziladi. Jumladan,

“Erk” qissasida mualliflarning muhabbat borasidagi haddan tashqari keng chaqirishi munzarali tuyiladi.

Pirimqul Qodirov, shuningdek, “Kayf”, “Olov” hikoyalarini, “Besh yillik farzandi” nomli ocherklari to’plamini, “Qadrim”, “Najot” afsona ertagi “Sarguzashtlar”, “Yayra institutga kirmoqchi” nomli qissalari, “Insof” pesasini birin-ketin o’quvchilarga taqdim etadi. Ular badiiy jihatdan turli saviyada yozilgan bo’lib, ta’sirchanligi, haqqoniyligiga ko’ra “Meros” qissasida qo’lga kiritilgan yutuq darajasiga ko’tarila olmadi.

Agar yozuvchi bir turkum asarlarida qishloq hayoti muammolarini yoritishga intilgan bo’lsa, ikkinchi guruhdagi qissa va romanlarida kishilar turmushi va ma’naviy olami, Toshkent metrosi qurilishi masalasi bilan bog’liq holda talqin etiladi. Ular jumlasiga “Erk” va “Olmos kamar” romani kiradi.

“Olmos kamar” (1977) tevaragida ba’zi munozaralar bo’ldi. Yozuvchining asardan ko’ngli to’lmadi, roman ustida ishini davom ettirdi. 1983-yili romanning qayta ishlangan varianti maydonga keldi.

Ma’lumki, rus adabiyotida 60-70-yillari “qishloq nasri” “shahar romani” deb atalgan o’ziga xos yo’nalishlar paydo bo’lgan edi. “Qishloq nasri”ga mansub asarlarda inson va tabiat, ma’naviy sarchashmalariga munosabat masalalari juda keskin qilib qo’yiladi, “shahar romani”ga oid asarlarda esa tig’iz markaz hayotidagi ma’naviy muhit badiiy taxlil etiladi. “Olmos kamar”ning ruscha tarjimasi “shahar romani” degan izoh bilan chiqdi. Bu romanda tig’iz shahar hayotiga oid muhit, meshchanlarcha turmush kechirayotgan ayrim shaxslarning ma’naviy inqirozi yaxshi ochilgan. Asar qahramonlari orasidagi keskin kurash ona tabiatni, uning go’zalliklarini asrash, avaylash masalalari bilan uyg’unlashib ketadi. Asardagi fikriy jihatdan cheklangan, tor shaxsiy manfaatni, mansabu martabalarini o’ylaydigan mas’ul xodimlar, nuqul qudratli texnika, texnokratiya tarafdorlari bo’lgan “beton odam”lar shahar taqdirini xatarli jar tomon yetaklaydilar. Asar bosh qahramoni – landshaft arxitektori Abror najot yo’lini izlaydi. U ona tabiatni – yerni, oqar suvlarni asrash, anhor va ariq sohilini ko’kalamzor sayilgohlarga aylantirish, bu borada miliy mahalliy sharoitu xususiyatlarni hisobga olish, xalqimizning necha asrlar mobaynidagi tajribasi an’analarini davom ettirish uchun kurashadi. Lo’ttibozi Sherzod Bahromov va uning maslakdoshlari Aborning mana shu ezgu maqsad va

intilishlaridan g'alamislik bilan "Xunuk bir mahalliychilik, milliy mahdudlik" belgilarini qidiradilar, uning atrofida har xil tuxmatlar uyushtiradilar. Asardagi Abror timsolida yozuvchi o'zbek adabiyotida dastlabkilardan bo'lib fan-texnika inqilobi girdobida ulkan shahar hayoti masalalari ichida turgan, fikrlovchi olijanob kurashchi qahramon – haqiqiy zamondoshimiz obrazini yaratdi. "Olmos kamar" romanida yozuvchi yangilikning, ilmiy – iqtisodiy taraqqiyotning, turmushga kirib borayotgan qarash va tamoyillarning ichki ziddiyatlarini ochishga intiladi. Muallif xalq urf-odatlarini, asriy an'analarimizni surishtirmay rad etish, jaholat va qoloqlikka yoyishga qarshi isyon ko'taradi, ularning hozirgi taraqqiyotga, insoniy kamolotga monelik qilayotgan jihatlarini ta'kidlash bilan barobar, eskicha turmush tarzining o'ziga xos tomonlarini, ko'pgina rasm-rusumlarimizning odamlar orasidagi mehr-oqibat, o'zaro hamkorlik tuyg'ularini tarbiyalash va mustahkamlashdagi ahamiyatini ham ko'rsatib o'tadi. Ammo asarda shahar hayotining juda ko'p tomonlari, xususan, metro qurilishi, yoshlar tarbiyasi, to'y–hashamlardagi isrofgarchilik, oilaviy mojarolar kabi masalalar qamrab olingani holda, ular o'zaro uzviy birlashtirilib yuborilmagani oqibatida roman kompozitsion jihatdan nomukammal chiqqan. Shunga qaramay, tanqidchilikda "Olmos kamar" o'zbek adabiyotida urbanistik (shahar muammolarini yorituvchi) romanning dastlabki jiddiy namunasi ekanligi e'tirof etildi. Demak, P.Qodirov o'zbek nasrining janrlar doirasini urbanistik roman shakli bilan boyitishga muvaffaq bo'ldi.

Tanqidchi L.Terokopyan "Voprosy literatury" jurnalida (1986, N;2) bosilgan "Sharq xaritasi ustida" maqolasida "Olmos kamar"ni batafsil tahlil, Sharq xalqlari adabiyotida paydo bo'lgan shahar hayoti haqidagi eng yaxshi asarlar qo'ydi. O'sha respublika kinostudiyasi tomonidan roman motivlari asosida ikki seriyali film yaratildi.

Yuqorida tilga olingan qissa va romanlarning deyarli barchasi zamonaviy mavzuda edi. Zamonaviy mavzuda bitilgan ko'pgina asarlari orqali kattagina adabiy tajriba to'plagan yozuvchi 60-yillarning o'rtalaridan o'z ijodida yangilik bo'lgan drama va tarixiy roman janrlariga qo'l uradi. Chunonchi, u dastlab "Insof" dramasini e'lon qilib, kishilar e'tiborini o'sha davrlar uchun muhim bo'lgan axloqiy muammolarga jalb etadi va ma'naviy soflik, go'zallik g'oyalarini ilgari suradi. Faqat adibning bu asari dramaturgiya sohasidagi birinchi tajriba bo'lganligi, ya'ni mukammallik darajasiga

ko'tarilmaganligi sababli ezgu insonparvarlik g'oyalari yuksak jarangdorlik kasb etmagan edi.

Pirimqul Qodirovning o'zi asos e'tibori bilan Sharq tarixi bo'yicha mutaxassis bo'lganligi sababli keyinchalik uzoq vaqt mobaynida ona xalqining o'tmish, kurashlari, qonli fojealari, buyuk shaxslari va uning diqqatini o'ziga jalb qiladi. Oqibatda, oldin "Yulduzli tunlar", so'ngra "Avlodlar dovoni" asarlari bilan Pirimqul Qodirov o'zbek tarixiy romanchiligida Abdulla Kodiriy, Oybek va Odil Yoqubovdan keyin yangi pog'onaga ko'tardi.

"Bizni qaramlik va mutelikda saqlashga o'rgangan yovuz kuchlar tarixiy ildizimizni qirqib tashlashga, bizni o'tmishimizdan bexabar manqutrlarga aylantirishga harakat qilar edi,-deb yozadi u "Turfa ma'noli taqdir" maqolasida. - Holbuki, o'zbek xalqichalik boy va yorqin tarixga ega bo'lgan xalqlar dunyoda ko'p emas. Millatimiz o'z tarixiy ildizlaridan ma'naviy oziq olsa, qaddini tez tiklashi mumkin. Shuni dildan his qilganim uchun 1969-yildan boshlab yigirma yil davomida tarixiy mavzuda ish olib bordim".

"Yulduzli tunlar" romanining ilk nusxasi 1972-yili yozib tomomlandi. Asar qo'lyozmasi o'sha yili yozuvchilar uyushmasida muhokama etilib, yuksak baho oldi va nashrga tavsiya qilindi. Biroq nosog'lom mafkuraviy tazyiq tufayli roman 6 yilcha bosilmay yotdi. Nihoyat, halol, fidoiy kishilarning madadi bilan 1978-yili asar "Sharq yulduzi" sahifalarida dunyo yuzini ko'rdi, ko'p o'tmay alohida kitob bo'lib chiqdi, qisqa muddat ichida rus tilida ikki marta bosildi, boshqa tillarga tarjima qilindi. Turli xalqlarga mansub yozuvchilar tomonidan yuqori baholanganiga qaramay, 80-yillarning o'rtalariga kelib, "Yulduzli tunlar" romani atrofida yangi munozaralar boshlanib ketdi va asarga hamda muallifga qattiq hujumlar qilindi. Jumladan, o'sha yillari o'tkazilgan O'zbekiston Yozuvchilar Uyushmasining qurultoyida shu tashkilot raisi O'lmas Umarbekov va Izzat Sultondek katta adiblar roman muallifi oldiga ikkita keskin aybnoma qo'ydilar. Ularning birinchisiga ko'ra, yozuvchi Bobur zamonidagi sinfiy kurashlarni ko'rsatmaganligi sababli juda qo'pol siyosiy xatoga yo'l qo'ygan, deb qoralagan edi. Ikkinchi tomondan esa roman muallifi asarda Boburning salbiy xatti - harakatlarini, yovuzliklarini, shavqatsizliklarini aks ettirmaganlikda ayblagan edi.

Aslida bunday aybnomalar roman mohiyatini, undagi obrazlilik tabiatini tushunmaganlikdan yoki ularni yetarlicha hisobga

olmaganlikdan kelib chiqqan edi. Agar asardagi go'zal obrazli tasvir mohiyati inobatga olinganda, uning birinchi boblaridanoq sinfiy kurash yoki tafovut manzaralari jonlantirilganligi ayon bo'lar edi. Asar boshlarida otasining bevaqt o'limidan keyin o'n ikki yoshida taxtga o'tirgan Bobur o'ziga tayinlangan homiy yordamida ish yuritadi. O'sha kunlarning birida uning oldiga beklar tomonidan o'limga hukm qilingan gunohsiz odamni olib keladilar. Bobur u kishining gunohsizligini bilib tursa-da, o'zicha o'lim hukmini bekor qilolmay, homiysidan maslahat so'raydi. Shunda homiy agar o'lim hukmi bekor qilinsa, beklaru sarkardalar Boburdan yuz o'girib ketishlari mumkinligini aytadi. Buni eshitgan Bobur o'lim hukmini kuchda qoldirishga majbur bo'ladi. Shu tariqa yuqori tabaqa vakillarining xohishi bilan quyiroq sinfga mansub begunoh bir odam o'ldirib yuboriladi. Xuddi shu voqea Bobur va uning tabaqasi bilan quyi sinflar orasidagi tafovut yoki kurashning yorqin manzarasi hisoblanadi. Faqat obrazli tasvir yoki chinakam yozuvchilik yo'lidan borgan muallif voqeani deyarli hayotdagidek yoxud tarixdagidek jonlantirib, "sinfiy kurash" degan so'z birikmasini ishlatmagan. Vulgar sotsiologik tanqidga ko'ra, xuddi shunday yo'l, ya'ni hodisani go'yo fandagidek o'z nomi bilan "sinfiy kurash" deb atamaslik o'taketgan siyosiy xato sifatida talqin etilar edi.

Romandagi obrazlilik tabiatini anglab yetmaslik yozuvchi oldiga qo'yilgan ikkinchi aybning ham tug'ilishiga sabab bo'lgan edi. Unga ko'ra, Pirmqul Qodirov xuddi ilgari Amir Temur haqida yozgan adiblar kabi Bobur obrazini ideallashtirishda, ya'ni zaifliklardan, yovuzliklardan holi qilib ko'rsatishda ayblangan edi. Faqat bu o'rinda Bobur va uning tarafdorlari askarlari ko'rsatgan hamda romanda qayta-qayta qalamga olingan yovuzliklar, shafqatsizliklar, ayyorliklar bosqinchilik yurishlari butkul inobatga olinmagan edi. Asarda unday yovuzliklar va bosqinchiliklarga xos qirg'inlar, zolimliklar, ayniqsa, Hindistonni zabt etishga bag'ishlangan boblarda yaqqol ko'rinadi. Dastlabki janglarda hind qo'shinlaridan yengilgan Bobur yuz ming kishilik Ibrohim Lodi askarlariga qarshi boshqacha hujum yo'lga o'tadi. U yetti yuzta aravani bir-biriga bog'lab, Ibrohim Lodi lashkari ustiga yurg'izib yuboradi. Natijada yuz ming kishilik lashkar osonlik bilan tor-mor keltirilib, Hindiston Bobur hukmronligiga o'tadi. Jahon tarixida bunchalik ustomonlik va ayyorlik bilan amalga oshirilgan yovuzlik kam topilsa kerak. Faqat deyarli har doim obrazli tasvir

yo'ldan borgan Pirimqul Qodirov uni ham xuddi fandagidek "yovuzlik" deb ta'riflab o'tirmasdan ayni shu shavqatsizlik sodir bo'lgan tarixiy hodisani jonli holda ta'sirchan shaklda gavdalantirib qo'ya qolgan. Keltirilgan ikkita dalilning o'zi o'zbek adabiy tanqidchiligi XX asrning 80-yillarida ham vulgar sotsiologizmning yo'q joydan xato qidirishdek mash'um illatidan qutula olmaganligidan guvohlik beradi.

"Yulduzli tunlar" muallifiga qo'yilgan ayblar, Bobur va Boburiylar atrofidagi qo'zg'atilgan mashmashalar qabix safsatabozlikdam iborat ekani ko'p o'tmay yuksak minbarlardan turib dadil aytiladi.

"Yulduzli tunlar" romanida yozuvchi Zahiriddin Muhammad Boburdek murakkab tarixiy shaxs siymosini gavdalantirdi. Tarixiy dalillarni, ma'lumotlarni chuqur o'rgangan holda yozuvchi ularni badiiy asar zamiriga, Bobur obraziga chuqur singdira olishga muvaffaq bo'ldi. P. Qodirov bu romanida Boburning ichki dunyosini butun ichki murakkabligi, ziddiyatlari bilan nomoyon qilishga intiladi.

Turg'unlik yillari "Yulduzli tunlar"ga baho berganda, ayrim adabiyotshunoslar roman va uning muallifini ta'qibu tazyiqlardan asrash maqsadida asardagi, Bobur shaxsiyatidagi ziddiyatlar ifodasini alohida ta'kidlar, uning tilidan aytilgan: "Neki xatolik, neki gunoh qilgan bo'lsam, hammasining birlamchi sababi mening podsholigimdir", "Menga vafo qilsa faqat yozgan asarlarim vafo qilmog'i mumkin", - degan so'zlarini takror-takor eslatib o'tar edilar. Darhaqiqat, Bobur shaxsiyati va qismatida shunday ziddiyatli hollar chindan ro'y bergan. Yozuvchi romanda shunday holatlardan bir emas, ko'plab o'rinlarda qalamga olgan. Bu hol haqiqat taqozosi ekanidan tashqari, yozuvchi uchun o'ziga xos ehtiyot chorasi bo'lgani sir emas. Shu xil ziddiyatli holatlar ifodasida ham, baribir, Bobur buyuk siymo, dilbar shaxs, mislsiz sarkarda, odil va dono inson sifatida ulug'vorligi bilan namoyon bo'ladi. Muallif birinchi galda Boburning daho inson, arbob sifatidagi hislatlarini ochib beradi. Muallif uning tarixdagi eng katta xizmati tanazzulga yuz tutgan buyuk Temur saltanatini halokatdan qutqarib, qayta hayot baxsh etishga intilish bo'lganini ko'rsatadi. Pirimqul Qodirov Vatanimizning ko'hna va boy tarixini juda chuqur biladi. Jumladan, uning "Yulduzli tunlar", "Avlodlar dovoni", "Ona lochin vidosi", "Amir Temur timsoli" singari qator tarixiy mavzudagi romanlari zamonaviy o'zbek nasrining

oltin xazinasini bezab keladi. Ta`kidlash kerakki, bu asarlar orasida “Yulduzli tunlar” alohida mavqega ega. Bizningcha, mazkur asar muallifning keyingi tarixiy romanlarining yozilishi uchun katta turtki bo`lgan.

“Yulduzli tunlar” (“Bobur”) romani, muallifning e`tiroficha, 30-yil davomida – 1969-1999-yillar oralig`ida yozilgan. Zero, mashhur “Shohnoma”ning ham 30 yil mobaynida yozilgani ma`lumdir. Demak, asar ko`p yillik ijodiy, hayotiy izlanishlar mahsuli sifatida dunyoga kelgan. Yozuvchi asarni boshlashdan oldin uzoq muddat tarixiy faktlar, o`sha davr muarrixlari qoldirib ketgan tarixiy asarlarni, ayniqsa, “Boburnoma” memuarini qunt bilan o`rganib chiqqan. Bobur shaxsiga nisbatan o`ziga xos muhabbat sezgan Pirimqul Qodirov bu ulkan ishining ilk qadamlarini quyidagicha eslaydi: “Bobur mirzoning hayoti va faoliyatiga oid mavzular ummonday cheksiz. Bu ummonda o`nlab, yuzlab adabiy kemalar suzishi mumkin. "Yulduzli tunlar" ana shu majoziy kemalardan biri tarzida yuzaga keldi. Uni 1972-yilda ilk bor yozib, nashrga topshirganimda tog`day bir yuk yelkamdan tushganday bo`ldi”.

Pirimqul Qodirov o`z esdaliklarida roman olti yil mobaynida birorta nashriyotga qabul qilinmaganligini eslaydi. Sho`ro mafkurasi sabab o`zbek davlatchiligi va madaniyati tarixidan hikoya qiluvchi “Yulduzli tunlar” asari turli tazyiqlarga uchradi. Asar haqida deyarli salbiy taqrizlar yozildi. O`tgan 6 yildan muallif tushkunlikka tushmasdan, ezgu maqsadidan qaytmagan holda unumli foydalandi: asarni yangi parchalar bilan boyitdi, tarixiy manbalarni, birinchi navbatda, “Boburnoma” memuari va Gulbadanbegimning “Humoyunnoma” asarlarini sinchiklab o`rgandi va ulardagi tarix haqiqatini roman sahifalariga singdirdi. Muallif so`zlari bilan aytganda "avvaldan rejalashtirilgan, dilda pishitilgan" boblar bilan to'ldirdi. Shunga qaramasdan roman ilk bora 1979-yilda xalqimizning yana bir atoqli farzandi – yirik davlat arbobi va ijodkor Sharof Rashidovning yordami bilan kitob shaklida nashr etildi. 1979-1999-yillar davomida roman tinimsiz qayta ishlashlar natijasida Markaziy Osiyo, Afg`oniston, Hindiston, Pokiston hududlarida yashagan xalqlarning qariyb yarim asr – XV-XVI asrlardagi hayotidan xabar beruvchi o`lmas va nodir asarga aylandi.

Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va ijodi to`g`risida o`zbek va jahon adabiyotida yaratilgan barcha asarlar orasida “Yulduzli

tunlar” romanining alohida ehtiromga sazovor ekanligining yana bir jihati shundaki, ushbu asarda shoh va shoirning bolalik yillaridan boshlab, to umrining oxirigacha boʻlgan hayot yoʻli hikoya qilingan. Bu jihatdan jahon adabiyotida Bobur shaxsiyatiga murojaat qilgan amerikalik sharqshunos Harold Lambning asariga qiyoslashimiz mumkin.

Ammo Pirmqul Qodirovning ushbu romani tarixiy haqiqatni badiiy jihatdan xolis ifodalash borasida har qanday asardan ustun turadi. Jumladan, Boburning hayoti va ijodi toʻgʻrisida maʼlumot beruvchi “Boburnoma” memuari “Tengri taoloning inoyati ila...tarix sekkiz yuz toʻqson toʻqquzda (milodiy 1494-yil) Fargʻona viloyatida oʻn ikki yoshta podshoh boʻldum” deb boshlangan boʻlsa, “Yulduzli tunlar” romani ham xuddi shu tarixiy jarayondan – yosh Boburning tasodifiy oʻlim topgan otasi Umarshayx Mirzo oʻrniga Fargʻona taxtiga oʻtirishi haqida hikoya qiluvchi “Quva. Qil ustida turgan taqdirlar. Milodiy 1494-yilning yozi” tarzida ibtido topadi. Qolaversa, “Yulduzli tunlar” birinchi navbatda badiiy asar, ammo muallif tarixiy haqiqatdan bir zumga ham chekinmagan. Kitobxon bunga bir nechta tarixiy manbalarni qiyosiy oʻrganish natijasida amin boʻladi.

Xususan, yosh Zahiriddinning Fargʻona hukmdoriga aylanish voqeasi badiiy asarlarda turlicha talqin qilinadi. Gʻarb adabiyotida, jumladan, avstriyalik yozuvchi Fris Vyurtlening “Andijon shahzodasi” qissasida Umarshayx Mirzoning oʻlimini avvaldan uyushtirilgan, muallif soʻzlari bilan aytilganda “...bir sotqin iblis podshoni yovuzlarcha oʻldirgan” deya jinoyat sifatida baholasa, oʻsha davrning barcha tarixiy manbalarida bu oʻlim tasodifiy fojia deb baholanadi. Boburning oʻzi bu holatga “Vaqoye”sida “Umarshayx Mirzo jardin kabutar va kaburxon bilan uchub, shunqor boʻldi” deb yozgan boʻlsa, XVI asr muarrix Mirzo Muhammad Haydar oʻzining qimmatli “Tarixi Rashidiy” asarida “Umarshayx Mirzo kabutarxonadan kabutar birla uchub, shunqor boʻldi” deya oʻlim sirli jinoyatning natijasi emasligiga ishora qiladi. Pirmqul Qodirov bu masalaga birinchi navbatda ilmiy manbalar bilan bahslashmasdan, qolaversa, kitobxonni tarixiy haqiqatdan chalgʻitmaslik uchun “kutilmagan falokat” sifatida yondashadi.

Tarixiy mavzuda yozilgan asarlarda badiiy toʻqimadan ham foydalaniladi. Bu badiiy adabiyotning spetsifik xususiyatidir. Buyuk adib asarda badiiylikni “libosi mavzun” etgan holda, oʻtmish

voqeiligini san`atkorona aks ettira olgan. Binobarin, romanda juda erta hokimiyat tizginini qo`lga olgan 12 yoshli hukmdorga uning bet atkasi Mazidbek dalda berish maqsadida “Podshoh hazratlari sizni “Bobur” deb ataganlari bejiz emas. “Bobur” arabchada “sher” demakdir”, - deydi. Ya`ni P. Qodirovning e`tiroficha, tug`ilganligida “Zahiriddin Muhammad” deb ism berilgan valiahd shahzodaga “Bobur” nisbatini otasi Umarshayx Mirzo bergan. Mazkur fikrning tarixiy manbalarda quyidagicha talqin etilganligini kuzatish mumkin. Xususan, Boburning xolavachchasi, muarrix Muhammad Haydar Mirzo (1499–1551) “Tarixi Rashidiy”da unga ism qo`yish ulug` shayx Xo`ja Ahror Valiyga topshirilganini, shayx chaqaloqqa otasi va xon dodasi Yunusxon ishtirokida “Zahiriddin Muhammad” deb ism berganini, ona tomonidan qarindoshlari ko`chmanchi chig`atoylarga chaqirish qiyin bo`lmasligi uchun “Bobur” ismi ham qo`shib aytilganligini ta`kidlaydi. Amerikalik sharqshunos H. Lamb esa “Bobur” ismini chaqaloqning nomiga “biroz yovvoyi va savodsiz bo`lgan Yunusxon “Zahiriddin Muhammad” ismini talaffuz qilolmagani uchun qo`shgan”, - deb yozadi. Ushbu masalaga oid eng qiziqarli yondashuv esa avstriyalik yozuvchi F. Vyurtlega tegishli bo`lib, unga ko`ra tug`ilganida faqat “Zahiriddin Muhammad” ismi berilgan. 15 yoshni to`ldirib, Axxi qal`asini sotqinlardan qaytarib olganida hukmdorga askarlari tomonidan “Bobur – yo`lbars” ismi berilgan ekan.

Ta`kidlash kerakki, mazkur hayotiy voqelik Pirimqul Qodirov romanida tarix haqiqatiga mos ravishda ifoda etilgan. Ma`lumki, Bobur Farg`ona hukmdori deb e`lon qilingan dastlabki kunlardan boshlab taxt-uchun jang-u jadallar domiga tortiladi. Hali otasining vafotiga ko`nikolmagan, qolaversa, xalqni boshqara olish qobiliyatini to`liq egallashga ulgurmagan Bobur sarhadlariga uning qondosh amakisi Sulton Ahmad Mirzo urushga tashna beklarining ra`yiga qarshi chiqqan olmasdan bostirib kiradi. Dushmanlikni to`xtatib, sulhga chorlab yuborilgan elchilik samarasiz yakunlanadi. Ammo Quva hududiga kiraverishdagi Qorasuv ko`prigi qulab, qo`shin talafotga uchraydi va Farg`ona viloyatini tark etishga majbur bo`ladi – bularning barchasi tarixiy manbalardagi ma`lumotlardir. Xususan, “Boburnoma”da ham bu voqeaning “...qalin cherik kelib ko`rukda tiqilib, qalin ot va teva bu qora suvga yiqilib zoye` bo`ldi” deya tasodif ekanligi aytiladi. “Yulduzli tunlar” romanida esa muallif bu tarixiy jarayonga badiiy tus beradi: go`yoki Quvasoy ko`prigi tasodif

tufayli qulamagan, ya'ni Tohir ismli yigit boshliq bir guruh quvalik yigitlar o'z yurtlarini himoya qilish maqsadida ko'priki avvaldan "mixlarini sug'urub, to'sinlarni arralab" shikastlab qo'yishadi va dushmanga qarshi chiqadilar. Pirimqul Qodirov shu voqelik orqali Tohir obrazini asrga olib kiradi va uni roman boshidanoq Bobur taqdiriga bog'lab qo'yadi. Aytish mumkinki, Tohir keyingi voqealar davomida Boburning ishonchli sarkardasi, mulozimiga aylanadi. Shu asnoda mamlakat ozodligi uchun o'linga ham tayyor ikki vatanparvar shaxs timsoli gavdalantirilgan. Shu bilan birga adabiyotshunos va yozuvchi R. Haydarova ta'kidlaganidek: "Yozuvchi Boburning yonida oddiy xalq ichidan chiqqan yaqin safdoshlar borligini ko'rsatish niyatida bo'lgani uchun Tohir oftobachini tanlaydi va asar davomida uni obraz sifatida bosqichma-bosqich rivojlantira boshlaydi".

Shu o'rinda alohida ta'kidlab o'tish lozimki, muallif ushbu quvalik qahramonga bekorga Tohir deya nom bermagan. Aslida ko'pchilik kitobxon ahli uchun badiiy to'qima obraz hisoblangan Tohir obrazining ham tarixiy ildizlari bor. Xususan, shoh va shoirning farzandi Gulbadanbegimning "Humoyunnoma" asarida toj-u taxtdan charchagan otasining mamlakat ishlarini o'g'li Humoyunga topshirib, "...Zarafshon bog'ida bir burchakda o'tirsam, mening xizmatim uchun Tohir oftobachi ham yetib ortadi" degan so'zlarini keltirib o'tadi. Demak, "Yulduzli tunlar" romanida tasvirlangani singari Tohir ismli qahramon tarixda ham Boburning eng yaqin kishilaridan bo'lgan.

Romanning sujet chiziqlari "Boburnoma" asari asosida shakllantirilgan. Asarda Bobur hayoti sahifalari memuardagi xronologik ketma-ketlikka asoslangan holda ifoda etilgan. Muallif Boburni faqat davlat boshqaruvi, qizg'in jang-jadallar, g'alaba-yu mag'lubiyatlar komida emas, balki ruhiy jarayonlar, shoh va shoirning o'z-o'zi bilan keskin ichki kurashlari iskanjasida ham tasvirlangan. Boburning hukmdorlikda bobokaloni Sohibqiron Amir Temurga, shoirlikda Alisher Navoiyga bo'lgan yuksak hurmati va muhabbati romanning deyarli hamma boblarida o'z ifodasini topganligini kuzatish mumkin. Buni asardagi "Boburnoma"dan keltirilgan parchalarda ham ko'rish mumkin.

XV asr oxiri – XVI asrning boshi Movarounnahr tarixida alg'ov-dalg'ovlar, toj-u taxt kurashlari davri bo'lgan. Bunday holatlarda eng og'ir yuk doimo oddiy xalqning zimmasiga tushgan. Zahiriddin

Muhammad ham boshqa temuriyzodalar singari parchalanib ketgan Amir Temur saltanatini qayta tiklash orzusi bo`lgan. Ammo Sohibqiron poytaxti Samarqandni egallash yana bir urush, qo`n to`kilishi, shahar ahlini talash degani edi. Tarixdan ma`lumki, Bobur bu shaharni 3 marta egallagan, lekin har safar bu yerda uzoq muddat hukmronlik qila olmagan. Shu bois P. Qodirov o`z asarida har safar Samarqand egallanishini shunchaki saltanat ishtiyoqi uchun emas, balki boshqa vajlar bilan bog`lashga urinadi. Romanda birinchi marta 1497-yilda Samarqandga qilingan yurish shunchaki harbiy maqsad emas, balki or-nomus uchun boshlangan urush sifatida talqin qilinadi. Sababi – 5 yoshligida Boburga unashtirilgan Oysha Begim otasi Sulton Ahmad mirzoning o`limidan so`ng Samarqand taxtini egallagan Boysung`ur Mirzo ta`qibiga uchraydi. Oysha Begimdan yordam kutayotganligini eshitgan Bobur poytaxt tomon qo`shin tortadi. Ikkinchi marta 1500-yildagi Samarqand yurishiga sabab sifatida esa Shayboniyxon yurishidan so`ng talon-taroj etilgan oddiy xalqni ko`chmanchilar domidan qutqarish hamda qirg`inga uchratgan temuriyzodalarni chingiziylar qatli omidan asrab qolish edi. 1511-yilda uchinchi marta Samarqandni Eron shohi Ismoil Safaviy yordamida egallagan Bobur azaldan davom etayotgan shia-sunniy bahslariga yakun yasash, bu orqali minglab odamlar hayotini saqlab qolish, Movarounnahrni bir nechta mayda xonliklarga bo`linib ketishdan asrab qolish edi. Boburning Amir Temur poytaxtini uchun qilgan hujumlariga sabab bo`lgan yuqoridagi omillar faqatgina tarixiy faktlar emas, balki P. Qodirovning go`zal badiiy tasavvuri hamdir.

Zahiriddin Muhammad biografiyasidagi eng munozarali mavzularidan biri – shubhasiz, opasi Xonzoda Begimning Shayboniyxon nikohiga berilishi masalasidir. Bu borada nafaqat badiiy asarlarda, balki tarixiy manbalarda ham turlicha fikrlarni uchratish mumkin. Tarixdan ma`lumki, Bobur Samarqandni 1500-yilda ikkinchi marta egallaydi. Ammo biroz muddatdan so`ng u Shayboniyxonga yengilib, shaharni tashlab ketishga majbur bo`ladi. Orada sulh tuzilgandan so`ng, Bobur yaqin insonlari bilan Samarqandni tark etadi, biroq uning tug`ishgan opasi dushman qo`liga asir tushadi va Shayboniyxon nikohiga beriladi. “Boburnoma” asarida muallif opasi kutilmaganda “Shayboqxonning iligiga tushti”,

deb ta`kidlaydi. Ammo barcha tarixiy manbalarda ham bunga tasodif deb qaralmaydi. Xususan, Gulbadanbegim “Humoyunnoma”da: “Otam hazratlari olti oy davomida Samarqandni olmoqqa urindilar, lekin maqsadlariga yeta olmadilar... hech joydan madad va yordam kelmagach, ma’yus bo’ldilar. Ana shunday vaqtda Shohibekxon “Agar... Xonzodabegimni menga bersangiz oramizda sulh tuziladi va ittifoqlik aloqalari o’rnatiladi”, deb aytgizib yubordi. Oxiri Xonzodabegimni o’sha xonga berib, o’zlarining qaytishlari zarur bo’ldi”– deya otasi go’yo o’z opasini ongli ravishda dushman qo’liga topshirib ketganini izohlaydi. Boburning xolavachchasi, tarixchi Mirzo Muhammad Haydarning “Tarixi Rashidiy” asarida ham xuddi shunday talqinni o’qishimiz mumkin: “Bobur Podshohning toqati toq bo’lib, Shohibekxonga opasi Xonzoda Begimni berib, sulh tuzdi-da, ketdi”. Bu bahsli munozaraga qo’shilgan badiiy asarlarda esa boshqacha talqinni uchratishimiz mumkin. Amerikalik sharqshunos, yozuvchi H. Lamb “Bobur – yo’lbars” asarida “Ukasiga hamisha sadoqat bilan xizmat qilgan Xonzoda Begim o’z ixtiyori bilan Shayboniyxon huzurida qolganday tuyuladi” deb yozadi va Bobur opasini dushmanga topshirib, o’z hayotini saqlab qoladigan inson emasligini uqtiradi. “Yulduzli tunlar” romanida atoqli ijodkor yuqoridagi tarixiy chalkashlikka go’zal badiiy “uydurma” kafsh qilib javob qaytargan. Ya’ni Pirmqul Qodirovning badiiy talqiniga ko’ra, Shayboniyxon Xonzoda Begim nomiga ishqiy maktub yo’llab, agar uning nikohiga o’tsa, ukasi Bobur va uning yaqinlarini sog’-salomat shaharni tark etishiga ijozat berishini bildiradi. Onasi va qolgan yaqinlarini o’limdan asrab qolish, qolaversa, “...hamma balolarga o’zini tutib berib ukasini yov qurshovidan xalos qilish” maqsadida Xonzoda Begim Boburning bunga ko’nmasligini sezib, hech kimga sezdirmasdan o’z ixtiyori bilan Shayboniyxonning huzuriga boradi. Shoh va shoirga o’zgacha hurmat va muhabbat tuygan P. Qodirov o’z romanida unga opasini dushman qo’liga topshirishga majbur qilgan uka sifatida ta’riflay olmaydi. Yoxud ba’zi adabiyotshunoslar ta’kidlaganlaridek, yozuvchi bu vaziyatda asosiy badiiy urg’uni Boburga emas, Xonzodabegimning ukasi, onasi va boshqa yaqinlarini qutqarish uchun qilgan jasoratiga beriladi.

Ba’zi masalalar xususida “Boburnoma” va boshqa tarixiy manbalar to’liq mutanosib kelmagan holatda Bobur shaxsiyatiga murojaat qilayotganida Pirmqul Qodirov birinchi navbatda

“Boburnoma”ga tayanadi. Yuqorida ta’kidlab o’tganimiz – Xonzoda Begimning Shayboniyxonga uzatilishi masalasini Bobur biroz ehtiyotkorlik bilan, mas’uliyatni o’zidan soqit qilgan holda tasvirlagani, “Yulduzli tunlar” asarida ham xuddi shu yo’l tanlanganligi, haqiqiy tarix biroz “o’zgartirilib” tasvirlanganini ko’rish mumkin. Ammo barcha bahsli mavzularda ham bunday emas, ya’ni Bobur va P.Qodirov har doim ham haqiqiy voqeilikni biroz boshqacharoq aks ettirishmagan. Masalan, Kobuldagi isyon masalasiga e’tibor qaratsak: aslida Bobur Afg’onistonda hukmronlik qilayotganida Xuroson sultoni Husayn Boyqarodan Shayboniyxonga qarshi birlashish taklifini oladi. Ammo yarim yo’lda yetganida Boyqaroning vafoti xabarini eshitadi. U ortga qaytmasdan, sultonning vafoti munosabati bilan hamdardlik bildirish maqsadida Hirotga boradi. Shu vaqtda Kobulda unga qarshi isyon ko’tariladi. Bu isyonda pochchasi, tarixchi Haydar mirzoning otasi Muhammad Husayn ham ishtirok etadi. Bobur isyonni bostirgach, “Boburnoma”da keltirganidek: “Bore baharhol Muhammad Husayn mirzoni xonimning to’shakxonasidan topib, arkta mening qoshimga kelturdilar...agar pora-pora qilsam, yeri bor edi, turluk-turluk azob-u uqubat bila o’lmakka sazovor edi, chun orada bir nav ulug’luq bo’lube di, maning tuqqan xolam Xo’b Nigorxonimdin o’g’lonlari va qizlari bor edi. Bu huquqni yod qilib, Muhammad Husayn mirzoni ozod qildim”. Demak, Bobur isyonchining qilmishidan qattiq darg’azab bo’lganiga qaramasdan, insoniylik nuqtai nazaridan, qolaversa, xolasi va xolavachchalarining hurmati yuzasidan Muhammad Husayn mirzoni jazodan ozod qiladi. Otasining bu fikrlarini Gulbadanbegim ham tasdiqlaydi. “Humoyunnoma”da muallifning yozganidek, Bobur isyonchini “xolalarining xotirasini qilib, Mirzo Muhammad Husaynning gunohidan kechdilar va ozod qildilar”.

Ushbu masalaga Muhammad Haydar Mirzo o’z asarida tarixchi emas, birinchi navbatda farzand sifatida murojaat qiladi. U o’z otasidan nuqson izlamaydi, uning bu kamchiligiga izohlar berishga hamda padarini oqlaydigan asoslar keltirishga harakat qiladi. Isyon bostirilgach, yengilgan otasi va Boburning uchrashuvini “Tarixi Rashidiy”da muallif “Boburnoma” hamda “Humoyunnoma” dan farqli ravishda quyidagicha tasvirleydi: “Bobur Podshoh otamni ko’rgach, shosha-pisha, ilgarigi rasm-odatga ko’ra ta’zim qilib kelib xursand bo’lib, kulib u bilan quchoqlashdi, mehribonlik bilan sog’ligini,

ahvolini so`radi...U himmat va muruvvat ko`rsatib, ular bilan samimiy suhbatlashdi va qaysi yo`lni tanlashni: ketishadimi yoki u bilan qolishadimi, o`zlarining ixtiyorlariga qo`yib berdi”.

Demak, ushbu tarixiy haqiqatni yoritishda Muhammad Haydar Mirzo real yondashmagan. Pirimqul Qodirov esa yuqoridagi bahsda “Boburnoma”dagi variantni tanlaydi. “Yulduzli tunlar” asarida muallifning tasvirlashicha, isyonchilarning boshliqlaridan biri – “Xotinlarning xonasidagi...bo`g`jamaning ichiga yashiringan” pochchasi Muhammad Husayn dug`lat qo`lga tushgach, hukmdor oldida tiz cho`kib, tavba qilganini aytadi. Bobur esa marhuma xolasi hamda xolavachchalarining hurmati pochchasini afv etadi va uni o`z ixtiyoriga ko`ra Kobuldan chiqib ketishiga izn beradi. Ana shu tarixiy jarayonlar yoritilgan barcha tarixiy va badiiy asarlarda Boburning kechirimli, qarindoshlariga muruvvatli, kattalarga bo`lgan hurmatini madh etadi. Jumladan, isyonchi Muhammad Husaynning o`g`li, muarrix Muhammad Haydar mirzo ham o`z asarida bekorga xolavachchasini “Turli go`zal fazilatlar, maqtovg`a loyiq sifatlarga ega podshoh edi. Barcha sifatlari ichida shijoat va muruvvatpeshaligi ustun kelardi” deb ta`rif bergani bejiz emas.

Yuqoridagi tahlillar Pirimqul Qodirovning mavzuni yoritishda, avvalo, “Boburnoma”ga tayanib ish ko`rganligini, shu bilan birga Bobur davrida yaratilgan boshqa tarixiy asarlarga ham murojaat etganligini ko`rsatib turadi. Chunki “Boburnoma”ning bizgacha yetib kelmagan qismlaridagi tarixiy jarayonlar, Bobur aynan keng yoritmagan voqea-hodisalarga ham batafsil to`xtalib o`tishga harakat qiladi. Buning uchun “Humoyunnoma”, “Tarixi Rashidiy”, Xondamir va Mirxondning tarixiy asarlarini, qolaversa, XV-XVI asr Turon, Eron, Afg`oniston va Hindiston tarixi haqida ma`lumot beruvchi manbalarni chuqur o`rganganligi ko`zga tashlanadi. Shu boisdan ham “Yulduzli tunlar”da Boburning Samarqandni qayta qo`lga kiritish uchun shialar hukmdori Ismoil bilan tuzgan ittifoqi va uning muvaffaqiyatsiz natijasi, o`z Vatanini shundan so`ng butunlay tashlab betganligi va boshqa qaytib kelmaganligi juda mahorat bilan tasvirlanadi. Hindistonni egallashdagi qon to`kilishlar, xiyonat, yaqinlarining har qadamdagi vafoti Boburning qalbini tirnaganligi aniq. Biroq uning og`ir musibatlar boshiga tushganda ham matonatli va sabrli bo`lganligi realistlik lavhalarda o`z ifodasini topgan.

Shunga qaramay, “Yulduzli tunlar” romanini dastlabki nashrida Boburning ruhiy dunyosi, o’y-kechinmalari teran va mufassal ochilmay qolgan edi. Buni keyinroq payqagan muallif vaqt o’tgach romanga bir necha qo’shimcha bob yozib ularni qahramonning hayolan tushlarida Amir Temur bilan qilgan suhbatlarini jonlantirgan va ilgarigiga nisbatan chuqurroq psixologik tahlil yaratishga muvoffaq bo’ldi.

Romanning o’ziga xos xususiyatlaridan yana biri shundaki, unda yozuvchi Boburning hayot yo’lini u yashagan tarixiy davr manzaralarini, atrofdagi kishilar munosabatini juda keng miqyosda qamrab olishga intilgan. Bunday tasvir Bobur yashagan murakkab tarixiy davrning mohiyatini, ruhini o’ziga xos ziddiyatlarni o’zaro bog’liqlikda namoyon qilishga yo’l ochgan. Shunga qaramay, asardagi ba’zi voqealar yoki qahramonlarning xatti-harakatlari kitobxonni ishontiradigan darajada dalillanmagandek tuyuladi. Masalan, tarix haqiqatiga mos holda muallif Xonzodabegimning o’z xohishi bilan Shayboniyxonga erga tegishi voqeasini mufassal tasvirlaydi. Xonzodabegim ukasini, ya’ni Boburni qutqarish maqsadida shunday qilgani romanda asosiy sabab qilib ko’rsatiladi. Faqat bundan boshqa yana ko’plab dalillar keltirilganiga qaramay, Xonzodabegim Shayboniyxonga tegishi kitobxonni to’liq ishontirmagandek tuyuladi. Xuddi shuningdek Shayboniyxonning oltin gul qidirib, Xirotga qilgan shafqatsizligi va Xadichabegimni qiynashlari ham romandagi asosiy syujet chizig’iga, ya’ni Boburga taalluqli voqealar tizmasiga yaxshi bog’lanmagandek tuyuladi.

Yozuvchi “Avlodlar dovoni” asarini “Yulduzli tunlar” romanining davomi sifatida yozdi. Buyuk siymolarning dramalarga to’la shonli va murakkab hayot yo’lini, ulug’ xizmatlarini tarix haqiqatiga sodiq holda xolis ifodalash “Avlodlar dovoni”da o’ziga xos tarzda namoyon bo’lgan. Bu romanda Bobur Mirzo avlodlari ko’tarilgan dovonlar murakkab hayot bosqichlarida aks etgan. Asarda, asosan, Boburning to’ng’ich o’g’li Humoyun Mirzo va nevarasi Akbarshoh hayoti manzaralari jonlantirilgan. Pirimqul Qodirov ushbu asar haqida quyidagilarni yozadi: “Men ushbu romanni ko’pchilik kitobxonlarning talablaridan kelib chiqqan holda yozdim va asarni yaratish jarayonida XV-XVI asr xalqimiz tarixi, adabiyoti, madaniyatini chuqur o’rgangan holda asarimda aks ettirdim”.

O'zbek adabiyotida hozirga qadar bunday keng qamrovli tarixiy roman yaratilmagan edi. Bu ikki asar tarixiy ma'lumotlar juda boy bo'lgani xolda, badiiy jihatdan biroz nochoridir. Yozuvchi tarixiy, aniq dalillarga katta e'tibor bergani holda asarning yaratilishi emas, tarixiy kitob yozishni oldiga birlamchi maqsad qilib qo'ygandek tuyuladi. Ayniqsa, "Avlodlar dovoni" kompozitsion jihatdan tarqoq va nomukammal bo'lib, undagi Akbar hayotiga hamda faoliyatiga taalluqli voqea-hodisalar o'zaro uzviy bog'lanib ketmagandek tuyuladi. Shuningdek asardagi Akbarning janglardagi qahramonligini ko'rsatishga bag'ishlangan voqealarda bir-biriga o'xshash tafsilotlar, takrorlar mavjuddek ko'rinadi. Roman oxirida N.A.Dobrolyubov va Nerularning Akbar haqidagi so'zlari keltirilishi ham muallifning o'z g'oyaviy maqsadini ta'kidlashga uringanidan guvohlik beradi xamda uni ilmiy asarga yaqinlashtirib qo'yadi. Bunday nuqson P.Qodirovning deyarli butun ijodi davomida publitsistika sohasidagi unumli qalam tebratgani bilan belgilansa ajab emas.

Pirimqul Qodirov deyarli har bir romanida xalqimizning o'tmishi, tarixi yuzasidan o'ziga xos yangi so'z aytishga intildi. Bu jihatdan uning "Ona lochin vidosi" nomli tarixiy romani nihoyatda xarakterlidir. Unda muallif go'yo Maqsud Shayxzodaning "Mirzo Ulug'bek" tragediyasidagi talqinlar bilan munozaraga kirishib, mashhur temuriy malika Gavharshodbegimning yangicha, ya'ni tarixiy dalillarga suyangan holda o'z tasavvurida jonlangan siymosini gavdalandirdi. Tragediyadan farqli holda romanda Gavharshodbegim mehribon ona, ilm-fan va she'riyat homiysi hamda tadbirkor davlat arbobi qiyofasida gavdalanadi. Bunday talqin Abdurazzoq Samarqandiy va o'tmishdagi boshqa tarixchilarning Gavharshodbegim haqida yozib qoldirgan ma'lumotlariga ko'proq mos keladi. Bu tarix haqiqati romanda Gavharshodbegimning Mirzo Ulug'bekka, Abdulatifga va yosh Alisher Navoiyga bo'lgan munosabatini ko'rsatish orqali yuzaga chiqarilgan.

P.Qodirov adabiy ijodning publitsistikadek ommabop janrida ham unumli qalam tebratib, ko'plab maqola va kitoblar e'lon qildi. Uning ilk ocherki "Oilamiz" 1953-yili chop etilgan bo'lib, o'zining shu kabi asarlarida P.Qodirov zamonaviy hayotning dolzarb masalalarini murakkab ma'naviy-axloqiy muammolarini ta'sirchan shaklda va chuqur samimiyat bilan yoritishga intilgan edi. Samimiyatga to'liq pafos yozuvchi yaratgan ko'plab tanqidiy asarlarning ham qon-qoniga

singib ketgan. Jumladan, “Xalq tili va realistik proza”, “Til va dil”, “Til va el” nomli ilmiy ommabop ishlari adib hamda olim izlanishlarining mahsuli sifatida maydonga kelgan edi. P.Qodirov ssenariysi asosida zangori olov zaxmatkashlari haqida “Sening izlaring” badiiy filmi yaratilgan.

Adib tarjimon sifatida L.Tolstoyning “Kazaklar”, K.Fedinning “Ilk sevinchlar”, N.Tomsonning “Iz”, X.Deryaevning “Qismat” asarlarini o’zbek tiliga o’girdi.

“Yulduzli tunlar” romani uchun P.Qodirov 1982-yili Hamza nomidagi Davlat mukofotiga sazovor bo’lgan. P.Qodirov O’zbekiston xalq yozuvchisidir.

U O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlis deputati, fan, madaniyat va ta’lim qo’mitasi raicining muovini bo’lib ishlagan. Yozuvchi 1994-yil “Shuhrat” medali, 1998-yilda esa “El-yurt hurmati” ordeni bilan mukofotlangan. Milliy istiqlol yillari P.Qodirov o’z taxallusidagi “qul” va “ov” singari so’z oxiridagi qo’shimchalardan voz kechgan hamda o’zini “Pirim Qodir” deb e’lon qilgan edi. Shunga qaramay umrining oxirigacha ham o’z asarlarini “Pirimqul Qodirov” imzosi bilan nashr qildirishda davom etgan. P. Qodirov 2010-yil 20-dekabr kuni umrining 82 yili, ya’ni Lev Tolstoy yoshida olamdan o’tdi.

Butun ongli umri davomida haqiqat, adolat, ezgulikka sadoqat va bu yo’ldagi fidoiyluk, bardosh O’zbekiston xalq yozuvchisi Pirimqul Qodirovning hayot hamda ijod dovonlarini yorituvchi mayoq bo’lib keldi. Bu noyob fazilat ozod mamlakatning yangi avlodi, istiqlol farzandlari, xususan, yosh ijodkorlar uchun ibrat namunasi bo’lib qolishi shubhasizdir.

Shu tariqa o’zbek adabiyoti taraqqiyotiga sezilarli hissa qo’shganligi sababli P.Qodirov ijodi tanqidchilikda ma’lum darajada o’rganilgan. Xususan, uning ijodi yuzasidan Ozod Sharafiddinov, M.Qo’shjonov, U.Normatov, I.G’ofurov va N.Xudoyberganov kabi tanqidchilar teran tahlilga boy maqolalar e’lon qilganlar. Ayniqsa, ular orasida O.Sharafiddinovning “Ulg’ayish” nomli maqolasi yozuvchining haqqoniy siymosini gavdalandirishga intilish ruhida yozilganligi bilan ajralib turadi. Tanqidchi P.Shermuxammedovning 1983-yili e’lon qilingan “Pirimqul Qodirov” nomli kitobi bilan yozuvchi ijodini keng ko’lamda tadqiq etish bosqichi boshlandi.

“Yulduzli tunlar”, “Avlodlar dovoni” chiqqanidan beri kitobxonlarning muallifga maktublari keti uzilmaydi. Chunonchi,

Hindistonning Imdour shahrida yashovchi Surjamol Garj degan advokatdan kelgan maktubda shunday satrlar bor: “Yozuvchi boy faktik materiallar asosida badiiy jihatdan go’zal roman yaratgan, men ko’pdan beri bunday ajoyib asar o’qimagan edim”.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Pirimqul Qodirov qanday hayot yo’lini bosib o’tgan?
2. Pirimqul Qodirovning ijod yo’li qaysi asrdan boshlanadi?
3. Qaysi roman Pirimqul Qodirovning dastlabki katta muvaffaqiyati sifatida baholangan?
4. Pirimqul Qodirovning ijod yo’li qanday bosqichlarga bo’linadi?
5. Pirimqul Qodirovning “Qora ko’zlar” romani o’zbek adabiyotida zamonaviy mavzu talqiniga qanday yangiliklar olib kirgan?
6. Pirimqul Qodirovning “Olmos kamar” asari bilan o’zbek adabiyotida roman janrining qanday shakli boshlanadi?
7. Pirimqul Qodirovning qaysi qissasi uning ijodidagi eng katta muvaffaqiyat deb qaralishi mumkin?
8. Pirimqul Qodirovning “Yulduzli tunlar” asari o’zbek tarixiy romanchiligini qanday tamoyillar hisobiga boyitdi?
9. Pirimqul Qodirovning “Ona lochin vidosi” romanida tarixiy shaxslar obrazi qanday talqin etilgan?
10. Pirimqul Qodirov o’zbek tanqidchiligi va adabiyotshunosligi rivojiga qanday hissa qo’shgan?

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Каримов И. Адабиётга эътибор – маънавиятга, келажакка эътибор. – Т.: Ўзбекистон, 2009.
2. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажакимизни мард ва олийжаноб халқимиз билан бирга кураимиз. – Т.: Ўзбекистон, 2017.
5. Каримов Н., Мамажонов С., Назаров Б., Норматов У., Шарафиддинов О. XX аср ўзбек адабиёти тарихи. Олий ўқув юртлари учун дарслик. –Т.: Ўқитувчи, 1999.
7. Санжар Содик. Янги ўзбек адабиёти тарихи. Дарслик. –Т.: Университет, 2005.
8. Каримов Н. XX аср адабиёти манзаралари. –Т.: Ўзбекистон, 2008.

Pirimqul Qodirov asarlari:

9. Қодиров П. Сайланма. Уч жилдлик. –Т.: Ғ. Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1987-1988.
10. Қодиров П. Авлодлар довони. –Т.: Ғ. Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1989.
11. Қодиров П. Юлдузли тунлар. – Т.: O`zbekiston, 1999.
12. Қодиров П. Она лочин видоси. Тарихий роман. – Т.: Шарқ, 2001.
13. Qodirov P. Yulduzli tunlar. – Т.: Sharq, 2018.

Pirimqul Qodirov haqidagi tadqiqotlar:

14. Шарафиддинов О. Улғайиш. Китобда: Адабий этюдлар. –Т.: Ғ. Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1967.
15. Қўшжонов М. Баҳсларда улғайган ижод. Сайланма. Икки томлик. 2-том. –Т.: Ғ. Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1982.
16. Шермухамедов П. Пиримқул Қодиров. Адабий портрет. –Т.: Ғ. Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1983.
17. Муродов Ғ. “Юлдузли тунлар” романида бадиий кодлар // БухДУ илмий ахборотлари.– Бухоро, 2000. – 1-сон. – Б. 23-27.
18. Муродов Ғ. Тарихий романчилик анъаналари ва “Юлдузли тунлар” бадиияти // БухДУ илмий ахборотлари. – Бухоро, 2002. – 1- сон. – Б. 21-30.
19. Муродов Ғ. “Авлодлар довони” тарихий роман сифатида // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2007. – 3-сон. – Б. 58-60.

Internet saytlari:

20. www.alishernavoiiy.uz
21. www.ziyo-net.uz
22. www.literature.uz
23. www.kutubxona.uz.
24. <http://uchildiz.uz>

MAVZU: ERKIN VOHIDOV POEZIYASI



(1936 - 2016)

Reja :

- 1. E.Vohidov ijodining o`rganilishi.*
- 2. E. Vohidov lirikasining janriy tarkibi va o`zga xos xususiyatlari*
- 3. Shoir lirikasining mavzular olami.*
- 4. E.Vohidov poemalari.*
- 5. «Nido» – 60 yillar o`zbek dostonchiligida alohida hodisa.*
- 6. «Ruhlar isyoni» – falsafiy, fojeiy va qahramonlik dostoni.*

«Sizlar baxtlisizlar, baxtinglar shundaki, Erkin Vohidovday shoir bilan bir zamonda, bir shaharda, hatto bir mahallada yashaysizlar. Istaganda uning kitobini olib o`qishingiz mumkin»

N.A.Muhiddinov, davlat arbobi.

«Mana bir necha o`n yildirki, biz dilbar bir she`riyatning muattar havosidan bahramand bo`lib kelayotirmiz. Bu Erkin Vohidov she`riyatidir. Ona tilimizdagi ipakdek mayin, kamalakdek rang-barang, g`oyat nozik lutf, beozor qochirimlar, goh hazin, goh samimiy tabassum uyg`otuvchi tashbehlar, o`tkir xulosalar - bular bari ulkan shoirimizning qalamiga mansub betakror fazilatdir. Men Erkin Vohidovni she`riyatda o`ziga xos sehr sohibi deb bilaman...»

A.Oripov, O`zbekiston xalq shoiri.

O`zbekiston xalq shoiri, noyob iste`dod sohibi Erkin Vohidov she`riyatimizning porloq yulduzidir. Shu bilan birga, u taniqli jamoat arbobi hamdir.

Erkin Vohidov 1936-yilning 28-dekabrida Farg`ona viloyati

Oltiariq tumanida ziyolilar oilasida tug`ildi. O`rta maktabni oltin medal bilan, Toshkent davlat universiteti (hozirgi O`zMU)ning o`zbek filologiyasi fakultetini esa imtiyozli diplom bilan bitirdi. «Yosh gvardiya» hamda G`afur G`ulom nomidagi Adabiyot va san`at nashriyotlarida ishladi. «Yoshlik» jurnalini tashkil qilib, unga Bosh muharrir bo`ldi. 1983-yilda «Sharqiy qirg`oq» to`plami uchun O`zbekiston davlat mukofoti bilan taqdirlandi. Shoir 1999-yilda O`zbekiston Qahramoni yuksak unvonini olishga sazovor bo`ldi.

Erkin Vohidov adabiyotning turli janrlarida ijod qilib, asardan asarga o`sa bordi. Shoirning ijodiy o`sishida uning xalq hayoti va ustozlar mahoratini o`rganishi muhim ahamiyatga ega bo`ldi. Erkin Vohidovning ustozlardan ijodiy o`rganishi, asosan, ikki yo`l bilan sodir bo`ldi: birinchidan, u yoshligidan boshlab Navoiy, Fuzuliy, Pushkin, Yesenin, H. Olimjon, G`ayratiy kabi ko`plab shoirlarning asarlarini sinchiklab o`qib-o`rgandi. Ana shuning uchun ham u, masalan, Hamid Olimjon haqida: «Men uni ustoz deyman. Meni ilk bor she`riyatning sehrli gulbog`iga g`oyibona yetaklagan, xanda urib oqqan misralari yosh qalbinga shaloladay quyilgan, menga baxt va shodlikni kuylash san`atini o`rgatgan shoir shu ustozdir», – deb yozgan edi. Ikkinchidan, Erkin Vohidov o`z faoliyati davomida Abu Ali ibn Sino, Hofiz Sheroziy, Bedil, Fridrix Shiller, I.Gyote, A.Pushkin, S.Yesenin, A.Blok, M.Svetlov, A.Tvardovskiy, Silva Kaputikyan, A. Malishko, Rasul Hamzatov singari shoirlarning bir qancha asarlarini tarjima qildi. Ayniqsa, I.Gyotening «Faust», Sergey Yeseninning «Eron taronalari» asarlarini o`zbek tiliga mohirona o`girdi. Shu jarayonda bu shoirlar ijodidan ta`sirlandi, ulardan ko`p narsani o`rgandi.

Erkin Vohidov adabiyotga XX asrning 60-yillarida kirib keldi. Uning o`ziga xos iste`dodi, avvalo, uning shoir sifatida o`zbek she`riyatiga kiritgan yangiliklarida yorqin namoyon bo`ladi. Ma`lumki, E. Vohidov adabiyotga kirib kelgan davrda she`riyatda ko`tarinki ijtimoiy pafos yetakchi bo`lib, insonning his-tuyg`ularini tasvirlashga keraklicha yo`l berilmas edi. Erkin Vohidov bu g`ayriestetik aqidani buzib, she`riyatni inson tuyg`ularining ifodasiga aylantirishga, uning hayot bilan aloqasini mustahkamlashga, asarga badiiy jilo berishga e`tibor qaratdi. U chinakam lirikaning ajoyib namunalari yaratib, she`riyatimiz saviyasini oshirish uchun faol kurash olib bordi.

Erkin Vohidov dastlabki she`rlaridayoq badiiy mahoratga, asar

sifatiga alohida e`tibor berdi va juda yaxshi natijalarga erishdi. Bunga shoirning «Tong nafasi» (1961), «Aql va yurak» (1963), «Mening yulduzim» (1964) kabi dastlabki to`plamlari misolida to`liq qanoat hosil qilish mumkin. Chunki, bu to`plamlarga kirgan she`rlarning aksariyati mayin, dilrabo, yoqimli lirika namunalari bo`lib, ularda fuqarolik his-tuyg`ulari ufurib turadi. Shoir chin insoniylikni ulug`lab, jamiyatdagi barcha moddiy va ma`naviy boyliklarning bunyodkori bo`lgan inson sezimlari, ko`ngil mavjlari haqida so`z san`ati vositasida mushohada yuritadi. Jamiyat taqdiri inson qo`lida ekanini samimiyat bilan yorqin ifodalaydi:

*Sobitu sayyoruda Inson i`zing, Inson o`zing,
Mulki olam ichra bir xotsop o`zing, sulton o`zing.*

«Inson»

Erkin Vohidov o`z she`riyatida inson, mehnat, vatan, yoshlik, do`stlik, poklik, halollik, to`g`rilik, muhabbat, sadoqat, samimiylik va go`zallik singari abadiy dolzarb mavzularni lirika torlariga solib o`ziga xos yoqimli va ravon uslubda kuylaydi. Masalan, «Go`zallik» she`rida mehnat olamnigina emas, balki odamning o`zini ham o`zgartiradi; go`zal va ko`rkam qiladi, degan g`oya ustalik bilan ifodalangan:

**Mulki borliq ichra bir mahal,
Ko`rksizgina olam yaralgan.
Bermoq uchun dunyoga sayqal
Olam aro odam yaralgan.
Shundan beri inson tinmayin
Shu yer uzra ter to`kar hamon,
Yerni go`zal qilgani sayin
Go`zal bo`lar o`zi ham inson.**

Erkin Vohidov zamonamizning rang-barang mavzularini yoritishda barmoq vazni qulayliklaridan ham, aruz vazni imkoniyatlaridan ham birdek mahorat bilan foydalanadi. Darhaqiqat, Erkin Vohidov 60-yillarda: «Ey munaqqid, sen g`azalni ko`hna deb kamsitmagil, sevgi ham Odam Atodan qolgan inson qonida», – degan estetik nuqtai nazarni dadil ko`tarib chiqqan edi. Shu bilan birga, shoir yangi zamon ruhini aruz vaznidagi asarlar, jumladan, g`azallarda ham ifodalash mumkinligini amalda isbotladi.

Shoirning go`zal g`azallardan, muxammas va qasidalardan tashkil topgan «Yoshlik devoni» (1969) Erkin Vohidovning aruz vazni nozikliklarini chuqur o`zlashtirganini, yangi zamon g`oyalarini

ifodalashda anʻanaviy gʻazal shaklidan mohirona foydalana olishini namoyish qildi. Erkin Vohidovning «Lola sayli», «Yoshligim, kel», «Barcha shodlik senga boʻlsin», «Shirin», «Doʻst bilan obod uying» singari koʻplab sheʼrlari gʻazal janrining mukammal, goʻzal namunalaridir. Ularda qalamga olingan mavzular yuksak saviyada, gʻoyat yoqimli qilib yoritilgan. Binobarin, bu gʻazallardagi misralar oʻzaro mustahkam bogʻliq boʻlib, yaxlit bir hayotiy manzarani yoxud tugal bir gʻoyaviy-poetik mazmunni hosil etadi. «Doʻst bilan obod uying» gʻazalida shoir xilma-xil tasviriy vositalar, xalq maqol va aforizmlari darajasidagi hikmatli misralar yaratib, oʻzining doʻstlik haqidagi shoirona xulosalarini gʻazalning umumiy ruhiga singdirib yuboradi:

Doʻst bilan obod uying, gar boʻlsa vayrona ham,

Doʻsi qadam qoʻymas esa, vayronadir koshona ham...

Doʻst qidir, doʻst top jahonda, doʻst yuz ming boʻlsa oz,

Koʻp erur bisyor dushman boʻlsa bir dona ham.

Erkin Vohidov gʻazallarining tili sunʻiy jimjimadorlikdan xoli. Shoir misralari gʻoyat tabiiy va ravon oqadi. Ana shu sababli Erkin Vohidov gʻazallarining deyarli hammasi bastakorlar va hofizlar tomonidan kuyga solinib, qoʻshiq qilib aytiladi.

Erkin Vohidovning 70-80-yillardagi sheʼriyatida ijtimoiy motivlar kuchaydi. Bu xususiyat shoirning «Nido» (1965), «Hozirgi yoshlar» (1974), «Tirik sayyoralar» (1978), «Sharqiy qirgʻoq» (1981), «Bedorlik» (1985), «Muhabbatnoma», «Sadoqatnoma» (1986) kabi toʻplamlariga kirgan «Zangori shuʼlalar», «Biz ishlayapmiz», «Manfaat falsafasi», «Unutish qoʻshigʻi», «Temirtan daholar» kabi sheʼrlarida yaqqol koʻzga tashlanadi. Shoir ijtimoiy hodisa va ijtimoiy motivlarni ifodalashda oʻzbek xalqi moddiy va maʼnaviy hayotining turli sohalariga murojaat etadi. Oʻzbek xalqining tarixiy oʻtmishi, xususan, hozirgi turmush tarzidan realistik manzaralar chizadi. Xalqning milliy xususiyatlarini, milliy qadriyatlarini yorqin aks ettiradi. Ayniqsa, oʻzbek xalqining mehnatsevarlik, insonparvarlik, vatanparvarlik, tantilik, mehribonlik, oqibatlilik, bagʻrikenglik singari ajoyib fazilatlarini maftun boʻlib tasvirlaydi. Shu bilan birga, xalqning shodligu quvonchlari, dardu alamlari, tashvishu iztiroblari, orzu va istaklarini gʻoyat taʼsirli va jozibali qilib aks ettiradi.

Erkin Vohidov «Oʻzbekim» sheʼrida zahmatkash oʻzbek xalqi obrazini yaratib, oʻzbekning qadr-qimmatini haqli ravishda baland koʻtardi. Oʻzbekning boy va qadimiy tarixga ega xalq ekanini sheʼriy

tilda ta`kidlab, quyidagi xulosaga keldi:

*Tarixing bitmakka xalqim,
Mingta Firdavsiy kerak.
Chunki bir bor chekkan ohing,
Mingta doston, o`zbekim.*

Shoir Erkin Vohidov o`zbek xalqining boy tarixini, milliy qadriyatlarini va ajoyib fazilatlarini tasvirlaganida boshqa xalq va millatlarni aslo kamsitmaydi. U chin baynalmilalchi ijodkor sifatida bu muhim va nozik mavzuga doimo xalqlar do`stligi nuqtai nazaridan yondashadi. Rus xalqi haqida yozganida ham («Buyuk hayot tongi»), Kavkaz xalqlari haqida kuylaganida ham («Fuzuliy haykali qoshida», «Azganush»), O`rta Osiyodagi qardoshlar hayotidan she`riy lavhalar bitganida ham («Tojik birodarimga», «Abay», «Qozoq oqinlariga»), hatto, chet el mavzuini qalamga olganida ham («Kanada turkumidan») Erkin Vohidov serqirra mavzuni o`zga xalqlarga samimiy hurmat asosida yoritadi. Shu orqali do`stlik, birodarlik, tenglik va do`stlik his-tuyg`ularini dil-dildan izhor etadi.

Erkin Vohidov she`riyatida zamonamizning xalq ommasini qiziqtiradigan, tashvishlantiradigan rang-barang masalalari, xilma-xil mavzulari asosiy o`rinni egallaydi va ular hayot haqiqatiga mos holda ezgu niyat bilan sodda va ravon tilda aks ettiriladi. Bir she`rida Erkin Vohidov o`zining shoirona mushohadalarini: «Olam aytar: hech qachon ona tilim o`lmaydi», – deb xulosalaydi. Shoir asarlarida hayotdagi ibratli tomonlarni, porloq tamoyillarni, ijobiy holatlarni tasvirlash bilan birga, salbiy jihatlarni, turli illatlarni ochib tashlaydi. Shoir: «Rubobim tori ikkidur: biri quvnoq, biri mahzun. Ki baytim satri ikkidur: biri dilxush, biri dilxun», – deb yozganida xuddi ana shu holni nazarda tutgan. Darhaqiqat, shoir zamonamizning ko`zi va qulog`i sifatida yutuqlarimizni faxrlanib kuylasa, o`zi yashayotgan davrning dardu alamlarini kuyunchaklik bilan ko`rsatib beradi.

Erkin Vohidov ba`zi she`rlarida qadimiy urf-odatlaru milliy qadriyatlarga darz ketayotganidan tashvishlanadi va bunga chek qo`yish masalasini ko`tarib chiqadi. Shoirning «Siyosiy saboq yoki Bek Bekovning g`aroyib sarguzashti» sujetli she`rida tasvirlanishicha, katta boshqarmaning boshlig`i Bek Bekov kunlardan bir kun idoradan uyiga xizmat mashinasida emas, piyoda qaytadi. Yo`lda u turli «g`aroyib sarguzashtlar»ga duch keladi. Natijada, uning ko`zi ochilib, xatolarini anglab oladi. Darhaqiqat, Bek Bekovning uyiga piyoda qaytishi u yashayotgan mahallada har xil gumon va mish-mishlarning

tarqalishiga sabab bo`ladi. Birov: «Ishdan ketgan. U, tayin», – deb taxmin qilsa, boshqa birov: «Chaquv bo`lgan yo boshqa biror ko`rgulik. Ha, ish tushgan sho`r boshga», – deya vahima ko`taradi. Choyxonachi Shokirvoy esa unga bo`lar-bo`lmas so`zlar aytib, «nasihat» qiladi. Aslida, Bek – kamtar, sodda, halol, beg`araz odam. U butun umri davomida ish bilan band bo`lgan; ishga erta ketib, kech qaytgan. «Majlis, saylov, nutq, yakun... Ertadan to kech. O`zi uchun biror kun yashamabdi hech». Oxir-oqibatda Bek Bekov ish-ish deb hayotdan – mahalla ahlidan uzoqlashib qolganligini anglaydi va bundan qattiq pushaymon bo`ladi:

Pishmagan kalla!

Tobutingni ko`tarar

Axir, mahalla!

To`y qilsa kim so`rog`lab –

Kirganing bormi?

Azasida bel bog`lab

Turganing bormi?..

Dunyo ko`rgan, fikri keng,

Ulug`vor hotam –

Shuni o`ylamabdi, deng,

Ministr odam.

Ko`rinadiki, asarda shoir ayrim rahbarlar fe`l-atvoridagi ko`z ilg`amas darajadagi nozik qusurlarni sinchkovlik bilan ilg`ab, ularni mohirona tasvirlab bergan. Shu orqali hayotdan saboq olish; el-yurt bilan doimo birga bo`lish – mahalla ahlining quvonchiga ham, tashvishiga ham birdek sherik bo`lish g`oyasini olg`a surgan. Shunisi ham borki, asarda milliy qadriyatlarimizni ulug`lash, urf-odatlarimizni targ`ib-tashviq etish quruq bayon etilmaydi; aksincha asarning umumiy ruhiga ustalik bilan singdirib yuboriladi.

Erkin Vohidov asarlarida ijtimoiy yo`nalish hech qachon e`tibordan chetda qolmagan. Shoir jamiyatni qayta qurish va mustaqillik haqida ham yorqin she`rlar yozgan.

Erkin Vohidovning «Yurtim, olis yo`lga chiqqan karvoning bor» she`rida lirik qahramonning his-tuyg`ulari, imon-e`tiqodi, yovuz terrorchilarga bo`lgan nafrati, g`azabi milliy tarovat libosida, go`zal bir yo`sinda yorqin ifodalangan. Shoir mustaqillik davri-davronini ulug`lash va uni ko`z qorachig`iday asrash g`oyasini ona Vatanga, xalqqa sadoqat g`oyasi bilan chambarchas bog`lab kuylaydi. She`rda samimiyat, haqqoniylik va lirik nafosat bo`rtib turadi:

**Bu dunvoda yaxshi-yomon kunlur ko`rdim,
O`kinchim yo`q, mayli, yillar qaddim egsin,
Men hamon bir askaringmam, ona yurtim.
Sen tomonga otilgan o`q menga tegsin...
Tong nurisan. Vatan, ko`nglim osmonida
Erking azal ajdodlarning armonida,
Mehring abad avlodlarning iymonida
Shu iymonga otilgan o`q menga tegsin.**

Shunday qilib, Erkin Vohidov ijodida asosiy o`rinni hozirgi zamonning dolzarb, ijtimoiy mavzulari tasviriga bag`ishlangan chuqur mazmunli, jiddiy, o`ychan she`rlar egallaydi. Bundan tashqari, shoir bisotida kulgili voqea yoki komik holat asosida yaratilgan quvnoq, xushchaqchaq, samimiy yumorga boy she`rlar ham mavjud. Shoirning «Donish qishloq latifalari» turkumiga kirgan «Matmusaning qishlog`i», «Matmusaning qalpog`i», «Matmusaning lagani», «Matmusaning charxpalagi», «Matmusaning tandiri», «Matmusaning uylanishi», «Qiziquvchan Matmusa», «Matmusa – rassom», «Matmusaning dutori», «Tandir kiygan Matmusa» kabi xushchaqchaq she`rlari o`quvchilarga manzur bo`ldi. Bu she`rlar o`quvchilarga yaxshi kayfiyat bag`ishlash bilan birga, ularni ezgulik ruhida tarbiyalashga ham xizmat qiladi.

Erkin Vohidovning hozirgi zamonning turli mavzularida yozilgan hajviy she`rlari ham muhim tarbiyaviy-estetik qimmatga ega. Shoir «Majlis qiling», «Manfaat falsafasi», «Sen menga tegma», «Boshimdadir», «Nasihat», «Soch madhi», «Ko`chamen» kabi hajviy she`rlarida hayotda mavjud bo`lgan har xil illatlar ustidan kuladi.

Erkin Vohidov hajviy-yumoristik asarlarida «qissadan chiqariladigan hissa»ni juda aniq va ixcham qilib ifodalaydi. Bir she`rida: «Qo`lni ishga mohir etma, tilni gapga usta qil», deya kinoya qilsa, boshqa bir asarida: «Sendan ul va mendan bul», «Qo`lni qo`l yuvar, do`stim, Nafi yo`q jiyan kelsa, tog`a ham quvar, do`stim», – deb piching qiladi («Manfaat falsafasi»).

Qisqasi, Erkin Vohidov she`riyatning rang-barang janr va shakllariga murojaat qiladi hamda har safar uning yangi-yangi namunalari yaratadi. Shoir xalq va jamiyat taqdiriga taalluqli jiddiy she`rlarida ham, «kulgi mushoiralari»da ham voqea-hodisalarni quruq bayon etish yo`lidan emas, aksincha, asar g`oyasini badiiy tarzda gavdalantirish, sodda va obrazli, ixcham va teran baytlar yaratish yolidan boradi va jiddiy yutuqlarga erishadi.

Shoir asarlari yengil o`qiladi, oson «hazm» qilinadi. Buning asosiy sababi shundaki, muallif jonli xalq tili boyliklaridan, turli tasviriy vositalardan unumli foydalanib, yangi-yangi tashbehtar, ajoyib o`xshatishlar, yorqin sifatlashlar, soda, lekin serhikmat misralar yaratadi.

Shoirning «O`zbek Navoiyni o`qimay qo`ysa...» she`ri kuyunchaklik bilan yozilgan bo`lib, unda katta ma`no, teran hikmat bor. Asarda ana shu katta ma`no xalqona so`z va iboralar ko`magida ustalik bilan ochib berilgan. Navoiy asarlarini o`qib-o`rganish va ularni xalq orasida keng targ`ib etishning buyuk ma`naviy-ma`rifiy ahamiyati ehtiros bilan ifodalangan:

*O`zbek Navoiyni o`qimay qo`ysa,
Dod demakka palla bo`lgani shudir.
Ma`rifatdan ayru o`ynasa, kulsa,
Aza chog`i yalla bo`lgani shudir.
O`zbek Navoiyni o`qimay qo`ysa.
Aldangani, alla bo`lgani shudir.
Yulg`ich aziz bo`lib, bilgich xor bo`lsa,
Paytavaning salla bo`lgani shudir.*

Erkin Vohidov o`z asarlarida mavhum, jimjimador va topishmoqnoma misralar ishlatmaydi. Chuqur mazmunli fikrlarni sodda, siqiq va obrazli qilib ifodalaydi. Shoir hamma vaqt so`z va iboralarni o`z o`rnida, ortiqcha isrof qilmasdan, nihoyatda tejab-tergab ishlatadi. Ana shuning uchun ham Erkin Vohidov she`riyati adabiy asarning birinchi elementi hisoblangan tilning juda aniq va ravonligi, ixcham va go`zalligi, siqiq va obrazlilik bilan boshqa ko`p shoirlar ijodidan farq qiladi, ajralib turadi. Erkin Vohidovning ikki jildlik «Saylanma» asarlari («Muhabbatnoma» va «Sadoqatnoma»)ni o`qiganda bunga to`liq qanoat hosil qilinadi.

Erkin Vohidov ajoyib lirik she`rlar yozish bilan birga, «Buvuk hayot tongi» (1960), «Orzu chashmasi», «Nido» (1964), «Palatkada yozilgan doston» (1966), «Quyosh maskani» (1970), «Charog`bon» (1971), «Baxmal» (1974), «Ruhlar isyoni» (1979) kabi xilma-xil dostonlar ham yaratgan. Bu dostonlarning aksariyati – mazmun jihatidan ham, badiiy mahorat jihatidan ham baquvvat, go`zal. Ularda turli mavzular teran va o`qishli qilib aks ettirilgan.

«Nido» dostoni urush mavzusiga bag`ishlangan bo`lib, bosh qahramoni yigirma yashar yigit ana shu hayot-mamot urushidan so`ng voyaga yetgan yangi avlodning umumlashma obrazidir. Asar ana shu

lirik qahramonning o`qli hayqirig`i bilan boshlanadi.

«Nido» dostoni shirali til bilan yengil uslubda yozilgan. Unda ta`sirli va jozibador lirik parchalar ko`p.

Erkin Vohidovning «Ruhlar isyoni» dostoni – g`oyaviy-badiiy yetuk asar. Shoir unda o`zining yurt mustaqilligi va inson hurligining mohiyati haqidagi poetik fikrlarini ustalik bilan ifodalagan. Doston voqeasi Hindistonda bo`lib o`tdi. Inqilobchi hind shoiri Nazrul Islomning hayoti va fojiali taqdiri doston sujeti uchun asos qilib olingan.

«Ruhlar isyoni» dostoniga isyonkor shoir bengal shoiri Nazrul Islom hayoti, fojiali qismati asos qilib olingan. «Otashin bengal shoiri Nazrul Islomning qahramonona va fojiali taqdiri ko`pdan meni hayajonga solib kelar, u haqda biron narsa yozish xayolida yurardim»,– deydi muallif. Shu maqsadda u shoir hayoti va ijodini astoydil o`rgandi, shoir hayotiga oid faktlar bilan yaqindan tanishish niyatida Hindistonga bordi, shoir yashagan joylarda bo`ldi, shoirni shaxsan tanigan, bilgan kishilar bilan suhbat qurdi.

Ma`lumki, Nazrul Islom asrimiz boshlarida chaqindek yaraqlab, she`riyatda o`chmas iz qoldirgan, isyonkor she`rlari bilan butun Hindiston yarim orolini larzaga solgan, hayotini Hindistonni chet el mustamlakachilari zulmidan ozod etish ishiga, xalqlar birdamligi, erki, baxti yo`lida fido etgan dovyurak shoirdir. Tazyiq, hibs, qiynoqlar ostida shoirni hali o`ttiz beshga yetmagan navqiron yoshida, ayni ijodi qaynagan paytda es-hushidan ayiradilar. Oradan yillar o`tdi, shoir vatani Hindistonda katta o`zgarishlar yuz berdi. Nazrul Islom orzu qilgan kunlar keldi, mustamlakachilar yurtdan quvildi. Hindiston mustaqillik, tinchliksevarlik, ijtimoiy taraqqiyot yo`liga tushib oldi. Bir vaqtlar tahqirlangan, jabrlangan shoir hayotda o`rnini, qadrini topdi, el ardog`iga sazovor bo`ldi. Afsus, endi uning aql-hushi joyida emas. Shu ahvolda u qirq yil ardokda yashadi, yurtidagi o`zgarishlarni, o`ziga ko`rsatilgan ehtiromlarni sezmedi, bilmadi, uni tark etgan es-hush bir lahza bo`lsin qaytmadi.

Shoir dostonida ham xalqimizning erk va mustaqillikka intilishi bengal shoiri Nazrul Islom taqdiri misolida tasvirlab ko`rsatilgan. Adabiyotshunos U.Normatov falsafiy, qahramonlik, fojeiy doston deb atagan E.Vohidovning «Ruhlar isyoni» dostoni ham shakl, ham mazmun jihatidan o`ziga xos novatorona asar. U «xilma-xil she`riy shakl, ritm, hissiy ohang, ranglar, hayotiy lavhalar va rivoyatlar, shartli-simvolik ifodalar sintezidan tashkil topgan». Haqiqatan, asarda

Nazrul Islom qismatini ochib berish uchun shoir bir necha usullardan foydalangan. Shulardan biri asar matniga rivoyatlarning singdirilishidir. Adabiyotshunos S.Mamajonov bu haqda yozadi: «Falsafiylik shoirning teran mushohada va umumlashtirishlaridagina emas, balki voqelikni falsafiy idrok etishiga ko`maklashuvi, afsona-rivoyatlardan o`rinli foydalanishida ham ko`rinadi». Yoxud Sh.Hasanov dostonning aynan shu jihatiga e`tibor qaratgan holda yozadi: «Lirik dostonlarda metaforik fikrlash tarzi kuchaygan bo`lsa, liro-epik va dramatik dostonlarda folklor ohangining ta`siri sezilarli bo`lmoqda. Birgina «Ruhlar isyoni»dagi rivoyatlarning o`zi ham fikrimizni tasdiqlab turibdi. Dostondan joy olgan rivoyatlarning bari Sharq folklorining mumtoz durdonalaridir. Gap bu rivoyatlarning mumtozligida ham emas. Asosiysi – bu rivoyatlarning doston syujetiga singdirib yuborilganligida. Zamonaviy dostonchilikda realistik va romantik tasvir usullarining omuxta etilayotganligi janrning yangi istiqbolidan dalolat beradi». Binobarin, asar tarkibidan o`rin olgan: «Jaholat haqida rivoyat», «Abadiyat haqida rivoyat», «Fidoiylik haqida rivoyat», «Shoh Jahon va Avrangzeb haqida rivoyat»lar asar kompozitsiyasida psixologik tasvir vositasi bo`lib kelgan.

Keltirilgan rivoyatlarning tarixiyligini asoslash, undagi qahramonlarning elu yurtiga sadoqatini, fidoiyligini ta`kidlash vositasida doston qahramoni Nazrul Islomning fazilatlarini bo`rttiriladi. Qolaversa, uning o`z ajdodlariga munosib voris ekanligi o`rnak qilib ko`rsatiladi. Ya`ni rivoyatlardagi epik qahramon bilan doston qahramoni Nazrul Islom o`rtasidagi ruhiy bog`liqlik aynan ana shu nuqtada namoyon bo`ladi. Ularning har biri qahramon xarakteriga xos qaysidir bir muhim jihatni oydinlashtirishda aosiy vosita bo`lib xizmat qilgan.

O`tli bir davrda dunyoga kelgan Nazrul Islom ingliz zulmi ostida ezilayotgan xalqiga najotkor bo`lishga intildi. To`g`ri, xronologik vaqt va voqealar tafsiloti asarda muhim o`rin tutmaydi. Biroq tarixiylik xususiyati sezilib turadi. Ana shu xususiyat zamonaviy she`riyatda tarixiy rivoyatlar mazmuniga murojaat qilish ehtiyojini vujudga keltirdi. Natijada E.Vohidov xalq tarixiy rivoyatlari syujetidan foydalanib, o`z asarining g`oyaviy mazmunini yanada kuchaytirish yo`lidan bordi.

Asarning hayot va abadiyat xususida mulohaza yuritilgan muqaddima qismida «Abadiyat haqida rivoyat» keltirilgan. Unda

sahroda tashna qolgan yo`lovchiga obihayot suvini ichgani uchun ming yillardan buyon tirik yashayotgan, ammo yaqinlaridan ajralgani sabab yolg`izlikda azob chekayotgan chol uchraydi. Aslida dostonda rivoyat deb ko`rsatilgan bu voqelik afsonadir. Chunki undagi «obi hayot» timsoli – xayoliy uydirma hosilasi. Shoir undagi voqeliklar mazmunidan foydalanib, yo`lovchi va chol obrazlariga o`ziga xos ramziy ma`no yuklagan. Jumladan, yo`lovchi obrazi, avvalo, bu dunyo mumtoz shoirlar aytganidek, misoli karvonsaroy ekanligini, unga qo`nib o`tuvchi har bir inson esa yo`lovchi singari o`tkinchiligini, hech kimga hayot abadiy berilmasligini anglatishga, chol obrazi odamzotning umri qancha ko`p yashagani bilan emas, qanday mazmunda umrguzaronlik qilgani bilan bog`liqligini uqtirishga qaratilgan. Xullas, doston mazmunidan inson ezgu ishlari va amallari bilan abadiyatga daxldor bo`lishi mumkin degan mantiqiy xulosa kelib chiqadi.

Ushbu rivoyatning shoir qahramoni bilan bog`liqligi shundaki, Nazrul Islom xalqining ozodligi uchun kurashga bel bog`ladi. Demak, u abadiyat sari yo`l ochdi. Zero, u juda kam yashagan esa-da, umrini eng ezgu ish – xalqining erk va ozodligi yo`liga bag`ishladi. Shu bilan uning nomi, hayoti mangulikka daxldor bo`ldi. Qahramon hayoti bilan bog`liq aynan shu jihat doston mazmuniga chuqur singdirildi.

Shoir bosh qahramon ruhiyatida kechayotgan turfa holatlarni yanada hayotiy ifodalash maqsadida ikkinchi – «Fidoiylik haqida rivoyat»ni ham keltiradi. Rivoyat qadim Hindistonda urf bo`lgan: eri o`lsa – xotinini, xotin o`lsa – erini qo`shib ko`mish odati va unga qarshi isyon ko`targan jangchi yigitning jasorati, fidoiyligi haqida so`zlaydi.

Hindistonni ozod ko`rish istagida yongan fidoiy inson Nazrul Islom jangchi o`g`lon singari birinchilardan bo`lib ona xalqi bo`ynidagi istibdod zanjirini uzishga bel bog`laydi. Demak, rivoyatdagi jangchi o`g`lon va dostondagi Nazrul Islom obrazlari orasidagi mushtaraklik shunda seziladi.

Dostonda 1926-yildagi Kalkutta g`alayoni va unda Nazrul Islomning ishtiroki voqealari bayon etiladi. Nazrul Islom xalqni to`xtatishga harakat qilgani uchun hibsga olinadi va zindonga tashlanadi. Mana shu tarixiy voqelik mazmuniga vobasta holda shoir asarga «Jaholat haqida rivoyat»ni olib kiradi. Unda xalqni giyohlar bilan davolab, el ichra mashhur bo`lgan tabibning qismati hikoya qilinadi. Dostonda johil olomon tomonidan tabibning olovda

kuydirilishi, bu olovga ko`zi nashtar bilan ochilgan cholning o`tin keltirib tashlashi voqealarining berilishi nihoyatda ta`sirchan. Bu bilan shoir chol obraziga alohida mazmun yuklay olgan. Chunki uning nutqida bu dunyodagi norasoliklar, insonning xor etilishi aks etgan. Chol ham o`zicha haq. Ammo hakim ko`p yillik izlanishlari sarobga aylanganidan qattiq o`kinadi va olomondan olovni balandroq yoqishlarini so`raydi. Lekin yillar o`tib elning aql ko`zi ochiladi, hakimga oltindan haykal o`rnatadilar. Hakimning achchiq qismatiga jaholat, ilmsizlik sababdir. Binobarin, Nazrul Islom va hakim qismati nihoyatda o`xshash. Chunki Nazrul Islom ham olomon tomonidan zindonband qilinadi. Rivoyat bosh qahramoni Nazrul Islomning qalbida kechayotgan tug`yonlarni, uning haqsizlikka qarshi isyonini yorqin ifodalashga vosita bo`lgan.

Dostonning «Tutqunlikda» deb nomlangan qismida shoirning zindondagi hayoti aks ettiriladi. U yerda ham ozodlik yo`lidagi mardona kurashni boshlab bergan shoirning ko`nglida o`kinch-armon emas, dilshodlik hukmron. E.Vohidov Nazrul Islomning aynan shu holatiga hamohang «Shoh Jahon va Avrangzeb haqida rivoyat»ni keltiradi. Ma`lumki, Avrangzeb otasi Shoh Jahondan taxtni zo`rlik bilan tortib oladi. Shundan so`ng o`sha davr udumiga ko`ra, u uy qamog`iga mahkum etiladi. O`g`li tomonidan tahqirlangan Shoh Jahon uyining tor darchasidan keng olamni, sevimli «Tojmahal»ni ko`radi va shunga ham shukr qiladi. Olomon – jaholat eli tomonidan bandi qilingan Nazrul Islom ham zax zindonning kichkina tuynugidan keng olamga nazar soladi. Demak, Shoh Jahon va Nazrul Islom qismatlaridagi mushtaraklik rivoyat orqali yorqin ifodalangan.

Umuman, doston tarkibidagi har bir rivoyat bengal xalqi ozodligi uchun kurashgan isyonkor shoir Nazrul Islom ruhiyatida kechadigan iztirobli holatlarni, ozodlikka va erkka tashna qalbning manzaralarini yorqin ifoda etishda psixologik tasvir va tahlil vositasi vazifasini bajargan. Aslida bu obraz shoirga o`z xalqining mustaqillik haqidagi orzularini ramziy ifodalash vositasi bo`lib xizmat qilgan. Qolaversa, mazkur rivoyatlar asarda dramatismning chuqurlashuvini ta`min etgan. Bu esa shoirning «voqelikni keskinligi, murakkabligi, fojiaiy tomonlari bilan yoritishga» undagan. Doston shu jihati bilan XX asrning ikkinchi yarmi o`zbek dostonchiligi ufqlarini yanada kengaytirdi.

E.Vohidov dastlab shoir boshidan kechgan shu hayajonli voqealarni hikoya qiluvchi bir she`riy qissa yozdi. Biroq bu asardan

ko`ngli to`lmadi. «O`ylab qaragam,— deydi u,— unda men Nazrul Islom hayotiga oid ko`pchilikka tanish faktlarni shunchaki belletristik yo`lda sharhlash, hikoya qilib berish bilan cheklanib qolgan ekanman. Yozuvchi-shoirning vazifasi biror shaxs hayoti, sarguzashtini shunchaki hikoya qilib berishdan iborat bo`lsa, dunyoda yozuvchilikdan oson hunar bo`lmasdi. Ijodkor o`z qahramoni hayoti, taqdirini badiiy tahlil etishi, shu bahonada o`zining hayot haqidagi kuzatishlari, o`y-mushohadalarini o`rtaga tashlashi kerak-ku, axir! Mening qahramonim – Nazrul Islom taqdiri bu jihatdan g`oyat boy material berardi. Mushkul ijodiy izlanishlar pallasi boshlandi, dostonning tayyor ilk variantidan voz kechishga to`g`ri keldi, ko`p urinishlardan keyin dostonning o`quvchilarga taqdim etilgan hozirgi varianti paydo bo`ldi».

O`zbek dramaturgiyasida Ulug` Vatan urushi, uning xalq boshiga solgan kulfatlari badiiy aks ettirilgan asarlar talaygina. Shu davrda xalq boshiga tushgan ko`rguliklar o`ziga xos yo`sinda badiiy aks ettirilgan asarlar orasida «Istanbul fojiasi» she`riy dramasi ajralib turadi. Bir qarashda asar tarixiy mazmun kasb etganday tuyuladi. Aslida urush keltirib chiqargan bugunning fojialari aks etgan.

Bu asar janrini belgilashda adabiyotshunosligimizda xilma-xillik ko`zga tashlanadi. Bir qator adabiyotshunoslar uni dramatik doston deyishsa, boshqa birlari she`riy drama, deya atashadi. Shoirning o`zi ham asarni she`riy dramalar qatoriga qo`shgan. Akademik B.Nazarov «Istanbul fojiasi»ni adabiyotimiz va sahnemizning ko`rki bo`lishga munosib asarlardan biri ekanligini ta`kidlab, yozadi: «Bu yerda gap o`tkir syujet, keskin va qiziqarli voqealar, kolliziyalar asosiga qurilganidagina emas, albatta. «Istanbul fojiasi»ning asosiy qimmati ikkinchi jahon muhorabasi o`zbek kishisining ham taqdirida, qalbida qoldirgan asoratlar negizi urush dahshati va vahshatidan tashqari, sho`ro tuzumi sharoitida, mafkurasida, Inson va uning iymoniga bo`lgan munosabatida ekani teran badiiy ochib berilganida. Bu siyosatning tinchlik zamonlarida ham davom etgan ko`rinishlari jamiyat ravnaqi va inson qalbi xo`rlanishi emas, xorlanishiga nechog`lik ta`sir etganini o`tkir pafos bilan o`ziga xos poetik-dramatik yo`sinda fosh etilganida». Ko`rinadiki, adabiyotshunos shoirning g`oyaviy-badiiy kontsepsiyasini to`g`ri belgilab, unda dramaga xos xususiyatlarning ustunlik qilishini ko`rsatgan.

Shoirning mazkur dramasi o`rgangan adabiyotshunos M.Hoshimova yozadi: «Istanbul fojiasi»da hayotning shafqatsiz

haqiqatiga duch kelamiz. «Istanbul fojiasi» – davr to`zonlari, hayot chigalliklari ichra changib, noxush to`lqinlar iskanjasiga tushib qolgan, adashgan, ammo kechikib bo`lsa-da, xatosini anglagan odamlar fojiasi. Dramada qahramonlar qismati zamonning muhim tarixiy-ijtimoiy voqea-hodisalari – Ikkinchi jahon urushi, urushdan keyingi davrda dunyoda yuzaga kelgan keskin ziddiyatlar, mamlakatimiz ijtimoiy-ma`naviy hayotidagi muammolar bilan bog`liq holda talqin etiladi». Ko`rinadiki, asarda tasvirlangan bugunning muammolari urush yillari voqeligi bilan chambarchas bog`langan. Bu asarda shoirning «Nido» dostonidagi kabi urushning «eng baxtsiz qurboni, tirik qurboni» Iskandar fojiasi qalamga olinadi.

Iskandarni urush qildi tirik xaroba,
Xarobaki, tiklab bo`lmas... urush bo`lmasa
Balki u ham o`z baxtini topib ketardi.

Dramada, asosan, uch obraz – Jalol, Saodat, Iskandar kabilar harakat qilishadi. Ularning g`oyat murakkab sarguzashti asar voqealari tizmasini tashkil qiladi. Asar g`oyasi ana shu qahramonlarning faoliyatlari, xatti-harakatlari, dialog va monologlariga juda mohirlik bilan singdirib yuborilgan. Iskandarning vatangadoga aylanishi, «bir xazon yaprog`i»dek «taqdir shamoli» tufayli o`z bog`idan yiroqlarga uchib ketishiga ham manfur Gitler boshlagan urush sababchidir. Yana bir sabab – sevgan yori bilan akasining xiyonati, ularga nisbatan qalbida saqlagan bir umrlik adovati, ginasini. Iskandar Saodat bilan akasi Jalolning unga nisbatan qilgan adolatsizliklarini hazm qila olmani uchun ham shuncha yillar Vatanga qayta olmagan.

Asli uydan ketganida u yuragida kek
Mushtumdek qor edi go`yo. Umr yo`lida
Yumalata-yumalata tog`dek qilibdi,
Tog`dek qilib kek ostida o`zi qolibdi,
Endi uning yurtga qaytib berishi qiyin.

Dramada poklik bilan nopoklik, to`g`rilik bilan egrilik, halollik bilan ko`zbo`yamachilik, adolat bilan adolatsizlik, samimiyluk bilan nosamimiyluk o`rtasidagi keskin tafovut va kurash hozirgi davr talablari asosida yorqin aks ettirilgan. Undagi obrazlar haqiqatga intiladigan, vatanparvar insonlar. Jalolning o`z xato-kamchiliklarini anglab yetishi uning so`zlarida, iqrorlarida ko`rinadi:

Iskandarga, bosh egib bor yurtingga; dedim,
Mana o`zim yurtga boshni egib boraman.
Kechir, Vatan, shuhratparast ekanman, kechir.

Iskandar – oq, men oldingda yuzi qoraman.
G`arib yurtda u xoinmas, inondim, bildim,
Men bag`ringda yashab turib nonko`rlik qildim.

Dramada 30-60-yillarda yaratilgan asarlarga xos jihatlar ko`zga tashlanadi. Bunday an`anaviy yondashuv asarda o`ziga xos syujetni vujudga keltirgan. Og`a-ini sevgi tufayli bir-biriga raqib bo`lib qolgan – olg`ir og`a o`z inisi ko`ngil qo`ygan qizni yo`ldan ozdirib, uning vasliga erishib baxtiyor bo`ladi, inisi esa hijron, firoq alangasida o`rtanib, vatangadolikda yuradi. Mazkur voqealar asar mohiyatining ochilishida asos vazifasini o`tagan.

Iskandar yuragiga tushgan birinchi dard – akasi Jalolning o`z sevgilisi Saodatga uylanishidan boshlanadi. Alamiga chiday olmagan Iskandar ko`ngillilar qatorida frontga jo`naydi, janggohlarda mardlik namunalarini ko`rsatadi, komandirlari, quroldoshlari hurmatini qozonadi, dushman tanklarini majaqlashda fidoyilik qiladi. Bu qahramonliklarni ko`rsatishda unga kuchli muhabbat hamda alam turtki bo`ladi.

Sen bilmaysan, men o`shanda jangga ketarkan,
Yuraginga alam o`sha o`tin solib ketganman.
O`sha o`tni tig` uchida olib o`tganman.
Shu o`t bilan tikka bordim nayzabozlikka,
Yonayotgan binolarga o`zimni urdim.
Qahramonlik qidirmadim, o`lim qidirdim.
Lekin afsus... Ajal degan it ekan asli,
Qochsang quvar ekan, quvsang qochaverarkan.

Bir tasodif tufayli hushidan ketib, dushman qo`liga asir tushadi. Quroldoshlari, komandiri uni o`lgan hisoblab, uyiga «qora xat» yuborishadi. U esa ko`p yillar Vatan mehriga zor va xor bo`lib, chet ellarda sarson-sargardonlikda hayot kechiradi. Vatanga bo`lgan muhabbati, musofirlik qismati uni qanchalik azoblaganini Jalol bilan bo`lgan suhbatlarida bayon etadi:

Vatan, meni tuprog`ingdan benasib etma,
Zarrin xatli sag`analar menga kerakmas,
Oq marmardan pog`onalar menga kerakmas,
Menga faqat bir quloch yer bersang, kifoya.

Iskandar dushman lageridan qochib, taqdir taqozosi bilan Istanbulga kelib qoladi. Aka-uka Jalol va Iskandar tasodifan Istanbulda uchrashib qoladilar. Aka sho`roviy O`zbekistondan kelgan mashhur kishi – kolxoz raisi. Uka urushda jasorat ko`rsatib,

hushsizlikda asirga tushgan, cheksiz qiynoqlardan omon o`tib, Turkiyaga kelib qolgan bir muhojir. Ona Vatandagilar esa, uning tirikligidan bexabar. Hatto u yashagan qishloq Iskandarobod deb ataladigan bo`lgan. Ukaning shuhrati akaning kolxoz raisi sifatida shon-shavkatlarga burkalishiga sabab bo`ladi.

«Istanbul fojiasi» – badiiy yetuk asar. Unda urush va inson qalbi, iymon, vijdon muammolarining badiiy talqinida Erkin Vohidov o`zbek adabiyotidagi yangi bir haqiqatni aytishga jur`at etadi. Shu vaqtgacha yozilgan asarlarning barchasi yoki aksarida urushga ketgan qahramon kim yoki qaysi yoshda bo`lishidan qat`iy nazar, albatta, faqat vatanparvar, faqat tuzum fidoiysi sifatida tasvirlanar edi. Asarga xos shu muhim xususiyatni to`g`ri va teran anglagan akademik B.Nazarov yozadi: «To`g`ri, qahramon harakat qilayotgan davr uchun bunda ko`p ham g`ayritabiiylik yo`qdir. Biroq bunday holat qahramon xarakterini muayyan bir xillikka olib kelishi va ayniqsa, ayrim shaxslarning, hatto bu masalaga munosabatidagi turli-tumanlikni, jonlilikni, demakki, hayotiylikni e`tiborga olmaslikdir. Axir fe`li, tabiati, taqdiri, dardi turlicha bo`lgan insonning urushga ham munosabati xuddi hayotning o`zidagidek har xil rang-barang bo`lmaydimi. Shu masala nuqtai nazaridan Erkin Vohidov «Istanbul fojiasi»ning bosh qahramoni Iskandar qiyofasida o`zbek adabiyotida yangi obraz olib kirdi, deyish mumkin» .

Aslida kitobxon asar voqealari davomida Iskandarning qismati shu holga kelib qolishida undagi qo`rqoqlik, jasoratning yetishmasligini sabab deb o`ylaydi. U akasi Jalolga nisbatan yuragida kek saqlaydi. Jalolning esa ukasini uchratganida qalbidan o`tkazgan iztiroblari, ruhiy holati, bir kunlik uchrashuvda hayotini qaytadan sarhisob qilishi, vijdoni oldida javob berishi, pushaymonlik, shuhratparastlikka berilgani uning o`z tilidan ta`sirli qilib ifodalangan:

Men bu kecha bir lahza ham uxlaganim yo`q,

Iskandarning uzoq yillar chekkan dardini

Bir kechada yuragimdan kechirdim bugun.

Bu yerda men o`lib ketgan ukam bilanmas,

O`lib ketgan vijdon bilan uchrashib qoldim.

Sen bilmaysan, ancha-muncha gunohlarim bor .

Iskandar ham boshqa tengqurlari qatori frontga Vatan fidoiysi sifatida ketishi mumkin edi. Biroq uning taqdiri o`zgalardan boshqacha bo`lgani bois bu masalaga qarashi ham o`zgacha edi. Shuning uchun Iskandarni vatanparvarlikdan mahrum kishi deb emas,

dardi va taqdiri hayot haqiqatidan kelib chiquvchi hayotiy qahramon sifatida talqin etish to`g`ri bo`ladi.

Demak, shoir asarni «Istanbul fojiasi» deb nomlash bilan faqat Iskandarning fojiali qismatini nazarda tutgan emas. Bu fojialar uch yo`nalishga ega: urush, shaxs, jamiyat fojiasi o`zaro uyg`un holda tasvir etilgan. Ya`ni urush Iskandarga o`xshaganlarni vatanidan yiroqlashtirdi. Ayni paytda Iskandar fojiasining ildizi oilasi bilan bog`liq. Chunki akasi Jalol u sevgan qizga uylanmaganda, voqea bu tarzda keskin tus olmas edi. Ikkinchidan, Iskandar tirik bo`la turib o`z vataniga qaytishni istamadi, lekin qirq yil davomida onasi va yurti sog`inchi, dardi bilan yashadi. Shaxs fojiasining birinchi ipi qahramon ukaning akasi bo`lib shon-sharafga burkangan Jalolga va ikkinchisi, Iskandarning muhabbatini oyoqosti qilib akasiga turmushga chiqqan Saodatga borib tutashadi. Ya`ni Iskandar taqdirining bu qadar ayanchli tus olishini shoir, avvalo, shu ikki obraz bilan bog`laydi. Keyin esa bu urush bilan bog`lanib ketadi. Bularning barchasi bir butunlikda jamiyat fojiasini keltirib chiqaradi.

Akademik B.Nazarov asarni tahlil etar ekan, unga xos bir qusurni to`g`ri ta`kidlaydi: «Jalol ham ma`lum ma`noda murakkab shaxs. Faqat yaxshi yoki yomon deb baholanadiganlar tarzidan emas. Biroq fikrlashlari, qarashlari, tabiati, xarakteri uni tarbiyalagan sharoit va tuzumga mos tayyor qoliplarning izi bor. Istanbuldagi voqea munosabati bilan «Bu yerga men o`lib ketgan ukam bilanmas, o`lib ketgan vijdon bilan uchrashib qoldim», degan Jalol vijdonida o`zgarishlar, tozarishlar ro`y berib, Vatanga qaytgach, soxta unvonu shon-shuhratlardan voz kechishga, o`z mehnatidagi ko`zbo`yamachilikni ochib tashlashga ahd qilsa-da, bu narsa bizda, o`rganib qolganimiz qahramonning qayta tarbiyalanishidek birmuncha sun`iy tasavvur qoldiradi». Bu fikrga qo`shilish mumkin. Chunki Jalol va Saodat yillar davomida yo`l qo`ygan xatolarni bir zumda tuzatishlari nihoyatda qiyin. Buning ustiga ular hayotlarining katta qismini yashab qo`yishgan, umrni qaytadan boshlashning esa iloji yo`q. Faqatgina o`zlari qilgan xatolarni anglab, afsus chekishlari bir qadar hayotiy va tabiiydir.

Shunday yechim topishiga qaramasdan, «Istanbul fojiasi» she`riy dramasida inson va vijdon, inson va burch masalasi nihoyatda teran yoritilgan. Unda iztiroblar, afsuslar, o`kinchlar, armonlarga to`la qalb manzaralari she`riy misralarda aks ettirilgan. Shu ma`noda drama urush mavzuidagi noan`anaviy yo`nalishda yaratilgan asar sifatida

adabiyotimiz sahifalarini boyitdi. Iskandarning achchiq qismatini ko`rsatish orqali Vatan hissi, uning sog`inchi naqadar bebaho ekanligini, o`z yurtida gado bo`lsa-da, yurt nafasini his qilib yashash naqadar baxt ekanligini dramada keltirilgan parchalarda, qahramonlarimiz iqrorlarida ko`ramiz:

Esingdami, Jalol eski guzarda bir chol
Devonavash o`ltirardi, egni turfahol.
Ko`zi ko`rmas edi, bizlar kulib o`tardik.
Do`ppisiga chaqamas, tosh tashlab ketardik.
Gohi deyman haddan ortiq ezganida g`am,
Qani edi, o`z yurtimda o`sha chol bo`lsam.
Gado emas, podsho sezar edim o`zimni,
Yuragimni quvonchlarga to`ldirar edim.
Do`ppimga tosh solib emas, tepib o`ynashsa
Bolalarni duo qilib o`ltirar edim .

Ushbu she`riy drama til, qofiya va vazn jihatidan ham puxta, me`yorida ishlangan. Shu bilan birga dramada hayot haqiqatiga mos, chuqur mazmunli fikrlardan, xalq maqollari va hikmatlaridan foydalanilgan.

Mard bir o`lar, nomard yuz.
Egilgan boshni qilich kesmas.
Tani boshqa dard bilmaydi.
Burgaga achchiq qilib ko`rpa kuydirmoq.
Yopiq qozon yopig`liq qolsin.
Xalq boshini haq ko`tarar, yolg`on egadi.

Dramada muhabbat, nafrat, sadoqat, xiyonat singari insoniy tuyg`ular Vatan tuyg`usi, ona yurt sog`inchi bilan mushtarak holda, ham ijtimoiy, ham lirik-romantik, ham psixologik kontrast bo`yoqlarda talqin qilinadi. Unda, ayniqsa, o`z yurtidan uzoqda, darbadar, muhojir bo`lib kun kechirayotgan kimsalarning ayanchli qismati va iztiroblarini lo`nda, yirik badiiy lavhalarda ifoda etishga ahamiyat berilgan.

Ko`rinadiki, O`zbekiston Qahramoni, xalq shoiri E.Vohidov ijodi janriy jihatdan rang-barang. Shoir aruz vaznida samarali qalam tebratdi, barmoqdagi she`rlari samimiy tuyg`ular bikan sug`orilgan. Uning lirik, liro-epik, dramatik doston, she`riy drama, tragikomediya janrlaridagi asarlari ham mazmuni, badiiy shakli, obrazlar olamining boyligi bilan yangi o`zbek adabiyotining yorqin sahifasini tashkil etadi.

Savol va topshiriqlar

1. Erkin Vohidov hayoti, ijodi haqida nimalarni o`qigansiz?
2. E.Vohidovning qanday she`rlari, dostonlari bilan tanishsiz, qaysi she`rlarini yod bilasiz?
3. Shoirning qaysi she`rlari qo`shiqqa solingan?
4. E.Vohidov jamoat arbobi sifatida qanday ishlar olib borgan?
5. Shoirniig aruzdagi she`rlarida mahorati qanday namoyon bo`lgan?
6. E.Vohidovning «Oltin devor» komediyasini, «Istambul fojiasi» dramasini teatr yoki televideniya tomosha qilganmisiz? Ular haqida fikringiz qanday?
7. «Ruhlar isyoni» dostonining yaratilish tarixi haqida nimalarni bilasiz?
8. Nazrul Islom taqdiri tasviri orqali shoir qanday g`oyalarni ilgari surgan?
9. Dostonning kompozitsiyasi, syujet tuzilishiga xos xususiyatlar nimalardan iborat?
10. Erkin Vohidovning o`zbek adabiyoti taraqqiyotiga qo`shgan hissasi nimada deb bilasiz?

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Каримов И. Адабиётга эътибор – маънавиятга, келажакка эътибор. –Т.: Ўзбекистон, 2009.
2. Мирзиёев Ш. М. Буюк келажакимизни мард ва олийжаноб халқимиз билан бирга қурамыз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017.
3. Алиев А. Истиқлол ва адабий мерос. – Т.: О`zbekiston, 1997.
4. Каримов Н., Мамажонов С., Назаров Б., Норматов У., Шарафиддинов О. XX аср ўзбек адабиёти тарихи. Олий ўқув юртлари учун дарслик. –Т.: Ўқитувчи, 1999.
5. Санжар Содик. Янги ўзбек адабиёти тарихи. Дарслик. –Т.: Университет, 2005.

Erkin Vohidov asarlari:

6. Эркин Воҳидов. Муҳаббатнома. –Т.: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1986.
7. Эркин Воҳидов. Садоқатнома. –Т.: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1986.
8. Эркин Воҳидов. Сайланма. 4 жилдлик. –Т.: Шарқ, 2001.

9. Эркин Воҳидов. Изтироб. –Т.: Ўзбекистон. 1992.
10. Эркин Воҳидов Яхшидир аччиқ ҳақиқат. –Т.: Нур, 1992.
11. Эркин Воҳидов Орзули дунё. –Т., 2010.

Erkin Vohidovga bag`ishlangan tadqiqotlar

12. Шарафиддинов О. Талант – халқ мулки. – Т.: Фан, 1983.
13. Худойбергандов Н. Довонлардан доволарга. Китобда: Ҳақиқат ёғдулари. –Т.: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1984.
14. Шукуров Н. Шоирнинг юлдузи. Адабий портрет. Китобда: Адабий портретлар. – Т.: 1985.
15. Норматов У. Замон ва замин ташвишлари// Ёшлик, 1986, № 7.
16. Шарафиддинов О. Халқ устозим, мен эса толиб // Шарқ юлдузи, 1986, № 12.
17. Воҳидов Р., Ҳошимова М. Поэзия – шоир қалби. –Т.: Фан, 1987.
18. Иноғомов Р. Шоир бўлиш осонмас. Т., Ғ. Ғулом номидаги нашриёт, 1996.
19. Назаров Б. XX аср ўзбек адабиётида Эркин Воҳидов ижодининг ўрни ва аҳамияти. Китобда: Ўзбек адабий танқиди. Антология. –Т.: Турон-иқбол, 2011.
20. Солижонов Й. Руҳиятни ёритган шеърят// Шарқ юлдузи, 2013, №2.
21. Норматов У. Кўнгилларга кўчган шеърят. –Т.: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2006.
22. Баҳодир Раҳмон. Ҳаётимсиз одамлар!.. –Т.: Истиқлол нури 2016.
23. Қувватова Д. XX асрнинг иккинчи ярми ўзбек дostonчилигининг тараққиёт хусусиятлари. ДД. – Т., 2016.

Internet saytlari:

24. www.alishernavoiiy.uz
25. www.ziyo-net.uz
26. www.literature.uz
27. www.kutubxona.uz.

MAVZU: ABDULLA ORIPOV SHE`RIYATI VA DOSTONLARI²



(1941-2016)

Reja:

- 1. Abdulla Oripov ijodining adabiyotshunoslikda o`rganilishi.*
- 2. Abdulla Oripovning hayot va ijod yo`li.*
- 3. Shoir lirikasining o`ziga xos xususiyatlari: mavzular va obrazlar olami.*
- 4. Muhabbat lirikasi.*
- 5. Ona, Vatan mavzuidagi she`rlar va ularning badiiyati.*
- 6. Abdulla Oripov – dostonnavis. «Jannatga yo`l», «Hakim va ajal», «Ranjkom» dostonlari haqida .*
- 7. Diniy-falsafiy motivlar. «Hikmat sadolari», «Haj daftari».*

Abdulla Oripov XX asr o`zbek she`riyatining zabardast vakillaridan biridir. Uning asarlari adabiyotimizning yangi bosqichga ko`tarilishda muhim ahamiyat kasb etdi. Bu she`riyat Chingiz Aytmatov, Rasul Hamzatov, Evgeniy Evtushenko, O`ljas Sulaymonov ijodi yanglig` siyosat va mafkura ustuvor bo`lgan tuzum sharoitida ham toza iqtidor tufayli badiiy ijodning ajoyib namunalari yaratilishi mumkinligini ko`rsatgan o`zbek adabiyoti misolidagi o`ziga xos noyob hodisadir. Bu noyob ijod xalqaro miqyosga chiqdi. Shoir asarlari qozoq, turkman, qirg`iz, tojik, ozarbayjon, tatar, turk, boshqird, uyg`ur, qoraqalpoq, rus, ukrain, ingliz, belorus, nemis, venger singari yigirmaga yaqin tilda tarjima qilindi. «Hakim va Ajal»

² Бу мавзу тадқиқотчи Раҳима Шарипова билан ҳамкорликда ёзилган.

dostoni Bayrutda ingliz tilida bosilib chiqdi.

XX asr o`zbek she`riyatining so`nggi 30-35 yillik tarixida A. Oripov qadar tanqidchilik e`tiboriga tushgan shoir kam topiladi. Shu davr she`riyati haqida fikr yuritilgan biron-bir salmoqli tadqiqot, ilmiy ish, sharh yo`qki, unda A.Oripov asarlariga munosabat bildirilmagan, she`rlari tahlil etilmagan bo`lsin. Uning ijodidan dissertatsiyalar yoqlandi. Atoqli olim Matyoqub Qo`shjonov «Onajonim, she`riyat» nomli kitobida shoirning mo``jaz ijodiy portretini yaratdi. Bundan o`ttiz besh yilcha avval matbuotda A. Oripovga ilk bor oq yo`l tilagan, uning kelajagiga katta ishonch bildirgan va ko`p o`tmay bu ishonch oqlanib, she`rlaridagi mahoratni hassoslik bilan tahlil qilgan Ozod Sharaffidinov maqolalari shoir ijodini o`rganish bilan birga, tanqidchiligimiz ravnaqida ham muhim ahamiyat kasb etdi. Ayni choqda yaqindagina Matyoqub Qo`shjonov, Suvon Meliyevlarning «Abdulla Oripov» nomli adabiy portreti nashr etildi.

Salohiddin Mamajonov, Umarali Normatov, Naim Karimov, Ibrohim G`afurov, Begali Qosimov, No`mon Rahimjonov, Ibrohim Haqqulov, Botirxon Akramov, Botir Norboyev, Suvon Meliev, Mixli Safarov, Ochil Tog`ayev, Nodira Afoqova va boshqalarning ehtiros bilan yozilgan ishlari shoir asarlarining g`oyaviy va poetik teranligini, o`ziga xosligini, go`zallik sirlarini ochishga qaratilgan.

Abdulla Oripov **1941 yil 21 mart** kuni Qashqadaryo viloyatining hozirgi Koson tumaniga qarashli **Neko`z** qishlogida tugilgan. Otasi **Orif bobo Ubaydullo o`gli** qariyb yuz yil umr ko`rdi. U kishining butun hayoti qishloq hududida mehnat bilan o`tgan. Onasi **Turdi Karvon qizi** 1966 yilda vafot etgan. Shoir shunday yozadi: «Onam tabiatan g`oyat ta`sirchan ayol edilar. O`choq boshidami, tandir yonidami, ish bilan mashg`ul chog`larida qadimiy mahzun baytlarni takrorlashlari hanuzgacha esimdan chiqmaydi.

Gulira`noning tagida yuvma sochingni, yuvma sochingni
Shahlo ko`zginangdan to`kma yoshingni, to`kma yoshingni
Shahlo ko`zginangdan to`ksang yoshingni, to`ksang yoshingni,
Olarman-da ketarman yolg`iz boshimni, yolg`iz boshimni».

Oilada 8 farzand: 4 o`g`il, 4 qiz voyaga yetgan. O`g`illardan kenjasi Abdulla Oripov edi. Akalari turli oliygohlarda tahsil olishgan.

U **1958-yilda** o`rta maktabni oltin medal bilan tamomlab, ToshDU (hozirgi O`zMU) jurnalistika fakultetiga o`qishga kiradi.

Adabiyotshunos M.Qo`shjonov, A.Oripovni shoir qilgan muhit,

makon xususida shunday yozadi: «Neko`zning sharqida uncha baland bo`lmagan, ko`proq yirik tepalikni eslatadigan eski tog` yastanib yotadi. Uni neko`zliklar Qo`ng`irtov deb ataydilar. Mabodo biror sabab bilan Neko`zga borib qolsangiz. A.Oripov sizni, albatta bu ko`hna toqqa olib chiqadi. «Men shu tog`da mol boqqanman, qo`y haydaganman, mana bu tog` kovaklarida qattiq shamol va yomg`irlarda bekingan paytlarim bo`lgan» – deb alohida hayajon bilan butun tog`ni nigohdan o`tkazadi.

Ehtimol, ijodida keyinchalik mashhur bo`lgan «Vatanim manim» degan muqaddas tushunchalar A.Oripov dilida o`sha bolalik chog`lari – Qo`ng`irtovda qo`y boqib yurgan kezlari tug`ilgandir».

Abdulla Oripov uchun eng katta maktab hayot edi. Bolalik chog`laridagi mehnat qaynagan qishloq hayoti taassurotlari, maktab va universitetda o`qish va o`rganish, keyin jurnalist sifatida hayotning o`nqir-cho`nqirlarini asta-sekin anglab olish, ijod dardi, bu xususda eshitilgan yaxshi-yomon gap-so`z va munosabatlar, ba`zilardan ko`rgan xayrixohlik, ba`zilardan esa hasadu haqsizliklar.

50-yillarning oxirlari. Toshkent davlat universitetining filologiya fakulteti qoshidagi adabiyot to`garagida hali yosh, hatto murg`ak yigitcha Abdulla Oripov o`qigan birinchi she`r «**Archa**» deb atalgan edi.

O`ngirlardan bo`y cho`zgan buyuk
Vodiylarda ajib bir gultoj
Mana men deb turardi archa
Ko`targancha boshlarida toj.

She`rda majoziy ma`no bor. Qoyalar tushidan olib, toshyo`nar usta tegirmon yasamoqchi. Nima bo`ladi-yu, qoyadan ajralib kelayotgan tosh qulaydi, pastga tushib yosh archani poymol etadi. Archaning ahvoli achinarli edi. Uning majruh tanasi tosh tagidan boqardi. Vaqtlar o`tdi. Toshyo`nar ustaning yo`li yana shu qoya tomon tushdi. Archa ko`kka bo`y cho`zgan edi. Demak, hayotga intilayotgan buyuk tabiat, boshiga har qancha kulfat tushmasin «Yengaman, o`saman, ko`rkam bo`laman» deydi.

A.Oripovning «**Buloq**» degan bir she`ri bor:

Qutlug` bir saharda ko`z ochdi buloq
Yo`l soldi daryolar sari adashib
Unga rahm etmoqchi odamlar shu choq
Tog`u toshlar aro yaqin yo`l ochib

Odamlar, tegmangiz, mayli toshsin u,
Mayliga, tog'ni ham ko'rsin yo'lida.

Qo'ying, o'z yo'lini o'zi topsin u
Zavqlanolsin u ham kurash so'ngida.

Bunda ijodkorning hayot haqidagi falsafiy qarashlari aks etgan. Shoirni o'stirib voyaga yetkazadigan qulay ijodxonalar yo'q. U hayotning har xil sharoitida – issiq-sovug'i, baland-pasti, o'nqir-cho'nqiri, qing'ir-qiyshiq joylaridan o'ziga yo'l topib o'tadi va asta-sekin ijodkor sifatida shakllanadi.

Abdulla Oripov adabiyotda biryoqlamalik, ritorika, deklarativlik, bayonchilik, «baxtli zamona»ga hamdu sano o'qish avj olgan, adabiyotning ijtimoiy-estetik qimmatidan putur keta boshlagan bir davrda she'riyat ostonasiga qadam qo'ydi. Har bir shoir singari u ham havaskorlik, izlanish bosqichini bosib o'tdi. Yulduzlar, tog'lar, kapalak haqida yozdi. Ulardan she'r izladi. Biroq u o'qish-o'rganish bosqichini tez bosib o'tdi, she'riyatining missiyasini, inson va jamiyat hayotidagi o'rni va ahamiyatini juda erta angladi.

1962 yilda matbuot yuzini ko'rgan «**Kuz xayollari**», 1964 yilda «Sharq yulduzi» jurnali sahifalarida e'lon qilingan «**Men nechun sevaman O'zbekistonni?**», «**Miltiraydi mitti yulduz**» «**Burgut**» kabi she'rlar o'z ovozi va uslubiga ega bo'lgan shoir shakllanayotganidan darak beradi. Shoirning Sobiq Ittifoqda stalincha zo'ravonlik sharpalari ham butkul daf bo'lmagan, mustabid tuzum hukmronlik qilishda davom etayotgan, adabiyot esa «sotsrealizm» iskanjasi ostida ezilayotgan bir paytda isyonkor ruh bilan sug'orilgan, tug'yonli, lirik-falsafiy, teran mushohadali, hayotni o'zicha ko'rgan chinakam milliy va xalqchil she'rlari og'ir sukunatni titratib yuborgan momaqaldiroq yanglig' yangradi.

A.Oripovning birinchi she'riy to'plami «**Mitti yulduz**» 1961 yilda nashr etildi. «Mitti yulduz»ning nurlari asosida «**Sarob**», «**Bahor**», «**Avlodlarga maktub**», «**Sovg'a**», «**Minorayi kalon tepasidagi laylak**», «**Jannat**» singari har biri adabiyotimizda voqea bo'ladigan she'rlar yaratildi. Binobarin, A.Oripov«Ustozlar sabog'i» maqolasida shunday yozadi: “Har haftada o'nlab she'rlar yaratilyapti, lekin «Baxtlar vodiysi», «Yalovbardorlikda», «Sog'inish», «Sen yetim emassan» singari har bir xalq tarixidagi butun bir davrni ifodalab bera oladigan poydevor she'rlar deyarli yo'q. Yoshlar zamonamizning eng yirik poetik nuqtalarini nishonga ololmayaptilar, ko'pgina yaxshi

shoirlarimizning misralari mijg'ov, avji past chiqayotir. Chunki poetik g'oyaning o'zi aytarli salmoqqa ega emas. Mavzu qanchalik salmoqdor bo'lsa, poetik ohang ham shunchalik yuksak bo'ladi. G'afur G'ulom «Alisher» nomli she'rida o'zbek xalqining butun bir o'tmishini qamraydi. Natijada, bo'yiga yarasha to'n deganlaridek "Boyqaro saroyin shamlari o'chdi" singari shekspirona baland ruhli misralar yaratdi». Bu fikrni keltirayotganimiz bejiz emas. Chunki A.Oripov dastlabki she'rlaridanoq salmoqli fikr aytishga harakat qildi va bu uning ijodiy printsipligiga aylandi.

Yillar davomida uning bir qancha to'plamlari dunyo yuzini ko'rdi. «Ko'zlarim yo'lingda» (1966), «Onajon» (1969), «Ruhim» (1969), «O'zbekiston» (1972), «Hayrat» (1974) «Yurtim shamoli» (1976) («Veter moego kraya» (1988)), «Yuzma-yuz» (1978), «Najot qal'asi» (1980), «Yillar armoni» (1987), «Ishonch ko'priklari» (1989), «Sen bahorni sog'inmadingmu»(1991), «Munojot» (saylanma 1992), «Haj daftari», «Hikmat sadolari»(1992) kabi to'plamlari shular jumlasidandir. Ushbu to'plamlar asosida shoirning Tanlangan Asarlari tartib berildi. Bugun u bizning qo'limizda.

A. Oripov iste'dodli shoir bo'lish bilan birga, yetuk tarjimon hamdir. U Dante Alig'erining «Ilohiy qomediya»si «Do'zax» qismini mahorat bilan o'zbekchaga o'girdi.

A.Oripov Pushkin, T.Shevchenko, L. Ukrainka, Q.Quliyev, Sergey Baruzdin ijodidan mukammal tarjimalar qildi.

Dostoyevskiyda shunday fikr bor: «She'riyatda eng avvalo hislar samimiyligi va tuyg'ular tarangligi kerak». Zero, A.Oripov adabiyotimizga samimiy hislar bilan kirib keldi. Shoir she'riyati mavzu jihatdan rang-barang. Vatan, Ona-yer, xalq, oq sut bergan ona, muhabbat kabilar shoirning muqaddas va doimiy mavzularidandir.

Shoir ko'pincha o'zini bezovta qilgan, oromini o'g'irlagan mavzu ustida kunlab, oylab mulohaza yuritadi, fikrlari obdon pishgach qo'lga qalam oladi.

Shoir asarlarining asosiy qismini XX asr o'zbek she'riyatidagi yetakchi shakl-barmoq vazni tashkil etsa-da, u ko'p asrlik an'anaga ega bo'lgan aruzdagi g'azalga ham, masnaviyga ham, Mayakovskiy, Nozim Hikmat, Lorkalar ta'sirida paydo bo'lgan sərbastga ham murojaat qilib turadi.

Masnaviyda ijod etish mushkul ekani ma'lum. A. Oripov unga dadil qo'l urdi va eng asosiysi, bir qancha muvaffaqiyatli asarlar

yaratdi. «Shoshmaslik haqida ballada», «Begonalik», «Uzlat», «Maymuniyat» kabi she`rlar shular jumlasidandir.

Shoirning butun she`riyati singari muhabbat lirikasi ham o`ziga xosligi, teranligi, tuyg`ularning tabiiyligi, hayotiyligi, real voqelikka monandligi bilan ajralib turadi. Sevgi haqidagi hazin, mungli ohanglar har qanday oh-vohlar, o`ldim-kuydimlardan tamomila yiroq.

«Eslang», «Derazangni qoplar oqshom zulmati», «Chuvaladi o`ylarim sensiz», «Xayr endi» kabi o`nglab she`rlarni ko`ngilxushlikdan butunlay begona chinakam oshiqning yuksak pardalarda ifodalangan ohi, nidosi deyish mumkin. Shoir nazdida sevgi talqini, vafo va sadoqat tushunchalari ma`naviy qadriyatlarimiz, milliy urf-odatlarimiz chashmasidan suv ichadi.

Shoirning «Muhabbat» she`ri bunday boshlanadi:

Hayot mendan ayamadi ne`matlarini
Ne istasam berdi doim, hech bir tonmayman.
Faqatgina bir g`am o`rtar yuraklarimni
Men muhabbat taqdirimdan maqtan olmayman.

Lirik qahramon o`zining rad etilgan, javobsiz qolgan sevgisi tarixini hech kimdan yashirmasdan to`kib soladi. She`rda Odam Ato va Momo Havodan meros mo`jizaviy tuyg`uning odam ba`zan hatto o`z-o`ziga ochiq iqrор bo`lishiga botinavermaydigan pinhoniyl jihatlarl qalamga olinadi.

Ona haqidagi she`rlar va umuman, ona obrazi shoir ijodidagi ayol obrazini yanada mukammallashtiradi va konkretlashtiradi, bu timsolni oliyl maqomlarga olib chiqadi. Shoirning «Ko`zlarim yo`lingda», «Onajon», «Ruhim», «Yurtim shamoli», «Yillar armoni» «Ishonch ko`priklari» singari to`plamlaridagi she`rlar bag`ridan mushtipar ona ko`zlari doimo bizga termulib turadi. Bu to`plamlarning «Onamga xat», «Onajon», «Ona», «Alisherning onasi», «Onamni eslab» singari ona timsoliga maxsus bag`ishlangan she`rlar o`rin olgan. «Samoviy mehmon, besh donishmand va farrosh kampir qissasi» nomli fantastik she`rida ham ona va mehr muammosining o`ziga xos talqiniga duch kelamiz.

Shoir she`rlarida uch oliyl tushunchaga ona nisbatini beradi: ona-vatan, ona she`riyat, ona sayyora.

«Onajon» she`ri shoirning mumtoz asarlaridan biri. Bu she`r volidayi muhtaramasi qarshisida ayni vaqtda elning buyuk san`atkori bo`lgan A.Oripovning ona haqidagi guhar tuyg`ulari talqinidan

tizilgan marjondir. Abdulla Oripov bu she`rida mehribon volidaning nurli qiyofasini yaratadi.

Ota – ulug' zot. Uni madh etuvchi she`rlar ham anchagina. «Tabiat» deb atalgan she`rida shunday misralar bor:

O`tgan kunlarimga boqib muntazir-
Sog'inchdan yonadi yongan bu jonim
Afsuski, yonimda emassiz hozir,
Donishmand ustozim - siz otajonim .
Endi men eslayman, ko`zlarimda nam
Hikmatli so`zlarning otash sehrini
Qo`msab talpinaman gohi-gohi dam
Donishmand otamning shafqat, mehrini
Shunday paytda o`zing aylagil shafqat
Ota bo`la qolgil, menga, tabiat.

Yoxud boshqa bir she`rida «Otalar ilgida zamon bilan vaqt» deb yozadi. «Qarshi qo`shig'i» she`rini otasiga bag'ishladi.

Qaysi bir shoir o`z vatani haqida she`r yozmaydi? Qaysi bir kitobxon Oybekning «Bir o`lkaki, tuprog'ida oltin gullaydi» deb boshlangan «O`zbekiston» she`rini qayta-qayta o`qimaydi deysiz? Biroq A.Oripov na Oybekni takrorlaydi, na Hamid Olimjonni va na Uyg'unni. Oybekda O`zbekistonning tarixiga tegishli voqealar qiyoslangan, H.Olimjonda go`zal o`lka bahor nafasiga yo`g`rilib romantik ohangda beriladi. Uyg'un Vatanining qudratiga urg'u beradi. A.Oripov esa «O`zbekiston» she`rida ustozlardan saboq olib, ularni takrorlamagan holda, vatani haqida jozibali she`r yaratadi.

U she`rda qariyib ming yillik tarixni mujassam etadi. Xalqi yaratgan ulug' siymolar taqdirini jamlaydi, «Deding, paxtam qoldi-ku axir, yig'ishtiray kelmasdan ayoz» deya, orom olishni bilmasdan sovuq dalada ter to`kayotgan yalangto`sh bobodehqon obrazini joylaydi. Shoir ulug'lar shajarasini Beruniydan boshlaydi:

Uxlar edi Kolumb ham hali
Dengiz ortin yoritdi ilk bor
Beruniyning aql mash`ali.
Osmon ilmi tug'ilgan ilk bor,

Ko`ragoniy jadvallarida» deya davom ettiradi shoir. Yoxud Navoiy dahosini shunday ta`riflaydi.

Temur tig'i olmagan joyni
Qalam bilan oldi Alisher.

Shular asosida shoir ulug' xalqqa ta'rif beradi.

U suhbatlaridan birida "Sevinchim-dardim Vatan» deyishi bejiz emas. Shoir «Yurtim shamoli», «O'zbekistonda kuz», «Qarshi qo'shig'i», «Kenglik nuqtasi», «Toshkent sha'niga», «Momo oftob», «Men nechun sevaman O'zbekistonni?» kabi o'nlab she'rlarida Ona-Vatanning zavol bilmas qiyofasini yaratadi.

O'zbekiston mustaqilligi munosabati bilan A.Oripov ijodida ona-yurt va Vatan mavzuining yangichi talqinlari, maydonga keldi. «Adolat oftobi», «Uyg'onish zamon», «Erk haqida» she'rlari ana shular jumlasidandir.

Shoirning dostonlari ham adabiyotimizda voqea bo'lgan asarlar sirasiga kiradi. Bu jihatdan «Jannatga yo'l», «Hakim va ajal» dostonlari xarakterli. «Jannatga yo'l» (1978) turg'unlik davri avj olgan pallalarda juda katta qiyinchiliklar bilan dunyo yuzini ko'rdi. Asar bosilib chiqqandan keyin ham malomat toshlari to'xtamadi. Shoir «sovet voqeligini» buzib ko'rsatishida ayblandi. Markazqo'mning, shaxsan uning 1-kotibining topshirig'iga muvofiq tuzilgan nufuzli komissiyaning xulosasigina asarga qarshi qaratilgan hujum poyini bir darajada qirqqandek bo'ladi. Aslida bugungi kun nuqtai nazaridan qaraydigan bo'lsak, diniy-mifologik, hayotiy-fantastik shakllardan foydalanib bitilgan ushbu dostonda chindan ham «sovet voqeligi buzib ko'rsatilganligi» ayon bo'ladi.

«Hakim va ajal» dostoni (1990) A.A.Ibn Sinoning 1000 yilligiga bag'ishlab yozilgan. Unda Hakim, Malika, Mirzo timsollari berilgan. Yomonlikka qarshi o't ochish qayta qurish yillarida yozilgan «Ranjkom» dostonining ham bosh g'oyasini tashkil etadi.

Yurtimiz mustaqillikka erishgandan so'ng 1995 yilda bitilgan «Sohibqiron» she'riy dramasi shoir ijodiga ham, adabiyotimiz rivojida ham o'ziga xos o'rinda turadi.

90-yillar avvalida vujudga kelgan imkoniyatlar, mustaqillik, dinga munosabatdagi hurfikrlilikning qaytishi, «Qur'on» va «Hadislar»ning e'lon qilinishi A.Oripovga ham ilhom buloqlari ko'zini ochdi. «Haj daftari», «Hikmat sadolari» turkumi diniy-falsafiy ruhdagi she'rlardan tarkib topgan. «Hikmat sadolari» 40 ta she'rdan tashkil topgan. A.Oripov 1992-yili haj safarida bo'ldi. Safar natijasi o'laroq «Haj daftari» turkum she'rlari maydonga keldi.

Abdulla Oripov she'riyati hayot bilan hamnafas, rostgo'y, xalqchil va kurashchan she'riyatdir. Shoir dolzarb g'oyalarni olg'a surishda, ko'pchilikni hayajonga soladigan katta fikrlarni, turfa

tuyg`ularni ifodalashda Qur`oni Karim va hadis Sharif ohanglaridan ham o`rinli foydalanadi. Shoirning «Haj daftari», «Hadis sadolari» she`riy to`plamlari buning dalilidir. Xususan, ellikta hadisona she`rida shoir diniy libosda namoyon bo`lgan ezgu tuyg`ularni, milliy qadriyatlarimizni ixlos bilan tasvirlab bergan.

Abdulla Oripov she`riyatida publitsistik va tanqidiy ruh kuchli. Shoir hayotni bo`yab-bezab, ko`klarga ko`tarib maqtab o`tirmaydi. U bor gapni boricha lo`nda va dangal qilib aytib qo`ya qoladi. Bu xususiyat shoirning mustaqillik haqidagi she`rlarida, ayniqsa, ochiq ko`rinadi. Abdulla Oripov O`zbekiston mustaqilligini dil-dildan qo`llab-quvvatlagani holda bu sohadagi guruhbozligu tarafkashlik, ish o`rniga gap sotish, bir-biriga tosh otish kabi nuqsonu illatlarni dangal ochib tashlaydi.

Abdulla Oripov she`riyatida hajviyot ham katta o`rin egallaydi. Shoirning «Tulki falsafasi», «Yozg`uvchilikka ariza», «Turg`unboy», «Temir odam», «E`tiqod» kabi she`rlarida, «Ranjkom», «Jannatga yo`l» dostonlarida hajviyot xususiyatlari yaqqol namoyon bo`lgan. Bu asarlarda adolatsizlik va qalloblik, ayyorlik va ko`zbo`yamachilik, xiyonat va vijdotsizlik, poraxo`rlik va yolg`onchilik, ikkiyuzlamachilik va tamagirlik singari illatlar turli shakllarda hajv ostiga olingan:

Abdulla Oripov ijodida mustaqillikni qutlash va ulug`lash uni ko`z qorachigiday asrash va mustahkamlashga chaqiriq bilan chambarchas bog`liq holda aks ettirildi. Shoir ozodlikni bebaho, buyuk ijtimoiy ne`mat sifatida ta`riflab, uning asl mohiyatini faxr va iftixor bilan ko`rsatib berdi. Uning «Oliy ne`mat» she`rida tasvirlanishicha, bir Xoja nogahon dardga yo`liqib, davo izlab yelib-yuguradi. Oxiri paymonasi to`lib, yorug¹ dunyodan umidini uzadi. Shu choq eshigida ishlab yurgan va tabiblikka daxli bor bir qul kirib, uni davolaydi. Xoja shifo topadi va qulga «qilgan xizmatining yo`qdir bahosi», «tila tilagingni», «sochayin boshingdan oltin va kumush», «istasang, mulkimning teng yarmin beray», deydi. Qul esa oltinning ham bahosi bor, agar mening xizmatim o`zingiz aytganingizdek, bebaho bo`lsa menga bebaho ne`mat bering, deydi. Shunday qilib, qul katta boylikka – oltinga ega bo`lishdan ko`ra, ozodlikni ustun qo`yadi va buni shoir mumtoz adabiyot an`analaridan ijodiy foydalangan holda mahorat bilan tasvirlab beradi.

Abdulla Oripov turli yillarda xilma-xil va biri-biridan sermazmun dostonlar ham yaratgan. Shoir dostonlarida ham, xuddi

she`rlarida bo`lganidek, hayot haqiqati ustalik bilan ochib berilgan. Shoir ularda asarda ko`tarilgan mavzuni tasvirlashda, xususan, hayotda uchrovchi illatlarni fosh etishda turli xil tasvir vositalaridan, shuningdek, ramziy obrazlardan va har xil majozlardan o`rinli foydalanadi. Fantastik sujet asosiga qurilgan «Jannatga yo`l» (1978) dramatik dostonida qiyomat va oxirat, jannat va do`zax, savob va gunoh singari ilohiy tushunchalar qalamga olinadi.

«Jannatga yo`l» dostonida Yigit, Ona, Ota, Do`st, O`spirin, Qariya singari hayotiy obrazlar bilan birga, Tarozibon, Farishta, Hur qiz, Yugurdak. Sado va boshqa ramziy timsollar yaratilgan. Ana shular vositasida muayyan hayot hodisalari asosida dostonning nazarda tutilgan mazmuni ochib berilgan. Shoir adolat va to`g`rilik, vijdon va iymonga doir qadriyatlarni, olijanob insoniy fazilatlarni targ`ib etishda diniy tushunchalardan ham, ramziy obrazlardan ham ustalik bilan foydalana olgan. Shoir ko`zlagan niyat asar oxirida berilgan quyidagi misralarda ochiq seziladi:

Bir rivoyat bahonayu,
doston so`yladim,
Turli-tuman taqdirlarni
O`ylab mujassam
Odamlarga ibrat bo`Isin,
deya o`yladim.

Abdulla Oripov «Jannatga yo`l» dramatik dostonida hozirgi hayotdagi illatlarni fosh etishda diniy-afsonaviy voqeaga murojaat etgan bo`lsa, «Hakim va ajal» dostoni g`oyasini ifodalashda uzoq o`tmish mavzusidan o`rinli foydalangan. Jahon tibbiyot ihning buyuk daholaridan biri Abu Ali ibn Sino haqida yozilgan bu dostonida umuman inson hayotiga taalluqli va abadiy dolzarb muammolar ko`tarilgan. Asarda hayot va inson, ilm va o`lim, olijanoblik va hasadgo`ylik haqidagi hikmatli fikrlar badiiy tarzda gavdalantirilgan.

Abdulla Oripovning «Hakim va ajal»dostoni syujetiga xalq orasida buyuk tabib Ibn Sino nomiga bag`ishlab yaratilgan bir necha rivoyat birlashtirib, ularning mazmuni singdirib yuborilgan. Shuning uchun u dostonchilikda sintezlashgan fol`klorizm ko`rinishi sifatida bo`y ko`rsatadi. Unda Ibn Sino haqidagi uch rivoyat mazmuni asos qilib olingan. Jumladan, «Ibn Sino va kitoblar» nomli xalq rivoyatida Buxoro shahri xonining betob bo`lib qolishi va uni Ibn Sinoning davolagani, buning evaziga kattagina kutubxonadan foydalanish huquqiga ega bo`lgani, kutubxonaning hasadgo`y tabiblar tomonidan

yoqib yuborilishi voqealari hikoya qilinadi.

A.Oripov mazkur rivoyatdagi ikkita jihatga e`tibor qaratgan: 1. Ibn Sinoning xonni davolashga Buxoroga kelishi. 2. Ibn Sino kutubxonasining hasadgo`ylar tomonidan yoqib yuborilishi. Shoir rivoyat materialini badiiy qayta ishlab, uni mazmun jihatdan boyitgan. Dostonda Ibn Sino malikani davolashga keladi. Malika esa uni tabib sifatida saroyda qoldiradi. Ibn Sinoga saroy kutubxonasidan foydalanish huquqi beriladi. Bu malikaga uylanish ilinjida yurgan vazirning o`g`li Mirzoga yoqmaydi. Malikaning kun sayin tabibga intilishini ko`rib, hasadi qo`zg`aydi va saroyning boy kutubxonasini yoqib yuboradi.

«Zahri qotil» nomli rivoyatda Ibn Sino Eron shohining tund, hech kim bilan gaplashmaydigan, hech narsa yemayotgan qizini davolashi haqidagi voqealar aks etgan. A.Oripov ana shu rivoyatdagi asosiy voqelik – taniqli hakimning injiq tabiatli malika ruhiyatini davolashi motividan ijodiy foydalangan. Ammo dostonda malika Eron shohining emas, Buxoro podshohining qizi sifatida tanishtiriladi. Shunday bo`lsa-da, dostonda voqealar, asosan, rivoyat syujeti yo`nalishiga muvofiq tasvirlangan. Unda malikaning hashamlar ichida o`tirishi-yu, hech kim bilan gaplashmasligi, hech narsaga hushi yo`qligi aytiladi. Faqat Ibn Sino tashrifidan so`ng malika ruhiyati va kayfiyatida o`zgarishlar paydo bo`ladi. Shoir rivoyatdagi mana shu jihatlarni dostonga olib kirgan. Ko`rinyaptiki, dostonda aniq bir rivoyat mazmuni ijodiy qayta ishlangan.

«Ibn Sino va giyohlar» nomli rivoyatda yonar gul va uning xususiyatlari haqida hikoya qilinadi. Unda Ibn Sinoning cho`ponni ilon zahri bilan davolashi, shu tufayli unga boshqa tabiblarning hasad qilishi va hakimni o`ldirishga chog`lanishi voqealari haqidagi rivoyat mazmuni doston mazmuni bilan birlashtirilgan. Dostondagi ijodiy qirralardan biri shunda kuzatiladiki, shoir rivoyatda cho`pon deb berilgan personajni Mirzo ismi bilan nomlagan va shu orqali voqelikka aniqlik kiritishni ko`zlagan. Shuningdek, yana bu farq personajlar xarakterida ham namoyon bo`ladi. Jumladan, rivoyatda cho`pon oqko`ngil bo`lsa, dostonda hasadgo`y va ichiqora qiyofada namoyon bo`ladi. Umuman, «xalq rivoyatlari va tarixiy voqealar asosida buyuk hakim va qomusiy alloma obrazini yaratish maqsad qilib qo`yilgan doston san`at asarlarining markazida turadigan azaliy mavzular – mangulik va o`limning mohiyati, ezgulik va hasadning azaliy kurashi muammosi badiiy yuksak, quyma satrlarda talqin

etilishi» natijasida adabiyotimizda dostonchilikni yanada badiiy takomilga erishtira oldi. A.Oripov bir necha xalq rivoyatlari syujeti va tarixiy manbalarga tayanib, ulardagi ma`lumotlarni o`z qarashlari, lirik kechinmalari bilan sintezlashtirgan holda yangicha uslubdagi yaxlit syujetli asar yaratishga muvaffaq bo`ldi. Abdulla Oripovning «Ranjkom» (1988) dostonida qayta qurishning asl ma`nosini, xususan, demokratiya va oshkoralikning tub mohiyatini anglamasdan, asossiz holda «yangi shirkatlar» tuzib, halol ishlab, halol yashayotgan insonlarni behuda ranjitib yurgan odam shaklidagi maxluqlar fosh etiladi. Uch nokas «Hasharot» jurnali tahririyati xonalaridan birida to`planib, yaxshilarga ozor berishni, ularni ranjitishni o`z oldiga asosiy maqsad qilib qo`ygan «Ranjkom» tashkilotini tuzadi. Shu «majlis»da bu uch shaxsdan biri deydi:

Shunday qilib, yangi shirkat tuzdik, o`rtoqlar.

Men raisman. Sizlar a`zo. Hozircha kammiz...

*Biz ta`naviy tashkilotmiz – «Ranjkom»miz
ya`ni,*

O`zgalarni ranjitmoqlik bizning ishimiz.

Doston voqeasi ana shu «Ranjkom»ning rais, birinchi a`zo, ikkinchi a`zo obrazlarining o`zaro suhbat va ularning farrosh ayoldan dakki yeb, sharmisor bo`lishi asosiga qurilgan.

«Ranjkom» dostonida haqiqiy hayot hodisasi jonli obrazlar asosida tasvirlangan. Hayotdagi illatlarni ochib tashlash asosida halol ishlab, beg`alva, pok yashash g`oyasi ifodalangan.

Mustaqillik davrida Amir Temur shaxsiga bag`ishlab juda ko`p asar yaratilishiga sabab – uning tarixiy xizmatlarini xolisona baholashga qaratilganligidir. Xalq shoiri, O`zbekiston Qahramoni Abdulla Oripovning 1995-yilda yozgan «Sohibqiron» she`riy dramasi shu yo`ldagi katta qadamdir. Abdulla Oripov asarlari chuqur hayotiyli, falsafiy teranligi, shoirona fikr-mushohadalarga boyligi bilan ibratlidir. Boshqa dramalardan farqli ravishda, «Sohibqiron» dramasi Amir Temurning realistlik obrazi yaratilib, uning mamlakat va xalq tarixida tutgan o`rni yorqin aks ettirilgan. Unda asosiy e`tibor jangu jadallarga qaratilgan emas, balki she`riy drama janriga xos xususiyatlar: dialog va monologlar orqali Temurning Hazrati inson haqidagi chuqur mushohadalari, fikrlari, o`y-xayollari, davlat boshqaruvi, insonparvarligi hamda g`azabu mehri aks ettirilgan. U insonlarni qadrlagan. Uning mehr-oqibati ham, g`azabi ham ulkan bo`lgan. Temur har qanday sharoitda ham yaxshi, mehnatsevar, halol

insonlarni qadrlay olgan. Boyazid bilan boʻlgan jangda sultonning qoʻlga tushganligi xushxabarini olib kelgan sodiq yasovuli Qosimni oʻz nabirasini nikohlab berishini aytib, mukofotlagan. Qosimning otasi ham Amir Temurga xizmat qilgan, sarboz boʻlgan. Dehlida boʻlgan jangda shahid ketgan. Asardagi epizodlar orqali mulohazalarimizni asoslashga harakat qilamiz.

Temur:

Bizning uchun gʻoyat qutlugʻ mujda keltirding,
Oʻgʻlim, seni siylagayman bu mujda uchun,
Inshoolloh, Samarqandga qaytib borgan chogʻ
Nikohingga berajakman bir nabiramni.

Sohibqiron yurtni sotgan, xoin insonlarni qattiq jazolagan. Uning umri, asosan, jangu jadallarda oʻtgan. U oʻzi istamasa-da, bu urushlarda minglab begunoh odamlarning qoni toʻkilgan. Zero, Sohibqiron yashagan davrda tarixiy sharoit shuni taqozo etganligi rost. Bu oʻsha davrning barcha hukmdorlari qatori Amir Temurga ham xos edi. Sohibqiron vaziri Muhammad Qovchinning:

Balki Boyazid
Tavba qilib oʻtirgandir, jurʻati soʻnib.
Koʻz oldiga kelar balki, minglab kalladan,
Yasalajak minoralar, seldek oqqan qon...

deb aytgani uchun gʻazablanadi va uni «irodasiz arbob», «bu karvonda adashgan tuya» deb ataydi. Shu tarzda Muhammad Qovchinni lavozimidan tushiradi va uni otboqarlikka, janggohlarda uzilgan kallalarni terib yurishga buyuradi. Shu tarixiy jarayonlar tasviriga A.Oripov xolisona yondashadi va buni Amir Temur oʻz soʻzlari orqali ifoda etadi:

Temur:

Men hazrat emas,
Men ham Temur deb atalmish oddiy bir banda...
Boz ustiga fohit deya nom olgan Zotman
Odam qavmi oʻz qismatin sahrolarida
Tashnalikdan labi qaqrab tentiragan chogʻ,
Qultum suvdek kerak boʻldim shekilli unga.
Cheksiz choʻlda Insoniyat karvoni tarqab
Bir-birlarin tepib,
Surib gʻujgʻon boʻlgan payt.
Men ularni ipga tizdim bir sarbon boʻlib.
Koʻhna tarix oldidagi xizmatim shuldir.

Yuqoridagi misralarda Sohibqironning millat va Vatan ravnaqi yo`lidagi fidoyiligi, uning umumbashar oldidagi xizmati va qator insoniy fazilatlari ochib berilgan. Ushbu sahna tasvirlari orqali kitobxon ko`z o`ngida xalqimizning shonli tarixi jonlantirilgan.

Drama Amir Temur hayoti va faoliyatining deyarli barcha tomonlarini qamrab olganligi bilan ajralib turadi. Tasvirga olib kirilgan voqealar va obrazlar ko`lami nihoyatda rang-barang bo`lishiga qaramasdan, ularning barchasi Sohibqiron xarakteridagi fazilatlarni ochib berishga yo`naltirilgan. Xususan, sartarosh bilan bo`lgan suhbat, vaziru a`yonlariga munosabati, Sirdaryo bo`ylaridagi mo`g`ullarga qarshi olib borgan kurashi, Bibixonim, Mir Sayyid Baraka, Kayxusrav, Shayxulislom, Amir Husayn, Anqara jangida qo`lga olingan Boyazid, Hofiz Sheroziy, O`rusiya, Ispaniya, Xitoy elchilari bilan bo`lgan munosabatlarda insoniylik va sarkardalik xususiyatlari yorqin namoyon bo`ladi.

Binobarin, shoir Temur shaxsini ochib berishda badiiy to`qimadan ham samarali foydalangan. Dramadagi sartaroshning Amir Temurning soch-soqolini olish sahnasidagi suhbatdan uning ham oddiy bir inson ekanligi, hamisha bir dildosh, sirdoshga muhtoj bo`lganligini anglash qiyin emas. Shu jihatdan u sartaroshga dilidagi gaplarni aytishga chog`lanadi:

Har qadamda bilintirmay og`u sochguvchi
Mansabparast, g`ayur, battol, o`g`ri, firibgar,
Xushomadgo`y kimsalarni mahram sanaymi?
Yo ularga yaltoqlanib,
Tabassum aylab,
Ko`ngullarin ovlash uchun muqom qilaymi?
Men ularning yuragida ne kechishini
Oyinaga boqqan kabi ko`rib turaman.
Odamlarning badnafs,
Yuho og`izlariga
Tizgin solib,
Qamchin bilan titratmoq darkor.

Amir Temur atrofidagi «mansabparast, g`ayur, battol, o`g`ri, firibgar» insonlar borligidan afsus chekadi. Ularga qarshi «tizgin solib», «qamchin bilan» kurashishi kerakligini aytadi. Bundan ulug` sarkardaning «Kuch adolatdadir» degan hayotiy shiori asl ma`rifiy manbalarini aniqlash mumkin bo`ladi.

Asarning yana bir muhim xususiyati shundaki, unda Amir Temur

jangu jadallar ichida tasvirlanmaydi, urush sahnalari deyarli uchramaydi. Faqatgina shoir uning sulton Boyazid bilan bo`lgan jangi haqidagi qisqacha tafsilotini berish bilan cheklanadi hamda asarning oxirgi qismida Xitoyga yurish taraddudlari haqida gap boradi, xolos. Shoir voqealarning tashqi belgilaridan ko`ra, ularning ichki mazmuniga urg`u beradi. Uni, asosan, Temurning orzu-o`ylari, fikr va kechinmalari, falsafiy mushohadalari band etadi. Demak, istiqlol yillari dramaturgiyasida tarixiy-biografik metod qoliplaridan qochib, tarixiy shaxs siymosini falsafiy-psixologik aspektda badiiy idrok etishga urinish harakati «Sohibqiron»dagi tasvir yo`sinini tasdiqlab turadi.

Ma`lumki, ulug` Sohibqiron Temur hokimiyat tepasiga kelganidan so`ng, mo`g`ul istilosini butkul bartaraf etishga kirishadi. Movorounnahr-u Xurosonda markazlashgan davlat tuzadi, bu hududda savdo-sotiq, iqtisod, dehqonchilik shuningdek me`morchilik, adabiyot, san`at taraqqiy topa boshlaydi. Aynan shu davrda turkiy tilning ham qadr-qimmatini oshadi. Dramada Sohibqironning bunyodkorlik, yaratuvchanlik faoliyati, insoniy fazilatlari, mamlakat va xalq oldidagi buyuk xizmatlari ochib berishga alohida e`tibor qaratilgan. Shu jihatdan, Amir Temur – mohir sarkarda, adolatli hukmdor, insoniy qadriyatlarni ulug`lovchi davlat rahbari, shu bilan birga mehribon ota sifatida ko`z o`ngimizda namoyon bo`ladi. Uning ona yurtiga bo`lgan mehri beqiyos, Turon ko`rki, Turkiston kelajagi ulkan siymoga kuch bag`ishlab turadi. U har bir vatanparvar inson singari o`z vatani, ona tuprog`idan madad oladi va shu yurt farzandi ekanligidan g`ururlanadi:

Men musulmon amiriman!

Nasabim turkiy!

Adolat va dini Islom posbonidirman...

Biz kim, mulki Turon,

Amiri Turkistonmiz.

Bizkim millatlarning

Eng qadimi va eng ulug`i

Turkning bosh bo`g`inimiz!

Bu so`zlar nafaqat Sohibqiron Amir Temurning qalbidan otilgan tuyg`ular, balki u mansub millatning hayotdagi shiori bo`lib yangraydi. Ulug` sarkardaning turkiy nasab ekanligidan faxrlanish tuyg`usi, adolat va haq yo`lidagi ezgu intilishlari turkiy xalqlarni yanada yakdil va hamfikr bo`lishga chorlaydi. Amir Temur umri

davomida qilgan ishlaridan g`ururlanib, o`z hayoti va faoliyatidan qanoat hosil qilsa-da, lekin baribir qilgan ishlarining, olib borgan siyosatining qay darajada to`g`riligini bilishga hamisha qiziqqan, o`zini taftish qilib turgan. Dramada ot surib, qilich tortib, qariyb dunyoning yarmini zabt etgan va ulug` saltanatni tiklagan jahongirning o`yga tolgan, yashash mazmunini chuqur anglaganligi falsafiy satriklarda kitobxonga yetkazilgan. Buni Sohibqironning Ahmad Yassaviy bilan tushda xayolan suhbat qurish voqealari asoslab turadi. Amir Temur Ahmad Yassaviyga yuksak ehtirom bilan qaragan. Tarixdan ma`lumki, Xoja Ahmad Yassaviy hayotligida va vafotidan keyin ham ko`plab hukmdorlar hurmatiga sazovor bo`lgan. Sohibqironning Ahmad Yassaviy shaxsi va tariqatiga qiziqishi esa Turkistonda unga atab maqbara qurdirishidan ancha oldin paydo bo`lgan.

Alisher Navoiy «Nasoyim ul-muhabbat» asarida keltirishicha, Amir Temur Turkiston mashoyixi va Ahmad Yassaviyning Ismoil otaning yaqin avlodi bo`lmish Xo`ja Boyazidning suhbatiga keladi va undan sodir bo`lgan bir karomatning guvohi bo`lgach, unga murid bo`ladi. Shayxga xonaqoh qurib berib, ko`plab nazru niyozlar qiladi .

Amir Temurning Ahmad Yassaviy va uning izdoshlariga ham hurmati baland bo`lgan, ularning mozorlari ustiga maqbaralar bino qilgan. Bu haqda adabiyotshunos Nodirxon Hasan «Ahmad Yassaviy va Amir Temur» nomli maqolasida bu haqda batafsil ma`lumot beriladi.

Demak, Amir Temurning ulug` mutasavvufga ixlos qo`yishi bejiz emas. U o`zining «Temur tuzuklari»da davlat asosini tashkil etuvchi o`n ikki ijtimoiy toifa ichida fozil, donishmand, xudojo`y kishilar va so`fiylarni alohida hurmat bilan tilga oladi. Avliyolar va din peshvolarining mozorlarini tuzatish haqida gapirib, sayyidlar, ulamo, mashoyix va fuzalolarni aziz tutish, ularning ziyoratgohlarini qurish va ta`mirlash uchun vaqfdan mablag` ajratishni tayinlaydi. Dramadagi eng ta`sirchan voqelik tasviri aynan shu bilan bog`liq. Ya`ni Sohibqiron Xizrga duch kelganida, undan Ahmad Yassaviy bilan uchrashtirishini so`raydi. Tarixning guvohlik berishicha, Amir Temur vafotidan oldin ikki dunyo sarvari Ahmad Yassaviy qabriga kelib tilovat qiladi, xayolan u bilan uchrashib ajr so`raydi. Bu suhbat Amir Temur aql-zakovatining yuksakligini, o`z faoliyatida har doim Islomning axloqiy mezonlariga tayanib ish ko`rganligini tasdiqlab turadi:

Temur:

Tinsiz jangu jadal bilan o`tdi hayotim
Balki qancha umrlarga zomin bo`lganman.
Oxiratda etagimdan tutmasmi ular?

Yassaviy:

Ollohimning xohishiga muvofiq kelsa
Ikki dunyo savob erur har qandayin ish.
Ayt-chi Temur, sen besabab qon to`kkanmisan?

Temur:

Adolat va dini Islom himoyasi deb,
Yer yuzini fath ayladim, tartib o`rnatdim.

Yassaviy ruhi bilan qilgan ushbu ziddiyatli suhbatda Amir Temurning yana bir fazilati namoyon bo`ladi. Uning qo`liga qurol olishdan maqsadi adolat o`rnatishga qaratilgan. Ulug` mutasavvuf Amir Temurga «besabab qon to`kkanmisan» deya so`roqqa tutar ekan, u «adolat va dini Islom himoyasi» uchun kurashganini aytadi. Zero, bu yo`lda qon to`kilishi tabiiy edi. Abdulla Oripov shu jihatdan ham ulug` sarkardaning o`zini doim nazorat qilib turganligini, o`z qarashlari, e`tiqodiga sodiqligini ko`rsatib beradi:

Temur:

Men onamdan shamshir bilan tug`ilmagandim
Kesh shahrining sarhadida,
Voha bag`rida
Xo`ja Ilg`or degan joy bor.
Ko`kka boqib,
Adirlarda yurardim shodon,
Bahor chog`i sel toshqini, turfa chechaklar
Xo`p g`aroyib tuyg`ularni tuhfa etardi
Yulduzlarga boqib goho baytlar bitardim.
Shoir ahli g`azallarini qog`ozga yozsa,
Men she`rimni o`chmas qilib qog`ozga yozdim.
Bu bitikning mazmuni shul
«Kuch – adolatda!»
Yosh boshimdan qismat menga qilich tutqazdi.

Bu monologni ulug` sarkardaning biografiyasi sifatida qabul qilish mumkin. Ma`lumki, taniqli yozuvchi Muhammad Ali «Ulug` saltanat» romanida tarixiy davr manzaralarini tasvirlashda, tarixiy shaxslar obrazlarini yaratishda Amir Temur davrida yaratilgan «Temur tuzuklari», Sharafiddin Ali Yazdiyning «Zafarnoma» va

boshqa tarixiy, badiiy manbalardan ustalik bilan foydalangan. Bundan tashqari u Temur qadamjolarini borib ko`rgan. Amir Temur bilan bog`liq tarixiy yodgorliklavr saqlanayotgan muzeylarda bo`lgan. Xususan, Amir Temur qo`liga taqib yuradigan sirli «Rosti rusti» uzugini ko`rish uchun Amerikaning N`yu-york shahridagi «Metropoliten» muzeyining «Islom bo`limi»ga borgan.A.Oripov ham «Shoir ahli g`azallarini qog`ozga yozsa, Men she`rimni o`chmas qilib qog`ozga yozdim» satrlarida shu tarixiy voqelikka ishora qilgan.

Adabiyotshunos H.Karimov drama haqida fikr yuritar ekan, yozadi: «Dramada ko`proq monolog yetakchilik qiladi. Bu asar jozibasini, tomoshabinlarning diqqatini jalb qilishni susaytirgan. Ma`lumki, drama bu harakat janridir. Zero, shunday bo`lgach, qahramonlarni, xususan, Temurning xarakteri, tabiati dialogda, tashqi odam va odamlarga bo`lgan munosabatda, voqealar olamida ochib berilganda, birinchidan, asarning jozibasi ortardi, ikkinchidan, qahramonning qanday shaxs bo`lganligi yanada yorqinroq bo`y ko`rsatardi. Shuningdek, ichki tuyg`ularga e`tibor qaratilmaganligi hamda dramatik davrda dramatik holatlarning deyarli ko`zga tashlanmasligi ham kechirarli hol emas». Aslida, asardagi monologlar lirizmni kuchaytirishga, Amir Temurning insoniy dunyosini, qalb kechinmalarini ifodalashda badiiy vosita bo`lib xizmat qilgan. Qolaversa, monolog she`riy dramaning spetsifik xususiyatini ham belgilab beradi. Shu ma`noda H.Karimov fikrlariga qo`shilib bo`lmaydi. Aynan shu monologlarda ichki tuyg`ular ochib berilgan.

Dramadagi falsafiy talqinlarga boy tasvirlar orqali Sohibqiron xarakteridagi insonparvarlik va chin xaloskorlik, Islom diniga sadoqat va yuksak ma`naviyat singari fazilatlar badiiy ifoda etilgan. She`riy dramaning badiiy tili ham jozibali. Binobarin, asar so`ngida Xitoyga yurish qilishdan oldin, Amir Temur qo`shiniga kuch berish, ularni ruhlantirish maqsadida lashkarlari ko`z o`ngida sartaroshni chaqirtiradi va izg`irin sovuq bo`lishiga qaramasdan, sochini oldiradi. Shu o`rinda shoir shohlarni sartaroshga o`xshatadi:

Temur:

Seni ko`rsam, goho-goho o`ylab deymanki,
Sartaroshga o`xshab ketar shohlar ham asli.
Ular faqat qirtishlaydi dumaloq yerni.

Sartarosh:

A`lohazrat, Siz ortiqcha mo`ylarin qirib
Go`zal husn baxsh etdingiz yer degan boshga.

Xullas, asar Temur hayotiga yakun yasalishi bilan tugaydi. U anglaydiki, adolat uchun olib borgan jangu jadallarning barchasi ham adolatlilik bo'lmagan. Bu jihatdan Abdulla Oripov dramasi ma'lum darajada fojaviy yo'nalish kasb etadi. Shu ma'noda sarkarda qismati fojeydir. Shoir talqinida bu hol ham tarixiy haqiqatdir. Drama boshlanish qismida asar qahramoni haqida ma'lumot beriladi. Bu ekspozitsiya ham katta ahamiyatga ega bo'lib, o'zida asar g'oyasini singdirib yuborgan.

Ne baxtkim, tuqqan yurt bo'lganda ozod,
Muborak Vatanga qaytib kelmishsiz,
Quloq tutgaymi, deb noahil avlod,
Tashakkur, bizlarni ko'zga ilmishsiz.

Buyuklar xalqning ko'zini ochadi, daholar ularni birlashtiradi. So'zsiz, Amir Temur ham shunga munosib shaxsdir. Dramaning bosh g'oyasi – ulug' sarkarda shaxsiga xolis baho berish, insoniy fazilatlarini ochib berishdan iborat. Asarning yutug'i ham shundaki, kitobxon ko'z o'ngida Amir Temur xalq va mamlakat birligi uchun kurashgan, adolatni bosh shior bilib, o'z yurtida ulkan bunyodkorlik ishlarini amalga oshirgan buyuk davlat arbobi sifatida namoyon bo'ladi. U doimo g'olib, kerak bo'lganda qattiqqo'l, o'z o'rnini bilan yumshoqtabiat shaxs. Amir Temur ayollarni juda qadrlaydigan, adolat yo'lida har qanday jangu jadallardan qaytmaydigan va, eng asosiysi, o'z e'tiqodi va tutgan yo'lga sodiq qoladigan betakror xalq yo'l boshchisi hamdir. Shuning uchun bo'lsa kerak, Abdulla Oripov: «Sohibqiron» she'riy dramasi o'tmishga boqib, bugun uchun yozganman», – deydi. Asar so'ngida Sohibqironning nabiralari Mirzo Ulug'bek va Pirmuhammadni yoniga chaqirib, nasihat qiladi, Bibixonimga bo'lgan yuksak ishonchini izhor etadi. Binobarin, mustaqil O'zbekistonimiz o'z oldiga ozod va obod Vatan qurishni, erkin fuqarolik jamiyatini barpo etishni maqsad qilgan ekan, ushbu so'zlar yillar davomida jaranglaydi. Eng muhimi, dramada tarixiy voqelik Amir Temurning «Temur tuzuklari», Ibn Arabshohning «Amir Temur tarixi», Sharafiddin Ali Yazdiyning «Zafarnoma» singari tarixiy-badiiy manbalarga tayanib badiiy sintez qilingan. Shunday qilib, Abdulla Oripov asarlari chuqur hayotiyli, falsafiy teranligi, jozibadorligi, shoirona fikr-mushohadalarga boyligi bilan ibratlidir. Shoir she'rlari va dostonlari til va badiiy mahorat jihatidan ham namunalidir. Shoir asarlarining tili boy, ixcham, serjilo va ravon. Ular mavhumlikdan, noaniqlikdan, yaltiroqlik va «qizil

soʻz»likdan xoli boʻlib. jonli xalq tili boyliklari, hikmatlar bilan bezalgan. Binobarin, xalqona soddalik va chuqur mazmundorlik Abdulla Oripov sheʼriyatining asosiy xususiyatini tashkil etadi.

Abdulla Oripov oʻz asarlarining badiiy mukammalligini taʼminlashda qofiya vazn imkoniyatlaridan mohirona foydalanadi. Barmoq, aruz va sarbast vaznlarida yetuk asarlar yozib, rang-barang sheʼriy ohanglar yuzaga keltiradi.

Abdulla Oripov – mohir tarjimon. U Pushkin, Shevchenko, Nizomiy Ganjaviy, Qaysin Quliyev singari shoirlarning bir qancha sheʼrlarini yuqori saviyada tarjima qilgan. Ayniqsa, Dantening mashhur «Ilohiy komediya» asarini oʻzbek tiliga oʻgirib, xayrli ishni muvaffaqiyat bilan bajargan. Abdulla Oripov – buyuk shoir. Uning asarlari xalqimizning milliy boyligidir.

A.Oripov XX asr oʻzbek adabiyoti, qolaversa, uzoq asrlik oʻzbek adabiyoti tarixida munosib oʻrin egallaydi. Uning adabiyotimiz va madaniyatimiz rivojidadagi xizmatlari hukumatimiz tomonidan munosib taqdirlangan. U1990-yili «Oʻzbekiston Xalq shoiri», 1998-yili esa «Oʻzbekiston Qahramoni» unvonlariga sazovor boʻlgan.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. A.Oripov ijodi haqida yaratilgan qanday tadqiqotlarni bilasiz?
2. A.Oripovni shoir qilib yetishtirgan muhit haqida nima deya olasiz?
3. A.Oripovning ilk sheʼri qaysi va u qachon qayerda chop etildi?
4. Shoir sheʼriyatiga xos xususiyatlar nimalardan iborat?
5. Shoir lirikasining asosiy mavzulari qaysilar?
6. Onaning nurli qiyofasi aks etgan qanday sheʼrlarni bilasiz?
7. «Ayol» sheʼri atrofidagi bahslar haqida nimalar bilasiz?
8. «Tilla baliqcha» sheʼri xususida matbuotda qanday fikrlar aytildi?
9. Shoir ijodida mavjud zamonasoz sheʼrlarni qanday izohlaysiz?
10. A.Oripovning dostonchilikdagi mahorati xususida soʻzlab bering.
11. «Sohibqiron» sheʼriy dramasi mazmun-mundarijasi nimalardan iborat? Amir Temur obrazi yaratilgan boshqa asarlardan farqli va mushtarak jihatlari xususida soʻzlab bering.
12. Shoir sheʼriyatida diniy-falsafiy motivlarning paydo boʻlishi haqida nima deya olasiz?

13. Shoirning tarjima asarlari xususida so`zlab bering.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Каримов И. Адабиётга эътибор – маънавиятга, келажакка эътибор. –Т.: Ўзбекистон, 2009.
2. Мирзиёев Ш. М. Буюк келажакимизни мард ва олийжаноб халқимиз билан бирга қураимиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017.
3. Алиев А. Истиқлол ва адабий мерос. – Т.: O`zbekiston, 1997.
4. Каримов Н., Мамажонов С., Назаров Б., Норматов У., Шарафиддинов О. XX аср ўзбек адабиёти тарихи. Олий ўқув юртлари учун дарслик. –Т.: Ўқитувчи, 1999.
5. Санжар Содик. Янги ўзбек адабиёти тарихи. Дарслик. –Т.: Университет, 2005.

Abdulla Oripov asarlari:

6. Орипов А. Йиллар армони. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1987.
7. Орипов А. Ишонч кўприклари. – Т.: Ғ. Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1988.
8. Орипов А. Ҳаж дафтари. – Т.: Ғ. Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1992.
9. Орипов А. Танланган асарлар. Тўрт жилдлик. 1-4-жилдлар. –Т.: Ғ. Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2001.

Abdulla Oripovga bag`ishlangan tadqiqotlar:

10. Норматов У. Ижод эстафетаси ишончли кўлларда. Китобда: Адабиётимизнинг ярим асри. – Т.: Ўзбекистон Давлат нашриёти, 1967.
11. Шарафиддинов О. Адабий етюдлар. – Т.: Ўзбекистон Давлат нашриёти, 1968.
12. Шарафиддинов О. Талант – халқ мулки. – Т.: Ёш гвардия, 1979.
13. Шарафиддинов О. Шеърят – қалб ёлқини. Китобда: Ҳаёт билан ҳамнафас. –Т.: Ёш гвардия”, 1983.
14. Қўшжонов М. Онажоним шеърят. – Т.: Ўқитувчи, 1984.
14. Ғафуров И. Шеърят – курашчанлик демак. –Т.: Ғ. Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1984.
15. Воҳидов Р., Ҳошимова М. Шеърят – шоир қалби. – Т.:

Фан, 1987.

16. Ҳаққулов И. Абадият фарзандлари. – Т.: Ёш гвардия, 1990.

17. Афоқова Н. А. Орипов шеърлятида бадий санъатлар. – Т.: Ёзувчи, 1994.

18. Афоқова Н. Шеър, ҳадис, ҳикмат. – Т.: Ёзувчи, 1994.

19. Қўшжонов М., Сувон Мели. Абдулла Орипов. –Т.: Маънавият, 2000.

20. Ганиев И., Афоқова Н. Озод рух фалсафаси. –Т.: Фан, 2005.

21. Раҳимжонов Н. Мустақиллик даври ўзбек шеърляти. –Т.: Фан, 2007.

22. Мирпўлат Мирзо. Сен мисли камалак – юксак ва ўлмас... А. Орипов билан суҳбат// Жаҳон адабиёти, 2011, №3.

20. Норматов У. Ватаннинг оташин куйчиси// Ўзбекситон Адабиёти ва санъати, 2011 йил, 25 март.

21. Раҳимжонов Н. Истиқлол ва бугунги адабиёт. –Т.: Ўқитувчи, 2012.

22. Жабборов Н. Замон. Мезон. Шеърлят. –Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2015.

23. Қувватова Д. XX асрнинг иккинчи ярми ўзбек дostonчилигининг тараққиёт хусусиятлари. ДД. – Т., 2016.

Internet saytlari:

24. www.alishernavoiiy.uz

25. www.ziyo-net.uz

26. www.literature.uz

27. www.kutubxona.uz.

MUNDARIJA

SO`Z BOSHI	3
Mavzu: Kirish. Yangi o`zbek adabiyoti fani, fanning maqsad va vazifalari.	4
Mavzu: Ma`rifatchilik va jadid adabiyoti. O`zbek adabiyotida realizm bosqichi.....	14
Mavzu: 20-50-yillar adabiyoti	29
Mavzu: Abdulla Qodiriy hayoti va ijodi.....	35
Mavzu: Sadriddin Ayniy va o`zbek nasri taraqqiyoti.....	46
Mavzu: Abdulhamid Sulaymon o`g`li Cho`lpon hayoti va ijodi.....	70
Mavzu: Oybek romanlari.....	98
Mavzu: Abdulla Qahhorning hikoyanavislik mahorati	114
Mavzu: G`. G`ulom hayoti va ijodi	123
Mavzu: Hamid Olimjon ijodi.....	132
Mavzu: Mirtemir hayoti va ijodi.....	143
Mavzu: Zulfiya hayoti va ijodi	153
Mavzu: Asqad Muxtorning hayoti va ijodi.....	167
Mavzu: Odil Yoqubovning hayoti va ijodi.....	177
Mavzu: Pirimqul Qodirov nasri	186
Mavzu: Erkin Vohidov poeziyasi	212
Mavzu: Abdulla Oripov she`riyati va dostonlari	232

Dilrabo QUVVATOVA, Nafosat O`ROQOVA

YANGI O`ZBEK ADABIYOTI

Oliy o`quv yurtlarining filologiya fakultetlari talabalari uchun

O`QUV QO`LLANMA

<i>Muharrir:</i>	<i>A. Qalandarov</i>
<i>Texnik muharrir:</i>	<i>G. Samiyeva</i>
<i>Musahhih:</i>	<i>Sh. Qahhorov</i>
<i>Sahifalovchi:</i>	<i>M. Ortiqova</i>

Nashriyot litsenziyasi AI № 178. 08.12.2010. Original-maketdan bosishga ruxsat etildi: 01.02.2022. Bichimi 60x84. Kegli 16 shponli. «Times New Roman» garn. Ofset bosma usulida bosildi. Ofset bosma qog`ozi. Bosma tobog`i 16,0. Adadi 100. Buyurtma №35.

“Sadridin Salim Buxoriy” MCHJ
“Durdona” nashriyoti: Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko`chasi, 11-uy.
Bahosi kelishilgan narxda.

“Sadridin Salim Buxoriy” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko`chasi, 11-uy. Tel.: 0(365) 221-26-45